O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

AKBAROV SOXODILLA YULDASHBOYEVICH

RIVOJLANISH PSIXOLOGIYASI VA PEDAGOGIK PSIXOLOGIYA

O’QUV QO’LLANMA

5110900 –Pedagogika va psixologiya ta`lim yo’nalishi uchun

RIVOJLANISH PSIXOLOGIYASI VA PEDAGOGIK PSIXOLOGIYA.

AKBAROV SOXODILLA YULDASHBOYEVICH

ANNOTATSIYA

O’quv qo’llanma Oliy va o’rta maxsus, kasb-hunar ta`limi yo’nalishlari bo’yicha O’quv uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2018 yil 25.08.dagi 4-sonli bayonnomasi bilan ma`qullangan fan dasturida belgilangan 1va 2-moduldagi mavzularni qamrab olgan holda tayyorlangan.

O’quv qo’llanmaning birinchi bo’limida “Rivojlanish psixologiyasi va pedagogik psixologiya” fanining vujudga kelish shart-sharoitlari, predmeti, vazifalari, tamoyillari va ilmiy-tadqiqot metodlari tasnifi yoritib berilgan. Shuningdek IX asr oxiri va XX asr boshlarida rivojlanish muammosiga oid qarashlar, bolaning ruhiy taraqqiyotiga doir ilmiy yondashuvlar va nazariyalar tahlili, rus psixologlarining psixik taraqqiyotga ta`sir etuvchi omillar va uni harakatga keltiruvchi kuchlar haqidagi fikrlari aks etadi.

O’quv qo’llanmaning ikkinchi bo’limida har bir yosh davrida yuz beradigan ruhiy taraqqiyotning kechish sur`atlari, o’ziga xos xususiyatlari, jismoniy, psixik va ijtimoiy jihatdan rivojlanish qonuniyatlari, ruhiy taraqqiyot va ta`limning o’zaro uyg’unligi masalasi, bolaning shaxs sifatida kamol topishi, yosh davrlarini tasniflash nazariyalari haqidagi ma`lumotlarga keng o’rin berilgan.

Oquv qo’llanma oliy o’quv yurtlarining 5110900 - pedagogika va psixologiya bakalavriat ta’lim yo’nalishi talabalari uchun tavsiya etiladi.

Taqrizchilar: “Oila” ilmiy-amaliy tadqiqot markazi Namangan viloyat boshqarmasi boshlig’i, psixologiya fanlari nomzodi, dotsent M.A.Maxsudova

Namangan davlat universisteti dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi, M.S.Nishanov

Kirish

Mamlakatimizda mustaqillik yiillarida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibot, jamiyatda qonun ustuvorligi, inson huquq va erkinliklari, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muxitini ta`minlash uchun muhim poydevor bo'ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarni bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan yoshlarga beriladigan ta`lim va tarbiyaning sifatini oshirish, turli sohalarga kadrlar tayyorlash masalasiga ham katta e`tibor qaratildi: "...Oldimizda yoshlarga tarbiya berish, psixologiya va boshqa turli sohalarda kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash bo'yicha murakkab vazifalar turibdi. Yana bir muammoni hal etish muhim hisoblanadi: bu – pedagoglar va professor-o'qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir. Bu borada ta'lim olish, ma'naviy-ma'rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonlariga faol ko'mak beradigan muhitni yaratish zarur.."[1] ekanligi alohida ta'kidlab o'tildi.

Haqiqatan ham, mamlakatimizda izchillik bilan amalga oshirilayotgan o'zgarishlar va yangilanishlar, eng avvalo, odamlarni o'ylantirayotgan dolzarb masalalarning oqilona yechimini topib xalqimizning o'z turmushidan mamnun bo'lib yashashi uchun barcha sharoitlarni yaratishga, "Inson manfaatlari hamma narsadan ustun" degan olijanob g'oyaning hayot bilan hamnafas ekanligini ta`minlashga xizmat qilmoqda. 2017 yilning, 7 fevral sanasida mamlakatimiz Prezidentining O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi.

Mustaqillik solnomasidagi har bir o'tayotgan yil mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma`rifiy hayotida o'ziga xos iz qoldiradi. 2019 yilni "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili" deb e`lon qilinishi xalqimizning ezgu orzu-umidlarining ro'yobga chiqishi sifatida baholanmoqda.

---

[1] Мирзиёев Ш. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Т. "Ўзбекистон", 2017 й. – 45-б.

“Rivojlanish psixologiyasi va pedagogik psixologiya” o’quv qo’llanmasi yosh davrlari, pedagogik psixologiya fanlari negizida tayyorlangan bo’lib, bolaning kamol topishi, ruhiy taraqqiyotini o’rganishga doir ilmiy nazariyalar, bolaning shaxs sifatida ulg’ayib borish shart-sharoitlari tahlilini o’z ichiga oladi.

O’quv qo’llanmaning dastlabki boblarida yosh psixologiyasining vujudga kelish tarixi, uning fan sifatida shakllanishi, tamoyillari, bolaning psixik taraqqiyoti, yosh psixologiyasi fanining nazariy va amaliy vazifalari har tomonlama yoritilgan, so’ngra fanning ilmiy-tadqiqot metodlari tavsifi berilgan.

Keyingi boblar psixik rivojlanishni har-hil nuqtai-nazardan o’rgangan turli oqimlar va yo’nalishlarga bag’ishlangan bo’lib, psixoanaliz asoschisi Z.Freyd, bixeviorizm yo’nalishining yirik vakili Djon Uotsonning qarashlari, Eriksonning shaxs rivojlanishining psixoijtimoiy nazariyasi, bolaning psixik taraqqiyotini ijtimoiy muxit va undagi shart-sharoitlar belgilashini aks ettiruvchi nazariyalar, bolaning intellektual rivojlanishini tadqiq etgan Jan Piaje g’oyalari tahlil etilgan.

Shuningdek, qollanmadan ruhiy taraqqiyot va ta`lim sohasini o’rganish bo’yicha ma`lumotlar, ta`lim va tarbiya xususida sharq mutafakkirlarining fikrlari, ruhiy taraqqiyotga ta`sir etuvchi omillar va yosh davrlarini tasniflashga oid nazariyalar, yosh davrlarining qisqacha tavsifi o’rin olgan.

“Rivojlanish psixologiyasi” o’quv qo’llanmasidagi ilmiy-nazariy ma`lumotlar rasmlar, chizmalar, lavhalar va tasvirli ilovalar orqali yanada boyitilgan, tayanch iboralar va mavzuga oid test savollari orqali mustahkamlangan.

Mazkur o`quv qollanmadan nazariy manba sifatida o’qituvchilar, talabalar, psixologlar, ushbu sohada ilmiy izlanishlar olib borayotgan mustaqil tadqiqotchilar va barcha qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

I bo’lim. Rivojlanish psixologiyasining asosiy muammolari

I bob. Rivojlanish psixologiyasiga kirish

- 1.1. Rivojlanish psixologiyasi va yosh davrlar psixologiyasi;
- 1.2. Rivojlanish psixologiyasi amaliy psixologiya sohasi;
- 1.3. Rivojlanish psixologiyasining boshqa fanlar bilan bog’liqligi;
- 1.4. Rivojlanish psixologiyasining asosiy vazifasi;
- 1.5. Rivojlanish psixologiyasining metodlari;

Tayanch so’zlar:

Ontogenetik taraqqiyot, evolyutsion taraqqiyot, evolyutsion ta`limot, psixika, psixik aks ettirish, psixik taraqqiyot, bilish jarayonlari, psixik faoliyat, psixik xolatlar, alohida psixik xususiyatlar, psixikaning reflektor tabiati, refleks, shartsiz va shartli reflekslar, analizatorlar, birinchi va ikkinchi signallar tizimi, determinizm tamoyili, ong va faoliyat birligi tamoyili, taraqqiyot tamoyili, qiyoslash, longityud, kompleks metodlar, bilish jarayonlari, yosh davrlari, psixodiagnostik metodlar, kuzatish va o’z-o’zini kuzatish, tabiiy va laboratoriya metodi, test, aqliy taraqqiyot, so’rovnoma, faoliyat samaralarini tahlil qilish, suhbat, biografiya(tarjimai hol) metodlari, sotsiometriya.

1.1. Rivojlanish psixologiyasi va yosh davrlar psixologiyasi

Yosh psixologiyasi fani – psixologiya fanining alohida tarmog’i xisoblanib, odam psixikasining ontogenetik taraqqiyotini va uning shaxs sifatida ulg’ayib borish xususiyatlarini, alohida davrlarga bo’lgan holda o’rganadi.

Yosh psixologiyasi fanining o’rganish predmetini odamning ontogenetik taraqqiyot bosqichlari (odamning tug’ilganidan boshlab, to umrining oxirigacha bo’lgan davr)dagi psixik taraqqiyot xususiyatlari tashkil etadi.

Yosh psixologiyasining alohida fan sifatida vujudga kelishi va taraqqiy etishi uchun, 19 asr o’rtalari va ikkinchi yarmida kishilik jamiyatida ro’y bergan ijtimoiy-iqtisodiy o’sish sur`atlari, yangicha iqtisodiy munosabatlarning yuzaga kelishi hamda falsafiy qarashlardagi dialektik yondashuv va biologiya sohasidagi yangi yutuqlar o’ziga xos zamin yaratib berdi.

Buning yorqin dalili sifatida quyidagi xolatlarni e`tirof etish mumkin:

- falsafa fanidagi dialektik g’oyalar (Gegel falsafasi);
- tabiiy fanlarga doir bilimlarning o’sishi (Ch.Darvin);
- miya faoliyatining tuzilishi va sezgi organlarini tadqiq etish (I.M.Sechenov, G.Gelmgolts).

Jumladan faylasuf olimlar, dunyoni anglashning yuksak shakllari va hayotiy tajriba o’rtasidagi mutanosiblikni aniqlashga harakat qildilar.

Biologiya sohasi mutaxassislari evolyutsion taraqqiyotga doir muammolarni hal etishsa, psixolog tadqiqotchilar ayniqsa, bolaning dastlabki yoshdagi psixik taraqqiyot qonuniyatlarini o’rganishga intildilar.

Fan va ishlab chiqarishning taraqqiy etishi, ta`lim berishni yuqori darajaga ko’tarishni talab eta boshladi. Bolalar ta`lim olayotgan muassasalar xodimlari va olimlar, bola psixikasining ayrim xususiyatlarini tushuntirish, u yoki bu faoliyatning bola psixik ribvojlanishiga ta`sirini aniqlash uchun faqat umumpsixologik bilimlarning yetarli emasligiga ishonch hosil qila boshladilar.

Bolaga ta`lim va tarbiya berish vazifasini muvaffaqiyatli hal etish uchun, bolaning yosh hamda alohida xususiyatlarini va insoniyat to’plagan ijtimoiy-tarixiy tajribalarni o’zlashtirish, ya`ni bilim, ko’nikma va malakalarni egallash qonuniyatlarini aniqlash zarur bo’lib qoldi.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida bola psixik taraqqiyotining nazariy muammolarini o’rganishda evolyutsion-biologik yondashuv ustunlik qilardi.

Charlz Darvin yaratgan evolyutsiya nazariyasida aks etgan taraqqiyot yo’lini sharhlashga doir nazariy qarashlar, angliyalik psixolog Gerbert Spenser(1820-1903) tomonidan bayon qilingan. O’zining “Psixologiya asoslari” asarida Spenser “...hayot bu organizmning tashqi ta`sirotlarga uzluksiz ravishda moslashib borishi...” deya ta`kidlab o’tadi.

Uning fikricha, psixikaning taraqqiy etishi, shu nuqtai-nazarga asoslanishi lozim. Ongning rivojlanishi, biologik adaptatsiya, ya`ni ong(intellekt)ning mavjudligi va rivojlanishi moslashuvchanlikdan boshqa asosga ega emas.

Spenser, odamni o'rganuvchi fanlar tizimida psixologiyaning o'ziga xos bo'lgan o'rnini ko'rsatib berishga urinib ko'radi. Uning fikricha, odamdagi ichki xodisalar o'rtasidagi mutanosiblik – fiziologiyaning predmeti bo'lsa, tashqi xodisalar – boshqa fanlar predmeti xisoblanadi, psixologiya fani esa, tashqi va ichki xodisalar orasidagi bog'lanishlarni o'rganadi.

Aynan ushbu xolatni o'z davrida, psixologiya fanining rivojlanishi uchun muhim burilish nuqtasi bo'lganligini qayd etish mumkin. Lekin, Gerbert Spenser psixikani biologik nazariya asosida izohlaganligi va psixikaning rivojlanishini organik hayotning namoyon bo'lishi sifatida baholashini nazarda tutish lozim.

Yosh davrlari psixologiyasi – odam psixikasining rivojlanish qonuniyatlarini, yoshga oid dinamikasi(o'sishi)ni o'rganuvchi psixologiyaning alohida sohasidir.

Yosh psixologiyasining o`rganish ob`ekti – ontogenezda taraqqiy etib, o'zgarib boruvchi normal, sog'lom odam xisoblanadi.

Yosh psixologiyasining predmeti – ontogenezdagi psixik taraqqiyot yo'nalishi va sur`ati, taraqqiyotning yosh davrlari, taraqqiyotning umumiy qonuniyatlari, bir yosh davridan ikkinchisiga o'tish sabablari va psixikani harakatga keltiruvchi kuchlar xisoblanadi.

1.2. Rivojlanish psixologiyasi amaliy psixologiya sohasi. Miya va psixika. Psixikaning reflektor tabiati.

Odamning ichki(ruhiy) olami o'ta murakkab va ko'p qirralidir. Hozirgi kunda "ruh" tushunchasi o'rnida "psixika(ruhiyat)" atamasi qo'llaniladi. Psixologiya fanining predmetini, psixikani o'rganish tashkil etadi.

Psixologiya fani, psixik faktlarni, psixikaning rivojlanish qonuniyatlarini va psixikani harakatga keltiruvchi kuchlarni o'rganadi.

Psixik faktlar deyilganda quyidagilar nazarda tutiladi:

- Psixik bilsh jarayonlari: sezgi, idrok, xotira, tafakkur va xayol;
- Psixik faoliyat: diqqat, nutq faoliyati(muloqot), faoliyat va motivatsiya;
- Psixik xolatlar: hissiy kechinmalar va irodaviy harakatlar;
- Psixik xossalar(odamning hatti-harakatlarini boshqaruvchi, o'ziga xos alohida xususiyatlar): temperament, xarakter, qobiliyatlar;

Psixika, yuksak darajada tashkil topgan materiya, ya`ni miyaning xossasi va alohida funksiyasi xisoblanadi. Mazkur funksiya aks ettirish jarayonida o'z ifodasini topadi va aks ettirishning to'g'riligi amaliyotda tasdiqlanadi.

Psixik aks ettirish bir qator xususiyatlarga ega:

- tashqi olamni to'g'ri aks ettirish imkonini beradi;
- faol harakatlar jarayonida amalga oshadi;
- chuqurlashadi va mukammallashib boradi;
- individuallik orqali aks etadi;
- amaliy faoliyatni ortda qoldira oladi.

Psixik aks ettirish xulq-atvor va faoliyatning maqsadga muvofiqligini ta`minlab beradi, shu bilan birga psixik obraz predmetli faoliyat jarayonida shakllanadi. Bosh miya yarim sharlari po'stlog'i – psixik faoliyatning ehg muhim a`zosi bo'lib, odamning murakkab psixik faoliyatini amalga oshiradi.

Psixika qiyidagi ikkita asosiy funksiyani bajaradi:

- ❖ Aks ettirish;
- ❖ Xulq-atvor va faoliyatni idora etish.

Odam va hayvonlar psixikasining moddiy asosini markaziy nerv tizimining eng yuksak qismi bosh miya tashkil etadi, ammo odamlar miyasi hayvonlar miyasiga qaraganda ancha murakkab tuzilgan bo'lib, tanaga nisbatan olinganda hajmi jihatidan ham katta.

Bosh miya orqa miya bilan markaziy nerv tuzilmasini tashkil qilib, odam organizmidagi barcha organlarning o'zaro faoliyati va bir-biri bilan bog'lanishini hamda uning tashqi muhit bilan bo'ladigan aloqasini ta'minlaydi.

XVII asrda fransuz olimi Rene Dekart tomonidan refleks tushunchasining fanga kiritilishi, organizm va unga tashqi muhitning ta’sir etishini o’rganishda muhim qadam bo’ldi.

Refleks – organizmning tashqi va ichki ta’sirotlarga, markaziy nerv tizimi orqali beradigan javob reaksiyasidir.

Inson hayotida reflekslarning o’rnini yuqori baholagan rus fiziologi I.M.Sechenov(1829-1905) o’zining mashhur “Bosh miya reflekslari”(1863) asarida quyidagicha ta’rif beradi: “Ongli va ongsiz hayotning barcha aktlari(harakatlari) kelib chiqish usuli(mohiyati)ga ko’ra reflekslardan iboratdir”.

Buyuk rus fiziologi I.P.Pavlov(1849-1936) o’z amaliy tajribalari orqali I.M.Sechenov g’oyalarini rivojlantirib, refleks tushunchasiga yangicha mazmun kiritdi va shartli reflekslarning hosil bo’lish asoslarini yaratdi.

Reflekslarning ikki turi farqlanadi: shartsiz va shartli reflekslar.

Shartsiz reflekslar tug’ma bo’lib, hayotning dastlabki kunlaridan namoyon bo’la boshlaydi. Masalan: so’rish, so’lak ajralishi.

Shartli reflekslarning hosil bo’lish sohasi bosh miya po’stlog’i xisoblanadi.

Birinchi va ikkinchi signallar tizimi:

Odamda birinchi va ikkinchi signallar tizimi, hayvonlarda esa faqat birinchi signallar tizimi, ya`ni analizatorlar bo`ladi. Ikkinchi signallar tizimi so`zlardan iborat bo`lib, predmetlarning ayrim belgilarini farqlash, umumlashtirish, ular o’rtasidagi o’zaro bog`lanishlarni vujudga keltirish xususiyatiga ega.

Odamda nutq faoliyati(til) orqali ifodalanadigan so`zlar alohida ahamiyat kasb etadi. “... so`z, deb yozadi I.P.Pavlov, birinchi signallarning signali bo`lib, voqelikning faqat biz(odamlar)gagina xos bo’lgan ikkinchi signallar tizimini tashkil etadi”...

Nutqning rivojlanishi odamlarning bir-biriga munosabatini osonlashtirib, mehnat turlarini ko`paytirish va ongning rivojlanishiga sabab bo`ldi. Odamda shartli refleks, shartsiz qo’zg’atuvchining mustahkamlanib borishi asosidagina emas, balki nutq yordamida ham hosil bo`lishi mumkin.

Masalan, boshlang`ich sinf o`quvchilarida qo`ng`iroq ovoziga nisbatan shartli refleks paydo bo`lgandan so`ng, qo’ng’iroq ovozi o`rniga og`zaki yoki yozma shakldagi “qo’ng’iroq” yoki “tanaffus” so`zi ishlatilsa, bola qo`ng`iroq ovoziga qanday reaktsiya ko`rsatgan bo`lsa, “qo`ng`iroq” yoki “tanaffus” so`zining o`ziga ham xuddi shunday reaktsiya ko`rsatadi.

Nutq faoliyati asosida shartli refleksning hosil bo`lishi, odam oliy nerv faoliyatining sifat jihatidan o`ziga xos bo’lgan hususiyatidir.

I.P.Pavlov tomonidan organizmning javob reaksiyasini aks ettiruvchi analizator tushunchasi fanga kiritildi. Analizator – odamga ta`sir etayotgan qo’zg’atuvchilatni idrok etish va analiz(tahlil) qilishni ta`minlab beruvchi, murakkab neyrofiziologik tizimdir. U retseptor, retseptorni miya bilan bog’lab turuvchi nerv yo’llari va nerv impulslarini qayta ishlaydigan miyaning alohida bo’lmalaridan iboratdir.

Analizatorlar va ularning bosh miya po’stlog’idagi joylashuvi



1.3. **Rivojlanish psixologiyasining boshqa fanlar bilan bog'liqligi. Yosh psixologiyasining fan sifatida shakllanishi**

Yosh psixologiyasining mustaqil fan sifatida shakllanishiga muayyan bir ilmiy-nazariy va ijtimoiy omillar hamda shart-sharoitlar zamin yaratib bergan.

- Ch.Darvin yaratgan evolyutsion ta`limotning barcha fanlar negiziga kirib borganligi, odam psixikasini tabiiy rivojlanish zamirida o'rganish zarurati;
- Umumpsixologik qonuniyatlarning turli yosh davrlariga mansub kishilar hayoti va faoliyati, psixik taraqqiyotinini aniqlash uchun yetarli emasligi;
- YOSH psixologiyasi odamning ontogenetik taraqqiyoti(odamning tug'ilganidan to umrining oxirigacha bo'lgan rivojlanish davri) uchun ilmiy-uslubiy, nazariy va amaliy ahamiyatga ega ekanligi tan olinganligi;
- Tibbiyot fani va undagi tarmoqlar(psixiatriya, psixonevrologiya, psixogigiena, patopsixologiya, neyropsixologiya v.b.)ning rivojlanishi, tibbiyot va psixologiya sohalarida hamkorlikda ilmiy-tadqiqot ishlarining olib borilishi;
- Yuridik psixologiya sohalari(sud psixologiyasi, psixokriminalistika, voyaga yetmaganlar psixologiyasi va b.)ning jamiyat hayotida sezilarli o'rin egallashi va huquq tizimi bilan o'zaro hamkorlikning kuchayib borishi;
- Amaliy psixologiyannng jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotiga keng miqyosda kirib borishi va o'z o'rnini topishi (psixologik maslahatlar, ijtimoiy-psixologik so'rovnomalar va treninglarga bo'lgan talabning ortishi).

Yurtimizda olib borilayotgan keng kolamdagi islohotlar zamirida, avvalo, bolalar salomatligi, ularning jismonan va ruhan yetuk bo'lib voyaga yetishlari maqsadi mujassamdir, o'sib, ulg'ayib kelayotgan yoshlarni jismonan sog`lom va aqlan yetuk qilib voyaga yetkazishda oila psixologiyasi fanining o'rni beqiyosdir.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov oliy ta'limni isloh qilishda va malakali kadrlarni tayyorlashda ijtimoiy psixologiyaning fan sifatida alohida o'rni borligiga jamoatchilik diqqat-e`tiborini qaratgan edilar. Jamiyatda yetuk kadr bo'lish uchun shaxs nafaqat o'z iqtidori, bilimi va saviyasini oshirishi zarur, balki jamiyatning turlicha ijtimoiy munosabatlar tizimiga tayyor bo'lishi, ijtimoiy faoliyatni boshqarishning, odamlar bilan turli jamoalarda ishlash,

xodimlar faoliyatini muvofiqlashtirishga oid ijtimoiy-psixologik qonuniyatlarni mukammal egallashi zarur bo'ladi.

Boshqaruv psixologiyasi, marketing xizmatlarining ta'lim va tarbiya sohalarida qo'llanilishi – jamiyatda sog'lom ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish orqali amalga oshiriladi, shu o'rinda, ayniqsa ijtimoiy tafakkurning, yangicha dunyoqarash va shaxslararo munosabatlarning shakllanishini, shaxsning o'ziga va boshqalarga ta'sir etish usullarinio'rganish eng dolzarb masalalardan biri sanaladi.

Dunyo miqyosidagi global o'zgarishlarning ayrim salbiy jihatlari tufayli yuzaga kelgan millatlararo adovat va milliy etnotsenrizmning o'ziga xos ko'rinishi borasida mamlakatimizning Birinchi Prezidenti Islom Karimov o'zining "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" nomli tarixiy asarida juda teran fikrlarni bayon etganlar: "O'zbekiston aholisining, ko'p millatliligi o'zbek xalqining milliy o'zligini anglashi va ma'naviy qayta tiklanishining o'sishi bilan chambarchas bog'liq xolda jamiyatni yangilash, uni demokratlashtirishga undovchi zo'r kuch bo'lib xizmat qilmoqda. Bu respublikaning jahon hamjamiyatiga qo'shilishi uchun qulay shart-sharoit yaratmoqda".[2]

Birinchi Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, "Har qanday millat, u naqadar kichik bo'lmasin – insoniyatning boyligidir va har qanday milliy birlikning, uning tili, madaniy va boshqa xususiyatlarining yo'q bo'lib ketishi yer yuzidagi madaniy va genetik fondning, shaxs imkoniyatlarining qashshoqlashuviga olib keladi, shu bois har bir etnik birlikni saqlab qolish unga mansub odamlarning eng muhim maqsadi bo'lmog'i kerak."[3].

Mustaqil yurtimizda millatlararo va elatlar orasidagi o'zaro aloqalarga doir muammolari strategik ahamiyatga ega bo'lib, bu o'z navbatida etnopsixologlar oldiga millatlararo do'stlikni va o'zaro hamjihatlikni kuchaytirish, yurtimizda tinchlik va totuvlikni barqarorlashtirishga hissa qo'shish vazifasini qo'yadi.

---

[2] И.А.Каримов. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида..- Т.: Ўзбекистон, 1997 – 72 б.
[3] Ислом Каримов. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида... – Т.: Ўзбекистон, 1997 – 73-74 б.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda tinchlik-osoyishtalik, hamjihatlik va bag'rikenglik mustahkam qaror topdi, kattalarga hurmat, mehr-oqibat tuyg'ulari insonlar qalbidan chuqur joy egalladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda 60 yoshdan oshganlar soni 2 million 873 mingdan ko'proq kishini tashkil etadi. Mustaqillik yillarida xalqimizning o'rtacha yoshi 1990 yildagi 67 yoshdan 73,5 yoshga, ayollar o'rtasida 75,8 yoshga yetdi. Ayni paytda yurtimizda 225 ming nafar 80 yoshdan, 44 ming nafar 90 yoshdan, 8 ming 700 nafar 100 yoshdan oshgan tabarruk otaxon va onaxonlar istiqomat qilishadi. Inson organizmining keksayib borishiga ko'ra ruhiy xolatlar va jarayonlardagi o'zgarishlarni psixogerontologiya sohasi tadqiq etadi.

Yetuklik davrining ikkinchi bosqichi, 36-40 yoshdan 55(60) yoshlargacha bo'lgan erkak va ayollarni o'z ichiga oladi, mazkur davrda o'z faoliyatini qaytadan baholashda o'z ifodasini topuvchi yangi xislat namoyon bo'ladi, ushbu davrgacha mehnat faoliyatida miqdor asosiy o'rin egallagan bo'lsa, endi mehnat faoliyati mahsulining sifat farajasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Oilaviy turmush, kasb va ijtimoiy hayot, yashashdan maqsad, insonning qadr-qimmati, tevarak-atrofga, o'ziga va boshqa odamlarga yangi mezon bilan qaray boshlaydilar, turmushning ikir-chikirlari, ijtimoiy hodisalarga vazmin, sabr-toqat bilan munosabatda bo'ladilar, har bir narsaning nozik jihatlari yoki salbiy oqibatlari haqida o'z fikr-mulohazalarini bildiradilar.

Hayotda qo'ldan boy bergan imkoniyatlar, xato va kamchiliklar, ularda yetti o'lchab, bir kes qabilida ish tutish tuyg'usini vujudga keltiradi, bu yoshdagi kishilar, umrning biror daqiqasining behuda o'tishiga achinadilar, yoshlik yillarida yo'qotganlarini aql-zakovat, donishmandlik bilan to'ldirishga intiladilar.

Umuman olganda, jamiyatning barcha sohalarida rivojlanish psixologiyasiga taaluqli nazariy va amaliy bilimlarni egallash hozirgi davrimizning muhim talabidir.

1.4. **Rivojlanish psixologiyasining asosiy vazifasi**

Yosh psixologiyasi fanining tamoyillari:

- **Deteminizm tamoyiliga ko'ra**, barcha psixik xodisalar sabab-oqibatli bog'lanish qonuniga binoan o'zaro aloqadordirlar.

- **Tizimlilik tamoyili** – psixikaning turli tomonlari, psixik sohalar orasidagi o’zaro bog’lanishlarning asosiy ko’rinishlarini tushuntirib beradi.
- **Taraqqiyot tamoyilining ta`kidlashicha**, psixika doimo o’zgarib turadi, rivojlanadi, shuning uchun psixikaning kelib chiqishi, bosqichlari va uning turlariga xos qonuniyatlarni tadqiq etish orqali o’rganish talab etiladi. Psixik taraqqiyotning ikkita yo’li mavjud: filogenetik va ontogenetik.
- **Ong va faoliyat birligi tamoyili belgilaydi:**
- psixik taraqqiyot va yetakchi faoliyatning o’zaro bog’liqligi;
- bolalarni ularga ta`lim va tarbiya berish jarayonida o’rganish zarurligi;
- bolaning psixik taraqqiyot darajasini to’la va adekvat baholash uchun, uning xulq-atvori va hatti-harakatlarini qayd etish va tahlil qilish zarurligi.
- **Ob`ektivlik tamoyili ro’ybga chiqadi:**
- bolalarning psixik taraqqiyot darajasini taqqoslashda ijtimoiy-psixologik, tarixiy, etnopsixologik farqlar e`tiborga olinsa;
- psixik taraqqiyot zahiralarini, ta`lim va tarbiyaning yangi usullarini tadqiq etishda tajriba va nazorat guruhlarining yuqori darajadagi ekvivalentligiga erisha olinsa.

Yosh psixologiyasining nazariy vazifalari:

1.Odamning butun hayot yo’li davomidagi psixik rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchlari va manbalarini o’rganish;

2. Ontogenezdagi psixik taraqqiyotni davrlarga ajratish;

3. Psixik jarayonlar(idrok, xotira, diqqat va boshqalar)ning kechish qonuniyatlari (vujudga kelishi, tiklanishi, o’zgarishi, takomillashishi)ni o’rganish;

4. Bilimlarni o’zlashtirish, turli faoliyatlarni egallash qonuniyatlarini, yoshga doir imkoniyatlarni chamalash va o’rnatish;

5. Shaxsning muayyan tarixiy shart-sharoitlarda yoshga ko’ra rivojlanishini tadqiq etish.

Yosh psixologiyasining amaliy vazifalari:

1.Psixik funksiyalarning yosh me`yorlarini belgilash, odamning ruhiy zahiralari va ijodiy imkoniyatlarini aniqlash;

2. Bolalarning psixik rivojlanishi, ruhan sog'lomligini tizimli nazorat qilish xizmatini yaratish, muammoli vaziyatlarda ota-onalarga yordam ko'rsatish;

3. Yoshga ko'ra va klinik tahlilirga asosan tashxis qo'yish;

4. Inson hayotining inqirozli davrlarida ruhiy ko'mak berish va amaliy yordam ko'rsatish;

5. O'quv jarayonini eng maqbul(optimal) tarzda tashkil etish, uzluksiz ta`lim tizimiga e`tiborni kuchaytirish.

1.5. Rivojlanish psixologiyasining metodlari

Rivojlanish psixologiyasi fani bo'yicha ilmiy-nazariy, amaliy-tadqiqiy ma`lumotlarni to'plash va hayotga tatbiq etish, yosh davrlariga doir qonuniyatlarni aniqlash, har bir yosh davrida yuz beradigan yangilanishlar, psxik taraqqiyotning kechish sur`atlarini o'rganish uchun ilmiy-tadqiqot metodlari qo'llaniladi.

Rus psixologi B.G.Ananyev ilmiy-tadqiqot metodlarini tasniflash uchun ularni 4ta guruhga ajratadi:

- I guruh – **tashkiliy metodlar:**

- Qiyoslash metodi(turli guruh vakillarini yoshga, jinsga, faoliyat turiga yoki boshqa jihatlariga ko'ra solishtirib ko'rish);
- Longityud metodi(Bir necha kishilarni uzoq vaqt davomiy tarzda tadqiq etish);
- Kompleks(Har tomonlama o'rganish) metod(tadqiqotlarda bir necha soha vakillari ishtirok etadilar M: biologiya, psixologiya, sotsiologiya);

- II guruh – **empirik metodlar:**
  - Kuzatish va o'z-o'zini kuzatish;
  - Tajriba metodlari (tabiiy va laboratoriya tajribalari, shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi tajribalar);
  - Psixodiagnostik metodlar (testlar, anketalar yoki so'rovnomalar, suhbat, intervyu, sotsiometriya);
  - Faoliyat natijalarini tahlil qilish metodi;
  - Biografiya metodi.

III guruh – **olingan natijalarni qayta ishlash metodlari.**

Miqdor(statistik) va sifat tahlilini o'tkazish.

IV guruh – **sharhlash metodlari.**

Yosh psixologiyasi fanida tashkiliy metodlarning qo'llanilishi

Psixik taraqqiyotni o'rganish metodlarining tashkiliy guruhiga qiyoslash, longityud(uzluksiz), kompleks (ko'pyoqlama) metodlarni kiritish mumkin.

Odam va hayon psixikasini tadqiq etishda qiyoslash muhim o'rin tutadi.

Psixologiyaning alohida tarmog'i xisoblangan qiyosiy psixologiya - psixik hayotning filogenetik taraqqiyot shakllarini o'rganuvchi psixologiya sohasi bo'lib, odam va hayvonlar psixik rivojlanishini o'zaro solishtirish orqali o'xshashlik va farq qiluvchi tomonlarini aniqlaydi.

Qiyoslash metodi umumiy psixologiyada (psixikaning filogenetik va ontogenetik taraqqiotini o'rganishda), ijtimoiy psixologiyada(shaxsning ijtimoiy maqomini belgilash, shaxslararo munosabatlarda yuz bergan nizoli vaziyatlarni aniqlash, shaxs faoliyat ko'rsatadigan turli-tuman guruhlarni o'zaro taqqoslashda), tibbiyot psixologiyasida sog'lom va bemor kishilarning ruhiy xolatlarini qiyoslashda, sport psixologiyasi, yuridik psixologiya kabi psixologiyaning deyarli barcha tarmoqlarida samarali qo'llaniladi.

Yosh psixologiyasida qiyoslash metodidan turli yoshdagi odamlarning bilish jarayonlari, shaxs sifatida ulg'ayish xususiyatlari, hissiy kechinmalari va irodaviy harakatlari, alohida o'ziga hos shaxsiy fazilatlari, psixik taraqqiyotning kechish sur`ati, darajasi va o'ziga xosligini o'rganishda foydalaniladi.

Sobiq ittifoq psixologiya maktabining taniqli vakillari L.S.Vigotskiy, P.P. Blonskiy, B.G.Ananev, D.B.Elkonin, P.Y.Galperin va ularning izdoshlari tomonidan jismoniy va ruhiy taraqqiyotning yosh bosqichlari(chaqaloqlik va go'daklik, ilk bolalik, bog'cha yoshi, kichik maktab yoshi, o'smirlik, o'spirinlik, yetuklik, keksalik davrlari)ni taqqoslash orqali ilmiy-nazariy tadqiqotlar amalga oshirilgan. So'nggi yillarda o'sib kelayotgan yosh avlodga ta`lim-tarbiya berish sohasidagi yangi islohotlar, uzluksiz ta`limning joriy etilishi, kadrlar tayyorlashda shaxs, fan, madaniyat va ishlab chiqarishning o'zaro uyg'unligini ta`minlashning muhim ahamiyat kasb etishi mazkur metodni keng miqyosda qo'llashni ko'zda

tutadi. Shu bilan birga, tadqiqotda olingan ma`lumotlarning ishonchlili ekanligini aniqlash uchum ham qiyoslash metodi zarur bo'ladi.

Ruhiy taraqqiyotni ilmiy-amaliy jihatdan tadqiq etish uchun longityud (uzluksizlik) metodi ham foydalaniladi, uning o'ziga xosligi shundaki, bunda bir yoki undan ortiq sinaluvchilar uzoq muddat, ba`zan bir necha yillar tekshirish obye`ktlariga aylanadilar. Germaniyalik tadqiqotchi V.Shtern, Fransiyalik olim R.Zazzo, rus psixologlari N.A. Menchinskaya, V.S. Muxinalar o'z faoliyatlari davomida ushbu metodni samarali qo'llab kelganlar.

Longityud metodi yordamida bir xil jinsli(Xasan-Husan, Fotima-Zuhra) yoki aralash jinsli (Xasan-Zuhra, Fotima-Husan) kabi egizaklar o'rtasidagi o'hshashlik va farqli jihatlarni kuzatish mumkin bo'lgan.

Rus psixologlari N.A.Menchinskaya, V.S. Muxinalar o'z farzandlarining ruhiy taraqqiyotini, yosh ulg'ayishi bilar ularda yuz berayotgan psixik yangilanishlarni uzoq muddatli kuzatishlar asosida o'rganib borganlar, ular olib borgan tadqiqotlar «Ona kundaligi» deb nomlangan.

Alohida olingan bir shaxsni, yoki shaxs faoliyat ko'rsatadigan muayyan bir kichik guruhni uzoq muddat davomida kuzatish, uning shaxs sifatida ulg'ayish jarayoni va xulq-atvoridagi o'zgarishlar, unga ta`sir ko'rsatuvchi mikroomillar, kichik guruhlar tizimi(oila, tengdoshlar davrasi)dagi shaxslararo munosabatlarning kechishi to'g'risida ishonchli hamda barqaror ma`lumotlar to'plash imkonini yaratadi.

Hozirgi kunda fan va texnika sohasida erishilgan ulkan yutuqlar(axborot kommunikatsiya tizimidagi yangiliklar, nanotexnologiyalar), tabiat va jamiyatning eng oliy ne`mati bo'lgan inson shaxsini turli yo'nalishlarda tadqiq etishga zarurat tug'ildi. Shuning uchun ilmiy nuqtai-nazardan bioijtimoiy jonzot sanaluvchi odamni turli-tuman fanlar (tibbiyot, fizika, kimyo, biologiya, anatomoiya va fiziologiya, psixologiya, sotsiologiya, falsafa, kibernetika va.b) negizida o'rganish ko'zda tutiladi va unga nisbatan kompleks yondashuv talab etiladi.

Jamiyat hayotining turli sohalarida tashkil etilayotgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar psixologiyaning ayrim sohalarini qamrab oladi va uyg'unlashtiradi:

- ijtimoiy psixologiya;

- tibbiyot psixologiyasi;
- boshqaruv psixologiyasi;
- mehnat psixologiyasi;
- muxandislik psixologiyasi;
- yuridik psixologiya;
- sport psixologiyasi;

Yosh psixologiyasida kuzatish metodidan foydalanish

Odatda kuzatish tabiiy sharoitda, faoliyatning kechishiga halaqit bermagan holda olib boriladi, lekin maishiy hayotdagi oddiy kuzatishdan, muayyan bir maqsad asosida amalga oshiriladigan ilmiy asoslangan kuzatishni farqlash lozim.

Yosh psixologiyasida ushbu metodning ob'yektiv(tashqi) va sub'yektiv (o’z-o’zini) kuzatish turlari mavjud. Ruhiy taraqqiyotning har bir yosh davriga xos bo’lgan xususiyatlar, bola psixikasidagi o’zgarishlar(yangilanishlar) va uning xulq-atvorini kuzatish uchun quyidagi tayyorgarlik ishlari amalga oshiriladi:

- kuzatishning maqsadi hamda vazifasi belgilab olinadi;
- kuzatiladigan ob'yekt tanlanadi;
- kuzatiluvchining yoshi, jinsi xaqida ma'lumot olinadi;
- kuzatish ishini o’tkazish vaqti rejalashtiriladi;
- kuzatishning davom etish muddati qat`iy belgilanadi;
- kuzatish qaysi faoliyat turi(o’yin, o’qish, mehnat, sport)da amalga oshirilishi tavsiya etiladi;
- kuzatishning shakli(yakka, guruhiy) tanlab olinadi;
- kuzatilganlarni qayd etib borish vositalari (kundalik, suhbat daftari, kuzatish varaqasi, diktofon, videokamera va boshqalar) tayyorlab qo’yiladi.

Kuzatish orqali idrokning xossalari, diqqatning o’sishi, yuz ifodasida aks etadigan emotsional xolatlar, faoliyat jarayonidagi hatti-harakatlar, asab tizimining qo’zg’alish va tormozlanish jarayonlari, nutq faoliyati kabilar o’rganiladi.

G’o’daklik yoshidagi bolani kuzatishda, uning dastlabki faoliyati sanalgan bevosita hissiy muloqotining o’ziga hosligi, o’z yaqinlarini tanishi, ularga(ayniqsa onasiga) talpinishi, o’yinchoqlarga munosabati, istak-xohishi aniqlanadi.

Ilk yoshdagi bolalarni kuzatish mobaynida bilish jarayonlari(sezgi, idrok, xotira, amaliy tafakkur)ning taraqqiy etishi, predmetli faoliyati, “men-obrazi”ning shakllanishi, nutq faoliyatini egallashiga oid ma`lumotlarni olish mumkin bo’ladi.

Bog’cha yoshi davri – bolaning shaxs sifatida ulg’ayishidagi eng murakkab davr desak hato qilmagan bo’lamiz. Kattalar(ota-ona, bolaning yaqin kishilari, tarbiyachi-murabbiylar) aynan shu davrda, bolada yuz berayotgan o’zgarishlar, ichki ruhiy kechinmalarning mohiyatini tushungan holda munosabatda bo’lsalar maqsadga muvofiq bo’ladi. Mazkur davrda bolaning irodaviy sifatlari, shaxsiy fazilatlari, xarakter xislatlari barqarorlik kasb eta boshlaydi.

Bolada o’z “men”ligini anglashning tashqi va ichki belgilari yaqqol ko’zga tashlanadi, mustaqillikka intilish tuyg’usi kuchayadi, unda o’z xulq-atvori, «yurish-turishi» bilan kattalarning maqtovi va olqishini eshitish ishtiyoqi ortadi.

Kattalar tomonidan bolaning xulqi va hatti-harakatlariga berilgan baho, uning o’z-o’zini baholash darajasiga bevosita ta`sir ko’rsatadi, shuning uchun ushbu yoshda kattalardan bola xilqiga e`tibor va kuzatuvchanlik talab etiladi.

Kichik maktab yoshidagi bolalarning ruhiy va jismoniy xususiyatlarini kuzatishlar orqali o`rganish, ularning maktab ta`limi doirasidagi dastur talablarini bajarishlarini ta`minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Kichik maktab yoshi 6-7 yoshdan 10-11 yoshgacha bo`lgan davrni o’z ichiga olib, ular maktabning boshlang`ich sinf o`quvchilari hisoblanishadi.

Kichik maktab yoshidagi o`quvchilarning ushbu davrda kechadigan 4 yillik hayoti va faoliyati muhim o`zgarishlarga boy bo`ladi, o’quvchilar maktabdagi o’quv faoliyati davomida o’qituvchidan axborot olish bilan birga, uning mazmun va mohiyatini ham anglab yeta boshlaydilar.

Buyuk alloma Abu Nasr Forobiy aytganlaridek, - “Jismni – tabib, yog’ochni – duradgor, po’latni – temirchi o’z san`ati uchun keragicha bilganidek, tarbiyachi bola ruhiyatini qancha kerak bo’lsa, shuncha bilishi kerak”.

O'smirlik davri bolalikdan kattalar olamiga qadam qo’yish xisoblanadi va o'z navbatida boshqa davrlardan o'zining nisbatan keskinroq, murakkabroq kechishi bilan farqlanib turadi. Bu davr bolalarning 5-sinfdan 8-9-sinflargacha o’qish paytlariga to’g’ri keladi va 11-12 yoshdan 14-15 yoshgacha bo'lgan davr oralig’ida kechadi, ayrim bolalarda bu davr 1-2 yil ertaroq yoki kechroq kuzatilishi ham mumkin. O'smirlik davri ayrim adabiyotlarda «o'tish davri», «og'ir davr», «inqirozli xolatlar davri» kabi nomlar bilan ham ataladi.

Kuzatish metodini barcha yosh davrlarini o’rganishda qo’llash mumkin, lekin uning qulay va samarali tomonlari bilan bir qatorda zaif jihatlari ham mavjud, shuning uchun ushbu usuldan foydalanish, bolaning o’ta murakkab kechadigan ruhiy taraqqiyotini tadqiq etuvchi boshqa metodlar bilan uzviy aloqadorlikda olib borish maqsadga muvofiq xisoblanadi.

Eksperiment(tajriba)-empirik tadqiqot metodi sifatida

Tajriba(eksperiment) metodi turli yosh davrlaridagi (go’daklik, ilk bolalik, bog’cha yoshi, kichik maktab yoshi, o’smirlik, o’spirinlik, yeteklik, keksalik) jismoniiy, psixik va ijtimoiy taraqqiyotni chuqur, keng va aniq tadqiq etish metodlari ichida eng muhimi hisoblanadi. Tajriba metodi yordamida tushunchalarning shakllanishi, nutqning o’sishi, muammoli vaziyatlarni hal qilishi, shaxsning xis-tuyg’ulari, xarakteri va tipologik xususiyatlari o’rganiladi, inson psixikasining nozik ichki bog’lanishlari va qonuniyatlari tekshiriladi. Tajriba o’tkazuvchi mutaxassis, eksperimental materialini sinchkovlik bilan tanlashi, tajriba ishiga ob`yektiv tarzda yondashishi, zarir holat va vaziyatlarni yarata olishi, bunda sinaluvchining yoshi, aql-idroki, temperament tipi, xarakter xislatlari, hissiy kechinmalari, irodaviy sifatlari, qiziqish va moyilliklari, turmush tajribasi, bilim, ko’nikma va malakalariga e`tibor berishi lozim bo’ladi.

Tajriba metodining tabiiy va laboratoriya turlari ajratiladi.

Tabiiy tajriba metodining ilmiy asoslari1910 yilda A.F.Lazurskiy tomonidan ishlab chiqilgan. Tabiiy metod yordamida tashkilot, muassasa, ishlab chiqarish korxonasi xodimlarining o’zi egallab turgan vazifasiga loyiqlik darajasi, ularning

o’zaro munosabatlari, jamoadagi ijtimoiy-psixologik muxit, ish qobiliyatlarini tahlil qilish kabi masalalarni hal qilish nazarda tutiladi.

Tabiiy tajriba o’tkazish usuli, sinaluvchilar(bog’cha yoshidagi bolalar, maktab o’quvchilari, ishchi-xodimlar, turli yoshdagi kishilar v.b) uchun odatiy bo’lgan sharoitda qo’llaniladi, bu esa laboratoriyada yuz berishi mumkin bo’lgan hissiy zo’riqishlarning oldini oladi va natijalarning ishonchli bo’lishini ta`minlaydi.

Tajriba o’tkazishning laboratoriya usuli, ko’pincha yakka tartibda, ba`zan guruh shaklida maxsus jihozlangan xonalarda maxsus anjomlar, yo’riqnomalar, tavsiyalar, ko’rsatma va ilovalardan foydalanib olib boriladi.

Hozirgi kunda inson psixikasidagi ko’zga ko’rinmas o’zgarishlarni ham aniqlay oladigan asboblar multimedia qurilmalari mavjudki, ular odamdagi psixik jarayonlar, hissiy holatlar, alohida psixik o’zgarishlarni qayd etadi.

Tajriba metodining laboratoriya usuli yordamida diqqatnning sifatlari(ko’chishi, ko’lami, barqarorligi), idrokning xossalari, xotira va tafakkur jarayonlarining xususiyatlari, hissiy kechinmalar, irodaviy zo’r berish singari murakkab psixik holatlar tekshiriladi. Laboratoriya sharoitida kutilmagan tasodifiy vaziyatlar(xalokat, portlash, izdan chiqish, shovqin ko’tarilishi)ning modellari yaratiladi, natijada odam psixikasidagi o’zgarishlar, rivojlanish sur`ati, jismoniy va aqliy toliqish, hissiy-irodaviy hamda asabiy zo’riqishlar, tanglik xolati qanday sodir bo’layotganligini ifodalab beradigan qimmatli ma`lumotlar olinadi.

Tajriba o’tkazish - aniqlovchi, tarkib toptiruvchi va tekshiruvchi qismlarga bo’linadi. Tajribaning aniqlovchi qismida psixik xususiyat, jarayon yoki holat o’yin, mehnat, o’qish kabi faoliyatlarda tadqiq etiladi. Tadqiqot ob`yektining aynan shu paytdagi ruhiy holati va uning imkoniyati aniqlanadi, tekshiruvchi tomonidan sinaluvchiga sub`ektiv ta`sir o’tkazmasligi belgilab qo’yiladi.

Tarkib toptiruvchi tajribada sinaluvchilarda muayyan bir sifatni shakllantirish, ko’nikma va malakani hosil qilish rejalashtiriladi. Tajriba yakka yoki guruh tarzida o’tkazilishi mumkin, buning uchun zarur bo’lgan tajriba materiali oldindan tayyorlab qo’yilishi shart xisoblanadi.

Tekshirish tajribasida tarkib toptiruvchi bosqichda shakllantirilgan sifat, ko'nikma va malakaning egallaganish darajasi, uning barqarorligi aniqlanadi, natijalar orqali tarkib toptiruvchi tajribaning samarasi o'lchanadi.

Mazkur bosqichda tekshiruvchi sinaluvchiga mutlaqo yordam berishi mumkin emas, aks xolda tadqiqot o'tkazish tamoyili buziladi.

Aniqlovchi, tarkib toptiruvchi va tekshiruvchi tajribalarda yig'ilgan ma`lumotlar, miqdoriy-statistik metodlardan foydalangan holda qayta ishlab chiqiladi, statistik metodlar yordamida odamning bilish jarayonlari va individual-tipologik xususiyatlarining bog'liqligi va o'zaro ta`siri tahlil qilinadi.

Tadqiqotning yordamchi metodlari

Suhbat metodi. Suhbat metodi sirtdan qaraganda oddiy so'zlashuv jarayoni bo'lib ko'rinsada, aslida odamning ichki ruhiy xolati, hissiy kechinmalari, aloxida psixologik xususiyatlari, shaxsiy xislat va fazilatlarni aniqlash imkonini beradi.

Dastlab suhbatning asosiy maqsadi va ko'zda tutilgan vazifalar belgilab olinadi, uning ob`ekti tanlanadi, mavzusi, o'tkaziladigan vaqti aniqlanadi.

Suhbatlar rasmiy yoki norasmiy, qisqa muddatli yoki davomiy, yakka xolda yoki guruh tarzida o'tkazilishi mumkin.

Suhbat metodining o'ziga xos afzallik jixatlari ham mavjud:

- maxsus laboratoriya xonasi va jixozlar talab etilmaydi;
- muloqot bevosita, jonli o'tkaziladi;
- bir vaqtning o'zida bir necha kishini qamrab oladi;
- mavzu bo'yicha oldindan tayyorgarlik ko'rish va prognoz qilish imkoniyati mavjud;
- milliy xususiyatlar va maxalliy shart-sharoitlar e'tiborga olinishi mumkin;
- yakka xolda va intim;
- oddiy va xayotiy;

Suhbat metodini qo'llash orqali psixolog suhbatdoshining yuz mimikasi, ko'z qarashlari, imo-ishoralari va kayfiyatini tez ilg'ab olishi, ichki kechinmalari, fikr yuritishi, fe'l-atvori to'g'rsida ma'lumotga ega bo'lishi, eng muximi **tinglay olishi** va o'z fikr mulohazalarini bildirishi zarurdir.

Suhbat o’tkazish jarayoni quyidagi talablarni o’z ichiga oladi:

- suhbat aniq maqsad va reja asosida tashkil qilinadi;
- suhbat o’tkazish uchun qulay joy tanlab olinadi xamda vaqti belgilanadi;
- so’zlashuv suhbatdoshning hissiy xolatiga mos ravishda boshlanadi;
- suhbat mazmuni oldindan belgilangan yo’nalishga o’tkaziladi;
- suhbat o’zaro ishonch ruhida o’tkaziladi;
- suhbat shaxs to’g’risida batafsil ma’lumot olingandan so’ng o’tkaziladi;
- suhbat o’tkazilayotgan shaxs fikrlari diqqat bilan tiglanadi;
- suhbatda uzviylik, ishonch va o’zaro xamkorlikka amal qilinadi;
- suhbatda maslahatgo’ylik emas, balki o’zaro xamjixatlik yo’lga qo’yiladi;

Yuqorida ko’rsatib o’tilgan talablar asosida zarur bilim, ko’nikma va malakalarga ega bo’lgan mutaxassisning suhbat metodini qo’llay olishi o’quvchilar shaxsi, fikrlash darajasi, his-tuyg’ulari, ma’naviy dunyosi, qiziqishlari, faoliyat motivlarini chuqur o’rganishga xizmat qiladi.

Test metodi. Testlar(inglizcha. sinash, tekshirish) - shaxsning aqliy taraqqiyotini, qobiliyatini, irodaviy sifatlarini va boshqa psixik xususiyatlarini tekshirish va anqlashda qo’llaniladigan qisqa, standartlashgan(bir qolipga solingan) savollar, so’rovlar, mashqlar, masala va topshiriqlar xisoblanadi.

Testlar shaxsning qiziqishlarii, moyilligi, kasbga yaroqliligi, iqtidorini aniqlashda, temperament tipi va xarakter xislatlarini o’rganishda keng qo’llanadi.

Testlar orqali olingan natijalarning qiymati, test sinovi o’tkazuvchining mahorati, yig’ilgan ma`lumotlarning ob`yektivligi va ilmiy tahlil qilishga bog’liqdir.

1905 yilda fransuz psixologi A.Bine va uning shogirdi A.Simon odamning aqliy o’sish va iste`dod darajalarini o’lchash imkoniyati mavjud degan g’oyani ilgari surganlaridan keyin psixologiyaning turli sohalarida testlar qo’llana boshlandi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so’ng, 20 asrning 90-yillaridan boshlab, testlar hayotimizga dadil kirib kelgan tekshiruv usullari sirasiga kiradi.

Test-so’rov oldindan qat`iy tarzda qabul qilingan savollarga beriladigan javoblarni taqozo etadi. Masalan, Ayzenkning 57 ta savoldan iborat test

so’rovnomasi shaxsdan berilgan savollarga «ha» yoki «yo’q» tarzida javob berish so’raladi va olingan natijalarga ko’ra: intraversiya-ekstraversiyani aniqlaydi.

Test-topshiriq odam xulqi va xolatini amalga oshirgan ishlari asosida baholashni nazarda tutadi. Masalan, shaxs tafakkuridagi kreaktivlilikni aniqlash uchun ko’pincha bir qarashda oddiygina topshiriq beriladi: berilgan 20 ta doira shaklidagi shakllardan o’zi xoxlagancha rasmlar chizish imkoniyati beriladi.

Ma’lum vaqt va tezlikda bajarilish sur’ati, rasmlarning o’ziga xos va betakrorligiga qarab shaxs fikrlashi jarayonining naqadar nostandart, ijodiy va kreaktivligiga baho berilib, miqdoriy ko’rsatgich aniqlanadi.

Bu metodlarning umumiy afzalligi ularni turli yosh, jins va kasb egalariga nisbatan qo’llashning qulayligi, bir guruhda natija bermasa, boshqa guruhda yana qayta tekshiruv o’tkazish imkoniyatining borligi bo’lsa, kamchiligi-ba’zan tekshiriluvchi agar testning mohiyatini yoki kalitini bilib qolsa, sun’iy tarzda uning kechishiga ta’sir ko’rsatishi, faktlarni falsifikatsiya qilishi mumkinligidir.

Testlar ichida proektiv testlar deb nomlanuvchi testlar ham borki, testning asl maqsadi tekshiriluvchiga sir bo’ladi, ya’ni shunday topshiriq beriladiki, tekshiriluvchi topshiriqni bajarayotib, nimani aniqlashi mumkinligini bilmaydi.

Masalan, mashhur Rorshaxning «siyoh dog’lari» testi, yoki TAT(tematik appersepsion test), tugallanmagan hikoyalar kabi testlarda muayyan bir narsaga yo’naltirilgan hatti-harakatlardan, ikkinchi bir ruhiy xolatlar va xususiyatlarning mohiyati aniqlanadi. 1921 yilda kashf etilgan «siyoh dog’lari» testini taqdim etish orqali sinaluvchining nimalarni eslayotganligi, dog’larni nimalargadir o’xshatishi, ya`ni idrok etishiga qarab, uning shaxs sifatidagi yo’nalishlari, hayotiy tamoyillari, qadriyatlarga munosabati, ishni bajarish paytidagi emotsional holatlari aniqlanadi.

Ushbu testlar juda noyob, qimmatli, lekin uni faqat mutaxassis psixolog qo’llashi va natijalarni moxirona tahlil qilishi talab etiladi.

Faoliyat samaralarini tahlil qilish metodi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning chizgan rasmlari va qo’l mehnati orqali tayyorlagan narsalari(plastilin, qog’oz, turli matolar yoki yog’och materialidan yasagan o’yinchoqlari, modellari), yod olgan she`rlarini o’rganish orqali ularning idrok etish

va xotira jarayonlari, ko’rgazmali-obrazli tafakkuri, tasavvur hayoli, ijodiy, badiiy qobiliyati yuzasidan zarur ma`lumotlarni jamlash mumkin.

Ijodiy amaliy faoliyat mahsullariga qo’lda yasalgan o’yinchoqlar, milliy kashtachilik, zardo’zlik yoki hunarmandchilik namunalari, zargarlik buyumlari, badiiy ijod natijalari: she`r, hikoya, esse, ilmiy maqola va loyihalar kiradi.

Ushbu amaliy ishlar turli yoshdagi odamlar, har xil soha vakillari tomonidan yaratilgan bo’lishi va shunga ko’ra shakli, mazmuni, sifati, o’ziga xosligi, katta-kichikligi va darajasi bilan bir-biridan farq qilishi mumkin.

Biografiya(tarjimai hol) metodi. Har bir alohida olingan shaxsning bosib o’tgan hayot yo’li va faoliyatini tadqiq etish uchun, uning o’z hayoti va faoliyati, oilaviy hayot tajribalari, olib borgan ishlari, erishgan natijalari to’g’risidagi og’zaki va yozma ma`lumotlari muhim o’rin tutadi, uning tarjimai holi, kundaliklari, yozgan maktublari, esdaliklari, zamondoshlari tomonidan uning ilmiy va ijodiy ishlari yuzasidan bildirilgan fikrlar va e`tiroflar ham zarurdir.

Shu bilan birga, o’rganilishi lozim bo’lgan shaxs haqida to’plangan materiallar: esdaliklar, xatlar, rasmlar, magnit tasmasidagi ovozlar, hujjatli filmlar, foto yoki videolavhalar shaxsni to’laroq tasavvur etishga xizmat qiladi.

Biografik ma`lumotlar, odamlarning o’z-o’zini tarbiyalashi, o’z faoliyatini nazorat qilishi, idora etishi, o’zining shaxsiy uslubini yaratishi, kamolot cho’qqisiga erishishi jarayonida andoza(namuna) vazifasini o’taydi.

Rus psixologlari N.A.Menchinskaya va V.S.Muxinalarning o’z farzandlarining jismoniy, ruhiy va aqliy taraqqiyotini uzoq muddat kuzatishlari asosida yaratgan risolalari «Ona kundaligi» nomi bilan mashhurdir.

Badiiy adabiyotda yaratilgan talay asarlar, jumladan L.Tolstoy, M.Gorkiy, S.Ayniy, Oybek, Abdulla Qahhor, O’tkir Hoshimov va boshqa qator adiblarning bolalik xotiralari va esdaliklariga oid asarlari, tarjimai hol shaklida yozilgan bo’lib, ular bilan tanishish orqali mualliflarning bolalik chog’larida ko’rgan-kechirganlari, turmush qiyinchiliklari, hissiy kechinmalari, fe’l-atvori, qiziqishlari, dunyoqarashi, axloq-odobi to’g’risida ma`lumotlar olish mumkin.

Anketa metodi. Ushbu metoddan yosh davlari psixologiyasida ham foydalanib kelinadi. Anketalar orqali turli yosh, jinsdagi odamlarning alohida-psixologik xususiyatlari, narsa va hodisalarga, kishilarga bo'lgan munosabatlari o'rganiladi.

Yozma so'rov yoki anketaning afzalligi shundaki, ushbu metod yordamida bir vaqtning o'zida ko'pgina odamlar fikrini o'rganish mumkin bo'ladi.

Anketalar ochiq va yopiq turlarga bo'linadi. Ochiq anketa respondentdan o'z fikrini erkin bayon etishni talab etadi, yopiq shakldagi anketa savollarida esa javoblar oldindan berilgan bo'lib, tekshiriluvchi o'ziga ma'qul bo'lgan, o'zining qarashlari, fikrlari bilan mos kelgan javobni belgilab beradi.

Ochiq anketa savollariga javob berishda – respondentlarning har doim ham qo'yilgan vazifaga yetarli darajada mas'uliyat bilan yondashmasligi kuzatiladi, yopiq anketada respondentga tekshiriluvchi tomonidan javob variantlari taqdim etiladi. Ushbu xolatda respondenyt umuman javob bermasligi yoki "tavakkal" qilib bir variantni belgilab berishi mumkin, shuning uchun so'nggi paytlarda yarim yopiq savollardan iborat anketalar tuzilmoqda, ularda javob variantlaridan tashqari qo'shimcha fikr bildirish imkoniyati beriladi.

Sotsiometrik metod. Ushbu metod kichik guruh a`zolari o'rtasidagi bevosita emotsional munosabatlarni o'rganish va ularning darajasini o'lchashda qo'llanadi, unga amerikalik sotsiolog Djon Moreno asos solgan.

Mazkur metod yordamida muayyan bir guruhdagi xar bir a`zoning, boshqa bir shaxsga nisbatan o'zaro munosabatini aniqlash imkonini beradi.

Olingan ma`lumotlarni jadval shaklida ifodalash mumkin, miqdor ko'rsatkichlari guruh a`zolarining o'zaro munosabatlarini bildiradi.

Hozirgi kunda Y.L.Kolominskiy va I.P.Volkov tomonidan sotsiometriyaning yosh davrlari psixologiyasiga moslashtirilgan variantlari ishlab chiqilgan.

Ayniqsa sotsiometrik usulning Y.L.Kolominskiy tomonidan qo'llangan yangi varianti bolalar jamoasidagi shaxslararo munosabatlar haqida to'la axborot beradi.

Odatda o'quvchilardan quyidagicha savollarga javob berish talab qilinadi:

«Sen sayohatga kim bilan birga borishni xohlaysan?» «Imtihonga kim bilan birga tayyorlanishni istaysan?», «Kim bilan qo'shni bo'lib yashashni yoqtirasan?»

Har bir savol sotsiometrik mezon(o'lchov) vazifasini bajaradi. Sinaluvchi har bir savolning uchta javobidan bittasini «eng ma`qul» deb tanlashi lozim. Unga, «avval, hammadan ko'ra ko'proq kim bilan birga bo'lishni xohlasang, o'shaning familiyasini yoz», «agar sen istagan shaxs to'g'ri kelmasa, yana kim bilan birga bo'lishni istasang, shuning familiyasini yoz, «aytilgan shartlarga binoan uchinchi shaxsning familiyasini yoz» deb uqtirish lozim.

Guruhiy tabaqalanishni ko'rsatish uchun sotsiogramma to'rtta «maydon»ga ajratiladi. Qizlar doiracha, o'g'il bolalar esa uchburchaklar bilan belgilanadi. Doiracha va uchburchaklar soni familiyalar soniga to'g'ri keladi.

Guruh a`zolarining o'zaro munosabatlari doiracha va uchburchaklar strelkalar bilan bog'langanida o'z ifodasini topadi. Eng ko'p munosabatga ega bo'lgan sinaluvchi doiraning markazidan o'rin oladi, u guruh a`zolarining eng yoqimtoyi hisoblanadi. Guruh a`zolari bilan ijobiy a`loqa o'rnatmagan sinaluvchilar doiraning eng chetidan joy olishadi. Oraliqdagi «maydon»larga o'rtacha va undan kamroq tanlangan tekshiriluvchilar joylashtiriladi.

Tekshirishda, birinchidan, shaxslararo munosabatning darajasi va ko'lami aniqlanadi, ikkinchidan, qizlar va o'g'il bolalar o'rtasidagi miqdoriy ko'rsatkichlar taqqoslanadi, natijalarga qarab guruhdagi yoki qizlar bilan o'g'il bolalar o'rtasidagi munosabatlar va ularning o'ziga xosligi, psixologik mexanizmlari haqida xulosa chiqariladi, amaliy ko'rsatmalar beriladi va tavsiyalar bildiriladi.

Mavzu bo'yicha test savollari:

1. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida bola psixik taraqqiyotining nazariy muammolarini o'rganishda qanday evolyutsion-biologik yondashuv ustunlik qilgan?

a. evolyutsion yondashuv.
b. evolyutsion-biologik yondashuv.
c. kognitiv yondashuv.
d. personologik yondashuv

2. Ontogenezdagi psixik taraqqiyot yo'nalishi va sur`ati, taraqqiyotning yosh davrlari, taraqqiyotning umumiy qonuniyatlari, bir yosh davridan ikkinchisiga o'tish sabablari va psixikani harakatga keltiruvchi kuchlar?
   a. Yosh psixologiyasining predmeti.
   b. Yosh psixologiyasining o'rganish oby`ekti.
   c. Yosh psixologiyasining tamoyili.
   d. Yosh psixologiyasining nazariy asosi.
3. Refleks tushunchasi qachon va kim tomonidan fanga kiritilgan?
   a. XIX asrda I.M.Sechenov tomonidan.
   b. XX asrda I.P.Pavlov tomonidan.
   c. XVIII asrda R.Dekart tomonidan.
   d. XX asrda V.M.Bexterev tomonidan.
4. "Ongli va ongsiz hayotning barcha aktlari(harakatlari) kelib chiqish usuli(mohiyati)ga ko'ra reflekslardan iboratdir" ushbu fikr muallifi kim?
   a. I.P.Pavlov.
   b. V.M.Behterev.
   c. Ch.Darvin.
   d. I.M.Sechenov.
5. Organizmning javob reaksiyasini aks ettiruvchi analizator tushunchasini fanga kiritgan fiziolog olimni aniqlab bering?
   a. Ch.Darvin.
   b. I.P.Pavlov.
   c. I.M.Sechenov.
   d. V.M.Behterev.

Takrorlash va muhokama uchun savollar:

- Rivojlanish psixologiyasi fanining vujudga kelishi va fan sifatida shakllanishi haqida tushuncha bering?
- Rivojlanish psixologiyasi fanining o'rganish obye`kti va predmetini tavsiflab bering?

- Bosh miya va psixika haqida tushuncha? Psihikaning reflektor tabiatini izohlab bering?
- Taniqli rus fiziologi I.M.Sechenovning g’oyalari to’grisida o’z fikringizni bildiring?
- Shartsiz va shartli reflekslar haqida tushuncha bering?
- Akademik I.P.Pavlovning ikkita signallar tizimi haqidagi ta`limotini izohlab bering?
- Yosh davrlari psixologiyasining fan sifatida shakllanishiga ta`sir ko’rsatgan xolatlar va omillarni ko’rsatib o’ting?
- Yosh davrlari psixologiyasi fanining tamoyillarini ko’rsating?
- Yosh davrlari psixologiyasi fanining nazariy va amaliy vazifalarini batafsil yoritib bering?

Mavzu bo’yicha test savollari:

1. Rus psixologi B.G.Ananyev ilmiy-tadqiqot metodlarini tasniflash uchun ularni nechta guruhga ajratadi?

a. 2 ta;
b. 3 ta;
c. 4 ta;
d. 5 ta.

2. Turli guruh vakillarini yoshga, jinsga, faoliyat turiga yoki boshqa jihatlariga ko’ra solishtirib ko’rish qaysi tadqiqot metodi xisoblanadi?

a. Kuzatish metodi;
b. Qiyoslash metodi;
c. Longityud metodi;
d. Anketa metodi.

3. Shaxsning aqliy taraqqiyotini, qobiliyatini, irodaviy sifatlarini va boshqa psixik xususiyatlarini tekshirish va anqlashda qo’llaniladigan qisqa, standartlashgan(bir qolipga solingan)

savollar, so’rovlar, mashqlar, masala va topshiriqlar qaysi metodda aks etadi?

a. Tajriba metodi;
b. So’rov metodi;
c. Suhbat metodi;
d. Test metodi.

4. Odamning aqliy o’sish va iste`dod darajalarini o’lchash imkoniyati mavjud degan g’oyani ilgari surgan tadqiqotchilar?

a. A.Bine, A.Simon;
b. Y.Kolominskiy, L.Vigotskiy;
c. V.Shtern, R.Zazzo;
d. N.Menchinskaya, V.Muxina.

5. Ushbu metodining ilmiy asoslari 1910 yilda A.F.Lazurskiy tomonidan ishlab chiqilgan?

a. Kuzatish metodi;
b. So’rov metodi;
c. Faoliyat samaralarini tahlil qilish metodi;
d. Tabiiy tajriba metodi.

Takrorlash va muhokama uchun savollar:

- Rivojlanish psixologiyasi fanining ilmiy-tadqiqot metodlari tasnifi haqida tushuncha bering?
- Rivojlanish psixologiyasi fanida qo’llaniladigan tashkiliy metodlar guruhini tavsiflab bering?
- Kuzatish metodini qollash tartibi, uning afzalliklari va kamchiliklarini izohlab bering?
- O’quvchilar shaxsini o’rganishda tabiiy va laboratoriya metodidan foydalanish to’grisida o’z fikringizni bildiring?
- Test metodini tavsiflab bering?
- Suhbat, so’rov, biografiya, sotsiometriya metodlari haqida tushuncha bering?

II bob. Rivojlanish psixologiyasini shakllanishi

- 2.1. Rivojlanish psixologiyasini shakllanishining tavsifiy bosqichi;
- 2.2. Rivojlanish g'oyasini yuzaga kelishi;
- 2.3. Ta`lim amaliyoti bilan bog'liq yosh davrlari differensiyasi;
- 2.4. Eksperimental amaliyot va fan sifatida rivojlanish psixologiyasini shakllanishi.

Tayanch so'zlar:

Aqliy taraqqiyot, psixik jarayonlar, tarbiya, ta`lim, fiziologiya, odam va hayvon psixikasi, ontogenetik taraqqiyot, bolalik, rivojlanish, genetik tadqiqot, ruhiy inqirizlar, biologik va ijtimoiy omil, ruhiy taraqqiyot va ta`lim, faoliyat konsepsiyasi, yetakchi faoliyat, psixik taraqqiyotning tashqi va ichki omillari.

2.1. Rivojlanish psixologiyasini shakllanishining tavsifiy bosqichi

19 asr oxiri va 20 asr boshlarida fiziologiya va umumiy psixologiya sohasidagi amaliy tajribalar, bola psixikasini eksperimental tadqiq etish uchun turtki berdi. XX asr boshlarida Germaniyada o'quv va tarbiyaviy vazifalarni hal etishga ko'maklashuvchu E.Meyman(1862-1915) laboratoriyasi ish boshladi. 1907 yilda Meyman "Eksperimental pedagogika bo'yicha ma`ruzalar" kitobini chop etadi, unda "Eksperimental didaktika"ga oid ishlarni tahlil qiladi.

Angliyada taniqli bolalar psixologi Djems Selli maktab o'quvchilarining tipologik xususiyatlarini o'rganish bo'yicha eksperimental tadqiqotlar olib bordi va 1898 yilda "Bolalar psixologiyasidan ocherklar" asarini ommaga havola etdi.

Fransiyada A.Bine bolalar eksperimental laboratoriyasini tashkil etishga harakat qildi va Parij maktablaridan birida unga asos soldi.

Alfred Bine Sen Simon bilan hamkorlikda, aqli zaiflarnng maxsus maktabiga bolalarni tanlab olish metodikasini ishlab chiqadi, mazkur metodikada test metodidan foydalaniladi. Aqliy taraqqiyot xususiyatlarini o'rganar ekan, Bine "aqliy yosh" tushunchasini kiritadi.

Rossiyada yosh va pedagogik psixologiyaning fan sifatida shakllanishida taniqli rus pedagogi va psixologi K.D.Ushinskiy(1824-1870)ning xizmatlari beqiyosdir. Uning “Odam tarbiya predmeti sifatida” (1868-1869) asari, pedagogik ta`sir oby’ekti xisoblangan odam psixologiyasini o’rganishga bag’ishlangan.

K.D.Ushinskiy o’z oldiga pedagogik antropologiyaning psixologik asoslarini ishlab chiqish vazifasini qo’yadi, odam tarbiya predmeti sifatida qanday tabiatga ega, uning mohiyatini nima tashkil etadi kabi savollarga javob izlaydi.

K.D.Ushinskiyning ta`kidlashicha, psixik jarayonlar hayotiy faoliyat mahsuli va uning zaruriy sharti sanaladi, u odamni tabiiy va ijtimoiy mavjudot, yerdagi hayot evolyutsiyasining oliy darajasi sifatida e`tirof etadi.

K.D.Ushinskiy tomonidan odam va xayvonlar nerv tizimining tuzilishi va funksiyalarining o’xshash jihatlari, psixik jarayonlarning umumiy qonuniyatlari ko’rsatib o’tilgan, shu bilan birga, ijtimoiy tarixiy taraqqiyot natijasi bo’lgan sifat jihatidan farqlanuvchi, faqat odamga xos bo’lgan psixik xususiyatlar qayd etilgan.

Bolaning psixik taraqqiyotida K.D.Ushinskiy fikricha, tarbiya hal qiluvchi o’rin tutadi, bola murg’ak, bevosita kattalar ko’magiga muhtoj holda dunyoga keladi, u inson sifatida taraqqiy etishning boy imkoniyatlariga ega bo’ladi hamda ular ta`lim va tarbiya orqali ro’yobga chiqariladi.

Bolalar va pedagogik psixologiya masalalariga eksperimental yondasuv A.P. Nechayev(1875-1943) nomi bilan bog’liq bo’lib, u maktab o’quvchilarining ta`lim sharoitida amalga oshadigan psixik jarayonlarni tadqiq etgan. A.P.Nechayev o’quv rejalari, o’qitish usullari, bilimlarni baholash shakllarini eksperimental psixologiya nuqtai-nazaridan talqin etadi, kelgusida diqqat, xotira jarayonlarini tajriba usullari yordamida o’rganish orqali ta`lim jarayonini ilmiy asoslash va o’quvchilarga bilimlarni yetkazib berish mohiyatini aniqlash mumkinligiga ishonch bildiradi.

Sobiq ittifoq psixologiya maktabining dastlabki vakillaridan biri sifatida P.P.Blonskiy(1884-1941)ni qayd etish mumkin, uning asosiy tadqiqot ishlari yosh psixologiyasi(“Psixologik ocherklar”, “Xotira va tafakkur”) masalalariga bag’ishlangan. U o’zining “Psixologik ocherklar”(1927) risolasida psixologiya

fanining fiziologiya va biologiya bilan uzviy aloqadorligini ta`kidlagan holda, uning predmeti haqida yozadi:

Fiziologiya – odamning turli organlari faoliyatini (ovqat hazm bo'lishi, qon aylanishi, nafas olishi v.b.) o'rganadi.

Psixologiya – tabiiy ne`matlarni iste`mol qiluvchi, nafas oluvchi odamning faoliyatini tadqiq etadi va o'rganadi.

Bola psixik taraqqiyotining o'ziga xos jihatlarini kuzatar ekan, P.P.Blonskiy quyidagi holatlarga o'z e`tiborini qaratadi:

- odam va hayvon psixikasi bir-biridan tubdan farqlanadi(ayniqsa odam psixikasi sifat jihatidan alohida tuzilmalarga ega);
- odamning psixik taraqqiyotiga uni o'rab turgan ijtimoiy shart-sharoitlar o'z ta`sirini ko'rsatadi;
- rivojlanishning turli bosqichlarida, ruhiy taraqqiyotning kechishi doirasida turli qarama-qarshiliklarni kuzatish mumkin.

XX asrning 20-yillarida Leningrad(hozirgi Sankt-Peterburg) shahrida taniqli rus nevrologi V.M.Bexterev, o'z shogirdi N.M.Shelovanov bilan birgalikda odam va xayvon ontogenezini qiyosiy o'rganish klinikasini tashkil etdilar.

Mazkur laboratoriyada, ilk yoshdagi(tug'ilgandan uch yoshgacha) bolalar tunu-kun kuzatuv ostida bo'ldilar, ularning xulqida ro'y bergan yangi o'zgarishlar qayd etib borildi. Ushbu kuzatishlar orqali olingan natijalar N.M.Shelovanov va uning ilmiy xodimlari N.L.Figurin va M.P.Denisovalar tomonidan chop etlidi.

2.2. Rivojlanish g'oyasini yuzaga kelishi

Bolalik – anatomik-fiziologik, ijtimoiy-psixologik jihatdan balog'atga yetishgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Ushbu davr bolaning shaxs sifatida ulg'ayish, uning kishilik jamiyatining haqiqiy a'zosiga aylanish davri xisoblanadi.

D.B.Elkoninning etnografik ma`lumotlariga asoslanib ko'rsatishicha, bolalik davri ularni ijtimoiy ishlab chiqarish tizimiga bevosita qo'sha olmaslik davrida yuzaga keladi. Rossiya psixologiya maktabining yan bir vakili L.S.Vigotskiyning ko'rsatishicha, madaniy-tarixiy psixologiya negizida bolaning rivojlanishini

o’rganish – bolaning bir yosh pog’onasidan ikkinchisiga o’tishini, har bir yosh davrida yuz beradigan shaxsdagi o’zgarishlarni o’rganish va tahlil qiliah demakdir.

Filipp Ariyes, insoniyat tarixi davomida olimlar, yozuvchilar va rassomlar tasavvurida bolalik tushunchasi qanday shakllanganligi hamda u turli tarixiy davrlarda bir-biridan farq qilganligini o’rgangan.

- Bolalik – individning ontogenetik taraqqiyot bosqichi xisoblanib, uning tug’ilganidan to kattalar hayotiga qadam qo’yishgacha bo’lgan davrini o’z ichiga oladi.
- Bolalikda go’daklik, ilk bolalik, boqcha yoshi va kichik maktab yosh davrlari farqlanadi.
- Bolalik - biologik, ruhiy va ijtimoiy yetuklik sari yetaklovchi o’smirlik va o’spirinlik davrlariga o’z o’rnini bo’shatib beradi.

Psixologik lug’atdan

Antik davrning yirik mutafakkiri Aristotelda ham, bolalarga bag’ishlangan fikrlar uchraydi. Bolalik davrining tarixan kelib chiqishi, psixik rivojlanish haqidagi nazariy masalalar P.P.Blonskiy, L.S.Vigotskiy, D.B.Elkonin, A.N.Leontyev kabi olimlarning ishlarida yoritib berilgan. Bolalarning ruhiy taraqqiy etish qonuniyatlari haqida V.Shtern, J.Piaje, N.Muxina, M.Lisina va boshqa bir qator tadqiqotchilar ham yozib qoldirishgan.

XIX asr adabiyoti ishchilarsinfi vakillarining farzandlari “bolalik davri”ni boshdan kechirmaganligi haqida guvohlik beradi. Masalan Angliyadagi ishchilar sinfini o’rgangan F.Engels, 1833 yilda Angliya parlamenti tomonidan fabrikalardagi mehnat sharoitini tadqiq etgan komissiya xulosalaridan misol keltiradi: bolalar 5-6 yoshdan mehnat qilishni boshlardilar, yana ham ko’proq 7 yoshdan, lekin kambag’al ota-onalarning deyarli barcha bolalari 8 yoshdan mehnat qilishgan; ularning ish vaqti 14-16 soatgacha davom etgan.

Filipp Ariyesning ishlari tufayli chet el psixologiya maktablarida “bolalik davri”ga qiziqish ancha ortdi. Filipp Ariyesni turli tarixiy davrlarda rassomlar, yozuvchilar va olimlar ongida “bolalik” tushunchasi qanday o’rin egallaganligi qiziqtirar edi. Uning tasviriy san`at sohasidagi tadqiqotlari shunday xulosaga olib

keldiki, XIII asrgacha tasviriy san`at umuman bolalar obraziga murojaat etmagan, rassomlar ularni tasvirlashga ham urinishmagan ekan.

XIII asrdagi musavvirlar ijodida bolalar obrazi faqatgina diniy-allegorik lavhalarda uchraydi. O'sha davrlarda bola shaxsi tan olinmagan, chunki bolalar tabiati va o'ziga hos xususiyatlari haqidagi bilimlar yetarli emasdi.

"Bolakay, kichkintoy" so'zi hozirgi kundagi darajada ahamiyat kasb etmasdi. Shunisi ajablanarli-ki, masalan, o'sha davrlarda Germaniyada "bolakay" so'zi "ahmoq" so'zining sinonimi xisoblanar ekan.

Bolalik tez o'tib ketuvchi va uncha qadrli bolmagan davr sifatida e`tirof etilardi. Bolalik davriga nisbatan befarq munosabat, F.Ariyesning fikricha, o'sha davrdagi demografik vaziyat oqibatida yuzaga kelgan. O'sha davrlarda tug'ilish ko'rsatkichlari juda yuqori va bolalar o'limi ko'p edi.



Agar bolalarga nisbatan befarq munosabatning o'zgarishini musavvirlarning ijod namunalari orqali ko'rib chiqsak, XVI asrga kelib ayrim rassomlarning asarlarida bolalar portreti paydo bo'la boshladi. Albatta ular, shox va unga yaqin saroy a`yonlarining oila a`zolari, yaqinlari va zodogan bolalarining portretlari edi.

Bolalik davrining ochilishi XIII asrga to'g'ri kelsa, san`at asarlarida aks etishi XIV-XVI asrlarga, lekin yorqin va to'laqonli ifodalanishi XVI asr oxiri va XVII asrni qamrab oladi. Bolalar psixologiyasi – solishtirma psixologiya tarmog'i sifatida 19 asroxirlarida dunyoga keldi. Bolaning psixik rivojlanishini o'rganishga

doir tadqiqotlarga V.Preyerning “Bola qalbi” kitobi keng yo’l ochib berdi. Unda Preyer o’z qizining psixik rivojlanishini kundalik kuzatuv natijalari asosida yozib boradi va asosiy e`tiborni sezgi organlari, xarakatlar tezligi, iroda, fikrlash hamda tilning rivojlanishiga qaratadi.V.Preyer bola hayotining ilk davrlarini o’rganadi va bolalar psixologiyasiga ob`yektiv kuzatishni kiritadi.

Rus fiziologi I.M.Sechenovning yozishicha, psixologiyani psixik jarayonlarning kelib chiqishi va rivojlanishini o’rganuvchi fan sifatida e`tirof etish mumkin. Psixologiyaga genetik(naslga oid) tadqiqotlar o’tkazish g’oyasi ancha oldin kirib kelgan. Taniqli psixologlar, bir vaqtning o’zida bolalar va genetik psixologiya bilan shug’ullanishgan. 19 asr oxirlarida bolalar psixologiyasining fan sifatida shakllanishiga ayrim shart-sharoitlar o’z ta`sirini ko’rsatgan:

- sanoatning jadal rivojlanishi, ijtimoiy hayotning yangi darajasi;
- bolalarga ta`lim va tarbiya berishga bo’lgan qiziqishning ortishi;
- jismoniy jazo tarbiyaning samarali usuli emasligi haqidagi g’oyalarning taraqqiy etishi;

Psixolog olimlarning xisoblashicha, kattalar psixologiyasini tushunish uchun, bolalarning psixik rivojlanishini o’rganish talab etiladi. Ushbu sohada J.Uotson, V.Shtern, K.Byuler, K.Koffka, K.Levin, A.Vallon, Z.Freyd, E.Shpranger, J.Piaje, V.Bexterev, S.L.Rubinshteyn, L.S.Vigotskiy, A.N.Leontyev, N.Muxina, A.V.Petrovskiy, D.B.Elkonin, P.Ya.Galperin va boshqa bir qator yirik psixologlar ish olib borishgan.

2.3. Ta`lim amaliyoti bilan bog’liq yosh davrlari differensiyasi

XX asr boshlarida vujudga kelgan yirik psixologiya yo’nalishlarining taniqli vakillari inson umrining betakror xususiyatlarini e`tirof etgan holda, ruhiy taraqqiyotning kechishini turli yosh davrlariga bo’lgan holda o’rganishgan.

Har bir yosh davri o’zining muhym hayotiy shart-sharoitlari, yuzaga kelgan ehtiyojlari, faoliyat turlari va motivlari, o’ziga xos qarama-qarshiliklari hamda inqirozli xolatlari, bola psixikasidagi yangi sifat o’zgarishlari bilan ajralib turadi.

Personologik nazariyaning yirik vakili E.Shpranger «O’spirinlik davri psixologiyasi» nomli asarida o’spirinlik davriga 13-19 yoshli qizlar, 14-22 yoshli

yigitlarni kiritishni tavsiya qiladi. Uning fikricha, aynan ushbu yosh davrida quyidagi asosiy o'zgarishlar yuz beradi:

- shaxsiy «Men»ni kashf qilish;
- refleksiyaning o'sishi;
- o'zining alohida shaxs ekanligini anglash va o'zining shaxsiy fazilatlari va xususiyatlarini e`tirof etish;
- hayotiy ezgu rejalarning paydo bo'lishi;
- o'z shaxsiy hayotini yo'lga qo'yishga intilish;

14-17 yoshlardagi o'spirinlarda vujudga keladigan inqirozli xolatlar, o'zlariga nisbatan kattalarning bolalarcha munosabati doirasidan qutulish tuyg'usining paydo bo'lishi, 17-21 yoshdagi o'spirinlarda esa, o'z tengdoshlaridan «ajralish» inqirozi va yolg'izlik hissining yuzaga kelishi bilan izohlanadi.

Fransuz psixologi Anri Vallon bolaning ruhiy taraqqiyoti va shaxs sifatida ulg`ayishiga ko'ra yosh davrlarini quyidagi bosqichlarga ajratadi:

- homilaning ona qornidagi davri;
- impulsiv harakat davri – tug'ilgandan 6 oylikkacha;
- emotsionallik (hissiy xolatlar) davri – 6 oylikdan 1 yoshgacha;
- sensomotor (idrok va harakatning uyg'unlashuvi) davri – 1 yoshdan 3 yoshgacha;
- personologizm (shaxsga aylanish) davri – 3 yoshdan 5 yoshgacha;
- farqlash davri – 6 yoshdan 11 yoshgacha;
- jinsiy yetilish va o'spirinlik davri–12yoshdan18 yoshgacha;

Bolaning psixik rivojlanishi L.S.Vigotskiy bola psixik taraqqiyotida ro'y beradigan inqirozli vaziyatlar, ularnu hal etishga qaratilgan ruhiy yangilanishlarga tayangan holda yosh davrlarini quyidagi bosqichlarga ajratadi:

1. Chaqoloqlik davri inqirozi.
2. Go'daklik davri - 2 oylikdan 1 yoshgacha. Bir yoshdagi inqiroz.
3. Ilk bolalik davri - 1 yoshdan 3 yoshgacha. 3 yoshdagi inqiroz.

4. Maktabgacha davri - 3 yoshdan 7 yoshgacha. 7 yoshdagi inqiroz.
5. Maktab yoshi davri - 8 yoshdan 12 yoshgacha. 13 yoshdagi inqiroz.
6. Pubertat (jinsiy etilish) – 14-18 yosh. 17 yoshdagi inqiroz.

Rus psixologi A.V.Petrovskiy shaxs kamolotiga ijtimoiy-psixologik nuqtai-nazar bilan yondashib, yosh davrlarining o'ziga xos tasnifini yaratgan, u shaxs shakllanishining prosotsial (ijtimoiy qoidalarga muvofiq) va asotsial (aksilijtimoiy) bosqichlari ham mavjudligini isbotlashga harakat qiladi va shaxsning kamol topishi uchta makrofazadan iborat ekanligini qayd etadi:

- birinchisi – bolalik davriga to'g'ri keladi, unda ijtimoiy muhitga moslashish(adaptatsiya) va ko'nikish ro'y beradi;
- ikkinchisi – o'smirlarga xos yakkahollik(individuallashish);
- uchinchisi – o'spirinlik, ya`ni etuklikka intilish davrida o'ziga xos holatlarni muvofiqlashtirish(birlashtirish) xususiyatlari;

Shaxsning shakllanishi quyidagi bosqichlarda amalga oshadi:

1. Ilk bolalik – tug'ilganidan 3 yoshgacha.
2. Boqcha yoshi davri – 3 yoshdan 7 yoshgacha.
3. Kichik maktab yoshi davri – 7 yoshdan 11 yoshgacha.
4. O'rta maktab yoshi(o'smirlik) davri – 11 yoshdan 15 yoshgacha.
5. Yuqori sinf o'quvchisi (ilk o'spirinlik) davri – 15 yoshdan 17 yoshgacha.

Shaxs rivojlanishining psixologik-ijtimoiy bosqichlari

(Psixodinamik yo'nalish vakili E.Erikson bo'yicha)

Go'daklik (tug'ilganidan bir yoshgacha bo'lgan davr)	• Bolada o'z yaqinlariga nisbatan ishonch tuyg'usi mustahkamlanadi. • O'zaro ishonch hissining paydo bolish sharti – onaning bolaga mehr berishi va parvarish qilishi xisoblanadi.
Ilk bolalik (1 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan davr)	• Bolada mustaqillikning ortib borishi. • Bolaga haddan ziyod, keragidan ortiq g'amho'rlik ko'rsatish ham salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. • Bolaning erkinligini cheklash, undan me`yordan ortiq

	narsalarni talab qilish, unda uyatchanlik, gumonsirash va o’z kuchiga bo’lgan ishonchsizlikni keltirib chiqaradi.
O’yun yoshi (3 yoshdan 6 yoshgacha)	• Bolalar turli mashg’ulotlar bilan qiziqa boshlaydilar. • Ota-onalar bolaning mustaqil harakatlarini qo’llab-quvvatlaydilar, bu esa tashabbuskorlik va ijodiy qobiliyatlarning rivojlanishiga zamin yaratadi.
Maktab yoshi (6 yoshdan 12 yoshgacha)	• Maktabda ta`lim olish davrida bolalar intizomli bo’lish qoidalari bilan tanishadilar, jamoa hayotida faol ishtirok etishni o’zlashtiradilar. • Ayrim bolalarda “noqislik hissi” paydo bo’ladi, o’z qobiliyatlariga shubha bilan qarash yoki o’z tengdoshlari orasida o’z o’rnini topa omaslik xolatlari ushraydi.
O’spirinlik (12-13 yoshdan tahminan 19-20 yoshgacha)	• Bu yoshda quyidagi hayotiy savollarga javiob izlanadi: «Men kimman?», «Men qayerga qarab ketayapman?». • Keskin o’zgarishlar: anatomik-fiziologik, ijtimoiy. • Jamiyat qabul qilgan me`yorlardan qoniqmaslik, havotirlanish xissini yuzaga keltirishi mumkin.
Yoshlik (20 yoshdan 25 yoshgacha)	• Mazkur bosqichda intimlikka erishish yuz beradi. • Bu davrning havfli jihati, shaxsning haddan ziyod o’ziga bino qo’yishi yoki shaxslararo munosabatlardan qochishi xisoblanadi. Bu yolg’izlik xissining paydo bo’lishi, jamiyat hayotidan “uzilish”ga olib kelishi mumkin.
Yetuklik (26 yoshdan 64 yoshgacha)	• Samarali faoliyat va sustkashlik o’rtasidagi tanlov; • Faoliyat mahsuli, katta avlodning yoshlarga g’amho’rlik ko’rsatishi uchun yo’naltiriladi. • Muayyan bir faoliyatda muvaffaqiyatga erisha olmagan kishilar o’zi-bilan o’zi bo’lib qoladi.
Qarilik (65 yoshdan umrning	Faqat keksalik yoshidagina “o’tgan hayot yo’llarida olingan saboqlar” dan xulosalar chiqariladi. Ayrim kishilar o’z

oxirigacha)	hayotini ro'yobga chiqmagan imkoniyatlar va hatoliklar davri deb ataydi.

Rus psixologi D.B.Elkoninning yosh davrlari tasnifi, har bir yosh davrida yetakchi faoliyatning mavjudligi, har bir rivojlanish pallasida faoliyatning biror bir turining ustunlik(yetkchilik) qilishiga asoslanadi:

Ruhiy taraqqiyot bosqichlari	**Yosh davrlari**	**Yetakchi faoliyat turi**
1	Go'daklik davri – tug'ilgandan bir yoshgacha bo'lgan davr;	Bevosita hissiy muloqot (ko'proq onasi bilan)
2	Ilk bolalik davri - 1 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan davr;	Predmetli faoliyat, predmetlar bilan turli-tuman harakatlar qilish.
3	Maktabgacha yosh(Boqcha yoshi) davri - 3 yoshdan 6-7 yoshgacha;	Ijtimoiy-maishiy hayotni aks ettirgan rolli(voqeaband) o'yinlar
4	Kichik maktab yoshi davri – 6-7 yoshdan – 10-11 yoshgacha;	O'quv faoliyati
5	Kichik o'smirlik davri - 10-11 yoshdan 15-16 yoshgacha;	Ijtimoiy-foydali faoliyat jarayonida tengdoshlari bilan o'zaro muloqot, shaxslararo intim munosabatlar
6	Katta o'smirlik yoki ilk o'spirinlik davri - 15-16 yoshdan 17-18 yoshgacha;	Fan asoslari bo'yicha o'quv faoliyati va kasb tanlash.

Yirik fransuz psixologi Anri Vallon(1879-1962) bola psixikasining rivojlanishini marksistik nuqtai-nazar orqali tahlil qiladi. Uning asosiy g'oyalari

“Bolaning psixik rivojlanishi”(1941), “Harakatdan to fikrlashgacha”(1942), “Bola tafakkuri manbalari”(1945) kabi tadqiqot ishlarida bayon etilgan.

Vallonning ko’rsatishicha bola psixik taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchi, bola yashab turgan muxitning murakkablashib borish jarayoni va unda bolaning o’zaro birgalikdagi faoliyati xisoblanadi. Bolaning psixik rivojlanishiga ta`sir ko’rsatuvchi shart-sharoitlardan, insoniyat tomonidan yaratilgan buyumlar va odamlarning xulq-atvori hamda ularning munosabatlari muhim ahamiyatga ega.

Dastlab bola psixikasi uchun tashqaridan kelayotgan ta`sirlar muhim o’rin egallaydi, so’ngra psixik rivojlanish ko’proq ichki shart-sharoitlarga bog’liq bo’lib boradi. O’z navbatida psixik rivojlanish bola faoliyat olib borayotgan sharoitning murakkablashib borishiga ham uzviy aloqadorlik kasb etadi.

Anri Vallonning ta`kidlashicha, bola psixik rivojlanishini belgilab beruvchi asosiy natija, bolaning shaxs sifatida ulg’ayishi xisoblanadi.

Rivojlanish bir bosqichdan ikkinchi bosqichga sifat o’zgarishlari bilan o’tadi, o’tish jarayonlari inqirozli xolatlar bilan kechadi.

Vallon o’z ilmiy ishlarida ruhiy taraqqiyotga ta`sir etuvchi biologik va ijtimoiy omillarnig o’zaro munosabati masalasiga ham alohida to’xtalib o’tadi hamda bolaning psixik rivojlanishi insoniyat taraqqiyotining qayta takrorlanishi deb xisoblaydigan nazariyalarni tanqid ostiga oladi.

2.4. Eksperimental amaliyot va fan sifatida rivojlanish psixologiyasini shakllanishi

Psixik taraqqiyot muammolarini hal etishga bo’lgan tarixiy yondashuv, yirik rus psixologi A.N.Leontyev(1903-1979) olib borgan tadqiqot ishlarda yaqqol ko’zga tashlanadi. O’z ilmiy izlanishlarida Leontyev, hayvonlarning ontogenetik taraqqiyotdagi xulqidan farq qiluvchi bola psixik rivojlanishidagi sifat jihatdan yangi o’zgarishlarini ko’rsatib o’tadi. Ushbu farqli jihatlar, bolaning insoniyat tomonidan to’plangan tarixiy tajribalarni o’zlashtirishida aks etadi.

Hayvonlarda hayotiy tajribalarni egallashning ikkita ko’rinishi uchraydi:

- irsiyat orqali mustahkamlangan filogenetik tajribalar;
- hayot davomida egallangan individual(yakka) tajribalar;

Odam esa hayvonot dunyosidan farq qilgan holda tajribalarni o'zlashtirishning yana bir shakliga egalik qiladi:

- ijtimoiy ong va belgilar tizimi(til)ning turli shakllari hamda mehnat mahsulida aks etadigan tajribalar;

Faqat insonga xos bo'lgan mazkur tajribalarni egallash, bola dunyoga kelgan kunidan boshlanadi, u tashqi olamga nafaqat moslashadi, balki uni o'ziniki qilib olishga intiladi. A.N.Leontyev egallash(o'zlashtirish) tushunchasi ostida quyidagi xolatni nazarda tutadi "...individum tomonidan tarixan shakllangan insoniy qobiliyatlar va funksiyalarni ro'yobga chiqarishdir..."[4].

Individning ijtimoiy-tarixiy tajribalarni o'zlashtirishi, uning faolligini ta`minlaydi. Bolaning faoliyatni egallashi kattalarning ko'magi ostida kechadi, ular bolaga hatti-harakatlarga doir saboq beradilar. A.N.Leontyev fikricha, bolaning shaxs sifatida ulg'ayishi, uning insonlar o'rtasidagi shaxslararo munosabatlar tizimidagi o'rnini belgilaydi, o'z navbatida bu o'rin uning kattalar bilan hakorlikda faoliyat ko'rsatish darajasini ham aniqlashtirib beradi.

Psixik taraqqiyotning bir bosqichidan ikkinchisiga o'tish – yetakchi faoliyat tipining yangisiga almashinishi orqali izohlanadi.

A.N.Leontyevning faoliyat konsepsiyasi

- A.N.Leontyevning fikriga ko'ra, rivojlanish asosida sub`yektning shaxsiy faoliyati yotadi;
- Kattalarning bolaga nisbatan, o'qituvchining o'quvchiga nisbatan ta`siri, subye`ktning bevosita harakatisiz ro'yobga chiqmaydi

A.N.Leontyev tomonidan fanga yetakchi(asosiy) faoliyat tushunchasi kiritildi. Psixik faoliyat masalasini ichki va tashqi olam bilan o'zaro uzviylikda talqin etish, sobiq ittifoq psixologiya maktabining yirik vakillaridan biri S.L.Rubinshteyn (1889 -1960) olib borgan ishlarda aks etadi. Uning ta`kidlashicha, bola psixik taraqqiyotining tashqi va ichki omillari o'zaro dialektik tarzda bog'liqdir.

Agar bolalar va kattalar orasidagi munosabatlar ongning o'sishiga zamin yaratib bersa, ong xulq-atvorning rivojlanishiga o'z ta`sirni ko'rsatadi.

[4] Леонтьев А.Н. Проблемы развития психики. М.1972.с.336.

Rubinshteynning fikricha, ong va xulq-atvor, konkret faoliyat turlari(o'yin, o'quv, mehnat) orqali shakllanadi, shu orqali bola tashqi olamga faol ravishda qo'shiladi, maktab o'quvchilari uchun asosiy faoliyat turi – oquv faoliyatidir.

O'quv jarayonidagi aqliy taraqqiyot o'zaro birgalikdagi sa`y-harakatlarning qiyidagi ko'rinishlari orqali amalga oshiriladi:

- bolaning faoliyati;
- bolaning tafakkurini shakllantiruvchi bilimlarni o'zlashtirish;
- bolaning tabiatga, boshqa kishilarga va o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini o'zgartiruvchi ustanovkalar;

S.L.Rubinshteynning ko'rsatishicha "...bolaning rivojlanishi, uning o'zi qabul qilib olayotgan faoliyat shakllari asosida kechadi...va shu orqali bola shaxs sifatida shakllanadi".[5]

Bolaning ruhiy taraqqiyotiga ta`sir etuvchi omillar

Bola ruhiy taraqqiyotining har bir bosqichida, qarama-qarshiliklarning turli-tuman ko'rinishlari uchraydi. Ushbu xolatni bolaning muloqotga bo'lgan ehtiyoji misolida ko'rish mumkin. Go'daklik yoshidagi bola avvalo o'ziga yaqin bo'lgan kishilar, ayniqsa onasi bilan, yuz ifodasi(mimika), imo-ishoralar, ayrim ma`noga ega bo'lmagan so'zlar yordamida muloqot qiladi.

Ilk bolalaik yoshiga o'tib, uni o'rab turgan kishilar bilan hissiy(emotsional) muloqot, bolaga yangi paydo bo'lgan ehtiyojlarni qondirish, tashqi olamni yanada kengroq bilish uchun yetarli bo'lmay qoladi. Muloqotning yangi shakllariga bo'lgan ehtiyoj va uni qondirishning eski usullari o'rtasidagi qarama-qarshilik, **ruhiy taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi** sifatida maydonga chiqadi.

Mazkur qarama-qarshiliklarni yengib o'tish uchun, o'zaro muloqotning sifat jihatdan yangi, faol shakli bo'lgan – nutq faoliyati yuzaga keladi.

Bolaning psixik rivojlanishiga ikkita asosiy omil o'z ta`sirini ko'rsatadi:

- **biologik(tabiiy);**
- **ijtimoiy muxit(hayot sharoiti, ta`lim va tarbiya);**

Eng asosiy biologik omil sifatida **irsiyat** nazarda tutiladi.

[5] Рубинштейн С.Л. Проблемы общей психологии. М. 1976. с.192.

Bola qanday irsiy belgilar bilan tug'iladi?

- odamga xos bolgan bosh miyaning tuzilishi va nerv tizimi;
- odamlar uchun umumiy bo'lgan jismoniy belgilar, sezgi va harakat organlari(tik gavda tuzilishi, tashqi olamni bilish va unga ta`sir ko'rsatish orgali bo'lgan qo'lning tuzilishi);
- nutq apparatining odamga xos bo'lgan shakli va tuzilishi;
- odam asab tizimining anatomik va fiziologik tuzilishi.

Irsiy belgilar jamlanmasi – genofond, qobiliyat nishonalari(kurtaklari) deb ham yuritiladi, ular asosida umumiy va maxsus qobiliyatlar rivojlanadi.

Nasliy xususiyatlarning ahamiyati to'grisida, o'z davrida rus ma`rifatparvar-pedagogi V.G.Belinskiy ham o'z fikrini bildirib o'tgan. V.G.Belinskiy, XVII asrda yashab o'tgan angliyalik faylasuf Djon Lokkning "... bola tug'ilganda xuddi ishlov berilmagan taxtaga o'xshaydi..."(tabula rasa) degan o'xshatishiga qarshi chiqadi va buni quyidagicha izohlaydi: "... taxtaga bitiladigan hayot yozuvlarining ma`nosi va sifati, faqat yozuvchi va yozuv quroliga bog'liq emas, balki taxtaning o'zining sifatiga ham taaluqlidir...".[6]

Irsiyat(nasliy xususiyatlar)ning moddiy asosi – DNK(dezoksiribonukleyin kislotasi) xisoblanadi, aynan u xujayradagi genetik axborotni saqlash va yetkazib berish fuksiyasini bajaradi. Genlar – barqaror tuzilmalar bo'lib, ular ichki sabablar va tashqi qo'zg'atuvchilar ta`siriga nisbatan chidamli bo'lishadi.

Shuni ta`kidlash o'rinliki, bola tug'ilganidagi hamma belgilarni faqat irsiyat orqali izohlash ham nojoizdir. Boladagi ayrim tug'ma xususiyatlar va ularning belgilari, homiladorlik davrida orttirilgan bo'lishi ham mumkin.

Onaning xomiladorlik davridagi jismoniy va ruhiy xolati, turmush tarzi, ruhiy iztiroblari, noto'g'ri qo'llangan dori-darmon vositalari ayrim analizatorlar faoliyatida muayyan bir o'zgarishlarni yuzaga keltiradi, bu esa o'z navbatida bolaning ruhiy taraqqiyotiga salbiy ta`sir ko'rsatishi mumkin.

[6] Белинский В.Г. Полное собрание сочинений. М.1954. т.IV, с.83.

Biologik omil juda katta ahamiyatga ega, lekin tabiiy xususiyatlar bola ruhiy taraqqiyotini to'la belgilab bera olmaydi, shaxs sifaida ulg'ayish, komillikka erishish uchun odam bo'lib tug'ilishning o'zi kifoya qilmaydi.

Shaxsga xos bo'lgan psixik xususiyatlar, shaxsning ma`naviy qiyofasi, ahloqiy sifatlari to'laqonli ravishda nasldan-naslga o'tmaydi, odam faqat ijtimoiy muxitning hal qilivchi ta`siri ostdagina shaxs sifatida shakllanadi.

Umuman olganda muxit, psixik taraqqiyot omili sifatida – murakkab va keng qamrovli tushuncha xisoblanadi. Bolaning psixik taraqqiyotiga tabiiy muxit ham muayyan tarzda o'z ta`sirini ko'rsatadi:

- havo, suv, quyosh;
- tortishish kuchlari, elektromagnit maydonlari;
- tabiat va o'simliklar dunyosi, iqlim sharoitlari;

Bola psixik taraqqiyotining asosiy sharti – uning kishilik jamiyatidagi hayotidir. Faqat odamlar bilan o'zaro muloqot jarayonidagina bola insonga xos xulq-atvorni o'rganadi, maishiy hayot va mehnat predmetlari bilan muomala qilishni o'zlashtiradi, nutqni egallaydi; katta avlod vakillari asrlar davomida to'plangan madaniy-ma`rifiy qadriyatlar va ahloq mey`orlarini yetkazib beradilar.

"..Jamiyatning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti mobaynida kishilar tomonidan yaratilgan narsalar va xodisalarni egallash jarayoni, - deya ta`kidlaydi A.N.Leontyev, - aynan shunday jarayon-ki, unda indibidda faqat odamga xos bo'lgan qobiliyatlar va funksiyalarning shakllanishi yuz beradi..."[7]

Bolaning rivojlanishi uni o'rab turgan muxit yoki mikromuxit (oila, ota-ona, tengdoshlar, qarinloshlar, qo'shnilar), keng ma`noda olganda ijtimoiy muxit(makromuxit), hayotiy vaziyatlar, turli-tuman ommaviy axborot vositalari ko'magi va bilvosita ta`siri ostida kechadi.

Xorij va sobiq ittifoq psixologiya maktabi vakillarining psixik taraqqiyot muammolariga doir qarashlari o'rtasidagi farqlar:

	Xorij psixologiya maktabi: S.Xoll, U.Shtern, Z.Freyd,	Sobiq ittifoq psixologiya maktabi: P.P.Blonskiy, L.S.Vigotskiy,

[7] Леонтьев А.Н. Проблемы развития психики. М.,1972, с.42.

	J. Piaje, E.Erikson	A.N.Leontyev, D.B.Elkonin
Rivojlanishning borishi	Yakkalik(individuallik)dan to ijtimoiylikkacha (ijtimoiylashuv)	Ijtimoiydan yakkalik(individuallik)ka (oliy psixik funksiyalarning rivojlanish qonuni)
Shart-sharoitlari	Irsiyat va muxit	Miyaning morfologik-fiziologik xususiyatlari va muloqot
Manbalar	Individning ichki olamida: uning tabiatida	Individdan tashqarida: muxit
Rivojlanish shakli	Moslashish	Egallash(o'zlashtirish)
Rivojlanishning o'ziga xosligi	Rekapitulyatsiya konsepsiyasining turli Shakllari	Rivojlanish biologik qonunlarga emas, ijtimoiy-tarixiy qonunlarga bo'ysunadi
Rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchlari	Ikkita omil Konvergensiyasi	Ta`lim, faoliyat

Mavzu bo'yicha test savollari:

1. Odamni tabiiy va ijtimoiy mavjudot, yerdagi hayot evolyutsiyasining oliy darajasi sifatida e`tirof etgan olim?

a. A.N.Leontyev.
b. S.L.Rubinshteyn.
c. K.D.Ushinskiy.
d. P.P.Blonskiy.

2. Odamning turli organlari faoliyatini (ovqat hazm bo'lishi, qon aylanishi, nafas olishi v.b.) o'rganadigan sohani aniqlang?

a. anatomiya.
b. fizioligiya.
c. psixologiya.
d. genetika.

3. O’zining “Psixologik ocherklar”(1927) risolasida psixologiya fanining fiziologiya va biologiya bilan uzviy aloqadorligini ta`kidlagan tadqiqotchi psixolog ...?

a. A.N.Leontyev.
b. S.L.Rubinshteyn.
c. K.D.Ushinskiy.
d. P.P.Blonskiy.

4. Insoniyat tarixi davomida olimlar, yozuvchilar va rassomlar tasavvurida bolalik tushunchasi qanday shakllanganligini o’rgangan tadqiqotchi?

a. Stenli Xoll.
b. Anri Vallon.
c. Filipp Aries.
d. Alfred Bine.

5. Faoliyatni chuqur o’rgangan va fanga yetakchi faoliyat tushunchasini kiritgan rus psixologi?

a. K.D.Ushinskiy.
b. P.Y.Galperin.
c. A.N.Leontyev.
d. A.R.Luriya.

6. “... bola tug’ilganda xuddi ishlov berilmagan taxtaga o’xshaydi...” ushbu fukr muallifi bo’lgan mutafakkir?

a. F.Bekon.
b. D.Lokk.
c. S.Xoll.
d. A.Vallon.

7. Mazkur bosqichda intimlikka erishish yuz beradi. Bu davrning havfli jihati, shaxsning haddan ziyod o’ziga bino qo’yishi yoki shaxslararo munosabatlardan qochishi xisoblanadi. Bu qaysi yosh davri hisoblanadi? (Erikson tasnifi bo’yicha)

a. Maktab yoshi.

b. O’spirinlik.

c. Yoshlik.

d. Yetuklik.

8. Ilk bolalik davridagi yetakchi faoliyat turi?(D.B.Elkonin bo’yicha)

a. Rolli o’yinlar.

b. Didaktik o’yinlar.

c. Nutq faoliyati.

d. Pedmetli faoliyat.

9. Godaklik davridagi yetakchi faoliyat turi?(D.B.Elkonin bo’yicha)

a. Rolli o’yinlar.

b. Bevosita emotsional muloqot.

c. Pedmetli faoliyat.

d. Nutq faoliyati.

10. Inson umrini betakror 8 ta davrga bo’lgan tadqiqotchi?

a. A.Vallon.

b. J.Piaje.

c. Erikson.

d. S.Xoll.

Takrorlash va muhokama uchun savollar:

- Rus pedagogi va psixologi K.D.Ushinskiyning yosh va pedagogik psixologiya fanining rivojlanishiga qo’shgan hissasi?
- Rus psixologi A.N.Leontyevning bolaning ruhiy taraqqiyotini o’rganish bo’yicha olib borgan ilmiy-tadqiqot ishlari haqida ma`lumot bering?
- A.N.Leontyevning faoliyat konsepsiyasi?
- S.L.Rubinshteynning psixik taraqqiyotni kechishiga doir qarashlarini izohlang?
- Psixik taraqqiyotga ta`sir etuvchi omillar, psixik rivojlanish shartlari va harakatlantiruvchi kuchlari haqida tushuncha?
- Biologiik va ijtimoiy omilning uzviy aloqadorligi va farqli tomonlarini ko’rsatib o’ting?

- Bola ruhiy taraqqiyotiga ta`sir ko’rsatuvchi irsiy belgilar va tug’ma xususiyatlarni izohlab bering?
- Bolaning shaxs sifatida ulg’ayishiga bevosita ta`sir ko’rsatuvchi ijtimoiy muxitning o'rni va ahamiyati?
- Ruhiy taraqqiyotni turli yoshdavrlariga bo’linishi?
- Psixik taraqqiyot va ta’limning o’zaro uyg’unligi masalasiga o’z fikringizni bildiring?
- Yetakchi faoliyat haqida tushuncha bering?
- Yosh davrlariga berilgan tasniflarning qiyosiy tahlili?
- Xorij va sobiq ittifoq psixologiya maktablarida psixik taraqqiyot maslalalariga bo’lgan yondashuvni qiyosiy tahlil qiling?

III bob. Endogen va ekzogen yo’nalishlarda rivojlanish nazariyasi

- 3.1. Kamol topishning ilk nazariyasi. K.Byuler bo’yicha rivojlanishning uch bosqichli nazariyasi;
- 3.2.Rivojlanishni tushuntirishning biogenetik yo’nalishi (S.Xoll konsepsiyasi);
- 3.3. Rivojlanish borasidagi tadqiqotlarning normativ yo’nalishi(A.Gezzel, L.Termen nazariyalari);
- 3.4. V.Shternning rivojlanishni ikki omilli konvergensiya nazariyasi;
- 3.5. Dastlabki bixeviorizm nazariyasining sharhi;
- 3.6. B.Skinner nazariyasi.

Tayanch so’zlar:

Biogenetik qonun, evolyutsion ta`limot, rekapitulyatsiya, pedologiya, yosh xususiyatlari, biologik mnsublik, irsiyat, ijtimoiy taraqqiyot, instinkt, ko’nikma, intellekt, psixik rivojlanish, yosh davrlari, bixeviorizm, xulq-atvor, introspeksiya, individ, shaxs, yolg’izlik hissi, tipologik xususiyatlar, stimul, reaksiya, konvergensiya, ijtimoiy mixit, intellektual taraqqiyot.

3.1. Kamol topishning ilk nazariyasi.

K.Byuler bo'yicha rivojlanishning uch bosqichli nazariyasi

Bola psixik taraqqiyotining umumiy nazariyasini biologik qonuniyatlar asosida ishlab chiqqan, bolalar psixologiyasining yirik vakili, avstriyalaik psixolog Karl Byuler (1879-1963) xisoblanadi.

Tadqiqotchi Vyurtsburg maktabi vakili bo'lib, birinchi jahon urushidan so'ng, bolaning psixik rivojlanishida yuzaga keladigan muammolarini ishlab chiqdi va bolalar rivojlanishining uch bosqichli konsepsiyasini ilgari surdi.

Taraqqiyot zinapoyalarining paydo bo'lishi quyidagi xolatlar bilan bog'liq:

- miyaning yetilishi va tashqi olam bilan o'zaro aloqadorlikning murakkablashishi;
- harakatlar orqali qoniqish hissini boshdan kechirish, affektiv jarayonlarning rivojlanishi;

Karl Byuler nazariyasidagi asosiy tushunchalar

Tadqiqotnong asosiy predmeti	Psixik taraqqiyot qonuniyatlari, bola psixikasining rivojlanish bosqichlarini ajratish(instinkt, dressura, intellekt)
Tadqiqot metodlari	Zoopsixologik tajriba

Asosiy tushunchalar	Instinkt, dressura, malaka, intellekt, funksional qoniqish, dastlabki taasurotli qoniqish.
Asosiy g'oyalari	Xayvonlar psixikasining evolyutsion qonuniyatlarini bola psixik taraqqiyotiga ko'chirish. Bola psixikasini, xayvon va madaniylashgan katta odam psixikasini bog'lab turuvchi qism sifatida e`tirof etish. Rivojlanishda emotsiyalarning o'rni.
Taraqqiyot omillari	Preformizm, irsiyat.
Tanqidiy yo'nalishlari	Biologik yondashuv – odamning o'ziga xos rivojlanish yo'lini inkor etish, bolaning imkoniyatlarini cheklash.
Qimmatli tomoni	Rivojlanish g'oyasining mavjudligi, bola rivojlanishini o'rganishda tajriba usulini qo'llanilishi.

3.2. Rivojlanishni tushuntirishning biogenetik yo'nalishi(S.Xoll konsepsiyasi)

Amerikalik psixolog Stenli Xoll (1844-1924) biogenetik qonunga tayangan holda, har bir bola o'z individual taraqqiyoti davomida insoniyatning tarixiy bosqichlarini takrorlab o'tadi degan fikrni ilgari suradi. S.Xoll bolalarning yosh xususiyatlarini tadqiq etar ekan, yana bir yangi g'oyani o'rtaga tashlaydi, uning fikriga ko'ra bolani har tomonlama o'rganadigan kompleks soha bo'lishi va bu yerda psixologik, fiziologik hamda pedagogik bilimlarni birlashtirish lozim.

Keyinchalik XX asr boshlarida yuzaga kelgan ushbu yo'nalish pedologiya nomini oldi. Pedologiya sohasi vakillari rivojlanishni psixikadagi miqdor o'zgarishlari bilan tushuntira boshladilar, ularning fikricha qobiliyatlar, xarakter xislatlari bolaga ota-onadan tayyor holda o'tadi, ota-ona nimaga erishgan bo'lsa uning farzandi ham undan ortiq bo'lmaydi. Bu esa jamiyatdagi sinfiylik va tabaqalanishni yuzaga keltirib, hukmron sinflarning manfaatini ifodalab berardi.

Rekapitulyatsiya (lotincha.Rekapitulatio–takrorlash) biologiyada–ontogenetik taraqqiyotda filogenetik taraqqiyotning ayrim shakl va belgilarini qayta takrorlanish xodisasi.
Rekapitulyatsiya xodisasining kashf etilishi Ch.Darvin nazariyasini asoslab berishda katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Manbalar: Ch.Darvin ta`limoti.

- Ushbu ta`limotda taraqqiyot, muayan bir qonuniyatga asoslanadi degan g'oya ilgari surilgan. Keyingi barcha psixologik nazariyalar bolaning rivojlanish qonuniyatlarini topishga bag'ishlangan.
- G.Gekkel, rekapitulyatsiya xodisasiga ko'ra, biogenetik qonunni ishlab chiqqan.

«Ontogenez – filogenezning qisqacha takrorlanishidir».

REKAPITULUATSIYA NAZARIYASI
Stenli Xoll (1846-1924)

Amerikalik psixolog, pedologiya va eksperimrntal psixologiyaning amerika maktabi asoschisi, bolalar va pedagogik psixologiya sohasiga doir bir qator ishlar muallifi, mazkur tadqiqotlarda u turli yoshdagi bolalar uchun yaratilgan so'rovnoma natijalaridan foydalangan.

S.Xoll biogenetik qonunni bolaning ontogenetik taraqqiyotiga to'g'ridan-to'g;ri ko'chirgan. Bola o'z rivojlanishida insoniyatning taraqqiyot bosqichlarini qisqacha takrorlaydi.

- bolalar rasmi insoniyat tarixidagi tasviriy ijod bosqichini aks ettiradi.
- o'yin – rudimentar funksiyalarni tugatishga qaratilgan mashqlar xisoblanadi.

3.3. Rivojlanish borasidagi tadqiqotlarning normativ yo'nalishi (A.Gezzel, L.Termen nazariyalari)

Pedologiya yo'nalishining tipik vakillaridan biri amerikalik psixolog Arnold Gezzel (1880-1961) bo'lib, u bola shaxsining ijtimoiy taraqqiyotni ham biologik mansublik orqali izohlashga harakat qiladi, ya`ni bolaning jamiyatga qo'shilishi va shaxs sifatida ulg`ayishi ham biologik omillar ta`siri ostida kechadi.

- Bolaning tug'ilganidan ikki yoshgacha bo'lgan davridagi harakat faolligi va ijtimoiy xulq-atvorini qayd etuvchi 3200 ta rasmlar to'plami ishlab chiqilgan.(klinik amaliyotda keng qo'llaniladi).
- Gezzel bolalarning rivojlanishiga oid umumiy qonuniyatlarni topishga harakat qilgan.

Yosh o'tishi bilan taraqqiyot sur`atlari pasayadi!

A.Gezzelning balog'atga yetish nazariyasi

Tadqiqotning asosiy predmeti	Bolaning tug'ilganidan to jinsiy balog'atga yetguniga qadar kechadigan, ruhiy taraqqiyotining mazmuni va sur`ati.
Tadqiqot Metodlari	Kuzatish (maxsus jixozlangan binoda foto va kino kameralar orqali), testlar, ota-onalar uchun so'rvnmalar, longityud, sog'lom va bemor bolalarning, egizaklarning rivojlanishini o'zaro taqqoslash.
Asosiy tushunchalar	Balog'atga yetish, rivojlanish, xulq-atvorning o'sishi, taraqqiyotning bir maromda kechishi, o'sish (rivojlanish) tezligi.
Asosiy g'oyalar	Psixik taraqqiyotning asab tizimiga bog'liqligi, psixik taraqqiyot sur'atining notekisligi, psixik taraqqiyotni nazorat qilish zarurati.
Taraqqiyot Omillari	Biologik omil, organizm balog'atining genetik jihatdan belgilanishi (preformizm)
Tanqidiy yondashuv	Rivojlanishning biologik asoslariga nisbatan urg'u berilishi - «empirik evolyutsionizm» (L.S.Vigotskiy), me`yorlarni mutloqlashtirish, bir yosh davrida olingan ma`lumotlarni, qolganlariga ham birdek tatbiq etish.
Qiymati	Psixologik tadqiqotlarga yangi metod va metodikalarning joriy etilganligi. Kuchli empirik manba. Bolalik davrini chuqur tahlil etilishi. Balog'atga yetish jarayoniga katta e'tibor qaratilishi.

A.Gezzel (1880-1961) – tibbiy va pedagogik ma`lumot olgandan so'ng 30 yil Yel psixoklinikasida ishlagan, uning asosida "Bolalar rivojlanishi bo'yicha

Gezzel” instituti tashkil etilgan. Bolaning tug’ilgan davridan to o’spirinlikkacha bo’lgan psixik taraqqiyotini tashxis qilishning amaliy tizimini ishlab chiqqan, u ruhiy taraqqiyotning meyoriy va patologik shakllarini taqqoslashga oid tekshiirishlarga asoslanadi. Kuzatishlar ob`ektiv bo’lishi uchun Gezzel tomonidan birinchi marta “Gezzel oynasi” (yorug’likni yarim o’tkazuvchi oyna) qo’llanilgan.

Psixologiyaga bolaning tug’ilganidan to o’smirlik yoshigacha bo’lgan davridagi ruhiy taraqqiyotini longityd o’rganish metodini kiritgan.

Ruhiy taraqqiyotni o’rganishning ko’ndalang va uzunasiga kesma metodlaridan foydalangan, asosiy e`tiborni organizmda ro’y berayotgan miqdor o’zgarishlariga qaratgan. Monozigotali egizaklarni o’rgangan va birinchilardan bo’lib, balog’atga yetish davrini tahlil etishda xizmat qiluvchi egizaklar metodini qo’llagan. Normal taraqqiyotning xususiyatlarini chuqurroq tushunish uchun, ko’zi ojiz bolaning psixik taraqqiyotini tadqiq etgan.

L.Termenning me`yoriy yondashuvi (1887-1956). 1916 yilda A.Binening testlarini amerikalik bolalarda sinash orqali standartlashtirdi, undagi shkalalarni kengaytirdi va aqliy qobiliyatlarni o’lchash uchun testlarning yangi variantini ishlab chiqdi. L.Termen intellekt koeffitsiyenti (IQ) tushunchasini kiritdi va faktlar asosida uning butun umr mobaynida doimiy xolatini saqlab qolishini asoslashga harakat qildi. Intellektning yoshga, jinsga, nechanchi farzandligiga, irqiy belgilarga, oilaning ijtimoiy-iqtisodiy o’rniga, ota-onalarning ma`lumotiga bog’liqlik darajasini aniqlashga oid bir qator tekshirishlar o’tkazdi.

Psixologiyada eng uzoq davom etgan longityd tadqiqotlardan birini o’tkazdi, ushbu tadqiqot qariyb 50 yil davom etdi. IQ=140 va undan yuqori bo’lgan 1500 ta iqtidorli bola tanlab olindi va ularning rivojlanishi kuzatib borildi.

Tadqiqotlar 70-yillarning o’rtalarida L.Termenning vafotidan so’ng nihoyasiga yetkazildi. «Daho» - atamasi, sog’lom, aqliy darajasi yuqori, ishchan qobiliyatga ega bo’lgan va ta`lim sohasida boshqalarga qaraganda yuksak natijalarga erishgan kishilarga nisbatan qo’llanilgan!



- A.Gezzel va L.Termen bolalar psixologiyasining fan sifatida shakllanishiga katta xissa qo'shishdi.
- Ular yoshga oid o'zgarishlarni izohlashda, asosiy diqqat-e`tiborni irsiy omilga qaratishadi.

A.Gezzelning balog'atga yetish nazariyasi

Tadqiqotning asosiy predmeti	Bolaning tug'ilganidan to jinsiy balog'atga yetguniga qadar kechadigan, ruhiy taraqqiyotining mazmuni va sur`ati
Tadqiqot metodlari	Kuzatish (maxsus jixozlangan binoda foto va kino kameralar orqali), testlar, ota-onalar uchun so'rvnmalar, longityud, sog'lom va bemor bolalarning, egizaklarning rivojlanishini o'zaro taqqoslash.
Asosiy tushunchalar	Balog'atga yetish, rivojlanish, xulq-atvorning o'sishi, taraqqiyotning bir maromda kechishi, o'sish (rivojlanish) tezligi.
Asosiy g'oyalar	Psixik taraqqiyotning asab tizimiga bog'liqligi, psixik taraqqiyot sur'atining notekisligi, psixik taraqqiyotni nazorat qilish zarurati.
Taraqqiyot omillari	Biologik omil, organizm balog'atining genetik jihatdan belgilanishi (preformizm)
Tanqidiy yondashuv	Rivojlanishning biologik asoslariga nisbatan urg'u berilishi - «empirik evolyutsionizm» (L.S.Vigotskiy), me`yorlarni mutloqlashtirish, bir yosh davrida olingan ma`lumotlarni, qolganlariga ham birdek tatbiq etish.
Qiymati	Psixologik tadqiqotlarga yangi metod va metodikalarning joriy etilganligi. Kuchli empirik manba. Bolalik davrini chuqur tahlil etilishi. Balog'atga yetish jarayoniga katta e'tibor qaratilishi.

3.4. V.Shternning rivojlanishni ikki omilli konvergensiya nazariyasi

Psixik taraqqiyot – tug'ma xislatlarning oddiy aks etishi va tashqi ta`sirlarni oddiy idrok etish emas. Bu hayotning tashqi shart-sharoitlari bilan, organizmning ichki imkoniyatlari konvergensiyasi natijasidir, bunda irsiy omil yetakchi o'rinda turadi. Muxit, irsiyat orqali belgilangan psixik xususiyatlar va xislatlarning ro'yobga chiqishini tezlashtiruvchi yoki tormozlovchi omil sifatida qayd etiladi.

Konvergensiya nazariyasida psixik taraqqiyot, irsiyat va tashqi muxit ta`siri ostida yuzaga keladigan jarayon sifatida e`tirof etiladi va bu zamonaviy psixologiyada keng tarqalgan nazariyalardan biri hisoblanadi.

Barcha zamonaviy nazariyalar psixik taraqqiyot masalasiga, irsiyat va tashqi muxitning o'zaro aloqadorligi nuqtai-nazaridan yondashadilar.

Tajribaning xulqqa ta`sir ko'rsatish modellari

(Dj.Vudvill qarashlari bo'yicha)

- «Bemor koykasi» – sub`yekt muxit ta`siri ostida yordamga muhtoj patsiyent bo'ladi.
- «Oymoma park» - sub`yekt ko'ngil ochar mashg'ulotni tanlaydi, lekin ularni o'zi istagandek o'zgartira olmaydi.
- «Suzuvchilar musobaqasi» – sub`yekt deyarli tashqi qo'zg'atuvchilarga qaramasdan o'z yo'lida davom etadi.
- «Tennis koptogi» - sub`yekt va tashqi muxit o'rtasida doimo o'zaro birgalikdagi harakat amalga oshiriladi.

Rivojlanish psixologiyasida hal qilinishi muhim ahamiyat kasb etadigan masalalardan biri – sub`yektning rivojlanish jarayonidagi faolligi muammosi xisoblanadi. Rivojlanish jarayoniga turli omillarning ta`sir ko'rsatishi, bola rivojlanishining senzitiv davrlarini o'rganishga bo'lgan qiziqishni yuzaga keltirdi.

V.Shternning ikkita omilli konvergensiyasi nazariyasi

Tadqiqotnong asosiy predmeti	Psixikaning rivojlanishi.
Tadqiqot metodlari	Kuzatish.
Asosiy	Zehn, irsiyat, iqtidor.

tushunchalar	
Asosiy g’oyalari	Bola rivojlanishining bosqichlari, tafakkur, nutqning rivojlanishi va bola psixik taraqqiyotining boshqa tomonlari.
Taraqqiyot omillari	Irsiy va tashqi omillar konvergensiyasi.
Tanqidiy yo’nalishlari	Irsiyatning rolini oshirish, muxit tashqi omil sifatida oldindan berilgan tuzilmaga o’z ta`sirini ko’rsatishi mumkin.
Qimmatli tomoni	Shaxsning yaxlitlik tamoyili. Rivojlanishning tashqi va ichki omillarining o’zaro bir-biriga ta`siri, o’zaro birgalikdagi harakati.

3.5. Dastlabki bixeviorizm nazariyasining sharhi

Bixeviorizm(inglizcha. *behaviour* – xulq) – 20 asr boshlaridagi yirik psixologik yo’nalish bo’lib, ushbu yo’nalishda “rivojlanish” tushunchasi, “uqish”, “o’rganish” tushunchasi bilan yonma-yon yuradi.

Bixeviorizmning vujudga kelish shart-sharoitlari:

- Introspektiv(introspeksiya. o’z-o’zini kuzatish metodi) psixologiyaning yetarli emasligi, amaliy tajribalarga bo’lgan ehtiyojning paydo bo’lishi;
- AQShda hukmron o’rinni egallagan “pozitivizm va pragmatizm falsafasi” (mazkur yo’nalish g’oyasiga ko’ra: odam, uni o’rab turgan muxit orqaligina odam xisoblanadi);
- Xayvonlar xulqini o’rganishga oid o’tkazilgan tadqiqotlar(E.Torndayk), rus olimlari(I.P.Pavlov, V.M.Bexterev)ning fiziologik va psixologik g’oyalari;
- Psixika va psixik jarayonlarning xulq ko’rinishidagi idodalanishini o’rganish;

Bixeviorizm oqimining yirik vakili E.Torndayk(1874-1949) biologiya fanida hukm surayotgan evolyutsion ta`limotga asoslangan holda, bolalarga ta`lim berishda o’ziga xos yondashuvni ilgari suradi.

E.Torndayk zoopsixologik laboratoriyada xayvonlarni o’rgangan.

Xayvonlar intellektini o’rganish bo’yicha dissertatsiya ximoya qilgan, nazariy asoslari I.P.Pavlov tajribalari orqali tasdiqlangan.

E.Torndayk 1903 yilda, o’qitish jarayonida tafakkurni rivojlantirish masalasiga bag’ishlangan “Pedagogik psixologiya” asarini chop etadi. U individual tajribalarni egallash, tashqi qo’zg’atuvchilar va javob reksiyalar o’rtasidagi aloqadorlikni shakllantirish xususida fikr yuritadi.

Xayvonlar xulqini o’rganish orqali quyidagi natijalar olinadi:

- Xayvonlar xulqini tadqiq etishning asosiy tamoyili “muammoli vaziyat va reaksiyaning o’zaro aloqadorligi” xisoblanadi;
- Muammoli vaziyat dastlabki bo’g’in sanalib, unda xayvon organizmi qarshilikka duch keladiu va faollik bilan o’z tanlovini izlay boshlaydi;
- Turli-tuman sinov harakatlari va yo’l qo’yilgan hatoliklardan iborat mashqlar orqali, hayvonda yuzaga kelgan muammoli vaziyatdan chiqish yo’llarini topish ko’nikmalari paydo bo’ladi.

Samaradorlik qonuni. Muayyan bir vaziyatda qoniqish hissini yuzaga keltiradigan har qanday harakat akti (faollik), bir-biriga bog’lanadi hamda vaziyat takrorlanganda aynan unga mos keladigan harakat aktining ehtimoli ortadi.

Assotsiativ yuksalish qonuni. Qo’zg’atgichlarni bir vaqtning o’zida ta’sir ko’rsatishida, ulardan biri reaksiyani hosil qiladi, qolganlari ham aynan shu reaksiyani yuzaga keltirish qobiliyatiga ega bo’lib boradi.

Mashq qonuni. Bir hil shart-sharoitlardagi muammoli vaziyatga nisbstan javob reaksiyasi, takrorlash chastotasi va kuchiga to’g’ri proporsionaldir

Tayyorgarlik qonuni. Mashqlar organizmning javob reksiyalariga bo’lgan tayyorgarligini o’zgartiradi.

Uotson Jon (1878-1958)

Amerikalik psixolog, bixeviorizm oqimining asoschisi, ushbu oqimning manifesti sifatida Jon Uotsonning – «Bixeviorist nuqtai-nazarida psixologiya» (1913 yil) nomli maqolasi e’tirof etiladi.

Bixeviorizm individ(xayvon va odam)ning tug’ilganidan to umrining oxirigacha bo’lgan xulqini o’rganishni taklif etadi.



Xulqni tahlil qilish birligi sifatida S – stimul va R – reaksiyaning bog'lanishi nazarda tutiladi.

- Uotson uy sharoitida bolalarda tajribalar o'tkazadi, shu orqali uqib olish harakatlarini tadqiq etadi.
- Tajribalar rus fiziologi I.P.Pavlovning itlarda shartli reflekslarni hosil qilish sxemasi asosida amalga oshiriladi.

REAKSIYALAR TASNIFI

Kelib chiqishiga ko'ra:

- Irsiy yoki nasliy (ayrim reflekslar, fiziologik reaksiyalar va oddiy «emotsiyalar»).
- O'zlashtirilgan yoki egallangan (odatlar, tafakkur, nutq, murakkab xissiy kechinmalar, ijtimoiy xulq va hokazo.)

«Yopiqlik» darajasiga ko'ra:

- Tashqi – oddiy kuzatish mumkin bo'lganlari (nutq, emotsiyalar, reflekslar).
- Ichki – maxsus uskunalar orqali bilvosita kuzatish mumkin bo'lganlari (organizmdagi fiziologik va kimyoviy o'zgarishlar, muayyan qo'zg'atgichlarga nisbatan reaksiya sifatida).

Bixeviorizmning tabiiy - ilmiy bazasi

- Mazkur konsepsiyaning yaratilishiga, mashhur rus fiziologi I.P.Pavlovning- moslashuvchanlik faoliyati barcha tirik organizmlarga xosdir, degan g'oyasi juda katta ta`sir ko'rsatdi.
- Shartli refleks xuddi «qurilish ashyosiga» o'xshaydi, odam xulqi bir qancha shartli reflekslar asosida quriladi.

- Djon Uotsonning fikriga ko’ra, psixologiyadagi tushunchalarni bixeviorizm “tili”ga o’girish, ya`ni barcha harakatlarni “stimul-reaksiya” munosabatlari orqali tushuntirish zarurdir.

3.6. B.Skinner nazariyasi (1904-1990)

“Rag’batlantirish va jazolash – yangi xulqning shakllanish poydevori”

- Odam hulqini ichki kuchlar orqali izohlash ilmiy asosga ega emas.
- Hulq-atvor to’laligicha tashqi muxit ta`siri orqali belgilanadi.
- Odamning hulqini, hayvonlar hulqi kabi “yasash”, hosil qilish va uni nazorat qilish mumkin.

XX asrning 70 yillarida bixeviorizm, aniqrog’i neobixeviorizm oqimining taniqli vakillaridan biri Berrens Skinner edi. Uning fikriga ko’ra, odamning xulqi, tashqi muxit ta`siri ostida yuzaga keladigan vositalar(rag’batlantirish yoki jazolash)ga uzviy ravishda bog’liqdir, shuning uchun bola tarbiyasi muayyan bir stereotip(qolip)lar orqali amalga oshiriladi.

Skinnerning hisoblashicha, odamning xulqi uning ehtiyojlari bilan emas, balki uni o’rab turgan muxit orqali belgilanadi, zero ehtiyojlarning shakllanishi – bu muxitning ta`siri va uning mustahkamlanishidan iboratdir. Odamning tashqi muxit ta`sirini qabul qilishi va o’zida mustahkamlay olish qobiliyati, o’z-o’zini saqlash instinkti negizida amalga oshiriladigan mashqlar orqali shakllanadi.

Ijobiy mustahkamlash vaziyatga nimadir qo’shadi

- O’z ishini bajargan ishchi, pul oladi.
- Ota-onaning topshirig’ni bajargan bola, rag’bat oladi.

Salbiy mustahkamlash vaziyatdan nimanidir chiqarib tashlaydi

  - Bola, ota-ona noroziligidan qochish uchun o’zining joniga tekkan ishni bajaradi.
  - Bolaga yon berayotgan ota-ona, uning tajovuzidan qochib, ana shu ishni bajaradi.

Birlamchi

- Birlamchi ehtiyojlarni to’g’ridan-to’g’ri qondirishga asoslanadi.

- Oziq-ovqat, suv, kuchli sovuq va issiq havo, og’riqli xolatlar mustahkamlash shakllari sanaladi.

Shartli

- Daslabki xolis qo’zg’atuvchi, birlamchi mustahkamlash shakllari bilan uyg’unlashib ketadi.
- Shartli mustahkamlash, pul. mehr-muhabbat, boshqalarning diqqat-e`tibori va qo’llab quvvatlashi kabi ko’rinishlarda aks etadi.

Jazolash

- Jazolash, salbiy xulqni bosib turadi.
- Jazolash, ijobiy xilqni mustahkamlashdan mahrum etish yoki salbiy xulqni mustahkamlashdan iborat bo’ladi.
- Biroq jazolash barqaror samaraga ega bo’lmaydi:
- jazo, yoqimsiz xulqni to’xtatishi mumkin, lekin jazoning ortga surilishi, uni yana yuzaga chiqadi;
- jazo beruvchining odatiga aylanadi, lekin aybdorga davomiy tarzda ta`sir eta olmaydi;
- jazolash, odam nima qilishi mumkin emasligini ko’rsatadi, lekin qanday harakat qilishi lozimligini aniqlamaydi!

«Siz menga ijobiy shart-sharoit yaratib bering ... va men sizga kerakli odamni beraman!» **B.Skinner**

Mavzu bo’yicha test savollari:

1. Rivojlanishning uch bosqichli nazariyasi muallifi?
    a. K.Xorni.
    b. Z.Freyd.
    c. K.Byuler.
    d. J.Uotson.
2. Rivojlanishning ikki omilli konvergensiya nazariyasi muallifi?

a. Z.Freyd.
b. K.Byuler.
c. J.Uotson.
d. V.Shtern

3. Xulq-atvorni tadqiq etish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan yirik psixologiya yo'nalishi ...?
    a. Psixoanaliz.
    b. Bixeviorizm.
    c. Geshtaltosixologiya.
    d. Kognitivizm.
4. "Rekapitulyatsiya nazariyasi"ning muallifi ...?
    a. E.Torndayk.
    b. S.Xoll.
    c. V.Shtern.
    d. K.Byuler.
5. «Siz menga ijobiy shart-sharoit yaratib bering ... va men sizga kerakli odamni beraman!» ushbu fikr muallifi...?
    a. Stenli Xoll.
    b. Anri Vallon.
    c. Berrens Skinner.
    d. Karl Byuler.

Takrorlash va muhokama uchun savollar:

- 19 asr oxiri va 20 asr boshlarida Germaniya, Angliya va Fransiyada bola psixik taraqqiyotini o'rganish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar?
- Amerikalik psixolog Stenli Xoll ishlab chiqqan biogenetik nazariyaning asosiy g'oyalari haqida tushuncha bering?
- Pedologiya yo'nalishining tipik vakillaridan biri amerikalik psixolog Arnold Gezzelning qarashlarini izohlab bering?

- Avstriyalaik psixolog Karl Byuler tomonidan yaratilgan psixik rivojlanishining uch bosqichli konsepsiyasi haqida tushuncha?
- Biheviorizm yo'nalishi haqida tushuncha bering?
- Sotsiogenetik yo'nalish tarafdorlarining ilmiy-nazariy qarashlarini tahlil qilib bering?
- V.Shternning ikkita omil nazariyasi haqida tushuncha?
- B.Skinner g'oyalari haqida tushuncha bering?

IV bob. Psixologik maktablarda rivojlanish nazariyalari

- 4.1.Psixoanalizda rivojlanish talqini. Z.Freydning klassik psixoanalizi;
- 4.2.Bolalik psixoanalizini shakllanishi;
- 4.3.Ijtimoiylashuv muammosi;
- 4.4.Kognitiv yo'nalishda rivojlanish psixologiyasi;
- 4.5.Tarixiy-madaniy yo'nalishda rivojlanish psixologiyasi;

Tayanch so'zlar:

Psixoanaliz, instinktiv mayllar, ong, ong osti, ongsizlik xolati, "Men", "Oliy Men", jinsiy taraqqiyot, bolalik psixoanalizi, ijtimoiylashuv, oral bosqich, anal bosqich, fallik bosqich, latent bosqich, genital bosqich, go'daklik davri, ilk bolalik, o'spirinlik davri, yoshlik davri, yetuklik davri, keksalik yoshi, aqliy operatsiyalar, intellektual taraqqiyot, aktual taraqqiyot doirasi, yaqin taraqqiyot doirasi.

4.1. Psixoanalizda rivojlanish talqini. Z.Freydning klassik psixoanalizi

Bola rivojlanishining psixoanalitik nazariyasi

Psixoanaliz davolash metodi sifatida yuzaga kelgan, lekin keyinchalik psixologik faktlarni to'plash vositasi deb qabul qilingan, bu esa butun bir oqim, yo'nalish va tizim uchun asos bo'lib xizmat qilgan.

Asosiy xolatlar:

- Katta yoshdagi shaxsning kasalliklari, bolalikda bochdan kechirilgan hissiy kechinmalar bilan bog'lanadi;
- Bolalikdagi kechinmalar shahvoniy tabiatga ega (otaga, onaga nisbatan muhabbat va nafrat hissi, aka yoki opaga nisbatan rashk tuyg'usining mavjudligi);

- Bolalik tajribalari kattalar xulqiga anglanmagan holda ta`sir ko’rsatadi;
- Ongsizlik xolati – odam xulqining muhim determinanti(sababchisi) xisoblanadi.

Psixikaning ontogenezda rivojlanishini aniqlashga doir psixoanalitik yondashuv Avstriyalik psixiatr, psixonevrolog Zigmund Freyd (1856-1939) tomonidan ishlab chiqilgan.Freydning ko’rsatishicha odam shaxsi, o’zida uchta tuzilmani mujassam etadi – U(ID), MEN(EGO), OLIY-MEN(SUPER EGO), ular bir vaqtning o’zida yuzaga chiqmaydi.

- «U» (Id) — lazzatlanish, rohatlanish tamoyiliga bog’liq bo’lgan instinktiv mayllarni qamrab oladi;
- «Men» (Ego) — tashqi olam bilan bilvosita aloqaga kirishuvchi psixologik instantsiya;
- « Oliy Men»(Super-Ego) o’z ichiga ijtimoiy ta’qiqlar, qonun tusiga kirgan majburiy tartib qoidalar va ideallarni oladi.
- «Men» (Ego) reallik tamoyiliga asoslangan holda inson psixikasida harakatlanuvchi qarama-qarshi kuchlarni muvofiqlashtirish funksiyasini bajaradi.

Freydning ta`kidlashicha, avloddan-avlodga nasliy yo’l bilan o’tgan instinktiv mayllar zamirida shaxs faollik ko’rsatadi.

U (ID)

•Shaxsning primitiv yadrosi: U(ID) tuzilmasi tug’ma bo’lib,ong ostida joylashgan bo’ladi va “rohatlanish” tamoyiliga bo’ysunadi.

•ID o’zida tug’ma, qo’zg’aluvchan mayllarni saqlaydi va psixik taraqqiyotning energiya(quvvat) manbaini tashkil etadi.

Men (Ego)

•Shaxsning ratsional va anglangan tuzilmasi.

• Biologik yetilishga ko`ra, hayotning 12 va 36 oylarida yuzaga keladi hamda reallik tamoyiliga asoslanadi.

Oliy - Men (Super-Ego)

- Muayyan bir jamiyatda qabul qilingan me`yorlarga rioya erishni qat`iy nazorat ostiga oladi, o'zida vijdon tuyg'usini aks ettiradi.
- Oliy–Men 3 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan davrda shakllanadi.

Z.Freydning psixoanaliz nazariyasi

Tadqiqotning asosiy predmeti	Shaxsning rivojlanishi
Tadqiqot metodlari	Klinik xolatlar tahlili, erkin assotsiatsiyalar metodi, naqllar, matallar, tushlar va boshqa xolatlar tahlili.
Asosiy tushunchalari	Psixikaning darajalari (ong, ong osti, ongsizlik), shaxs tuzilmasi (Id, Ego, Super-Ego), psixologik ximoya, shahvoniy quvvat (libido), shahvoniy instinkt, hayot va o'lim instinkti, psixoseksual rivojlanish bosqichlari, erogen zonalar, rohatlanish va reallik tamoyillari, identifikatsiya, nizolar.
Asosiy g'oyalari	Bolaning tashqi dunyo bilan dastlabki qarama-qarshiligi, bola shaxsining rivojlanishi – individning ijtimoiy olamga moslashishi sifatida. Shaxsning rivojlanishi va psixoseksual taraqqiyotning birgalikda kechishi. Bola shaxs sifatida dastlabki 5 yil mobaynida jadal sur`atda ulg'ayadi va jinsiy balog'atga yetishi bilan yakunlanadi.
Rivojlanish omillari	Ichki (biologik yetilish, jinsiy taraqqiyot, jinsiy quvvat yo'nalishining qayta qurilishi) va tashqi (ijtimoiy, ota-onalar bilan muloqotning ta`siri).
Tanqidiy yo'nalishi	Mifologik haraketrda ekanligi, qat`iy belgilangan tadqiqot metodlari va statistik ma`lumotlarning yo'qligi, olingan ma`lumotlarni tekshirishdagi qiyinchilklar, o'smirlik yoshidan tashqari davrlardagi rivojlanish imkoniyatlariga ishonchsizlik bilan qarash.

Qimmatli tomoni	Rivojlanishning o'sib borish konsepsiyasi, odamning rihiy olami bir butunlikda ekanligi ko'rsatib berilgan, bolalik davrining ahamiyati, ota-ona ta`sirining muhimligi va uzoq muddatli ekanligi. Bolaning ichki-ruhiy olamiga katta e`tibor qaratish g'oyasi.

4.2. Bolalik psixoanalizini shakllanishi

Z.Freyd balog'at yoshigacha kechadigan ijtimoiy, ruhiy va jinsiy taraqqiyot bo'yicha quyidagicha davrlashtirishni amalga oshiradi:

- **Oral bosqich.** Bolaning tug'ilgandan 18 oygacha davom etadi. Bunda ona suti bilan ozuqalanish(emish, so'rish)ga asosiy urg'u beriladi. Chaqaloqlarda "Men" shakllanmagan bo'ladi, go'daklik davrininig ikkinchi yarmidan boshlab "Men" tuyg'usi, instinktiv mayllar asosi bo'lgan "U"dan ajralib chiqa boshlaydi.

- Bola o'z onasi va uni o'rab turgan moddiy olam bilan munosabatga kirishar ekan, unga "qoniqish" yoki "qoniqmaslik" hissi orqali baho beradi. Ushbu davrda onaning o'z farzandiga nisbatan ishonch hissi va unga ko'rsatadigan onalik mehri yetakchi o'ringa ega bo'ladi.

Quyidagi fazilatlar shakllanadi:

- to'yinmaslik;
- ochko'zlik;
- talabchanlik;
- qoniqmaslik;

- **Anal bosqich**. Ushbu davr 1-1,5 yoshdan 3 yoshgacha davom etadi.

- Asosiy jixat "Ego"-"Men"ning rivojlanishi bilan belgilanadi, aynan mana shu davrda ota-ona yordamida bolada o'zini – o'zi boshqarish ko'nikmalari shakllana boshlaydi. Boladagi "Men" deyarli tarkib topadi va instinktiv mayllar joylashgan "U"dan kelayotgan qo'zg'alishlarni nazorat qiladi. Atrofidagi kishilar(ota-ona, yaqinlari, tendoshlari) bilan murosaga kela boshlaydi.

- Bolada "Oliy Men"ning dastlabki kurtaklari aks eta boshlaydi, mazkur jarayonda uni qurshab turgan kattalar, ya`ni ota-onasi(bobosi yoki buvisi)ning tutgan o'rni, hurmati va obro'-e`tibori muhim ahamiyat kasb etadi.

- Bu yoshda quyidagi shaxsiy hislatlar shallana boshlaydi:

- saranjom-sarishtalik, ozodalik, pokizalik, puxtalik;

- qaysarlik, ichidagini birovga bildirmaslik;

- molparastlik, turli narsalarni yig'ishga moyillik;

- buzg'unchilik, shafqatsizlik.

- **Fallik bosqich**. Ushbu davr 3 yoshdan 5 yoshgacha davom etadi, bu davrda jinsiy identifikatsiya shakllanadi. Freydning psixoanalitik nazariyasiga ko'ra, o'gil bolalarda "Edip kompleksi", qiz bolalarda "Elektra kompleksi" aynan mana shu yosh davrida kuzatiladi.

- Mazkur yosh davrining oxirlariga kelib, ong tarkibidagi uchta yaxlit tuzilma("Id-U", "Ego-Men", "Super ego-Oliy Men") deyarli to'laligicha shakllanib bo'ladi va o'zaro ziddiyatlarga kirisha boshlaydi. Asosiy o'rinni "Ego-Men" qo'lga kiritadi, o'tmish xotiralarini yodga olish va tafakkur orqali "Id-U"ning buzg'unchi g'oyalariga qarshi kurashadi, shu bilan birga "Super ego-Oliy Men"ning o'ta qat`iy talablariga ham qarshilik ko'rsatadi.

- **Latent bosqich.** Boshqa yosh davrlariga nisbatan olganda osoyishtalik bilan kechadi, 6-7 yoshdan 12 yoshgacha davom etadi.

- O'quv maskanlarida ta'lim olish, sport bilan shug'ullanish, o'z tengdoshlari, do'stlari bilan o'zaro muloqotga bo'lgan ehtiyoj ortadi.

- "Ego-Men" tuzilmasi "Id-U"dan kelayotgan instinktiv mayllarga bo'lgan ehtiyojlarni to'la nazorat qila oladi. Jinsiy mayllardan xoli bo'lish, tabiiy va ijtimoiy sohaga oid bilimlarni egallash insoniyatning ijtimoiy-tarixiy, madaniy, ma`naviy boyliklari va qadriyatlarini o'zlashtirish imkonini beradi.

Shaxs tuzilmasida quyidagi fazilatlar shakllanadi:

- o'z-o'zini kuzatish;
- aql bilan ish yuritish;
- aql, oqillik;
- hukm o'tkazishga intilish;
- maqtanchoqlik;
- erkak kishiga xos xulq-atvor.

- **Genital bosqich**. (12-18 yosh) – Anatomik-fiziologik jihatdan balog'atga yetish bilan kechadigan davr, organizmning tabiiy yetilish bosqichi, agressiv qo'zgalishlarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu yoshda jinsiy va tajovuzkor mayllar oqimi kuchayadi. "Ego-Men" tuzilmasi "Id-U"dan kelayotgan tjovuzkor mayllar bilan kurashishiga to'g'ri keladi. "Men" timsolidagi ichki ta`qiqlar va aql-idrok, hayol tasavvurlari tajovuzkor harakatlarni to'xtatib turadi.

4.3. Ijtimoiylashuv muammosi

Bolaning shaxs sifatida ulg'ayib, kamol topishida uning ijtimoiylashuv jarayonlari muhim o'rin tutadi. A.V.Mudrik shaxsning ijtimoiylashuv jarayoniga ta`sir ko'rsatuvchi omillarning uchta guruhini ajratib ko'rsatadi:

- makroomillar(koinot, yer kurrasi, dunyo, davlat, jamiyat);
- mezoomillar(mezo-„o'rta", „oraliq") kishilarning etnik belgilarga ko'ra birlashishi, yashash manziliga ko'ra, ommaviy axborot tizimiga ko'ra ijtimoiylashuvi;
- mikroomillar - kishilarga bevosita ta'sir ko'rsata oladigan ijtimoiylashuv o'choqlari(Oila, tengdoshlar davrasi, tashkilot, muassasa, mahalla, ta'lim maskanlari, mehnat jamoalari, jamoat tashkilotlari).

Mikroomillar shaxsga ijtimoiylash jarayonining o'ziga xos „ko'mak"chilari orqali ta'sir etadi, chunki uning hayoti ular bilan o'zaro hamkorlikda kechadi, har bir yosh davri uchun ko'makchilar tarkibi turlicha bo'ladi.

Bolalar va o'smirlarga nisbatan ota-ona aka-uka va opa-singillar, qarindoshlar, tengdoshlar, qo'shnilar, o'qituvchilar „ko'makchi" vazifasini bajarishsa, o'spirinlik va yoshlik davrida ular safiga ularning turmush o'rtoqlari, hamkasblar qo'shilishadi. Yetuklik yoshida o'z farzandlari, keksa yoshda esa, oila a'zolari ham mikroomillar jumlasiga kiradi.

E.Eriksonning shaxs rivojlanishining psixoijtimoiy nazariyasi

Psixodinamika yo'nalishining yirik vakili amerikalik psixolog E.Erikson insonning hayot yo'lini o'ziga xos, betakror bo'lgan 8 ta davrga ajratadi:

Birinchi davr – Go'daklik davri(Tug'ilgandan 1 yoshgacha)."Ishonch/ ishonchsizlik". Go'daklik yoshida tashqi dunyoga ongsiz «ishonch» tuyg'usi

vujudga keladi, sababi ota-onaning bolaga cheksiz mehr-muhabbati, g'amxo'rligi va jonkuyarligidir. Agar go'daklik yoshida bolada, ishonchsizlik hissi tug'ilgan bo'lsa, voyaga etgach ularda mahdudlik, umidsizlik vujudga kelishi mumkin.

Ikkinchi davr – Ilk bolalik davri(1-3 yosh). "Avtonomiya/uyat va shubha". Ilk bolalikda qisman mustaqillik va shaxsiy qadr-qimmat tuyg'usi shakllanadi yoki aksincha, uyat va shubha xissi hosil bo'ladi.

Bolada mustaqillikning ortishi, unga o'z tanasini boshqarish uchun keng imkoniyatlar yaratib beradi, bo'lg'usi shaxs xususiyatlaridan: tartib-intizom, mas`uliyat hissi, javobgarlik, o'zaro bir-birini xurmat qilish tuyg'ularining shakllanishiga zamin hozirlaydi.

Uchunchi davr – O'yin davri(3-6 yosh). "Tashabbuskorlik/aybdorlik".

Bu yosh davrida tashabbuskorlik, turli ishlarni amalga oshirish, bajarish istagi ustunlik qiladi. Mabodo boladagi hoxish-istakni ro'yobga chiqarish yo'li to'sib qo'yilsa, u o'zini aybdor deb hisoblaydi. Mazkur davrda guruhiy o'yinlar orqali, o'z tengdoshlari bilan muloqotga kirishish muhim ahamiyat kasb etadi: bolaning turli-tuman rollarni bajarib ko'rishi, hayolot olamining o'sishiga imkon yaratadi, aynan shu davrda bolada adolat tuyg'usi yuzaga kela boshlaydi.

To'rtinchi davr – Maktab yoshi(7-12 yosh). "Mehnatsevarlik-noto'liqlik". Maktab yoshidagi bolalar o'zining ko'zlagan maqsadiga erishish uchun intilish, uddaburonlik va tirishqoqlik bilan ajralib turadilar. Ularning eng muhim qadriyati omilkorlik va mahsuldorlikdan iboratdir.

Bu yosh davrining salbiy jihatlari ham bo'lib, ular ijobiy hislatlarning yetarli emasligi, ong tuzilmalari hayotning barcha qirralarini qamrab ololmasligi, ijtimoiy muammolarni hal etish va bilimlarni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar.

Ta`lim olish va o'z ustida ishlash yetakchilik qiladi, tengdoshlari o'rtasidagi maqeyi va shaxslararo munosabatlar uning shaxs sifatida ulg'ayishiga o'z ta`sirini ko'rsatadi, shu davrda shaxsning mehnatga bo'lgan munosabati shakllanadi.

Beshinchi davr – O'spirinlik davri(12-13 yoshdan 19-20 yoshgacha). "Ego-identifikatsiya/rollar almashinuvi". O'spirinlik o'zining betakror xislatlari, o'ziga xosligi, boshqa odamlardan keskin farqlanishga bo'lgan ehtiyojlar bilan

tavsiflanadi. O’spirinlikda shaxs sifatida noaniqlik, muayyan rolni uddalay olmaslik, qat`iyatsizlik kabi salbiy holatlar ham uchraydi.

O’spirin uchun ijtimoiy hayotda bajarayotgan rollarning ko’lami kengayadi, lekin ularni jiddiy tarzda egallash imkoniyati bo’lmaydi, faqat rollarda o’zini sinab ko’rish bilan cheklanadi. Bu davrda o’spirin “Men kimman?”, “Men qayerga qarab ketayapman?”, “Men kim bo’lishni istayman?” kabi savollarga birin-ketin javob izlashni boshlaydi va uning qadriyatlar tizimi shakllanadi.

Oltinchi davr – Yoshlik(20-25 yosh). “Yaqinlikka intilish/alohidalik”. Yoshlik davri, boshqa jinsga nisbatan intim(sirli) munosabat, hissiy yaqinlik ehtiyojining vujudga kelishi bilan ajralib turadi, bunda ayniqsa, jinsiy mayl alohida o’rin tutadi. Shu bilan birga, yoshlik davrida alohidalik, tanholik(yolg’izlik) hissini boshdan kechirish va odamovilik kabi yoqimsiz xislatlar ham uchrab turadi.

Yettinchi davr – Yetuklik davri(26-64 yosh). “Samaradorlik-inertlik”. Yetuklik davrida hayotiy faoliyatning barcha sohalarida(mehnat, ijodiyot, g’amxo’rlik ko’rsatish, nasl qoldirish, tajriba uzatish va boshqalarda) mahsuldorlik tuyg’usi uzluksiz davom etadi va hayotiy ezgu niyatlarning amalga oshishida turtki vazifasini bajaradi. Mazkur davrda ayrim jihatlarda turg’unlik tuyg’usi, o’z hayot yo’lidan qoniqmaslik kabilar salbiy xususiyat sifatida hukm surishi ham mumkin.

Sakkizinchi davr – Keksalik davri(65 yoshdan yuqori). “Yaxlit Ego/ko’ngil qolishi”. Keksalik yoshi, uning inson sifatida o’z burchini uddalay olganligidan, o’z turmush tarzidan qanoatlanish tuyg’usi orqali tavsiflanadi.

Mazkur yoshning salbiy jihatlari sifatida esa, nafaqaga chiqishdagi iztirobli xolatlar, kelgusi hayot faoliyatidan noumidlilik, ko’ngil sovishi kabi tuyg’ularini ko’rsatish mumkin. O’zi bosib o’tgan hayot yo’lidan qoniqish, donolik, sofdillik, gunohlardan forig’ bo’lish, yuzaga kelgan vaziyatga nisbatan shaxsiy va ijtimoiy nuqtai-nazardan yondasha olish, ushbu yoshdagi odamlarga xos jihatlardir.

Shaxs hayot yo'lining epigenetik nazariyasidagi asosiy tushinchalar (E.Erikson bo'yicha)

Tadqiqotning asosiy predmeti	Shaxsning yoshga ko'ra rivojlanishi, hayot bosqichlari, har bir yosh davriga xos bo'lgan umumiy muammolar
Tadqiqot metodlari	Klinik xolatlarni tahlil qilish metodi, onalik va tarbiya usullarini etnografik tadqiq etish, psixikani tarixan o'rganish metodi.
Asosiy tushunchalar	Men (Ego), o'xshashlik(bir hillik), ego-o'xshashlik, guruhiy o'xshashlik, rivojlanishning psixosotsial masalalari, rituallashtirish.
Asosiy g'oyalari	Rivojlanish bosqichlari genetik ravishda belgilab qo'yilgan, universal, ularning amalga oshish tartibi o'zgarmasdir.
Taraqqiyot omillari	Ichki (yetilish) va tashqi (jamiyat tomonidan qo'yilgan talablar va kutishlar, ijtimoiy vazifalar)
Tanqidiy yo'nalishlari	Nazariyaning umumiy konseptual yoyiqligi va ayrim, hatto asosiy tushunchalar, masalan "o'xshashlik", "sodiqlik", "umid" kabilarning mavhumligi. Psixosotsial konsepsiyadagi empirik tekshirishning yetarli emasligi.
Qimmatli tomoni	Psixoanalitik nazariyani kegaytirdi va boyitdi, "Ego-Men" ning moslashuvchi funksiyalarini, sog'lom rivojlanish imkoniyatlari va qiyinchiliklarini tahlil qildi. "Ego-Men" ning shakllanishi uchun faqat oilaning o'zi emas, balki keng miqyosdagi madaniy va tarixiy shart-sharoitlarnig ahamiyati ham ko'rsatib o'tildi. Individning butun hayot yo'lini qamrab oluvchi (godaklikdan to qarilik yoshigacha bo'lgan davr) sanoqli nazariyalardan biri, har bir yosh bosqichida sifat o'zgarishlari alohida ko'rsatib o'tiladi.

Bolaning psixik taraqqiyotini ijtimoiy muxit va undagi shart-sharoitlar belgilashini aks ettiruvchi nazariyalar

Neofreydizm oqimining yirik vakillari Karen Xorni (1885-1953), G.Salliven (1892-1949), Erix Fromm(1900-1980)larning fikricha, odam psixikasining shakllanishi va rivojlanishiga ishtimoiy shart-sharoitlar va shaxslararo munosabatlar ta`asir ko'rsatadi.

O'tgan asrning yigirmanchi yillarida Karen Xorni Berlinda amalyotchi psixoanalitik sifatida faoliyat olib borar va o'zida ma'lum ma'noda marksistik g'oyalarni his etib turardi, lekin Xorni marksistik dunyoqarashning xaqiqiy moxiyatini unchalik tushuna olmaydi. Shunga qaramay marksistik nazarya bilan tanishish izsiz yo'qolib ketmaydi, Xorni biologik mayllarni Freydga xos bo'lgan iqtibosini tanqid qilib ijtimoiy omillarning ro'lini oshirishga harakat qiladi.

30-yillarning boshlarida G'arbiy Yevropaning bir guruh analitiklari AQSHga ko'chib o'tishadi. Bu davr imperializmning jahon tizimidagi ulkan silsilalar davri bo'lib qoldi, Germaniyada xokimyat tepasiga fashistlar keldi.

Butun kapitalistik dunyodagi sinfiy va g'oyaviy qarama-qarshiliklar o'ta xavfli nuqtaga yetib chiqdi, ijtimoiy-siyosiy vaziyat psixik faoliyatni o'rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga yangi istiqbolli yo'nalishlar ochib berdi.

Jamiyatdagi ijtimoiy fikrlar va insoniy munosabatlarni o'rganishning empirik yo'liga o'tgan ijtimoiy psixologiya tez sur`atlarda rivojlana boshladi.

Kishilarni o'rganish amaliyoti (nevrotik buzulishlardan ozor chekkanlar uchun ham), ularning ruhiyatidagi jarohatlar bolalikdagi jinsiy mayillarning siquvga olinishi natijasi emas, balki fashizm va iqtisodiy inqiroz tufayli yuzaga kelgan xavf-hatar hosilasi ekanligidan darak berardi. Psixoanalitiklar ko'z o'ngida o'tgan asir oxirlarida Breyr va Freyd mijozlari azob chekkan nevrotik buzulishlardan farqlanuvchi boshqa simptomlar namoyon bo'la boshlaydi.

Karen Xorni Amerika psixoanalitik institutini tashkil etdi va qator kitoblar ("Bizning davrdagi nevrotik shaxs" (1937), "Bizdagi ichki nizolar" (1945), "Nevrozlar va odamning rivojlanishi"(1950))ni nashrdan chiqardi va shu orqali Freydning biologik yo'nalishini tanqid ostiga oldi.

Nevrozlarning vujudga kelish sabablarini ochib berish uchun, deb ko'rsatadi Xorni, - ijtimoiy voqelikka(ijtimoiy muxit) murojaat etish kerak.

Barcha nevrotiklarga reaksiyalarning rigidligi (yangi sharoitga tezda moslasha olmaslik) xos bo'lib, mavjud imkoniyatlar va real muvaffaqiyatlar o'rtasida uzilish mavjuddir. Ushbu simptomlarning manbasi Edip kompleksi emas, balki oldindan his etilgan xavotirlik tuyg'usidir. U bu foniy dunyoda o'zini yog'iz va yordamga muhtoj holda his etayotgan bolalarda paydo bo'ladi.

Agar ota-onalar o'z farzandlarini begona kishilar tazyiqidan o'z mehr-muhabbati orqali muxofaza etmas, xavotirlik xissi ortib turg'unlik kasb etadi. Qo'rquv xissidan ozod bo'lish va xavf-hatarsiz hayotga bo'lgan ehtiyoj – odam xulq –atvorini harakatga keltiradi.

Freyd yozgan jinsiy buzulishlar va tajovuzkorlik tendensiyasi, Xorni fikricha nevrozning sababi emas, balki uning natijasi xisoblanadi.

Xavotirlanish xissi, undan ximoyalanish vositasi sifatida ayrim nevrotik ehtiyojlarni paydo qiladi, ulardan eng muhimlari – odamlarga qarab yurish, odamlardan uzoqlashish va odamlarga qarshi yurishdir. Individ xulqida u yoki bu vector(yo'nalish)ning ustunlik qilishi natijasida nevrotik shaxs shakillanadi.

Individ va uni o'rab turgan ijtimoiy muhit orasidagi o'zaro munosabatlar tizimida yuzaga keladigan ziddiyatlarning hal etilishiga ijobiy ruhda qarash mumkin, chunki shaxslararo munosabatlarga ta'sir ko'rsatish, xulqning genetik determinantlariga ta'sir etishdan ko'ra osonroq kechadi.

Ijtimoiy omillarga murojaat etish, Edip kompleksi va jinsiy mayillar g'oyasidan voz kechish – Freyd nazariyasi bilan tamomila aloqani uzishga olib kelardi, lekin nima uchundir Xornining qarashlari neofreydizm deb baholandi.

Gap shundaki, bir tomondan individ va unga begona ijtimoiy boqrliq, ikkinchi tomondan individ xulq-atvoriga oid motivlarning ongsizlikka xos tabiati kabi Freyd nazariyasiga oid qarashlar shaxsning o'zidagi yashirin komplekslarni anglashga undar edi.

Freydizm oqimi vakillaridan yana biri E.Fromning ishlari ham kapitalistik dunyo ziyolilari o'rtasida katta ommaviylikka erishdi.

E.Fromm 1933-yilda AQSHga ko'chib o'tib, Chikago psixoanaliz institutida, so'ngra 1951-yilda Meksikada ishlaydi. Freyd tomonidan xulqining yagona dvigateli (xarakatlantiruvchi kuchi) biologik kuchlar deb baholangan bo'lsa, Frommning uqtirib o'tishicha, hamma uchun umumiy bo'lgan ochlik, tashnalik, jinsiy mayllar kabi ayrim ehtiyojlar mavjud, lekin odam xarakteridagi farqlarni yaratuvchi ehtiyojlar: sevgi va nafrat, xokimiyatga intilish va unga bo'ysunish, xissiy qoniqishdan rohatlanish va undan qo'rqish - ijtimoiy jarayonlar xosilasidir.

Odamning nafis, gozal va bebosh tuyg'ulari unga tabiatan berilmagan, balki odamning o'zini kashf etuvchi ijtimoiy jarayon natijasidir.

Xayvonot dunyosidan ajralib chiqqan odam, Fromning ta`biricha "mavjudlik dixotomiya"(ekzisensial dixotomiya) quliga aylanadi, u katta imkoniyatlarga ega, lekin o'zining qisqagina xayoti davomida ularni ro'yobga chiqara olmaydi.

Odam jamiyatning bir bo'lagi, lekin u bilan uyg'unlikda yashay olmaydi, chunki uning o'zi aloxida bir jonzotdir.

E.Fromning ko'rsatishicha, Evropa sivilizatsiyasi tarixida o'rta asrlar ijtimoiy xavfsizlik va birdamlik davri sanaladi: har kim ijtimoiy tizimda o'z o'rnini biladi va hech kim yolg'izlikni, boshqalardan ajralib qolishni xis qilmagan.

Renessans va reformatsiya(uyg'onish va islohotlar davri) o'rta asrlardagi stabillik(ma'rom)ni izdan cniqardi. Odam erkinlikni qo'lga kiritdi, ammo ijtimoiy xavfsizligini boy berdi, individning boshqalariga bogliqligi o'ta kuchaydi, uni qanday qabul qilishlari muhim ahamiyat kasb eta boshladi.

Ushbu holatlar erkinlikdan qochish mehanizmlarini paydo bo'lishiga olib keldi: sadizm ,mazohizm, destruktivizm va avtomatik konformizm.

Sadizm - boshqalar ustidan cheksiz hukmronlikka intilishda namoyon bo'ladi.

Mazoxizm - o'zini boshqalarga bahshida etish, itoatkorlik.

Destruktivizm - dunyoni buzish, chunki u menga ziyon etkazishi mumkin.

Konformizm - barcha o'ziga xos betakror narsalarni rad etuvchi ijtimoiy normalarga rioya etish.

Sotsiogenetik yo'nalish vakillari bolaning rivojlanishi, uni o'rab turgan ijtimoiy muxit ta`sirining samarasi deb xisoblaydilar.

Ushbu yo'nalishning dastlabki tarafdorlari sifatida Emil Dyurkgeym (1858-1917), Gabriel Tard(1843-1904), Sharl Blondel(1876-1939)ni ko'rsatish mumkin.

Emil Dyurkgeymning fikriga ko'ra, rivojlanish orqali bola insoniyat to'plagan tajribalar, urf-odatlar va an`analarni o'zlashtirib boradi.

Bu jarayon, taqlid qilish orqali kechadi.

Jamiyatdagi taqlid qilish harakatlari, xuddi biologiyadagi irsiyat kabi ahamiyatga ega bo'lib, bola taqlid qilish qobiliyati bilan dunyoga keladi.

Sharl Blondel, Dyurkgeymning odamdagi tabiiylik va ijtimoiylik tabiatini bir-birga qarama-qarshi qo'yishini tanqid qiladi. Jamiyatni Blondel munosabatlar tizimi sifatida e`tirof etadi, jamiyat bolaning tashqi olam bilan o'zaro aloqaga kirishiga ko'maklashadi. Tarbiya, uning ta`kidlashicha ijtimoiy xulq qoidalarining mustahkam bo'lishini ta`minlab beradi. Ijtimoiy muxit ta`siri ostida nafaqat bilish jarayonlari, balki hissiy-irodaviy soha ham shakllanadi.

Bola psixik rivojlanishining ijtimoiy o'rganish nazariyasi

N.Miller va Dj.Dollard.
1941 yilda fanga «ijtimoiy o’rganish(uqish)» atamasini kiritishdi.

- N.Miller va Dj.Dollard bolalaikni nevrozning o`tish davri sifatida baholashadi.
- Ularning fikricha, baxtli bolalik - bu bir afsona.
- Ota-onalarning vazifasi – bolalarning ijtimoiylashuvini ta`minlash, ularni jamiyatda yashashga tayyorlash. Ijtimoiylashuv jarayonida hal qiluvchi rolni ona o’ynaydi.

A.Bandura

- Ijtimoiy o’rganish konsepsiyasi ikkinchi avlodining taniqli vakili.
- Asosiy e`tiborni taqlid qilish orqali yuzaga keladigan o’rganish fenomeniga qaratgan.
- Uning fikricha, odam xulqidagi ko’p narsalar boshqa odam xulqini kuzatish orqali paydo bo’ladi.



4.4. Kognitiv yo’nalishda rivojlanish psixologiyasi Jan Piaje tomonidan bola intellektual rivojlanishini tadqiq qilishining asosiy yo’nalishlari

Shveytsariyalik psixolog Jan Piaje(1896-1980) nazariyasi bolalar psixologiyasi taraqqiyotida o’ziga xos o’rin egallaydi. Bola, Piajening fikricha tabiiy mavjudot sanaladi va shu bilan birga tug’ilgan kunidan boshlab o’z ichki tuzilmasiga eg bo’lgan, alohida bir yaxlitlikni tashkil etadi. Bolaning harakatlari uni o’rab turgan tashqi muxit orqali bilvosita tarzda aks etadi, lekin tashqi muxit ta`sirlariga oddiygina javob reaksiyasi bilan cheklanilmaydi, balki tashqi ta`sirotlar qayta ishlanadi va o’z-o`ziga moslashtiriladi.

Bola dastavval tashqi muxitni begonasirab qabul qiladi, shuning uchun Piaje “majburlash”, “bosim o’tkazish” kabi tushunchaladan foydalanadi va shular orqali ijtimoiy muxitning bolaning rivojlanishiga ko’rsatadigan ta`sirini ochib beradi.

Jan Piaje ta`limning bola rivojlanishiga ta`sirini inkor etmaydi, biroq uning ko’rsatishicha ta`lim rivojlanishning mazmuni va uzviyligini o’zgartira olmaydi, faqat uni sekinlashtirishi yoki tezlashtirishi mumkin.

Jan Piaje o'zining “Bolaning ahloqiy qarashlari” kitobida katta tajriba materiali asosida shunday farazni ilgari suradi, bolalarda ahloqiylikning ikki hil ko’rinishi uchraydi:

- majburiy ahloqiylik; mazkur ahloqiylik bola va kattalar orasidagi o’zaro munosabatlar doirasida shakllanadi, bola kattalarning ko’rsatmasi va ta`qiqlashlariga moslashib boradi.
- hamkorlik tufayli yuzaga kelgan ahloqiylik; mazkur ahloqiylik namunalari bolaning o’z tengdoshlari bilan o’zaro munosabatlari asosida yuzaga keladi.

Jan Piaje tadqiqotlarida odam amaliy faoliyatining murakkab rivojlanish jarayoni, bola psixik taraqqiyoti uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo’lgan faoliyat usullarini egallash, faoliyat vazifalari va motivlari to'la ochib berilmaydi. Piaje ta`biricha rivojlanish, alohida olingan individning tevarak – atrof bilan o’zaro munosabatlarning murakkablashishi natijasidir.

Jan Piajening intellektual operatsiyalar konsepsiyasi

Tadqiqotning asosiy predmeti	Bolaning tig'ilganidan yetuklik davriga qadar kognitiv rivojlanishi
Tadqiqot metodlari	Erkin so'rov, go'daklik va ilk yoshdagi bolalar xulqini kuzatish, turli yoshdagi bolalarning maxsus tayyorlangan vazifalarni bajarishini tahlil qilish
Asosiy tushunchalar	Egosentrizm, konkret operatsiyalar, formal operatsiyalar, bosqichlar chizmasi, bosqichlar, ramziy(individual) tafakkur, tushunib esda olib qolish, qaytariluvchanlik, assimilyatsiya, akkomodatsiya, muvozanatlashganlik
Asosiy g'oyalar	Intellektual taraqqiyot sifat jihatidan turlicha bosqichlarni o'z ichiga oladi. Intellektual taraqqiyot 3 bosqichda kechadi: sensomotor intellekt, konkret operatsiyalar, formal(rasmiy) operatsiyalar
Rivojlanish omillari	Tashqi muxitning ta`sir etishi, nerv tizimining yetilishi bolani aqliy(intellektual) faoliyatga undaydi, lekin kognitiv tuzilmalrni bola hatti-harakatlari va mustaqil izlanishlari orqali o'zi qidirib topadi.
Tanqidiy yo'nalishlari	• Egosentrik nutq va uning fuksiyalari; • Boladagi egosentrik nutq; • Bola kognitiv rivojlanishining o'ziga xosligi, kattalar tomonidan bolani kognitiv operatsiyalarga or o'rgatish samaradorligini inkor etish; • Intellektning oliy darajasiga erishish imkoniyati;

Qimmatli jihati	• Bola intellektini sifat jihatidan o'ziga xos, noyob imkoniyatga ega muammo sifatida o'rganilishi; • Bola shaxsining faolligini qayd etilishi; • «sa`y harakatdan to fikrlashgacha» bo'lgan taraqqiyot yo'lini tadqiq etilishi; • Bola tafakkuri fenomenlari («Piaje fenomenlari»)ning oshilishi va ularni tadqiq etish usullarining ishlab chiqilganligi («Piaje vazifalari»);

4.5. Tarixiy-madaniy yo'nalishda rivojlanish psixologiyasi L.S.Vigotskiy tomonidan ishlab chiqilgan odam psixikasining madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasi.

Bolalar va pedagogik psixologiyaning fan sifatida rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan olimlardan biri L.S.Vigotskiy(1896-1934) xisoblanadi.

Uning beqiyos xizmatlaridan biri shundan iborat edi-ki, Vigotskiy sobiq ittifoq psixologiya maktabida birinchi bo'lib, odam psixik taraqqiyotiga biologik va ijtimoiy omilning o'zaro ta`siri muammosini har tomonlama o'rganadi.

Ilmiy qarashlarini bayon etar ekan, L.S.Vigotskiy o'zining safdoshlari A.N.Leontyev, A.R.Luriya ishtirokida odam psixikasining madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasini ishlab chiqadi. Ushbu nazariyaning mohiyatiga ko'ra, odam xulqining ikki jihatini farqlash mumkin:

- tabiiy jihati(hayvonot olamidagi biologik evolyutsiya natijasi);
- madaniy jihati(jamiyatning tarixiy taraqqiyoti natijasi);

Madaniy xulq-atvor, qurollar va belgilar orqali bilvositalik kasb etadi, masalan dastlabki vosita "tashqi tomonga", ya`ni voqeylikni o'zgartirishga qaratilgan bo'lsa, keyingi vosita "ichki olamga" yo'naltiriladi. Madaniy xulqni shakllantirishning asosiy sharti, bolaning kattalarga taqlid qilishi va ular bilan muloqoti xisoblanadi, bu esa bolada oliy psixik fuksiyalarning vujudga kelishi va rivojlanishiga zamin yaratib beradi.

L.S.Vigotskiy fikriga ko’ra, agar bolaning psixik taraqqiyoti muloqot jarayonida kechar ekan, demak muloqotning eng tizimli shakli – ta`lim o’zining ortidan taraqqiyotni ergashtira oladi.

O’zining ilmiy farazlarni asoslagan holda L.S.Vigotskiy bola aqliy taraqqiyotining ikkita darajasini ko’rsatib beradi:

1. Mavjud(aktual) taraqqiyot darajasi - boladagi mavjud bilimlar, ular orqali bola betilgan vazifalarini o’zi mustaqil bajara oladi.
2. Yaqin taraqqiyot darajasi – bu nisbatan yuqori daraja bo’lib, vazifalar kattalarning qisman yordami orqali bajariladi. Bugun kattalarning yordami bilan amalga oshirilayotgan harakatlarni deb ta’kidlaydi. L.S.Vigotskiy, - bola ertaga mustaqil tarzda bajaradi, yaqin taraqqiyot darajasidagi xatti-harakatlar, ta’lim jarayoni orqali mavjud (aktual) taraqqiyot darajasiga o’tib boradi.

Ta`lim va ruhiy taraqqiyotning o’zaro bog’liqligi

Pedagogika va psixologiya fanlari tizimida, ta’lim va ruhiy taraqqiyotning o’zaro munosabati doirasida 3 ta nuqtai-nazar mavjuddir:

- birinchi nuqtai-nazarga ko’ra ta’lim va ruhiy taraqqiyot, alohida mustaqil jarayonlardir, lekin ta’lim miyaning yetuklik darajasiga ko’ra belgilanadi. Shunga ko’ra ta’lim – taraqqiyot jarayonida vujudga kelgan imkoniyatlardan foydalanishdir. V.Shternning yozishicha, ta`lim taraqqiyot ortidan yuradi va unga moslashadi;
- ikkinchi nuqtai-nazarga ko’ra (U.Djems, E.Torndayk) ta’lim va ruhiy taraqqiyot bir-biriga qo’shilib ketuvchi jarayonlardir;
- uchinchi yondashuv vakillari dastlabki nuqtai-nazarlarni umumlashtirgan holda uni yangi ilmiy farazlar bilan boyitishdi: ta’lim faqat taraqqiyotning ortidan izma-iz yurmaydi, balki undan oldinda yurishi ham mumkin. Bu yangi g’oyani rus psixologi L.S.Vigotskiy ilgari surgan.

L.S.Vigotskiyning madaniy-tarixiy nazariyasi

Psixik taraqqiyotni harakatga keltiruvchi kuch – ta`limdir.

Taraqqiyot va ta`lim – turli jarayonlar bo'lib, aynan ta`lim taraqqiyotni harakatga keltiradi, ta`lm taraqqiyotning asosidir.

«Ta`lim taraqqiyotdan ilgarilab yursagina, unung muvaffaqiyati haqida gapirish mumkin bo'ladi».

Istiqboldagi taraqqiyot doirasi(zonasi) – mavjud taraqqiyot darajasi hamda o'qituvchi tomonidan yo'naltirilgan kelgusi taraqqiyot darajasi oralig'idagi masofadir.

Mavzu bo'yicha test savollari:

1. Biogenetik qonunga tayangan holda, har bir bola o'z individual taraqqiyoti davomida insoniyatning tarixiy bosqichlarini takrorlab o'tadi degan fikrni ilgari surgan amerikalik psixolog?

a. Anri Vallon.
b. Jan Piaje.
c. A.Gezzel.
d. Stenli Xoll.

2. Emil Dyurkgeymning fikriga ko’ra, rivojlanish orqali bola insoniyat to’plagan tajribalar, urf-odatlar va an`analarni o’zlashtirib boradi. Bu jarayon nima orqali kechadi?

a. instinktlar orqali.
b. taqlid qilish orqali.
c. ko’nikmalar orqali.
d. bilimlar orqali.

3. Ushbu yo’nalishda “rivojlanish” tushunchasi, “uqush”, “o’rganish” tushunchalari bilan yonma-yon yuradi, bu qaysi yo’nalish?

a. Biheviorizm yo’nalishi.
b. Psixoanaliz yo’nalishi.
c. Personologik yo’nalish.
d. Pedologik yo’nalish.
e. Psixikani harakatga keltiruvchi kuch – bu ...?(L.S.Vigotskiy)

4. Psixikani harakatga keltiruvchi kuch – bu ...?(L.S.Vigotskiy)

a. Irsiyat.
b. Tarbiya.
c. Ta`lim.
d. Muxit.

5. ... ning uqtirib o’tishicha, hamma uchun umumiy bo’lgan ochlik, tashnalik, jinsiy mayllar kabi ayrim ehtiyojlar mavjud, lekin odam xarakteridagi farqlarni yaratuvchi ehtiyojlar: sevgi va nafrat, xokimiyatga intilish va unga bo’ysunish, xissiy qoniqishdan rohatlanish va undan qo’rqish - ijtimoiy jarayonlar xosilasidir?

a. Z.Freyd.
b. V.Stern.

c. E.Dyurkgeym.
d. E.Fromm.

6. Rus psixologi L.S.Vigotskiy bola aqliy taraqqiyotining nechta darajasini ko’rsatib beradi?
    a. 5 ta.
    b. 4 ta.
    c. 3 ta.
    d. 2 ta.
7. Faoliyatni chuqur o’rgangan va fanga yetakchi faoliyat tushunchasini kiritgan rus psixologi?

a. K.D.Ushinskiy.
b. P.Y.Galperin.
c. A.N.Leontyev.
d. A.R.Luriya.

Takrorlash va muhokama uchun savollar:

- Avstiyalik psixiatr Z.Freyd ishlab chiqqan psixoanalitik nazariyaning asosiy g’oyalari haqida tushuncha bering?
- Shaxsni faollikka undovchi kuchlar haqida psixoanaliz yo’nalishida yoritilgan qarashlarini izohlab bering?
- Bolalar psixoanalizi, jinsiy taraqqiyotning turli yosh davrlarida kechishi haqidagi fikrlar haqida tushuncha bering?
- Shaxsning shakllanishiga doir yaratilgan ijtimoiylashuv nazariyalari haqida o’z fikringizni bildiring?
- Epigenetik nazariya haqida tushuncha bering?
- Sotsiogenetik yo’nalish tarafdorlarining ilmiy-nazariy qarashlarini tahlil qilib bering?
- Kognitivizm yo’nalishi vakili Jan Piaje olib borgan tadqiqotlar haqida tushuncha bering?

- L.S.Vigotskiy tomonidan yaratilgan bolaning psixik rivojlanishi aks etgan madaniy-tarixiy nazariyani tahlil qilib bering?

Ruhiy taraqqiyotning kechish muddatlari, sur`ati va yangilanishlarni turli yosh davrlariga bo'lgan holda o'rganilishi

2 bo’lim. Rivojlanishning yosh bosqichlarini psixologik tahlili

V bob. Go’daklik davri

- 5.1. Bolalik fenomeni. Bolalik chegaralari;
- 5.2. Prenatal rivojlanish;
- 5.3. Go’daklik davrining psixologik tavsifi;
- 5.4. “Jonlanish kompleksi” va uning belgilari;
- 5.5. Go’daklik davrida sensor va motor rivojlanish;
- 5.6. Hayotni birinchi yilidagi inqiroz.

5.1. Bolalik fenomeni. Bolalik chegaralari.

Odam bolasi himoyasiz, o’zgalar yordamiga muhtoj holda dunyoga keladi, o`sib kelayotgan chaqaloq organizmini to`g`ri parvarish qilish uchun bolaning jismoniy o`sishi va psixik rivojlanishi kabi asosiy jarayonlarni bilishi zarur.

O’sish va rivojlanish barcha tirik organizmlar kabi, odam organizmiga ham xos bo’lgan hususiyatdir, chaqaloq organizmining har tomonlama jismoniy va ruhiy rivojlanishi uning tug’ilgan vaqtidan boshlanadi. Bu ikki jarayon bir-biri bilan uzviy aloqador xisoblanadi va yaxlit bir burunlikni tashkil etadi.

O’sish deganda o’z tuzilishini saqlagan holda miqdor jihatdan ro’y beradigan o’zgarishlar nazarda tutiladi, unda tana vazni, undagi hujayra va to`qimalarning ko`payishi hisobiga o`lchamlarning ortilishi tushiniladi.

Psixik rivojlanish esa sifat jihatdan yangilanish bo`lib, unda organizmning funksiyonal tuzilishu va xulq-atvori mukammallashib boradi.

Yangi tug`ilgan chaqaloqlik davri 1 kundan 10 kungacha(kindik tushguncha) davom etib, bu davrda bola yangi biologik muxitga moslashadi, ilk bor mustaqil nafas oladi, analizatorlar tizimi mustaqil ravishda ishlay boshlaydi.

Chaqaloqning ona organizmi bilan anatomik va morfologik bog’liqlik davri tugagan bo’lsa-da, dastlabki daqiqalardan boshlaboq mustaqil yashay olmaydi onaga fiziologik jihatdan tobeligacha qolaveradi, uning yashab keishi uchun zarur bo’lgan ozuqa va oqsillar mazkur o’sish pallasida ona suti orqali borib turadi.

5.2. Prenatal rivojlanish

Chaqaloqda irsiy yo’l bilan mustahkamlangan shartsiz reflekslar mavjud bo’ladi va uni yangi hayot sharoitiga moslashishni birmuncha osonlashtiradi, yangi tug’ilganda uning oziqlanish, asosan so’rish yoki emish reflekslari o’z vazifasini ado etishga tayyor bo’ladi. Bola tashqi sharoit va muhitga moslashish imkonini beradigan nerv(asab) tizimi bilan dunyoga keladi, sharsiz reflekslar organizmda qon aylanishi, nafas olish hamda nafas chiqarishni ta`minlab beradi. Dastlabki kunlardanoq kuchli qo’zg’atuvchilarga nisbatan ko’zni qisish va pirpiratish, ko’z qorachig’ining kengayishi yoki torayishi kuzatiladi, ushbu harakatlar himoya reflekslari orqali amalga oshiriladi. Chaqaloqlarda tashqi qo’zg’atuvchilar bilan aloqa o’rnatishga xizmat qiladigan orientirovka(mo’ljal olish) reflekslari ham uchraydi, bolaning xonaga quyush nuri tushishi bilan boshini yorug’lik tomonga burishi, yorug’likni sezishi kizatishlar davomida aniqlangan.

Sharq mamlakatlari, xususan milliy urf-odatlarimizda aniqlanishicha, chaqaloqlarda bizga ma`lim bo’lmagan tug’ma reaktsiyalar ham mavjud bo’lib, beshik tebratilganda chaqaloqning yig’idan to’xtashi, ixtiyorsiz harakatining sekinlashuvi shundan dalolat beradi. qadim zamonlardan beri beshik,

so’rg’ichlardan chaqaloqni yupatish, uning ixtiyorsiz harakatini to’xtatishning, muhim vositasi sifatida foydalanib kelinadi.

Yangi tug’ilgan bolaning yuz qiyofasi o`ziga xos bo`lib, kattalarnikidan ancha farq qiladi. Yangi tug’ilgan bola gavdasining yuqori qismi uzun, oyoqlari va, bo’yni qisqa, boshi gavdaga nisbatan katta bo’ladi.

Katta yoshdagi odamning boshi gavdasining sakkizdan bir qismini, yangi tug`ilgan bolaning boshi esa gavdasining to’rtdan bir qismini tashkil etadi, yangi tug`ilgan bolaning bo’yi o’rta xisobda 48-52 sm bo’ladi.

Bola tu’ilgandan bir yoshgacha bo`lgan davrda jismoniy va psixik jixatdan juda tez o’sadi, chaqaloq juda zaif va ojiz ko’rinsa-da, ba`zi jihatlari bilan boshqa yosh davrlaridan ustunlik qiladi, har oyda ikki santimetrdan o’sadi, uning og’irligi har kuni 1,6-2 grammdan ortib boradi.

N.L.Figurin va M.P.Denisovalarning ta`kidlashicha, bolaning bir oylikkacha davridagi tetiklik holati ko’rish va eshitishga yo’nalgan shartsiz reflekslar tufayli faollashib boradi: tovush ta`siriga berilish 2-3 haftalikda vujudga keladi, shuning uchun bola tovush orqali yig’idan yoki harakatdan to’xtaydi.



Chaqaloqlarning shartsiz reflekslari

- Organizmning tizimli faoliyatini ta’minlab beruvchi reflekslar (nafas olish, qon aylanishi, xazm qilish va bosh.)
- Ximoya reflekslari (kiprik qoqish, yo’tal va bosh.)
- Oriyentirovka reflekslari
- Atavistik reflekslar (ushlash, o’z-o’zidan yuzaga keluvchi(beihtiyor) xarakatlar va bosh.)



5.3. Go’daklik davrining psixologik tavsifi

Go’daklik yoshidagi bolaning hayot tarzi, uni parvarish qilayotgan kattalarga bevosita bog’liq holda kechadi. Uning barcha istak-hohishlari, yuzaga kelgan ehtiyojlaru va talablari faqat kattalar yordamida amalga oshiriladi.

Kattalar bolani tevarak-atrof va uhdagi narsalar bilan tanishtiradilar, uning fazodagi joylashuvini muttasil ravishda o’zgartirib turadilar, natijada unda ko’rish, eshitish, teri tuyush, harorat sezgilari yanada takomillashadi. Go’daklik yoshidagi bola uchun yaratilgan ob`ektiv va sub`ektiv shart-sharoitlar uning jismoniy va ruhiy taraqqiyotini belgilab beruvchi muhim omil vazifasini o’taydi.

O’yinchoqlar yorqin rangi, shakli va tovushi bilan bolaning diqqatini o’ziga tortadi, o’zaro muloqot jarayonida o’yinchoqlarni ushlashga o’rgatish, mashqlar natijasida bola ularga talpinadigan va qo’l cho’zadigan bo’ladi.

6 oylardan so’ng bola kattalar yordamida o’rinda dumalash, o’tirish, tik turish va emaklash kabi harakatlarni amalga oshirishni o’rganadi.

5.4. “Jonlanish kompleksi” va uning belgilari



D.B.Elkoninning fikricha, kattalar go'dakni qurshab turgan voqelikning markazida turuvchi muhim tarkibiy qismi hisoblanib, uning har qanday ehtiyojini qondirish bilan bog'liq muammolar uchun tayanch vazifasini bajaradi.

Kattalar bola ishtirok etayotgan faoliyatni jonlantiradilar, uni o'rab turgan predmetlar borgan sari uning nigohini o'ziga tortib, qo'zg'atuvchi vazifasini bajaradi hamda qidirish, mo'ljal olish, chamalash faoliyatini shakllantiradi.

3-4 oylardan so'ng, bolada o'zini parvarish qilayotgan yaqin kishilarga bog'lanib qolish sodir bo'ladi, shu sababli o'z onasini xursandchilik bilan kulib qarshilaydi va unga talpinadi, 6 oydan so'ng boshqa yaqinlarini ham ajratadi.

O'yin faoliyatidagi tabassum, jonlanish, shodlik tuyg'ulari avval faqat kattalar ishtirokida aks etgan bo'lsa, vaqt o'tishi bilan bevosita o'yinning o'zi ham bolada quvonch hissini bag'ishlaydi. Go'dak bir yoshga to'lishi bilan kattalarning xatti-harakatlarini kuzatishdan tashqari, unda asta-sekin ularning faoliyatida ishtirok etish istagi paydo bo'ladi, bola o'zi alohida bajaradigan faoliyat turidan hamkorlikdagi faoliyat turini ham o'zlashtira boshlaydi, bu esa uning tevarak-atrof bilan kechadigan muloqot doirasini kengaytirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotchi N.M.Askarinaning fikricha, katta yoshdagi odamning tabassumi yoki yoqimli ovozidan boshqa xech qanday qo'zg'atuvchi, go'dakda

quvonch va shodlik his-tuyg’usini yuzaga keltira olmaydi, shu sababli u bilan yoqimli ohangda va samimiy muloqotda bo’lib turish lozim.

Bir yoshgacha bo’lgan davrda muloqotning rivojlanishi
• Hayotning birinchi yarim yilligi – go'daklik yoshidagi bolaning o’z onasi bilan xissiy(emotsional) muloqot davri.
• Mazkur muloqotning mazmuni, boshqa kishiga nisbatan beg’araz ijobiy munosabatda ifodalanadi.
• Hayotning ikkinchi yarim yilligi – kattalar bilan vaziyatli muloqot davri.
• Muloqotning asosiy vositalari: - yuz ifodasidagi xissiy belgilar; - predmetli harakatlar; - xolatlar; - imo-ishoralar.

Jan Pajening fikriga ko’ra, bola intellektual taraqqiyotning sensomotor davriga qadam qo’yadi. U 6 ta bosqichdan iborat bo’lib, ulardan 4 tasi go’daklik yoshiga to’g’ri keladi.

Reflekslarni mashq qilish. Ular quyidagi shartsiz reflekslar xisoblanadi: So’rish(emish, ushlash, yig’lash.

• Birlamchi aylanma reaksiyalar (1-4 oylar)

• Ikkilamchi aylanma reaksiyalar (4-8 oylar)

• Ikkilamchi harakatlar koordinatsiyasi (8-12 oylar)

5.5. Go'daklik davrida sensomotor(hissiy-harakatli) funksiyalarning rivojlanishi

Yoshi (oylarda)	Sensomotor harakatlar
1	Qisqa muddatli ko'z yugurtirish; kattalarga(asosan onasiga) nusbatan javob reaksiyasi sifatida yig'ining pasayishi yoki to'xtashi.
2	Bir tekisda harakatlanayotgan o'yinchoqni ko'z orqali "ta`qib etish", uning tovushiga quloq solish.
3	O'yinchoqni barcha yo'nalishda kuzatib tirish, tovush kelgan tomonga boshni burish va tikilib qarash.
4	O'yinchoqqa intiladi, o'zining qo'llarini ko'radi, kelayotgan tovushlarni fahmlaydi.
5	Nigohini bir predmetdan boshqasiga o'tkazadi, o'yinchoqqa intiladi va uni ushlaydi, o'yichoqni o'g'zi tomonga tortadi, onasining tovushidan sergaklanadi yoki jonlanadi.
6	Q'zining qo'l harakatlarini ko'z orqali kuzatadi, tovushga nisbatan o'girilib qaraydi.
7	Narsani bir qo'lidan ikkinchisiga o'tkazadi, qo'li bilan o'yinchoqqa uradi, o'z yaqinlarining tovushini taniydi.
8	Narsalarni suradi, taqillatadi, uloqtiradi, kishilarning yuzini farqlaydi, o'zining ismini biladi.
9	So'z bilan ifodalangan ko'rsatmaga harakat orqali javob qaytaradi: berkitilgan o'yinchoqni qidiradi, mayda narsalarni ikkita barmog'i bilan ushlaydi.
10	Qo'l harakatlariga taqlid qiladi: "chapak chaladi", "hayrlashadi", boshqa odamning tana a`zolarini ko'rsatadi, o'yinchoqni barmoqlari bilan ushlaydi.
11	O'yinchoqlarini divandan pastga irg'itadi, taqlidiy harakatlari – daftar va kitob varaqlaydi, o'z tana a`zolarini ko'rsatadi.

12	Bir predmet ustiga boshqasini qo'yadi, rasmlarni taniy boshlaydi, qutini ocha oladi.

Go'daklik davrida kattalar bilan faol muloqotga kirishish ehtiyoji paydo bo'ladi va ushbu jarayon, nutqni egallash davrigacha muloqotning o'ziga xos yangi shakli sifatida bolaning ruhiy taraqqiyotida muhim o'rin tutadi.

Bir yoshgacha (go'daklik)davrda paydo bo'lgan ehtiyojning tobora chuqurlashib borishi, aynan ushbu davrda muloqot doirasining cheklanganligini inqirozli vaziyatlarni keltirib chiqaradi. Yuzaga kelgan qarama-qarshiliklar o'z echimini nutqni o'zlashtirish davrida barham topadi va bola ruhiy taraqqiyotining bir bosqichdan ikkinchisiga o'tayotganligini ifodalaydi.

Ta`sirlanish tuyg'usi avval umumiy xususiyatga ega bo'ladi, keyinchalik (4-5 oylikda) o'zining yaqin kishilarini tanish va begonaga ajratish bilan yakunlanadi.

Yaqin kishilar go'daklik yoshidagi bolada chuqur ijobiy kechinmalar hosil qilsa, begonalar tabassum va quvonch hislarini butunlay to'xtatishga olib kelishi ham mumkin, katta yoshdagi odamlar go'dak uchun dastlabki tanish jarayonining ob`ektiga aylanadilar va muloqot davomida ijobiy ta`sirlanish tuyg'usini paydo qiluvchi qo'zg'atuvchi vazifasini o'taydilar.

Insonga qaratilgan ta`sirlanish tuyg'usi vaqt o'tishi bilan turli narsalarga ham ko'chadi, kattalar qo'lidagi o'yinchoq, bolada quvonch va jonlanish hissini uyg'otadi, yorqin va tovushli o'yinchoqlar bolaning nigohini o'ziga jalb etadi, amaliy harakatlar kattalar yordamida ro'yobga chiqadi.

Go'daklik yoshidagi bola 6 oylikka yetganda, uning kattalar bilan muloqotga kirishish jarayoni ikki xil ahamiyat kasb etadi, dastlabki davrda o'zaro muloqot bir tomonlama, faqat kattalarning ta`sir o'tkazishi bilan cheklangan bo'lsa, endi bolaning ularga javob reksiyasi sifatidateskari aloqa ham vujudga keladi.

Go'daklik yoshidagi bola kattalarning kiyimini tortqilaydi, hiqillaydi va yig'laydi, mazkur psixik holat bolaning kattalar bilan muloqoti yangi bosqichga ko'tarilganidan dalolat beradi. Go'dakning katta odamlarga qo'yadigan talablari qat`iy ohangda, so'z bilan ifodalanmasa-da, uning bevosita yordamga muhtoj

ekanligini bildiradi, masalan, qo'lidan o'yinchoq tushib ketsa, o'ynayotgan koptogi uzoqqa dumalab ketsa, charchasa va shu kabi boshqa hollar ro'y bersa, kattalarni yordamga chaqiradi, ularga tovush chiqirib signal beradi.

Bola hayotining ikkinchi yarim yilligida kattalar nutqini idrok etish va uni tushunish jadal sur`atda o'sib boradi, chunki ona bolani parvarishlash va taribyalash jarayonida o'z hatti-harakatni tushunchalar, so'z birikmalari, atamalar ko'magida amalga oshiradi, predmet va harakatning uzviy bog'liqligini ko'rsatib berishga intiladi. Ma`lumki, har bir narsa va xodisa o'z nomi bilan ifodalanadi, bola uchun onaning nutqini tushunish va ilg'ab olish birmuncha engillashadi.

Bolaning o'zaro hamkorlikdagi (ota-ona, yaqin kishilari ishtirokida) o'yin faoliyati ham nutq faoliyati bilan chambarchas bog'liq holda kechadi.

5.6.Hayotni birinchi yilidagi inqiroz



Takrorlash va muhokama uchun savollar:

- Prenatal rivojlanish haqida tushuncha bering?
- Go'daklik davrini psixologik tavsiflab bering?
- "Jonlanish kompleksi" va uning belgilarini ko'rsating?
- Go'daklik davrida sensor va motor rivojlanish haqida tushuncha bering?
- Bola 1 yoshga to'lgandan so'ng yuzaga keladigan inqirozli xolatlar?

VI bob. Ilk bolalik davri

- 6.1. Ilk bolalik davridagi yangilanishlar va rivojlanishning ijtimoiy vaziyati;
- 6.2. Predmetli faoliyatning shakllanishi;
- 6.3. Ilk bolalik davrida bilish jarayonlarining rivojlanishi;
- 6.4. Bolaning kattalar bilan muloqoti;
- 6.5. Bolaning emotsional sohasi.

6.1. Ilk bolalik davridagi yangilanishlar va rivojlanishning ijtimoiy vaziyati

Ontogenetik taraqqiyotnning 1 yoshdan 3 yoshgacha kechadigan ilk bolalik davri ham alohida o’rin tutadi, chunki aynan shu davrda predmetlar olami bilan tanishish yuz beradi, atrofdagi kishilar, voqea-xodisalarga nisbatan alohida munosabat va xulq-atvor ko’rinishlari shakllanadi, bola shaxs sifatida ulg’ayadi.

Bolaning tik turib yurishga urinishi, turli narsalar bilan ovunishi va mashg'ul bo'lish imkoniyatlarining kengayganligi, uning kattalarga nisbatan bevosita tobeligini kamayishiga olib keladi, bu esa uning mustaqil harakat qilishi, predmetli faoliyatni egallashi uchun zarur shart-sharoitlar yaratib beradi.



Bolaning tik turib, mustaqil yurishga o'rganishi, uning faoliyat doirasini kengaytiradi, bu esa uning kattalarga bevosita tobelik darajasini kamayishiga olib keladi, uning mustaqil harakat qilishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi.

6.2. Predmetli faoliyatning shakllanishi

D.B.Elkoninning fikricha, go'daklik yoshidagi bolalarda predmetlarni tanish, idrok etish, ularning xususiyatlarini o'rganish ehtiyojining ortishi, ularda katta yoshdagi odamlar bilan muloqotga kirishish istagini kuchaytiradi.

Ilk bolalik davrida predmetli-harakatli faoliyatni tashkil etish, uni amalga oshirish jarayoni kattalarning bevosiya yordami va ko'magi asosida amalga oshiriladi va ushbu vaziyat ularning hali kattalarga bog'liqlini ko'rsatadi.

Predmetli harakatlarni o’zlashtirish jarayonini tahlil qilish orqali D.B.Elkonin quyidagi qonuniyatlarni ko’rsatib o’tdi:

- ❖ Bola kattalar bilan hamkorlikdagi faoliyatni amalga oshirishi, uning ko’rsatmalarini bajarishi orqali hatti-harakatlarni egallaydi. Predmetli harakatlarni egallashning asosiy sharti – kattalar bilan hamkorlik;
- ❖ Bola dastlab yangi harakatlarning umumiy jihatlarini o’rganadi: maqsad, mazmun, asosiy manzara, ya`ni maqsadga yo’nalgan asosiy harakatlar. Keyinroq harakatlarning to’g’ri bajarilishi, uning takibiy qismlari o’zlashtiriladi va takomillashtiriladi;
- ❖ Predmetdan qurol sifatida to’g’ri foydalanish – asosiy natija emas, balki harakat namunasini egallash muhim sanaladi;
- ❖ Bolada predmetli harakatlarni egallash jarayoni, uning kattalarga o’xshab harakat qilishi orqali kechadi;
- ❖ Katta odam – bolaga taqlid qilish uchun namuna, rahbar hamda emotsional qo’llab-quvvatlash manbai xisoblanadi.

6.3. Ilk bolalik davrida bilish jarayonlarining rivojlanishi

Ilk bolalik davrida ko’rish va eshitish analizatorlarining takomillashuvi orqali psixik jihatdan tez sur`atlarda taraqqiy eta boshlaydilar. Ilk yoshdagi bola kattalarga taqlid qilishi, predmetli-harakatli faoliyati va qiziqishlar ko’lamining kengayishi orqali kattalar yordamida hamma narsani bilishga intiladi. Ushbu yoshdagi bolalarning mustaqil harakat qila olish imkoniyatlari tevarak-atrofni bilish ehtiyojini qondirishga juda katta sharoit yaratib beradi.

Ilk bolalik davrida sezgilar(ko'rish, eshitish, hid va ta’m bilish, teri-tuyish va harakat) bolaning kundalik hayotidagi tinimsiz ravishda kechadigan, xilma-xil harakatlari va izlanishlari davomida turli narsalarga bevosita to'qnash kelishi natijasida rivojlanib boradi. Agar go’daklik davrida predmetlarni ushlash, ularni turli tomonga harakatlantirish amallari asosiy o’rinni egallagan bo’lsa, bu yoshda narsalarning shakli, yorqin rangi, katta-kichikligi sezgirlikni oshiradi va bolada shakllanib kelayotgan predmetli idrokning o'sishi uchun zamin hozirlaydi.

Ilk bolalik davridagi bolaning idroki ancha rivojlangan bo‘lsa, ham uning aniqligi va anglanganlik darajasi juda quyi bo’ladi:

- Birinchidan, ilk yoshdagi bolalarda turmush tajribasi yo'qligi sababli ularning idroki anglashilmagan xarakterga ega boladi, ular narsalarga birinchi marta duch keladilar, shuning uchun bolalar idrok qiladigan ko‘p narsalar ularga yangilik, ya’ni dastlabki taasurot kuchiga ega boladi.
- Ikkinchidan esa, bolaning idroki ko‘pincha ixtiyorsiz xarakterga ega bo'ladi, ya’ni idrokda muayyan bir maqsadni ko'zlash hali sezilmaydi.

Ilk yoshda bilish jarayonlarining taraqqiy etishi



Iik bolalik yoshida diqqat beqaror va ixtiyorsiz bo‘lsa, sekin-asta ixtiyoriy diqqatning alomatlari yuzaga kela boshlaydi. Bola o‘sib ulg'aygan sari uning diqqati baiqarorlashadi, chunki bola o‘zini qiziqtirgan biron bir predmet(o’yinchoq bilan uzoq vaqt mobaynida shug‘ullana oladi.

Ilk yoshdagi bola narsalar o’rtasidagi bog’lanishlarga e’tibor qarata boshlaydi, ba`zan o’zi ham ayrim narsalarni umumlashtiradi va o’z hatti-harakrlarida undan foydalanadi. Mazkur yoshdagi bolaning tafakkuri ko’rgazmali-

harakatli tafakkur xisoblanadi – maqsadga erishish yo'lida bir necha hatoliklarga yo'l qo'ysa ham, qo'yilgan amaliy vazifani nuvaffaqiyatli uddalay oladi.

Sinov tariqasida amalga oshirilgan harakatlar, predmetlarning tashqi xususiyatlarini bilish, ularni amalda qo'llash imkonini beradi. Ko'rgazmali-harakatli tafakkuri predmetli faoliyatni egallash orqali rivojlanadi. Kattalar yordamida predmetlardan foydalanishni o'rganish orqali, ular orasidagi farqli jihatlarni topish, predmetlar(qoshiq, kurakcha)ni farqlash paydo bo'ladi.

Bolaning ko'rgazmali-harakatli tafakkurida ham, tasavvurlar ishtirok eta boshlaydi va bu amalga oshirilgan harakat natijasini oldindan aniqlash ushin zamin yaratadi, masalan dastlab, eshik ochilganda uning o'yinchoqqa tegishi e`tiborga olinmagan bo'lsa, keying vaziyatda bu hatolikk yo'l qo'ymaslik kuzatiladi. Amaliy tajribalar, bajariladigan harakatlarni aqliy operatsiyalar orqali oldindan tasavvur qilishga o'rgatadi, harakat natijalarini oldindan bilish, ko'rgazmali-obrazli tafakkur shakllanib kelayotganligidan dalolat beradi. Vazifani hal etishda tafakkurning qaysi turidan foydalanish, masalanining murakkabligi va bolaning shu kabi fikrlash operatsiyalarini bajara olish tajribasiga bog'liq bo'ladi.

Ilk yoshdagi bolalarda tiklovchi hayol ustunlik qiladi, shu bilan birga uni faol deb ham bo'lmaydi, chunki u ko'proq ixtiyorsiz tarzda, atrofdagi narsalar va xodisalarga qiziqishi, emotsional munosabati orqali yuzaga keladi. Bolalar o'z o'yinlarida kattalar tomonidan tasvirlangan(taqlid orqali ozlashtirgan) harakatlarni aks ettiradilar, kattalarning ettak va hikoyalarini tinglash orqali turli qahramonlar hamda vaziyatlarni tasavvur qiladilar. Ba`zan kuzatishlarda ilk yoshdagi bolalarning hayoli juda boy va ijodiy ekanligi ko'zga tashlanadi, aslida ushbu xolat bola hayolining yengilligi, bir predmetning boshqasiga juda osonlik bilan o'xshatishi tufayli yuz beradi. Hayolning taraqqiy etishi, bolaning dunyoni bilishida alohida o'rin tutadi, u o'zining nisbatan tor shaxsiy tajribalaridan ko'ra, hali idrok etmagan narsa va xodisalarning obrazlarini tasavvur qila boshlaydi.

Bolaning miyasi o'ta egiluvchan xususiyati bilan ajralib turadi, shuning uchun dastlabki uch yoshgacha bo'lgan davrda, con-sanoqsiz amaliy va aqliy hakatlar o'zlashtiriladi. 1,5 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan davrda bolaning o'z ona

tilini deyarli egallay olishi bunga yorqin misol bo'la oladi. Birlamchi turmush tajribalarini egallashda harakat, emotsional va obrazli xotira ishtirok etadi. Bola o'zi amalda bajargan va bevosita his qilgan harakatlarni yaxshi eslab qoladi.

Xotira bilish jarayonlarining taraqqiy etishida muhim o'rin tutadi, bolaning amaliy harakatlarida yaqqol ifodalanadigan idrok, tafakkur va hayol jarayonlari xotirada mustahkamlanadi va kelgusi faoliyatni egallash uchun xizmat qiladi.

6.4. Bolaning kattalar bilan muloqoti

Ilk bolalik davriga qadam qo'yish, bolaning kattalar bilan o'zaro muloqot doirasi yangi bosqichga o'tganligidan darak beradi. Bola dastlabki so'z va atamalarni o'zlashtirishi uchun kattalar unga qiziqarli yo'l-yo'riq va ish-harakatlarni ko'rsatishlari lozim. Tevarak-atrofdagi yangi predmetlar va amaliy harakatlarni o'zlashtirish, bolaning maqsadli faoliyatini muayyan yo'nalishga burib yuborishi mumkin. buni vujudga kelgan ichki shart-sharoitlar taqozo etadi.

Bolalarning kattalar bilan o'zaro muloqotida qo'llaydigan dastlabki "so'z"lari o'ziga xos bo'lib, bir necha ma`noni anglatadi. Tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan kuzatishlar asosida, so'zlar ko'p ma`noliligi jihatidan bir necha guruhga mansub, deya xulosa chiqarish mumin:

- Narsaning biror vazifani bajarishini, uning xossasini ko'rsatishga qaratilgan so'zlar: «f-f-fu», «pa-pa » - gugurt, pechka, choynak, dazmol kabilar;
- Narsalarning yondoshlik belgisiga qarab nomlash: «an-na» - devorga osilgan narsalar, qo'shni xonadan eshitilgan tovushlar;
- Tashqi belgisiga asoslanib nomlash: «kx-kx» - mushuk, soch, mo'yna, junli mato va boshqalar;
- Narsalarning tovush chiqarishiga qarab nomlash: «lya-lya» - telefon, pianino, radio, televizor, musiqa asboblari va boshqalar.

Ilk bolalik davrida nutqning o'sishi ikki xil usulda amalga oshiriladi:

- kattalar nutqini faol ravishda tushunib borish;
- bolada shaxsiy faol nutqning shakllanishi;

Rus psixologiya maktabining taniqli psixologlari L.S.Vigotskiy, P.P. Blonskiylarning qarashlariga ko’ra, bolada paydo bo’lgan daslabki so’zlar go’daklik davridan ilk bolalik davriga o’tishning eng muhim jihati va sharti hisoblanadi. Predmetli harakat va uni ifodalaydigan so’zning o’zaro bog’lanishi bolaning mustaqil faoliyatni amalga oshirishi uchun zarur sharoit yaratadi.

Yirik psixologlar V.Shtern, K.Byuler tadqiqotlarida ko’rsatib o’tilishicha, bola qo’llaydigan dastlabki so’zlar ikkita muhim xususiyatga ega:

- ✓ bolaning aytgan so’zlari, kattalar nutqidagi so’zlardan fonetik jihatdan keskin farqlanishi;
- ✓ bolaning nutqi o’zining qamrovi bo’yicha ko’p ma`noli xisoblanadi;

Bola qo’llaydigan so’zlar, iboralar, aynan ma`lum bir predmetni emas, balki bir qator narsalar va hatti-harakatlarning nomini anglatadi.

Godaklik davridan ilk bolalik yoshiga o’tgandan so’ng, ona va bolaning muloqot ko’lami yanada kengayib boradi, faqatgina so`zlar bilan emas, balki yuz ifodasi, imo - ishora, gavda harakatlari, ohang va vaziyat kabilar orqali amalga oshiriladi. 2 yoshli bolaning yonida turgan o`yinchoqni onasi “menga olib ber” deb o`yinchoqni ko`rsatsa, bola uni olib beradi. “Mumkin emas” degan so`z bolaning harakatlarini to`xtashiga signal bo`lib xizmat qiladi. Masalan, elektr jihozga qo’l cho’zganda, qizib turgan dazmolga qo`lini yaqinlashtirganda, oyoq kiyimlarini ko’tarib olayotganda ushbu so`zni aytilishi harakatlarini to`xtashiga olib keladi.

6.5. Bolaning emotsional sohasi.

Ilk bolalik yoshiga o’tgandan so’ng, bolaning turli-tuman predmetli va harakatli o’yinlarda muvaffaqiyatsizlikka uchrashi, ko’zlangan maqsadni amalga oshirishdagi noxush kechinmalar dastlabki salbiy emotsional kechinmalarga sabab bo’ladi, affektiv xulqni vujudga keltiradi. Shuningdek, o’z faoliyatida uchraydigan ko’ngilsiz voqealarga o’zining shaxsiy munosabatini bildirish – aks ettirishning yangi shakli, hissiy ta`sirlanish reaksiyalarini tarkib toptiradi.

Bir yoshdan oshgan bolaning turli-tuman harakatli o’yinlarda qiyinchiliklarga duch kelishi, o’zi ko’zlagan vazifani bajara olmasligi tufayli

yuzaga keladigan salbiy kechinmalar, unda dastlabki affektiv(dovdirash, injiqlik, achchislanish, jazavaga tushish) hissiy xolatni vujudga keltiradi.

Ilk yoshdagi bolalarda uchraydigan affektiv ta`sirlanish xolatlari, kattalar bilan kechadigan o'zaro muloqotdan qoniqmaslik natijasida hosil bo'ladi va unga quyidagi vaziyatlar sabab bo'ladi:

- kattalar bolaning hoxish istaklarini tushunmasligi, imo-ishorasi va yuz-chehra harakatlariga, pantomimikasiga (yuz bilan tana harakatlari qo'shilishi) e`tiborsizligi;
- kattalarning bolaning ixtiyorsiz xatti-harakatiga batamom qarshilik ko'rsatishi, shuningdek, uning talabini bajarmasligi, qoniqtirmasligi;
- kattalarning boladagi ruhiy yangilanishlar va o'zgarishlarga oid bilimlardan bexabarligi, bu o'zgarishlarni oldindan seza olmasligi va boshqalar.

Takrorlash va muhokama uchun savollar:

- Ilk bolalik davridagi ruhiy yangilanishlar haqida tushuncha bering?
- Ilk bolalik yoshida yuzaga keladigan ijtimoiy vaziyatlar tahlili?
- Ilk bolalik va predmetlar olamini tavsiflab bering?
- Predmetli faoliyatning shakllanishi;
- Ilk bolalik davrida bilish jarayonlarining rivojlanishi?
- Ilk bolalik yoshida sensor taraqqiyotning kechishi?
- Ilk bolalik yoshida nutqning taraqqiy etishi?
- Bolaning kattalar bilan muloqoti haqida tushuncha bering?
- Bolaning emotsional sohasini ifodalab bering?

VII bob. Maktabgacha yosh davri

- 7.1. Maktabgacha bolalik davrida rivojlanishdagi ijtimoiy vaziyatning o'zgarishi;
- 7.2. O'yin va faoliyatning boshqa turlari;
- 7.3. Kattalar va tengdoshlari bilan muloqot;
- 7.4. Maktabgacha tarbiya yoshida bilish jarayonlarini rivojlanishi;
- 7.5. Maktabgacha tarbiya yoshida shaxs sifatida ulg'ayish.

7.1. Maktabgacha bolalik davrida rivojlanishdagi ijtimoiy vaziyatning o'zgarishi

O'sib, ulg'ayib kelayotgan bola yangi psixologik xisatlar va xulq-atvor shakllarini o'zlashtirib boradi, shu orqali jamiyatning kichik bir a`zosiga aylanadi. Maktabgacha yoshdagi rivojlanishning ijtimoiy shart-sharoitlari, oldingi yosh davridan farq qiladi, chunki bolaning xulqiga nisbatan kattalarning talabi kuchayib boradi. Asosiy e`tibor, jamoat joyida o'zini tutish, ahloq-odob me`yorlarini egallashga qaratiladi. Tevarak atrofni yaqindan bilish imkoniyatlarining ortishi, bolanining qiziqishlar ko'lamini yanada kengaytiradi. Bola endi o'z tengdoshlari

bilan o’zaro hamkorlikdagi faoliyatga qo’shiladi, ular bilan o’zaro kelishishga, ularning fikrlari va qiziqishlari bilan xisoblashishga o’rganadi.



7.2. O’yin va faoliyatning boshqa turlari

Psixologiya faniga doir manbalarda ko’rsatilishicha, mazkur yoshdagi bolalarni o’zlari xohlamagan faoliyatga jalb etish, majburlash salbiy xolatni yuzaga keltiradi, ular qiziqarli tashkil etilmagan mashg’ulotlarda juda tez charchaydilar, agar ushbu mashg’ulotlarga amaliy jihatdan yondashilsa, yaqqollik alomatlari kiritilsa, rang-baranglikka urg’u berilsa, bolalar ishga astoydil, butun vujudlari bilan kirishib ketadilar, ushbu faoliyatga nisbatan ijodiy munosabat paydo bo’ladi.

Rolli o’yin – maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati.

Rolli o’yin mazkur yosh davridagi bolalarning asosiy foliyati bo’lib, ular o’yinda kattalarning faoliyat namunalarini aks ettiradilar. Bolalar kattalarning turmush tarzi, hissiy kechinmalari, o’zaro muloqot xususiyatlari, o’ziga va boshqa kishilarga, atrof-muhitga munosabatini yaqqol voqelik tarzida ifodalab berish uchun turli o’yinchoqlardan yoki ularning o’rnini bosa oladigan narsalardan ham foydalanadilar. Shuni alohida ta`kidlash lozimki, ijtimoiy hayotni qamrab oladigan

rolli o’yinlar, bola hayot tajribasining ortishi, tasavvur obrazlarining kengayishi orqali vujudga keladi va mazmun jihatdan takomillashib boradi.

Yirik psixologlar A.Vallon, J.Piaje, L.S.Vigotskiy,S. L.Rubinshteyn, A.N. Leontyev, D.B.Elkoninlar olib borgan ilmiy tadqiqotlarning ko’rsatishicha, go’daklik va ilk bolalik davrida bolaning predmetli-harakatli faoliyati negizida rolli o’yin uchun zarur bo’lgan elementlar yaqqol ko’zga tashlana boshlaydi.

Ushbu ma`lumotlarga asoslanib, rolli o’yin faoliyatini yuzaga keltiruvchi muhim omillar sifatida quyidagilarni ko’rsatish mumkin:

- go’daklik va ilk bolalik davrida predmet va uni harakatlantirish orasidagi o’zaro bog’liqlik kamayib boradi va bola ularni alohida umumlashgan tarzda aks ettira boshlaydi;
- bola haqiqiy o’yinchoqlar o’rniga ularni to’la aks ettira olmaydigan yasama nusxalaridan ham keng foydalanadi (fabrikada tayyorlangan qo’g’irchoq yoki avtomobil o’rniga uyda yasab berilgan shunday narsalar bilan qanoatlanish);
- bolaning o’z hatti-harakatlarini kattalarning faoliyat namunalaridan farqlab olishga intilishi, unda o’ziga xos shaxsiy harakat ko’nikmasining paydo bo’lishi;
- bolada o’zining hatti-harakatini kattalar faoliyati bilan qiyoslash, harakatlarni muvofiqlashtirish va aynan tuzilishi jihatdan bir-biriga yaqinlashtirish istagining yuzaga kelishi;
- bolaning kattalar hayoti va faoliyatida uchrab turadigan, kundalik turmush muammolarini o’zida aks ettiruvchi, maishiy ko’rinishga ega bo’lgan hayotiy lavhalarni o’zining hatti-harakatlari orqali izjil ravishda tiklashga urinishi(o’yinda kattalarning rolini bajarishi).

Tadqiqotchi N.M.Aksarinaning ta`kidlashicha, o’yin faoliyati o’z-o’zidan yuzaga kelmaydi, buning uchun kamida uchta zarur sharoit talab etiladi:

- bolaning ongida uni o’rab turgan tashqi voqelik to’g’risidagi xilma-xil taassurotlarning tarkib topishi;

- turli-tuman ko’rinishdagi o’yinchoqlar va bola ruhiyatiga ta`sir ko’rsatadigan vositalarining mavjudligi;
- bolaning kattalar bilan o’zaro yaqin munosabat o’rnatishi va muloqotga kirishishi, bunda kattalarning bolaga bevosita ta`sir ko’rsatishi hal qiluvchi o’rin tutadi.

Psixologiya faniga doir adabiyotlar tahliliga ko’ra maktabgacha yoshdagi bolalarning o’ziga xos xususiyatlari quyidagicha aks etadi:

- maktabgacha yoshdagi bola kattalarning turli-tuman faoliyati, ularning tevarak-atrofdagi narsalar va xodisalarga bildiradigan munosabatlari va o’zaro muomalasiga qiziqish bilan qaraydi;
- maktabgacha yoshdagi bolalar rolli o’yinlarda atrofdagi voqelikning yorqin ifodali, jo’shqin hissiy kechinmalar va taasurotlarga boy bo’lgan jihatlarini aks ettiradilar;
- rolli o’yin orqali bola, kattalar bilan bir xil sharoitda yashayotganini namoyish etgan xolda o’z istagini amaliyotga tatbiq etadi;
- maktabgacha yoshdagi bolalarning kattalar hayoti, turmush tarzi va faoliyatini taqlid qilish orqali o’zining o’yiniga ko’chirib o’tkazishi, uning ruhiyatida o’chmas iz qoldiradi.

D.B.Elkonin o’zining kuzatishlari asosida, rolli o’yinda aks etadigan voqelik bilan bir qatorda uning mazmuni ham mavjud ekanligi haqida yozadi. Uning fikricha, bolaning o’z o’yinida kattalar faoliyatining asosiy tomonini idodalab berishi o’yinning asosiy mazmunini tashkil etadi.

A.P.Usovaning ko’rsatishicha, rolli o’yin ishtirokchilari safi yosh ulg’ayishiga qarab, jinsiy tafovutlarga binoan kengayib boradi:

- ✓ uch yoshli bolalar 2-3 tadan bo’lib guruhga birlashadilar va 3-5 daqiqa davomida birga o’ynay oladilar;
- ✓ 4-5 yoshli bolalar guruhi 2-5 ishtirokchidan iborat bo’lib, ularning hamkorlikdagi faoliyati 40-50 daqiqa davom etadi, o’yin davomida qatnashchilar soni ortib ham boradi;

- ✓ 6-7 yoshli bolalardagi rolli o’yin faoliyati, guruh yoki jamoa bo’lib birga o’ynash istagi tufayli paydo bo’ladi, natijada avval rollar taqsimlanadi, o’yinning qoidalari va shartlari tushuntiriladi (o’yin davomida bolalar bir-birlarining harakatini qattiq nazorat qiladilar).

Maktabgacha yosh davrida bevosita idrok etilmaydigan holatlarga nisbatan emotsional munosabat va murakkab hissiy kechinmalarning paydo bo’lishi, yuksak hislarning taraqqiy etishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi.

L.S.Vigotskiyning ta`kidlashicha, bola o’yin faoliyatida bemor singari yig’laydi, o’yinning ishtirokchisi sifatida quvnaydi, bola tanlagan rol undagi mavjud kechinmalarning amaliy ifodasi kabi gavdalanadi. Ertaklar tinglash orqali, voqeani tasavvur qilish yuzaga keladi, bolada ertak qahramonlariga nisbatan o’ziga xos munosabat shakllanadi, dastlabki emotsional kechinmalar paydo bo’ladi.

D.B.Elkonin harakatli o’yinning qoidalari, mazmuni va o’zaro aloqadorligini e`tiborga olgan xolda, ularni beshta guruhga ajratadi:

- harakatga taqlid qilish: taqlidiy-jarayonli o’yinlar;
- muayyan bir voqea dramalashtirilgan o’yinlar;
- oddiy voqeaga asoslangan o’yinlar;
- voqeasiz, qoidali o’yinlar;
- aniq maqsadga qaratilgan, mashqlardan iborat sport o’yinlari.

Bolani o’yinga undagan asosiy omillar, dastlab uning kattalar hamda borliq to’g’risidagi, shaxslararo munosabatlar tizimi haqidagi tasavvurlari va ularni o’z shaxsiy faoliyatida sinab ko’rish istagi bo’lsa, unga guruh bo’lib o’ynayotgan tengdoshlari bilan bevosita muloqotga kirishish ishtiyoqi sanaladi.

Bog’cha yoshidagi bolalar o’z o’yinlarida sermazmun xayotimizning xamma tomonlarini aks ettirishga intiladilar, bolaning yoshi ulg’ayib, mustaqil harakat qilish imkoniyati ortishi bilan, narsa va xodisalar bo’yicha fikrlashi kengayib boradi, ular bilan bevosita amaliy munosobatda bo’lishga intiladi.

Bolalarning tobora ortib borayotgan turli-tuman ehtiyojlarining qondirilishi, faqat rolli o’yin faoliyatini amalga oshirish tufayli hal etilishi mumkin bo’ladi.



7.3. Kattalar va tengdoshlari bilan muloqot

Bola 3 yoshga o'tganidan so'ng, faqat o'z oila a'zolari(bobosi va buvisi, ota-onasi, akasi va opasi) bilan emas, balki qarindoshlar, qo'shnilar va o'z tengdoshlari bilan ham muloqotda bo'lish ko'lami kengayadi.

Bolada kattalar nutqiga, ularning o’zaro muloqotiga hamda amaliy malakalariga bo’lgan qiziqish kuchayadi, ularning fikr va mulohazalarni tinglashga nisbatan moyillik paydo bo’ladi, shuningdek, uning o’zida, kattalar va o’z tengdoshlari davrasida olgan taasurotlarini boshqalar bilan muloqotga kirishish orqali o’rtoqlashish istagi tug’iladi. Maktabgacha yoshdagi mustaqillik ko’pincha bolaning amaliy faoliyatda, uning o’z imkoniyati doirasida kattalar yordamisiz harakat qilishida, oz bo’lsa-da, kattalarga tobelikdan qutulish tuyg’usida aks etadi.

Mana shu yosh davridagi bolalarga tarbiya berishda qiyinchiliklar mavjud bo’lib, ular bola xulqidagi injiqlik, o’jarlik va qaysarlik kabi alomatlar bilan bog’liqdir. Aynan ushbu yoshdagi bolalar hissiyoti va irodaviy xarakatlarida muhim o’zgarishlar sodir bo’ladi va bu xudbinlik xissi va o’zini ko’rsatishga bo’lgan ehtiyoj orqali ifodalanadi.

Rus psixologlari N.A.Menchinskaya va V.S.Muxinalarning olib borgan kuzatishlariga qaraganda ikki-uch yoshga yetgan bolalardagi injiqliklar, kattalarning bola shaxsiga adolatsiz hamda noto’g’ri munosabatda bo’lishi tufayli yuzaga keladi. 3 yoshdagi bolaning mustaqilligini cheklab qo’yish, erkinlik tuyg’usi va uning tashabbusini so’ndirish o’jarlikka sabab bo’ladi.

Kattalar bolaning ra’yiga, uning mustaqilligiga qarshi turmasdan, imkon qadar istak-xoxishini e’tiborga olsalar, uning intilishlariga yordam bersalar, tarbiyada yuzaga keladigan qiyinchiliklarning oldi olinadi.

Oila muxiti va boqchadagi shaxslararo munosabatlar tizimida pedagogik odobga rioya etilsa ziddiyatlar yuzaga kelmaydi.

Bolada o’jarlik, qaysarlik, kattalarga itoatsizlikning vujudga kelishi – kattalarga qaramlikdan qutulishning tashqi ifodasidir. Mustaqillikka intilish, mazkur yosh davridagi o’zgarishlar, yangilanishlar, ya’ni “Men-obrazi”ning shakllanishi, shaxsiy xatti-harakatlar va “Men o’zim bajaraman” kabi amaliy faoliyatda namoyon bo’ladi.

Ontogenetik taraqqiyotda “yetakchi faoliyat”ni asos qilib olgan rus psixologi D.B.Elkoninning fikricha, “...bolaning xohishi bilan uning amaliy faoliyatdagi

ifodalanishi o’zaro mos tushmay qoladi, shu sababli shunchasi xohish, qat’iy shaxsiy xohish darajasiga ko’tariladi...”.

Odatda «Men xohlayman», «O’zim bajaraman» kabi mustaqillikka intilish harakatlari, istak va xohishlarning kuchayishida o’z ifodasini topadi. SHu tariqa bola ruhiyatida ularning o’zaro uzviy aloqadorligi, motivlar va ularning o’zaro kurashi yuzaga kela boshlaydi.

Kattalarning muloqot jarayonidagi qo’polligi, bolada qaysarlik alomatlarini yaqqol namoyon eta boshlaydi, u har qanday taklif, buyruq va hatto iltimosni ham rad etadi, o’ziga berilgan barcha savollarga bir hilda «yo’q», «kerakmas», «bermayman», «bilmayman» dab javob qaytaradi.

Buning asosiy sababi, maqsadga erishish yo’lidagi sa’y-harakatlarni mustaqil bajarish istagining tug’ilishi, «men o’zim» tuyg’usi bilan bog’liq butunlay yangi nuqtai-nazarning vujudga kelishidir.

Mazkur davr, maktabgacha yoshdagi bola shaxsini shakllantirishdagi eng murakkab davr xisoblanadi, shunga ko’ra katta yoshdagi odamlar, ya’ni ota-onalar, boqcha tarbiyachilari ushbu davrda, bolaning ichki kechinmalarini inobatga olgan holda munosabatda bo’lsalar maqsadga muvofiq bo’ladi.

3-4 yoshdagi bolalar xulqida ko’zga tashlanadigan o’jarlik sababini, u kamol topayotgan ijtimoiy muhitdan, unga ko’rsatilayotgan tarbiyaviy ta’sirdan, shaxsni shakllantirish jarayonidagi kamchiliklardan qidirish lozim. Muhimi, ota-onalar va tarbiyachilar bola bilan umumiy til topishishlari, unga nisbatan samimiy munosabatda bo’lishlari zarur.

Kattalar bola shaxsini hurmat qilishlari, avvalo uning so’zlarini tinglay olishlari, mustaqillikka erishish tufayli paydo bo’lgan hissiy kechinmalarini boshqarish imkoniyatlarini aniqlashlari lozim bo’ladi.

7.4. Maktabgacha tarbiya yoshida bilish jarayonlarini rivojlanishi

Rus psixologi A.A.Lyublinskaya olib borgan tadqiqotlarga ko’ra, hatto kichik bog'cha yosh davridagi bolaiar ham tanish predmetlami idrok qilishda shaklga — predmetning ajralmas bo'lgan biror-bir belgisiga asoslanadilar, biroq shaklni ajratib, mavhumlashtirishni bunchalik tez bajara olmaydilar.

Kichik bog'cha yosh davridagi bola geometrik shaklni idrok qila turib, odatda uni biron bir predmet bilan o'xshatadi(to’g’ri to’rtburchakni ko'pincha "deraza”, aylanani — “koptok”, “g'ildirak” deb nomlaydi).

O'rta va katta bog'cha yoshidagilar duch kelgan shaklni farqlashga ehtiyoj sezadilar, ular ko'pincha predmet nimaga o'xshashini idrok etadilar, uni turli shakllardan nimasi bilan farqlanishini aniqlashga urinib ko’radilar.

Vaqtni idrok etish bolalar uchun ancha qiyinchilik uyg‘otadi va buni tushunish mumkin, chunki “vaqt” ko‘tgazmali shaklga ega emas, o'tib ketuvchi, qaytarilmas, uni idrok etish suby’ektiv, shaxsiy xarakterga ega bo’ladi.

Sutka qismlaridan bolalar ertalab va kechqurunni osonroq idrok etishadi. Dastlab bola vaqtning sifat belgilariga asoslanib, ketma-ketlikda va tizimli kechadigan hodisa, amalga oshiriladigan faoliyatlar hisobiga, kun tartibiga qarab (ertalab(tong otdi) - “bu nonushta vaqti”, kun - “kunning o‘rtasi, ya’ni tushlik vaqti”, kechqurun(qorong’i tushdi) - “kechki ovqat vaqti”) mo’ljal oladilar, shuning uchun vaqtni idrok etishda xato va chalkashliklar sodir bo‘ladi. Hafta kunlarini ham tartibsiz ravishda o'zlashtiradilar. Bog‘chaga boradigan katta maktabgacha yoshidagi bolalar “Hafta kunlaridan qaysi birlarini bilasan?” degan savolga ko‘pincha shanba va yakshanba deb javob beradilar. Aynan shu kunlarni oila a’zolari bilan birga o‘tkazadilar, sayrga chiqadilar va dam oladilar.

Bog‘cha yoshI davrida boshqa odamni idrok etish, faol tarzda shakllanadi.

Yangi faoliyat turlarining (ayniqsa jamoada) bola tomonidan o‘zlashtirilishi, muloqot doirasining kengayishini hamda shaxsiy muloqotni talab etadi. Bolaning boshqa bir odamni aks ettirishining faol shakli bu o'yin faoliyati sanaladi, aynan ushbu faoliyat jarayonida bola turli-tuman obrazlarni yaratadi, ayniqsa, bolaning tasviriy ijodi boshqa bir odamni idrok etishning yaqqol namunasidir.

“Oila rasmi” metodikasini qo’llash orqali ham, oila a`zolarini tasvirlab berishi, ularning obrazlarini qay tarzda ifodalashiga qarab, ma’lum ma’noda bolaning ularga nisbatan munosabatiga baho berishimiz mumkin bo’ladi.

Boq‘cha yoshidan boshlab bolalarda ixtiyoriy diqqat rivojlana boshlaydi.

Bog'chada jamoa tomonidan talab etiladigan tartibga bo'ysunish, qoidali o'yin shartlarini so'zsiz bajarish, kattalarning topshiriqlarini chidam, qunt bilan ado etish kabi holatlar bolalarda diqqatning ixtiyoriy turini rivojlantiradi. Bolalarda ixtiyoriy diqqatni rivojlantirishda o'yin faoliyati ham alohida o’rin tutadi, chunki turli o'yinlar paytida bolaiar diqqatlarini bir joyga to'plab, o'z tashabbuslari bilan ma’lum bir maqsadlami ilgari suradilar. O'yinlaming qanday qoidalar asosida yo'nalishini o'zlari mustaqil ravishda tanlab oladilar, o'yin qoidasidan chetga chiqib ketmaslik uchun o'z harakatlarini o'yin qoidalariga moslashtirishga va o'yinda qatnashuvchi o'rtoqlarining harakatlarini ham kuzatib borishga intiladilar.

Ana shunday o'yinlarda ixtiyorsiz diqqat bilan birga ixtiyoriy diqqat ham faol ishtirok etadi. Shuni ham nazarda tutish kerakki, ixtiyoriy diqqat iroda kuchi bilan bog'liq xolda taraqqiy etadu, shuning uchun ham ko'pincha bolaiar diqqatning bu turini o'zlaricha mustaqil tashkil eta olmaydilar. Boqcha yoshidagi bolalarda ixtiyoriy diqqatning ayrim xususiyatlari, ya’ni diqqatning kuchi va barqarorligi ham tarkib topib yuksala boshlaydi. Buni biz bolalarning (xususan o'rta va katta guruh bolalarining) biron bir didaktik amaliy ish ustida uzoq vaqt davomida o'tira olishlari, ba’zi o'yinlarni zerikmay soatlab o'ynay olishlari, ta’limiy mashg'ulotlarda chidam bilan o'tira olishlaridan bilishimiz mumkin.

Bog'cha yoshidagi bolaiar (xususan kichik guruh bolalari) o'zlarining faoliyatlari uchun qandaydir ahamiyatga ega bo'lgan, ularda kuchli taassurot qoldirgan va ulami qiziqtirgan narsalami beixtiyor esda olib qoladilar. Ular biror narsani eslarida olib qolishni maqsad qilib qo'ymaydilar. Bog'cha yoshidagi bolalarda asosan ixtiyorsiz esda olib qolishning ustunlik qilishi tasodifiy emas. Boqcha yoshidagi bolaiar xotirasining keskin farqi, avvalo, oliy nerv faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari bilan bpg'liqdir, ilmiy tadqiqotlarning ko'rsatishicha, boqcha yoshidagi bolaiar oliy nerv faoliyati quyidagi xususiyatlarga ega:

- Birinchidan, bog'cha yoshidagi bolalaming nerv tizimi plastik xarakterga ega, ya’ni haddan ziyod egiluvchan, ta’sirotga beriluvch bo’ladi. Shuning

uchun ham bu yoshdagi bolalarda vaqtli bog'lanishlar (assotsiyatsiyalar) juda osonlik bilan hosil bo'ladi. Shu sababli boqcha yoshidagi bolalar she’r, ohang, ashula, qiziqarli va kuchli ta’sir etadigan narsalar va xodisalarni beixtiyor hamda juda tez eslarida olib qolaveradilar.

- lkkinchidan, bog'cha yoshidagi bolalar nerv tizimi yengil qo'zg'aluvchan bo'lishi bilan yuzaga keladigan vaqtli bog'lanishla(assotsiyatsiyalar) juda beqaror bo'ladi, ya’ni mustahkam bo'lmaydi. Shuning uchun bu yoshdagi bolalar tomonidan idrok qilingan turli narsa va hodisalar ulaming xotiralarida uzoq vaqt saqlanib qolmaydi, ular tez eslab qolishlari bilan tez unutib ham yuboradilar. Ko'pincha voqeava hodisalaming bog'cha yoshidagi bolalar xotirasida mustahkam saqlanib qolishi, ushbu yoshdagi bolalarga qanchalik emotsional ta’sir qilishiga ham bogliq boiadi.
- Uchinchidan, bog'cha yoshidagi bolalar nerv tizimida qo'zg'alish jarayoniga nisbatan tormozlanish jarayoni ancha sust bo'lganligi tufayli ular o‘xshash vaziyatlarni, birdaniga, ya’ni bir vaqtning o‘zida juda ko'p marta idrok qilingan narsalaming farqini yaxshi ajrata olmaydilar.

Boq’cha yoshidagi kichik guruh bolalarida ko’proq obrazli xotira rivojlangan bo’ladi, shuning uchun ular eshitgan narsalariga nisbatan ko’rgan narsalarni yaxshi esda olib qoladilar. Uning asosiy sababi, mazkur yoshdagi bolalarning idroki konkret obrazli xarakterga ega, shuningdek ular hali nutq faoliyatini to’la egallamagan bo’ladi. Katta guruhga o’tib, nutqni ancha o’zlashtirib olganlaridan keyingina so’z bilan ifodalangan narsalar esda yaxshi olib qolinadi.

Bolaiar juda ko’p narsalar va xodisalarni asosan turli o’yin faoliyatlari davomida eslarida olib qoladilar, shuning uchun ularning esda olib qolishlari ko’pincha qisqa ko’rinishli va tasodifiy xarakterga ega bo’ladi.

Boqcha yoshi davridan boshlab tafakkur juda tez rivojlana boshlaydi, sababi, boqcha yoshdagi bolalarda turmush tajribasi anchagina ortadi, nutq faoliyatini egallash yuzaga keladi, shu bilan birga mustaqil faoliyat qilish imkoniyatlari kengayadi, ular o’zlarining mustaqil harakatlari davomida atroflaridagi turii xil narsalarni taqqoslash, tahlil qilish va umumlashtirishni amalga oshiradilar.

Boqcha yoshdagi bolalar o'z tajribalarida ancha narsalarni bilib olganlaridan so'ng, narsalaming ichki xususiyatlari bilan ham qiziqa boshlaydilar. Shu sababli ularda juda ko’plab savollar paydo bo’ladi: U kim? Bu nima? Nima uchun? Bu qayerdan keigan? U nima qiladi? kabilar. Bu shubhasiz, tafakkurning faol va jadal rivojlanishi uchun zamin hozirlaydi. Bog'cha yoshdagi bolalarda turli-tuman sohalarga doir savollarning tug'ilishi, ularda nafaqat ko`rgazmali-obrazli, balki so’z-mantiq tafakkurining shakllanayotganligidan ham darak beradi.

Shuning uchun, bolalarning savollariga doimo ahamiyat bilan qarash lozim.

Bola o'z savoliga javob topa olmasa yoki katta odamlar uning savoliga ahamiyat bermasalar, undagi qiziquvchanlik, sinchkovlik pasaya boshlaydi. Ota-onalar va tarbiyachilar bolalarning son-sanoqsiz savollariga, ularning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda javob berishi va tushuntirishi zarur boladi.

Savollarning bolalarcha o’ziga xos va qiziqarli bo’lishining sabablari bor:

- bog'cha yoshidagi bolalar tevarak-atrofdagi narsa va hodisalami qanday bo'lsa, shundayligicha aks ettiradilar;
- bolalarda hali kattalar singari, idrok etilayotgan narsa va hodisalami chuqur analiz va sintez qilish xususiyati shakllanmagan bo'ladi;
- bolalarda turli tabiat hodisalariga doir ilmiy tushunchalar hali tarkib topmagan va ulaming turmush tajribalari ham juda kam bo'ladi.

Boqcha yoshidagi bolalarning beradigan savollaridan, ularning tafakkuri konkret obrazli xarakterga ega ekanligi ham yaqqol ifodalanib turadi. Masalan, boqcha yoshidagi bolaiar quyidagi savollarni berishlari mumkin:

- Bulutlar nega yuradi? Osmon kattami, yer kattami? Yulduzlar nechta? Osmondagi yulduzlar nima uchun kunduzi ko'rinmaydi? Qorbobo ham odammi? Qorbobo qayerda yashaydi?

Boqcha yoshidagi bolalarni tabiatdagi sababiy bog’lanishlar emas, balki ana shu xodisalarning aynan ozi qiziqtiradi, ular hamma narsani bilishga intiladilar.

Boqcha yoshidagi bolalarning hayotiy tajribalari orta boigan sari, narsa va hodisalar o'rtasidgai o'zaro bog'liqlik hamda ayrim tabiiy sabablarni ham tushuna boshlaydilar. Masalan, ular quyidagicha fikr-mulohaza yuritishlari mumkin:

- ✓ “Temir og’ir narsa bo'lgani uchun suvda cho‘kadi, yog'och yengil, shuning uchun u suvga cho’kmaydi, oqadi”, “urug'ni yerga eksa, ko'karib chiqadi”.

Boqcha yoshidagi bolalarning fikr yuritish jarayonida, ayni shu paytda idrok etilayotgan narsalargina emas, balki oldin idrok qilingan narsalar va xodisalarni ham esga tushira olish, hamda ulardan foydalanish paydo bo’ladi. Masalan, 6 yoshli boladan “yong'oq suvda cho'kadimi yoki oqadimi?” deb so'ralganida, u "oqadi” deb javob bergan, uning to'g'ri javob berishiga asosiy sabab shundaki, bola harakatli o’yin faoliyatida yong’oqni suvda oqizib ko’rgan.

Boqcha yoshidagi bolalar tafakkurini rivojlantirishda turli didaktik va ta’limiy mashg'ulotlaming roli nihoyatda kattadir. Masalan, didaktik o’yinlar, son-sanoq va nutqni o'stirish mashg'ulotlari ularda fikrlashning taqqoslash, analiz va sintez qilish operatsiyalarini o’stirishga yaqindan yordam beradi.

Boqcha yoshidagi bolalarning xayoli asosan ixtiyorsiz va tiklovchi xayol bo'lib, ulaming turli-tuman faoliyatlarida o’sib boradi. Masalan, bolalar loy o'ynash, loydan turli narsalar yasash(shu jumladan, plastilindan ham), turli narsalar qurish, qumdan foydalanish, rasm chizishni yaxshi ko'radilar, ayniqsa, rasm chizish bolalar xayolini o'stirishga juda katta ijobiy ta’sir ko'rsatadi.

7.5. Maktabgacha tarbiya yoshida shaxs sifatida ulg’ayish.

Maktabgacha yoshdagi bola hayotining uchinci yili, o'zini-o'zi anglashning taraqqiy etishida eng muhim bosqich sanaladi, chunki aynan ushbu davrda bola muayyan bir predmetga nisbatn biriktirib qo'yilgan harakatni asta-sekin undan ajrata boshlaydi, predmetli-harakatli faoliyat yangi sharoitda bajariladi.

“Men o'ynayapman”, “Men kiyinayapman”, “Men ovqai eyapman” degan gaplami hamda “ozim” degan so'zm 3 yoshli bolalarning nutqida tez-tez uchratishimiz mumkin bo’ladi. Bolaning o’zini uchinchi shaxs olmoshi bilan ifodalashdan, “Men” olmoshini qo’llashga o’tishi boqcha yoshi davrining eng muhim yutuqlaridan biridir. Ayrim tadqiotchilarning fikrlariga ko’ra, ilk bolalik davrining oxiriga kelib paydo bo’ladigan “Men” tizimi va mustaqil harakat qilish, o'z “Men”ini ro‘yobga chiqarish, namoyish etish ehtiyoji ushbu davrda yuzaga

kelgan eng asosiy o’rinni egallaydigan yangi tuzulma hisoblanadi. Ayni davrda “o'ziga-o'zi baho berish”ning yuzaga kelishi ham bolaning shaxs sifatida ulg’ayishida o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi. Shaxs shakllanishining dastlabki bosqichlarida(ilk bolalik davrining oxiri va bog'cha yoshining boshida)gi o'ziga-o'zi baho berish alomatlari yaqqol namoyon bo’lgan davrda bolaning kattalar bilan amalga oshiradigan o’zaro muloqoti hal qiluvchi rol o’ynaydi.

Dastlab, bola o'zini kattalar orqali, ularning o’zi haqida bildirgan fikrlari orqali baholaydi, kattalarning bahosini qabul qiladi, ularning so’zlariga quloq tutadi, o’zi haqidagi mustaqil tasavvur esa biroz keyinroq paydo bo'ladi.

Boqcha yoshidagi bola shaxsining rivojlanishida ancha sezilarli bo'lgan o'zgarish, boshqa bir kishining tashqi xususiyatlarini baholashdan, insoniy fazilatlarini baholashga o'tishida aks etadi.Ayniqsa katta boqcha yoshidagi bolalarda o'zlaridan ko'ra, boshqa bir shaxsni baholash ko’proq kuzatiladi.

Boqcha yoshi davrida o'ziga-o'zi baho berish emotsional xarakterga ega bo'ladi, bola uni o'rab turgan kattalardan qaysi biri unga mehribonlik ko’rsatsa, unga nisbatan ishonch tuyg’usini his etsa, o'sha kishiga ijobiy baho beradi.

Bog'cha yoshidagi bolaning o'ziga-o'zi beradigan bahosida, shakllanib kelayotgan g'urur va uyat hissi ham aks eta boshlaydi. O'zini-o'zi anglashning rivojlanishi bolaning bilish va motivatsiya sohalari bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Bola o'zining “Men” siymosini, hamda o'zi egallab turgan rolli vaziyatni anglay boshlaydi, unda o'zining ijtimoiy "Men”ini anglash shakllanadi.

Takrorlash va muhokama uchun savollar:

- Boqcha yoshi davridagi ruhiy yangilanishlar haqida tushuncha bering?
- Boqcha yoshida yuzaga keladigan yangi ijtimoiy vaziyatlar tahlili?
- Boqcha yoshidagi o’yin faoliyati haqida tushuncha bering?
- Rolli o’yinlarning bola ruhiy taraqqiyotiga ijobiy ta`siri?
- Bolaning kattalar va tengdoshlari bilan o’zaro muloqoti?
- Maktabgacha yoshda bilish jarayonlarinining rivojlanishi?
- Boqcha yoshida idrok, xotira, tafakkur va hayolning taraqqiy etishi?
- Maktabgacha yoshda bolaning shaxs sifatida ulg’ayishi?

VIII bob. Kichik maktab yosh davri

- 8.1. Kichik maktab yoshida rivojlanishning umumiy shart-sharoitlari.
- 8.2. Yetakchi faolyat sifatida o'quv faoliyatini shakllanishi.
- 8.3. Kichik maktab yoshida bilish jarayonlarini taraqqiyoti.
- 8.4. Kichik maktab yoshida shaxs sifayida ulg'ayish.
- 8.5. Emotsional-irodaviy sohaning rivojlanish xususiyatlari.
- 8.6. Axloqiy rivojlanish xususiyatlari.
- 8.7. Kichik maktab yoshida ijtimoiy hayot: o'qituvchilar va tengdoshlari bilan muloqot.

8.1. Kichik maktab yoshida rivojlanishning umumiy shart-sharoitlari

Kichik maktab yoshi davri(6-7 yoshdan 9-10 yoshgacha)ga qadam qo'ygan bola, ta`lim olish uchun tabiiy va ruhiy jihatdan tayyor bo'lib, uning psixikasi bilim olishga yetarli darajada rivojlangan bo'ladi. Ushbu yoshdagi bolada idrokning o'tkirligi, ravshanligi, aniqligi, xayolot olamining yorqinligi, xotiraning

kuchliligi, tafakkurining yaqqolligi ko’zga tashlanadi, ular o’z qiziquvchanligi va ishonuvchanligi bilan boshqa yoshdagi bolalardan farqlanib turadilar.

Kichik maktab yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati o’qish xisoblanadi.

Bolaning maktabga borishi, uning psixik taraqqiyoti va shaxs sifatida shakllanishi uchun katta zamin tayyorlaydi va keng imkoniyatlar yaratib beradi.

Kichik maktab yoshidagi bola o’z kundalik turmush tarzining tubdan o’zgarganliini, unga yangi majburiyatlar: har kuni maktabga borish, o’quv faoliyati talablariga bo’ysunish, o’qituvchi bajarish to’g’risida o’ylay boshlaydi. Oiladagi kattalar bolaning erishgan yutuqlarini maqtov bilan siylaydilar, uni nazorat qiladilar, unga nisbatan yangicha muomala va munosabatlarning paydo bo’lishi oiladagi ijtimoiy maqomning o’zgarganligini chuqur his etishiga, shu bilan birga o’z-o’ziga nisbatan munosabatining o’zgarishiga ham ijobiy ta`sir ko’rsatadi.

Kattalar bolalarga vaqtni to’g’ri taqsimlashga, a`lo baholarga o’qish, bo’sh vaqtida o’ynash, sayr qilish va uy vazifalarini o’z vaqtida bajarishga o’rgatadilar, bola sekin-asta o’quvchi rolini, ya`ni alohida ijtimoiy o’rinni egallaydi.

Kichik maktab yoshidagi o’quvchi saxslararo munosabatlar tizimida xam o’ziga xos maqomga erishadi, uning ota-onasi, yaqinlari, atrofdagi kishilar unga endi yosh boladek emas, balki o’ziga yarasha vazifalar va majburiyatlarni bajaradigan aloxida shaxs sifatida munosabatda bo’ladilar.

Bola o’z oilasi, sinfdoshlari davrasida o’z o’rnini anglab yeta boshlaydi, ushbu yoshda "Men shuni hohlayman" motiviga qaraganda "Men bu ishni bajarishim kerak" motivi ustunlik qila boshlaydi. Ilk maktab yoshidagi o`quvchilarning maktab ostonasiga kirishlaridagi hadik, hayajon, ikkilanish kabi hissiy kechinmalar muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Bolaning jismoniy taraqqiyoti. Kichik maktab yoshidagi o’quvchining jismoniy o’sishi, ruhiy taraqqiyot bilan nisbatan uyg’unlikda kechadi, uning bo’yi va og’irligi, o’pkasining havo sig’imi mutanosib tarzda o’sadi, lekin bolaning ko’krak qafasi, qo’l va oyoq suyaklari, umurtqa pog’onasida hali tog’aysimon to’qimalar uchraydi, bu esa tayanch-harakat tizimida to’la suyaklanish amalga oshmaganligidan darak beradi. Bosh miya po’stlaq qismining analitik-sintetik

faoliyati yanada takomillashadi, nerv jarayonlarining qo’zg’alishi va tormozlanishi o’rtasidagi munosabat o’zgaradi, ihtiyoriylik kuzatiladi, biroq qo’zg’alish nisbatan ustunlikka ega bo’ladi, shuning uchun ham, kichik maktab y bolaning to’laqonli jismoniy o’sishiga g’amho’rlik qilish, undagi jismoniy toliqishning oldini olish, o’quv faoliyati va dam olish tartibiga qat`iy amal qilish maqsadga muvofiq.

Maktabga kiradigan davr kelgunga qadar bolalar tizimli ravishda ta`lim olish uchun imkoniyatlari yetarli darajada katta bo`ladi, ushbu davrga kelib bolaning shaxs sifatida ulg’ayishi kuzatiladi va quyidagicha namoyon bo`la boshlaydi:

- ma`lum bir qat`iylikka ega bo`ladilar;
- o`z oldilariga uzoq muddatli maqsadlar qo`ya boshlaydilar;
- ba`zi maqsadlariga erishishning uddasidan chiqa oladilar.
- o`z hatti-harakatlariga ijtimoiy nuqtai nazardan baho berishga ilk bora urinib ko`ra boshlaysilar;
- burch va javobgarlik hissi namunalari yuzaga keladi.

Yetti yoshli bolalarda o’zining hissiy kechinmalarini idora etish tajribasi shakllanadi, bu esa maktab ta`limi uchun juda muhim omil hisoblanadi. Yuqoridagi fikrlar, bolaning maktab ta`limiga psixologik jihatdan tayyorgarlik darajasining oby`ektiv tomonlariga taaluqlidir, biroq psixologik tayyorgarlikning boshqa tomoni, ya’ni suby`ektiv tomonini ham e`tiborga olish lozim bo’ladi.

Odatda, maktabga qadam qo’yayotgan 6-7 yoshli bola uchun maktabda o’qishga bo’lgan hohish va intilishi, katta odamlar bilan yangi shaklda o’zaro munosabatda bo’lishga tayyorlanish hosdir. O’qish kerakligi haqida bolada hech qanday shubha yo’q. Bola katta yoshli kishilarga, ya`ni o’qituvchilarga, maxsus ta’limiy-tarbiyaviy vazifalar topshirib qo’yilganini tushunadi va bajonidil qabul qiladi xamda ularning barcha ko’rsatmalarini yaxshilab bajarishga tayyor bo’ladi.

Ma’lumki, bu borada ham individual farqlar uchraydi, ayrim bolalar maktabga qushdek uchib borishga tayyor bo’ladilar, o’qish boshlangunga qadar bo’lgan kunlarni sanab yuradilar, 1sentabrdan ancha oldin, o’quv qurollari va maktab formasini tayyorlab qo’yish haqida ota-onalariga murojaat qiladilar.

Boshqa bir bolalar maktabga jon-dildan qiziqadilar, lekin vazminlik va ehtiyotkorlik bilan munosabat bildiradilar. Ba’zan ”Yo’q, oyi, menga gapirib ovora bo’lmang! Men maktabga bormayman!” degan gaplarni aytadilar. Bolalar bunday gaplarni kattalarning bolalarni o’ylamay (<<sen hali shoshmay tur, maktabga borasan-ku, ana shunda sening ta’ziringni berishadi>>, <<sen u yerda ko’radiganingni ko’rasan!>> deb) qo'rqitishlari va ogohlantirishlari natijasida ham aytishlari mumkin. Bu jihatdan kattaroq bolalarning o’zlaridan kichikroq bolarga o’z “tajribalarini o’tkazishlari” ham alohida ahamiyatga ega bo’ladi(ma’lumki, birinchi va ikkinchi sinf o’quvchilari ba’zan ukalari va singillariga maktabdagi “mushkul axvollari” haqida gapirib berishni juda yaxshi ko’radilar). Shu bilan birga ba`zan, kattalarning nojo’ya va qo’pol hatti-harakatlari tufayli paydo bo’ladigan yaqqol salbiy kechinmalar ham bola ruhiyatiga ta`sir ko’rsatadi.

Kichik maktab yoshidagi bola rivojlanishining ijtimoiy vaziyatlari

Rivojlanishning ijtimoiy vaziyati – bu bolaning tevarak-atrofdagi olam bilan munosabatlar tizimi.
Ijtimoiy vaziyatlar tuzilmasida qiyidagi tarkibiy qismlar farqlanadi:
Oby`ektiv sart-sharoit;
Ijtimoiy rol;
Faoliyatning yetakchi tipi.

«Rivojlanishning ijtimoiy vaziyatlari» tushunchasi L.S.Vigotskiy tomonidan kiritilgan bo’lib, bola shaxsining muayyan bir yosh bosqichida, uning tevarak-atrof bilan o’zaro munosabatlari tizimi asosida rivojlanishini tavsiflab beradi.

Kichik maktab yoshidagi bolalarning maktab sharoitiga ijtimoiy-psixologik jihatdan moslashish jarayoni, bolaning ta`lim olishida o'ziga xos o'rin tutadi.

Bolaning maktab ta`limiga moslashishi



8.2. Yetakchi faolyat sifatida o'quv faoliyatini shakllanishi




Nazorat harakati – o'quv harakatlarining belgilangan namunaga uyg'unligi
Nazorat tiplari
Mazmunga ko'ra nazorat
Natijaga ko'ra nazorat
Rejalashtirishga ko'ra nazorat


O'quv harakati tiplari
Predmetli
So'z orqali
Aqliy
Modellashtirish
Taqqoslash
O'rniga qo'yish



O'quvchiga qo'yilgan bahoning tavsifi

- Odatda 5 ballik tizimda baholanadi, o'quv jarayonining asosiy natijasini ko'rsatib berishga hizmat qiladi;
- Umumlashga harakterga ega bo'ladi, o'quvchining intilishlari samarasini aks ettiradi;
- O'qituvchining noto'g'ri bahosi o'quvchining o'z kuchiga bo'lgan ishonch hissining pasayishiga sabab bo'ladi;
- O'quvchi o'zining shaxsiy faolligini baholashdan ozod bo'ladi;
- Kichik maktab yoshidagi o'quvchi, o'qituvchi nima uchun unga bunday baho qo'yganligini aniqlashga qiynaladi.

8.3. Kichik maktab yoshida bilish jarayonlarini taraqqiyoti

Idrok. Ta`lim berish jarayonida idrok qayta quriladi va rivojlanishning yuqoriroq darajasiga ko'tariladi. O'qituvchi kichik maktab yoshidagi o'quvchilar

idrokini tashkil qiladi, ularning oldiga tegishli vazifalarni qo'yadi, ularda idrokni boshqarish va idrok tasavvurlarini nazorat qilish ko'nikmasini shakllantiradi.

Idrok etish jarayonida faoliyat saqlanib qoladi, lekin idrok va faoliyat o'rtasida yangicha munosabat yuzaga kela boshlaydi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchining ta`lim olish jarayonida idrok, muayyan bir maqsadga qaratilgan alohida faoliyat shakliga aylanadi, murakkablashib boradi va chuqurlashadi.

Bolaning tevarak-atrofni idrok etishida so'zning o'rni va ahamiyati ortadi.

Diqqat. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar diqqatini irodaviy zo'r berish orqali boshqarish imkoniyati yetarli bo'lmaydi, buning asosiy sababi ularda ixtiyoriy diqqatning kuchsizligi va beqarorligidir. Ta`lim berish jarayonida ixtiyorsiz diqqatning o'sishi uchun zarur sharoitlar yaratilgan bo'ladi, o'quv materiallarining yaqqolligi, yorqinligi, jozibadorligi o'quvchida beixtiyor ravishda ijobiy his-tuyg'ular uyg'otadi, darslarni irodaviy zo'r berishsiz o'zlashtirish imkoniyatini oshiradi, o'quv materiallarining turli-tumanligi ixtiyorsiz diqqatning to'planishi, markazlashuvi va barqarorligiga ijobiy ta`sir etadi.

Kichik maktab yoshidagi bolalarni o'qitishda odatda ko'rsatmalilik usulidan keng foydalaniladi. Bu dastlabki davrda bolalar faolligini oshirgan holda ijobiy natijalarni beradi, lekin undan muntazam ravishda foydalanish materialni mantiqiy jihatdan anglab yetish, uni tahlil qilish, mavhumlashtirish va umumlashtirishga to'sqinlik qilishi ham mumkin. Ba`zan, o'quvchilarda ko'rsatmalilikka nisbatan dinamik stereotip paydo bo'ladi, shuning uchun bolaning diqqatini jalb etadigan yorqin materiallardan aralash holda foydalanish yaxshi samara beradi.

Bolaning faqat diqqatni jalb etadigan yaqqol ma`lumotlarni o'zlashtirishga berilib ketishi, uni asosiy maqsaddan uzoqlashtiradi, bola tashqi belgilarga e`tibor berishga odatlanib, ichki muhim bo'lgan alomatlarga e`tibor bermay qo'yadi.

Ma`lumki, ixtiyorsiz diqqat ta`lim jarayonida o'quvchilarning qiziqishi bilan bevosita uyg'unlashib ketadi, tabiiyki, ular faqat maroqli, quvonchli axborot va matnlar bilan tanishishga intiladigan bo'lib qoladilar. Ushbu zararli odatlanish, murakkab o'quv materiallarini egallashda qiyinchiliklar tug'diradi.

Rus pedagogi K.D.Ushinskiy, bolani faqat o’zini qiziqtirgan narsa bilan emas, balki unga qiziqarli bo’lib tuyulmagan narsa bilan ham shug’ullanishga o’rgating, shunda bola o’z o’quvchilik burchini bajarishdan qanoatlanish hissi paydo bo’lganligi uchun ishlaydigan bo’lsin, deb uqtirgan edi.

Xotira. Kichik maktab yoshidagi o’quvchilarda so’z-mantiq xotirasi, ya`ni ma`nosiga tushunib eslab qolish salmog’i ortib boradi, bola esda olib qolish, esda saqlash va esga tushirish kabi xotira jarayonlaridan o’z maqsadiga erishish yo’lida foydalanish imkoniyatiga ega bo’ladi, lekin dastlabki davrda birinchi signal tizimi, birmuncha ustunligi tufayli, o’quvchilarda mantiqiy xotiradan ko’ra ko’rgazmali-harakatli yoki ko’rgazmali-obrazli xotira kengroq o’rin tutadi.

Shuning uchun, kichik maktab yoshidagi o’quvchilar nazariy qoidalardan, mavhum tushunchalardan ko’ra yaqqol ko’rgazmali axborotlar, voqea-hodisalar, obrazlar va narsalarni tezroq hamda mustahkamroq eslab qoladilar va uzoq muddat esda saqlaydilar. Ayniqsa birinchi sinf o’quvchilari ta`limiy materiallarning ichki bog’lanishlariga ahamiyat bermay, ma`nosiga tushunmay eslab qoladilar, o’rganilayotgan materiallarni mantiqiy tahlil qilmay yodaki o’zlashtiradilar.

Xayol. Kichik maktab yoshidagi xayol jarayonlari, bolani qurshab olgan tevarak-atrofdagi taassurotlar, voqea-xodisalar, o’zaro muloqot jarayonidagi kishilar, badiiy tasvirlar(kitoblardagi ertak va hikoyalar, televideniyeda namoyish etilgan filmlar, multfilmlar)ni aks ettirish orqali vujudga keladi.

Tabiat manzaralari, fazoviy tasavvurlar, suratlar, shartli belgilar, noma`lum narsalarning alomatlari, yangi obrazlar jamlanadi. Tanish obrazlarni xotirlash orqali yuzaga keladigan tiklovchi xayol, bolaning ruhiy dunyosida alohida ahamiyat kasb etadi. Ta`lim olish jarayonida bolalarning yorqin, aniq-tiniq, yaqqol tasavvur obrazlari, xayol yordamida muayyan voqelikka aylanadi.

Bilimlarni o’zlashtirish mobaynida hosil qilingan obrazlar tartibga solinadi, yaxlit bir butunlikdan iborat umumlashgan obrazlar tizimi yaratiladi.

O’qish davomida turmush tajribasida to’plangan taassurotlarni qayta tiklash, yangiliklar qo’shish va boyitish, ularni o’zaro birlashtirish, yangi obrazlar, bilish faoliyatining eng muhim omili - ijodiy xayolni takomillashtiradi.

Tafakkur. Kichik maktab yoshidagi o’quvchilar tafakkuri, ta`lim olish jarayonida muhim o’zgarishlarga uchraydi. Taniqli rus psixologi L.S.Vigotskiy ko’rsatib o’tganidek, idrok etish va xotira jarayonlari maktab ta`limi boshlanishi oldidan anchagina taraqqiyot yo’lini bosib o’tgan bo’ladi, kichik maktab yoshidagi davrda esa, aqliy faoliyat tez sur`atlarda taraqqiy etadi.

Aqliy faoliyatning yangi bosqichga ko’tarilishi, idrok va xotirani sifat jihatdan qayta o’zgarishga, ularni ixtiyoriy va boshqariladigan bilish jarayoniga aylanishga olib keladi.

Bolaning maktabga qadam qo’yishi va o’quv faoliyatini egallashi orqali, konkret tafakkurga ega bo’lib boradi. Tabiat va jamiyat hayotida ro’y berayotgan hodisalarni faqat tashqi tomonini bilishdan, asta-sekin ularning mohiyatini anglab yetishga, muhim belgi va xususiyatlarni tafakkurda aks ettirishga o’tadi.

Bu esa, o’z navbatida atrofdagi kishilar, narsalar va voqea-hodisalarni o’zaro bir-biriga taqqoslash, umumlashtirish, dastlabki hulosa chiqarish imkonini beradi, shu asosda bolada sekin-astalik bilan tushunchalar tarkib topa boshlaydi.

Kichik maktab yoshidagi o’quvchilar tushunchalarni hosil qilishda, narsa va hodisalar o’rtasidagi muhim aloqalarni aks ettiruvchi belgilarga asoslanadilar.

Kichik maktab yoshidagi o’quvchilarning aqliy(tahliliy) faoliyati ikkita bosqichni bosib o’tadi:

- Birinchi bosqichda analiz(tahlil) tasavvurga asoslanib amalga oshiriladi. Tasavvur-ko’rgazmali obraz sifatida narsaning ko’zga ko’rinib turgan belgilarini aks ettirishdan iborat ekan, tasavvur darajasida analiz(tahlil) qilish ham narsaning yaqqol, tashqi belgilarini ajratishdan iboratdir.
- Ikkinchi bosqichda aqliy analiz(tahlil)ning birmuncha yuqoriroq darajasi, ya`ni tushunchalar asosida analiz(tahlil) qilishdan iborat bo’lib, u ichki, muhim belgilar va xususiyatlarni ajratish bilan bog’liq kechadi.

Aqliy analiz(tahlil)ni uchinchi sinf o’quvchilarida kuzatish mumkin.

O’quv predmetlarini tizimli o’rganishga kirishish munosabati bilan, kichik maktab yoshining oxiriga kelib aqliy analiz(tahlil) sezilarli darajada rivojlanadi.

Kichik maktab yoshidagi o’quvchining analitik faoliyati ko’rgazmali harakatdan aqliy harakatga tomon va undan mavhum aqliy analiz(tahlil)ga qadar rivojlanadi; ayrim narsa va hodisalar tahlilidan, narsa va hodisalar o’rtasidagi ayrim bog’lanish va munosabatlar tahliliga o’tiladi.

Tevarak atrofdagi narsalar va hodisalar o’rtasidagi o’zaro bog’lanishlar va munosabatlar tahlili, kichik maktab yoshidagi o’quvchilarning tabiat va jamiyatda ro’y berayotgan hayotiy tafsilotlarini anglab yetishlarining zaruriy shartdir.

8.4. Kichik maktab yoshida shaxs sifayida ulg’ayish

Boshlang’ich sinf o’quvchilari o’ta ishonuvchan, tashqi ta`sirotlarga juda tez beriluvchan yoshda bo’ladilar, ularning ichki olamiga kirib borish, ularning beg’ubor ruhiyatida ijobiy, insoniy fazilatlarni shakllantirish vazifasi eng avvalo o’qituvchilar va murabbiylar zimmasiga tushadi.

Mazkur yosh davrida o’qituvchining har bir gapi, har bir xatti-harakati, ta`sir ko’rsatish uslubi, bola uchun xaqiqat mezoni vazifasini bajaradi, chunki o’quvchilar o’z o’qituvchilariga qattiq ishonadilar, so’zlariga quloq soladilar, bilimdonligidan hayratga tushadilar, qo’ygan talablariga so’zsiz amal qiladilar va bergan topshiriqlarni bekamu-ko’st bajarishga intiladilar.

O’qituvchining mazmunli va qiziqarli suhbatlar tashkil etishi, g’aroyibotlar olamiga olib kirishi, faollik sari etaklashi alohida ahamiyat kasb etadi.

Kichik maktab yoshidagi davr, shaxs taraqqiyotida nisbatan osoyishta davr hisoblansada, bolaning maktabga qadam qo’yishi, uning ijtimoiy hayotida burilish nuqtasi hisoblanadi. Aynan ushbu davrdan kattalar(ota-onalar, o’qituvchilar) va tengdoshlari(sinfdoshlari) bilan yangicha munosabatlar o’rnatiladi, bola o’zi uchun notanish muxit(maktab, sinf)ga qo’shiladi. Uning oldiga bir qator jiddiy talablarni qo’yadigan o’quv faoliyati - o’quvchining o’z hayotini qat`iy tartibda tashkil qilishga, vazifalarni bajarishga, ijtimoiy meyorlarga amal qilishga majbur qiladi.

Bu esa, tevarak-atrofdagi voqelikka, o’z oila a`zolari, tengdoshlari, boshqa kishilar, jamoaga, ta`lim jarayoni va undagi majburiyatlarga nisbatan yangicha munosabatlar tizimining tarkib topishi va mustahkamlanishiga zamin yaratadi, irodaviy sifatlarni tarbiyalaydi, qiziqish va qobiliyatlarni oshiradi.



8.5. Emotsional-irodaviy sohaning rivojlanish xnsusiyatlari

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda hissiy kechinmalar juda yorqin tarzda aks etadi. Ushbu emotsionallik quyidagicha ifodalanadi:

- ❖ kichik maktab yoshidagi bolalarning narsa va xodisalarni idrok etishi, kuzatishi, hayol va tasavvurlari emotsional bo'yoqlarga boy bo'ladi;
- ❖ kichik maktab yoshidagi bolalar (I va II sinf o'quvchilari) o'z hissiyotlarini tiyib tura olmaydilar, o'z hissiy kechinmalarning tashqi jihatdan namoyon bo'lishini nazorat qila olmaydilar. Ular o'z xursandchiligi, sho'x-shodon kayfiyati yoki tashvishi, xavotirlanishi va qo'rquv hissini samimiy ravishda ochiq-oydin izhor qiladilar;
- ❖ kichik maktab yoshidagi o'quvchilar o'zlarining kuchli emotsional beqarorliklari, kayfiyatlarining tez-tez o'zgarib turishi, affekt holatiga moyilliklari, xursandlik-g'amginlik, g'azab va qo'rquvlarining qisqa muddatli va jo'shqin namoyon bo'lishi bilan ajralib turadilar.

Shaxs sifatida ulg'aygan sari ularda o'z hissiyotlarini boshqarish va yoqimsiz kechinmalarni namoyon bo'lishiga yo'l qo'ymaslik qobiliyati rivojlanadi.

Kichik maktab yoshidagi davr xarakterning ijobiy xislatlarini tarbiyalash uchun katta imkoniyatlarga egadir. O'quvchilarning tez ko'nikuvchanligi va

ma`lum darajada ta`sirchanligi, ulardagi ishonuvchanlik, taqlid qilishga moyillik, o'qituvchining katta obro'ga ega ekanligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Tobora ortib borayotgan ijyimoiy talablar va to'g'ri tashkil qilingan ta`lim-tarbiya ishlarining ta`siri bilan kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda mehnatsevarlik, tirishqoqlik, intizomlilik, hamda batartiblik tarkib topadi.

Sekin-astalik bilan o'z xatti-harakatlarini irodaviy tomondan boshqarish qobiliyati rivojlanadi. O'zini tuta bilish va o'z xatti-harakatlarini nazorat qilish hamda tashqi qo'zg'atuvchilarga berilmaslik yuzaga keladi,qat`iyatlilik va qiyinchiliklarni engish o'tish malakasi shakllanadi.

Agar berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida bajarishga nisbatan burch hissi o'qituvchilar va ota-onalar tomonidan maqsadga muvofiq ravishda tarkib toptirilgan bo'lsa, III-IV sinflardan boshlab burch hissini anglash sezilarli ravishda namoyon bo'la boshlaydi, lekin bu yoshdagi burch va mas`uliyat hissi hali yetarli darajada barqaror va batamom mustaqil bo'lmaydi.

Tadqiqotchi N.B.Andrianovaning ma`lumotlariga ko'ra, anglangan burch hissining namoyon bo'lishi jihatidan o'quvchilarni to'rt tipga ajratish mumkin:

- Birinchi tipda burch hissi nisbatan barqaror bo'ladi va hayotiy munosabatlarning keng doirasiga tarqaladi;
- Ikkinchi tip burch hissining beqarorligi bilan xarakterlanadi, bu tipda burch hissi faqat ayrim axloqiy xatti-harakatlarda namoyon bo'ladi;
- Uchinchi tipda burch hissi faqat nisbatan tor doirada namoyon bo'ladi (yaqin qarindoshlari va o'rtoqlariga nisbatan);
- To'rtinchi tip sust rivojlangan burch hissiga ega. Bu tipga taalluqli bolalardan ba`zilari tartib-qoidalarga bo'ysunadilar, lekin ularning itoatkorligi ma`lum zaruriyat bilan bog'liq holda kechadi.

Qiziqishlar. Maktab ta`limining dastlabki yillarida qiziqishlar, xususan tevarak-atrofdagi olamni bilishga bo'lgan qiziqish sezilarli ravishda rivojlanadi. Psixologlarning ta`kidlashlariga ko'ra, dastavval ayrim alohida olingan vaziyatlarga nisbatan qiziqishlar hosil bo'ladi. (I va II sinflarda). Undan keyin esa, vaziyatning yuzaga kelish sabablarni, qonuniyatlarni, hodisalar o'rtasidagi aloqa va

o’zaro bog’liliklarni bilib olish uchun bo’lgan qiziqishlar rivojlanadi (III va xususan IV sinflarda). Agar birinchi va ikkinchi sinf o’quvchilarini «bu nima?» degan savol ko’proq qiziqtirsa, birmuncha kattaroq yoshdagi bolalar uchun «nima sababdan?», «qanday qilib?» degan savollar asosiy bo’lib qoladi.



8.6. Axloqiy rivojlanish xususiyatlari

Boshlang’ich sinf o’quvchilari ishonuvchan, tashqi ta’sirotlarga beriluvchan bo’ladilar. Buyuk allomalarimiz ta’kidlaganidek, kishining fe’l-atvori hammadan ko’ra ko’proq hayotining dastlabki yillarida tarkib topadi va unda shu davrda paydo bo’lgan sifatlar mustahkam o’rnashib kishining ikkinchi tabiatiga aylanadi. Insonning ikkinchi tabiatida ijobiy hissiyotlarni, fazilatlarni tarkib toptirish, yuksak axloq normalarini shakllantirish uchun butun mas’uliyat boshlang’ich sinf o’qituvchisining zimmasiga tushadi.

Bolaning mazkur yosh davrida, o’qituvchining har bir gapi, har bir xatti-harakati, ta’sir ko’rsatish uslubi uning uchun xaqiqat mezoni vazifasini bajaradi, chunki o’quvchilar o’qituvchilariga qattiq ishonadilar, uning fikr-mulohazalariga

jon dildan quloq soladilar, aql-zakovatidan jiddiy ta’sirlanadilar, talablariga hamisha amal qiladilar, bergan topshiriqlarni bekamu-ko’st bajarishga intiladilar.

Ana shu davrda o’qituvchi uchun:

- o’quvchilarning ma’naviyatiga ta’sir ko’rsatish, ijobiy his-tuyg’ulari va ezgu niyatlarini qo’llab-quvvatlash;
- ularni atrofdagi kishilarga yordam berishga undash, to’g’ri mulohaza yuritishga o’rgatish, noma’qul qiliqlardan tiyish, tabiat manzaralarni kuzatishga va musiqa tinglashga odatlantirish;
- burch va javobgarlik hissini tushuntirish;
- ular bilan mutoala qilingan badiiy kitoblar, filmlar va ularda tasvirlangan voqealarni, qahramonlarning hatti-harakatlarini muhokama qilish imkoniyati tug’iladi.

O’qituvchining o’quvchilar bilan mazmunli suhbatlar o’tkazishi, ularni g’aroyibotlar olamiga olib kirishi, faollik sari yetaklashi alohida o’rin tutadi. Kichik maktab yoshidagi o’quvchilarning axloqiy sifatlarini rivojlantirishda ko’zlangan maqsadga erishish uchun ularning yoshi va psixologik xususiyatlarini hisobga olish ham zarur bo’ladi.

8.7. Kichik maktab yoshida ijtimoiy hayot: o‘qituvchilar va tengdoshlari bilan muloqot





Takrorlash va muhokama uchun savollar:

- Kichik maktab yoshida rivojlanishning umumiy shart-sharoitlari haqida ma`lumot bering?
- Kichik maktab yoshi davrida yetakchi faolyat sifatida o'quv faoliyatining shakllanishi haqida tushuncha bering?
- Kichik maktab yoshidagi o’quvchilarda bilish jarayonlarining taraqqiy etishi haqida tushuncha bering?.
- Kichik maktab yoshida shaxs sifayida ulg’ayishning o’ziga xos psixologik xususiyatlarini ko’rsatib o’ting?
- Kichik maktab yoshida emotsional-irodaviy sohaning rivojlanish xususiyatlari to’grisida fikrungizni bildiring?
- Kichik maktab yoshidagi o’quvchilarning axloqiy rivojlanish xususiyatlarini ko’rsatib bering?
- Kichik maktab yoshida ijtimoiy rivojlanish asoslari haqida tushuncha?

IX bob. O’smirlik davri



- 9.1. O’smirlik davrining umumpsixologik tavsifi;
- 9.2. O’smirlik yoshida “kattalik” va “bolalik” dialektikasi;
- 9.3. O’smir organizmidagi anatomik-fiziologik o’zgarishlar;
- 9.4. O'smirlik yoshidagi inqirozli vaziyatlar;
- 9.5. O'smirlik davrida faoliyatning asosiy turlari;
- 9.6. O’smirlik davrida shaxs sifatida ulg’ayish;

9.1. O’smirlik davrining umumpsixologik tavsifi;

O’sib ulg’ayib kelayotgan yosh avlodga ta`lim va tarbiya berishda ularning yosh va individual xususiyatlarga e`tibor qaratishni talab etadi, zero, har bir yosh davri o’ziga xos takrorlanmas olam, o’ziga xos tabiatga egadir. Pedagogika fanlari doktori, professor A.Q.Munavvarov ta`kidlab o’tganidek, “bolalarni to’g’ri

tarbiyalash, samarali o'qitish uchun bola rivojlanishiga doir o'zgarishlarni, yosh davrlariga xos xususiyatlarni bilish va hisobga olish zarur"[8].

Haqiqatan ham o'qituvchi-pedagog bolani har tomonlama tarbiyalashni maqsad qilgan bo'lsa, u bolaning anatomik-fiziologik, ijtimoiy-psixologik jihatdan har tomonlama bilishi, uning yosh davriga xos o'zgarishlarni e'tiborga olishi lozim, ma`lum bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik va ruhiy hususiyatlar yosh xususiyatlari deb ataladi.



Psixologiya faniga doir nazariy adabiyotlarda va ilmiy tadqiqotlarda inson bosib o'tadigan yosh davrlarini mukammal o'rganilganligini ko'rish mumkin. Yosh davrlari orasida o'smirlik davri, insonni bolalikdan – kattalar olamiga qadam qo'yishi va o'z navbatida keskin, murakkab, xis-tuygularga boy, ruhiy-fiziologik o'zgarishlarni boshdan kechirish davrlaridan biridir. Bu davr "o'tish davri", "og'ir davr", "inqiroz davri" kabi iboralar bilan ham nomlanadi.

Psixologiya fanlari doktori, professor G'.B.Shoumarov o'z tadqiqotlarida "o'smirlik davrining og'ir, murakkab davr ekanligi ko'plab psixologik, fiziologik, ijtimoiy omillar bilan bog'liq" ekanligini izohlab o'tadi. Uning fikricha, bu davrda rivojlanishning barcha jihatlari: jismoniy, aqliy, ahloqiy, ijtimoiy va shu

[8] Munavvarov A. "Oila pedagogikasi" . Toshkent "O'qituvchi" 1995 y, 112 bet.

kabilarning mazmun mohiyati ham o’zgaradi. Bu davrda o’smir hayotida, uning ruhiyati, organizmning fiziologik hamda ijtimoiy holatida jiddiy o’zgarishlar sodir bo’ladi, aksariyat holatlarda ularda bir-biriga qarama-qarshi fikrlar kuzatiladi.

Bu davrga kelib, bola endi “bola” emas va shu bilan birga hali “katta odam” ham emas. Uning o’z-o’ziga va atrofdagilarga nisbatan bo’lgan munosabatlari butunlay boshqacha yangicha talqin kasb etib boradi, uning qiziqishlar tizimi, ijtimoiy yo’nalganligi qaytadan shakllanadi, tanqidiylik ortadi, o’z-o’zini anglashi, o’z-o’zini baholashi, ma`naviy-ahloqiy qadriyatlari o’zgarishga uchraydi.

Abu Nasr Forobiyning “Baxtga erishish haqida”, Abu Ali ibn Sinoning “Tadbir al-manozil”, “Axloqqa oid risola”, Kaykovusning “Qobusnoma”, Alisher Navoiyning “Mahbub-ul-qulub”, Abdurahmon Jomiyning “Bahoriston”, Abdulla Avloniyning “Turkiy Gukiston yoxud axloq” kabi asarlarida ulg’ayib kelayotgan yosh avlodga ilm-xunar o’rgatish, oilaviy turmush haqidagi tasavvurlarini boyitish, ta`lim va tarbiya berishda ularning yoshi, jinsi va alohida fazilatlarini xisobga olish masalalari sharxar asosida tasvirlab berilgan, hayotiy rivoyatlar, hikoyatlar, hikmatli so’zlar misolida ko’rsatib o`tilgan.

19-asr oxiri 20-asr boshlarida jahon psixologiya fanida shaxs taraqqiyotini o`rganishga o’smirlik davrida yuz berdigan anatomik-fiziologik o’zgarishlarni xisobga olishga, yosh davrlarini tabaqalashga yo’naltirilgan turli-tuman nazariyalar yaratilgan bo`lib, tadqiqotchilar psixik va jismoniy kamolotning uzviy bog’liqligini yoritishda o`ziga xos yondashuvga ega bo`lganlar.

Rossiya psixologiya maktabida shaxsning taraqqiy etish muammosi L.S.Vigotskiy, P.P.Blonskiy, S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontyev, B.G.Ananyev, L.I.Bojovich, D.B.Elkonin singari yirik psixolog-olimlarning ilmiy tadqiqotlarida o`z aksini topgan. Hozirgi kunda shaxsning kamolotga erishish shart-sharoitlari, qonuniyatlari haqida fikr yuritganda, nazariy manbalardan olingan ma`lumotlarni guruhlarga ajratish va mohiyatini ochib berish maqsadga muvofiqdir.

O`zbekston psixologiya maktabida ham, M.G.Davletshin, E.G`.G`oziyev rahbarligi ostidagi ilmiy-tadqiqotlarda, V.Karimova, Z.Nishonova olib borgan izlanishlarda o’smirlik va ilk o’spirinlik yoshida shaxsning kamol topishi,

shaxsning psixofiziologik rivojlanishi, shaxsning ijtimoiylashuv jarayoni, shaxs faolligi va unga ta`sir etuvchi omillar to`g`risida qimmatli ma`lumotlar to`plangan.

9.2. O’smirlik yoshida “kattalik” va “bolalik” dialektikasi

Bu davrda o`smir hayotida, uning ruhiyati, organizmining fiziologik holatlarida, uning ijtimoiy holatida jiddiy o`zgarishlar sodir bo`ladi, aksariyat holatlarda ularda bir-biriga qarama-qarshi bo`lgan turli xil an`analar kuzatiladi, bu davrga kelib o’smir endi «bola» emas va shuningdek «katta odam» ham emas.

Uning qiziqishlar olami, ijtimoiy yo`nalganligi qaytadan shakllanadi, o`z-o`zini anglashi, baholashi, qadriyatlari o`zgaradi, shaxsiy «Men»ning ahamiyati ortadi, o’smirlik davri xususiyatlaridan yana biri o`smirlik avtonomiyasidir.

Mazkur yosh davrida avtonomiyaning quyidagi ko’rinishlari uchraydi:

- huquqiy avtonomiya;
- emotsional avtonomiya;
- makoniy avtonomiya.

Ma`lumki, bola dunyoga kelgan kundan boshlab kimningdir qaramog`iga muhtoj bo`ladi, ota-onasi va boshqa yaqinlari uni oziqlantiradi, kiyintiradi, tarbiyalaydi va bolani muntazam nazorat ostida tutadi, bolani har tomonlama qo`llab-quvvatlaydi va bolaning o’zi ham kattalarga muhtojlik his etib turadi.

O`smirlik davrida esa bola o`z hayotini, xavfsizligini ta`minlash borasida nisbatan mustaqillikka erishadi, endi u o`zini-o`zi himoya qila olishi, lozim bo`lsa o`z imkoniyatlari darajasida mehnat qilib, yetarli darajada daromad qilishi, o`z ehtiyojlarini mustaqil ravishda o`zi qondira olishi mumkin bo`ladi.

O’smirlik davridan ilk o’spirinlikka qadam qo’yishda, ya`ni 16 yoshda fuqarolik pasporti oladi, yuridik jihatdan mustaqil shaxs hisoblanib, ovoz berish huquqiga ega bo`ladi. Shu kabi huquqiy imkoniyatlarga ega bo`lish, unda huquqiy avtonomiyaning yuzaga kelishini ta`minlaydi, o`smirda o`z xatti-harakati uchun javobgarlik, mas`uliyatlilik hissini yuzaga keltiradi.

Ilk yoshdan bola kattalar, ayniqsa yaqin kishilarining qo`llab-quvvatlashi, mehr-muhabbati, erkalashini his qilib o’sadi, maktabgacha va kichik maktab

yoshidagi bolalarni suyib-erkalab, quchib, boshini silab, yoqimli gaplar orqali hissiy yaqinlik qilinsa, ular bundan quvonib, xursand bo`ladilar va erkalayotgan shaxsga nisbatan talpinadilar. Shuningdek, bolalar o`z tengdoshlari yoki notanish shaxslar bilan bo`ladigan o`zaro munosabatlarida nizoga duch kelganda, ayniqsa tengdoshlaridan «jabrlanganda», «yengila boshlaganida», ota-onasidan va atrofidagi yaqinlaridan dalda, hissiy qo`llab-quvvatlash kutadi va bu borada ularga murojaat qiladi, agar o`z vaqtida hissiy daldani olsa, o`zini erkin, tetik tutadi va quvonib yuradi. O`smirlik davrida esa aksincha, o`smir endi «yosh bola» emas, endi u «katta odam», katta odam esa mustaqil bo`lishi, o`z muammolarini o`zi hal qilishi kerak. Bu davrda kattalar yordamiga murojaat qilish, tengdoshlari tomonidan qoralanadi va buni o`smirning o`zi ham xohlamaydi, endi o`smirlarga kattalar tomonidan oldingidek ko`rsatiladigan iltifot, erkalashlar g’alati tuyuladi.

Endi ular kattalarning erkalashlarini, «arzimagan narsalar» uchun bildiriladigan olqishlarni «yoqtirmaydilar», o`z muammolarini o`zlari shaxsan hal qilishga intiladilar. Oldinlari ko`chada, bog`chada, maktabda yuz bergan voqealar haqida uyidagilarga shikoyat qilib ota-onasidan yordam so`ragan bo`lsa, endi oiladan tashqarida birontasidan dakki eshitib, kaltak yeb kelgan taqdirda ham bu haqda ota-onasiga bildirmaslikka harakat qiladi va imkon qadar ota-onalarini uning «ishlariga» aralashmasliklarini xohlaydi, bularning barchasi o`smirlarda bevosita kuzatiladigan emotsional(xissiy) avtonomiya alomatlaridir.

O`smirlarda kuzatiladigan avtonomiya holatining yana biri makoniy avtonomiyadir, bunda o`smirlar imkon qadar o`z xonasida yolg`iz qolishga, biron bir ishni bajarayotgan yoki biron bir joyda bo`lgan vaqtlarida imkon qadar yolg`iz bo`lishga, ayniqsa, o`z ota-onasi, oila a`zolari nazaridan chetroqda bo`lishga, o`z o`y-xayollari bilan mashg`ul bo`lib vaqt o`tkazishga harakat qiladilar.

O’zmir o`z tengdoshlari, yaqin o`rtoqlari bilangina muloqotda bo`lib o`z ota-onasi bilan imkon qadar kamroq gaplashadi, o`zi bilan o`zi ovora bo`lib qoladi, ayni vaqtda o`smirda kuzatilayotgan ushbu hodisalarning asl sababini tushunmagan ayrim ota-onalar ularning bunday holatidan xavotirlanib, ko`proq qiziqib qoladilar, boshqacha aytganda o’smir avtonomiyasiga «bostirib kiradilar».

Bunday holatlar o`smirlar va ularning ota-onalari o`rtasida o`zaro kelishmovchiliklar, nizolarning yuzaga kelishiga sabab bo`lishi mumkin.

9.3.O’smir organizmidagi anatomik-fiziologik o’zgarishlar

O’smir ruhiyatida kuzatiladigan o’ta ta`sirchanlik, jizzakilik, qo`rslik, serzardalik kabi alomatlar hissiy beqarorlikning yorqin ifodasidir.

Ushbu kechinmalarning asosiy sabablaridan biri, jinsiy balog`atga yetish, ichki sekretsiya bezlari, ayniqsa, jinsiy bezlar funksiyalarining faollashuvi va o’smir organizmida ro’y beradigan psixofiziologik o`zgarishlardir.



Ma`lumki, bu davrda o`smirdagi shaxsiy «Men»qaytadan quriladi. Uning atrofidagilarga, ayniqsa, o`z-o`ziga bo`lgan munosabati, qiziqishlari, qadriyatlari yo`nalishi keskin o`zgaradi, o`z shaxsiga bo`lgan e`tibori kuchayadi.

O`smirlik davrida shaxs egosentrizmi(xudbinligi) boshqa davrdagilarga qaraganda eng yuqori darajaga yetadi. Bu davrda o`smir o`z shaxsiyatini boshqalardan ustun ko`radigan, o`ziga ko`proq bino qo`yadigan bo`lib qoladi, ushbu davrda o`g`il bolalarda ham, qiz bolalarda ham shunchaki kattalarga taqlid

qilish emas, balki tom ma`noda o`zining xatti-harakatini nazorat qilishi, yurish-turishi, kiyinishi, tashqi ko`rinishiga e`tibor berishi kuzatiladi.

O'smirlik yoshidagi o'gil bolalarning tana tuzilishida nomutanosiblik yuzaga kelib, tovushlari o`zgarib, do`rillab qoladi. Jinsiy balog`atga yetishning boshlanishi tufayli yuzlariga xusnbuzar chiqa boshlaydi, bu o`smir uchun kutilmagan, uncha xush kelmaydigan holatlardir va aynan ana shu holat o`smirlarda ta`sirchanlik va jizzakiligining ortishiga olib keladi.

Ushbu davrda o`smirning tashqi ko`rinishi, shaxsiyatiga oid bildirilgan arzimagan nojo`ya gap, uning uchun jiddiy salbiy kechinmalarning yuz berishiga sabab bo`lib xizmat qilishi mumkin. O'zmirlik yoshidagi qizlarda o`z-o`zini baholash darajasi keskin pasayadi, bu holat qizlarda nafaqat noqulaylik hissini, balki «men hech kimga kerak emasman!», «naqadar xunukman», degan fikrlarni ham tug`diradi. Bunday fikr, bunday baho o`smir qiz uchun qay darajada og`ir ekanligini faqat shu holatni boshidan kechirganlargina his qila olishi mumkin.

Uni o'rab turgan atrofdagi kihshilar, sinfdoshlari, o`qituvchilar, ota-onalar tomonidan o`smir qiz shaxsiyatiga taalluqli bo`lgan arzimagan gap ham unga o`ta

haqoratdek tuyuladi, o`smir qizlarning o`z-o`zini baholash darajasi nihoyatda pasayib, ular nafaqat atrofidagilarni, hatto o`z-o`zini ham yomon ko`rib ketadilar.

Ayni shu vaqtlarda o`z ruhiyatida, organizmida ro`y berayotgan bunday o`zgarishlarning asl sababi va mohiyatini tushunib yetmagan ayrim o`smirlar ayrim noxush hodisalarning sodir etilishiga yo`l qo`yishlari mumkin.

Jinsiy balog`atga yetish davrida o`smir organizmida, uning ruhiyatida ro`y beradigan bunday tabiiy o`zgarishlardan xabardor bo`lish, ularning sabablari, kechishi haqida aniqroq ma`lumotlarga ega bo`lish og`ir va murakkab davrning jiddiy, salbiy asoratlarsiz kechishini ta`minlaydi.

Buning uchun birinchi navbatda o`smirlarning yaqin kishilari, ota-onasi, o`qituvchilari hozirgi kun o`smir psixolgiyasi, psixofizilogiyasi masalalariga oid eng zamonaviy ilmiy ma`lumotlardan xabardor bo`lishi va o`smirlar bilan o`zaro munosabatlarda ulardan o`rinli foydalana olish malakalariga ega bo`lishlari lozim.

O`smirlik davrida kuzatiladigan eng muhim anatomik-fiziologik o’zgarishlardan biri, bu jinsiy balog`atga yetish xisoblanadi. Jinsiy balog`atga yetish jarayoni qanday amalga oshadi?

Jinsiy bezlar va u bilan bog`liq bo`lgan jinsiy belgilar, bola hali ona qornidaligidayoq paydo bo`ladi va bola tug`ilganidan boshlab to o`smirlik davrigacha jinsiy rivojlanishni belgilab beradi. Jinsiy bezlar va ularning funksiyalari bola rivojlanish jarayonining yaxlitligi bilan uzviy bog`liq bo`ladi.

Ontogenetik taraqqiyotning ma`lum bir bosqichida jinsiy rivojlanish keskin tarzda jadallashadi va fiziologik jinsiy yetuklik amalga oshadi.

Jinsiy rivojlanishning tezlashishi jinsiy balog`atga yetish davri deb ataladi va u aksariyat hollarda o`smirlik, ilk o’spirinlik yoshiga to`g`ri keladi. Qiz bolalarning jinsiy balog`atga yetishishi, o`g`il bolalarga qaraganda 1-2 yil ilgarilab ketadi. Jinsiy balog`atga yetish nisbatan individual xarakterga ega bo`lib, u vaqti va sur`atiga ko`ra turli bolalarda turlicha kechishi mumkin.

Jinsiy balog`atga yetish muddati va uning jadalligi turlicha bo`lib, u ko`plab omillarga: organizmning salomatlik holati, ovqatlanish me`yori, iqlim, maishiy,

ijtimoiy va iqtisodiy shart-sharoitlarga hamda asab tizimining xossalariga bog`liq bo'ladi, bunda nasliy xususiyatar ham muhim o'rin tutadi.

O`smir organizmida yurak-qon tomir tizimi, ichki a`zolarning rivojlanishi bir xil darajada kechmaydi, bu esa ko`pincha bosh aylanishi, rangning oqarishi kabi holatlarni yuzaga keltiradi, bosh og`rig`i, tez toliqish, vaqti-vaqti bilan lanjlik, holsizlanish kabilar kelib chiqadi, jinsiy balog'atning salbiy asorartsiz tugallanishi bilan ushbu noxush kechinmlar o'tib ketadi.

9.4.O'smirlik yoshidagi inqirozli vaziyatlar

O'smirlik davri inqirozining tashqi va ichki shart-sharoitlari

Tashqi	Ichki	
	Biologik	Psixologik
O'quv faoliyatiga yangicha munosabat. Oiladagi yangi talablar. O'smirning oiladagi yangi o'rni. O'smirda ijtimoiy aloqalarning kengayishi.	Jismoniy o'sish va organizmning biologik yetilishi. Organizmdagi gormonal o'zgarishlar, jinsiy balog'at.	Motivlashgan-ehtiyojlar sohasini o'zgarishi. Qiziqishlar tizimining shakllanishi: «egosentrik dominanta», «yiroqlik dominantasi», «zo'r berish dominantasi», «romantik dominanta».

O'smirdagi tabiiy gormonal o'zgarishlar, uning ruhiyatida yuz berayotgan yangilanishlar, "kattalik hissi", "Men" siymosining qayta qurilishi ota-onalar bilan kechadigan o'zaro munosabatlarga jiddiy ta`sir ko'rsatadi.

Ota-ona va farzandlar o'rtasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ziddiyatli vaziyatlarga quyidagi xolatlar sabab bo'ladi:

- dunyoqarashlar orasidagi mavjud farqlarni hisobga olinmasligi;
- yoshlarning o'z bo`sh vaqtini to'g'ri tashkil etmasligi, do`stlar tanlashdagi mustaqilligi, hissiy kechinmalarini yashirishi, modaga

berilishi, kasb tanlashdagi mustaqilligi, oilaviy turmush haqidagi tasavvurlarning bir-biriga mos kelmasligi;

- ota-onalarning farzandi uchun yetarli vaqt ajratmasligi, ularning faqat moddiy ehtiyojlarini qondirish bilan cheklanishi, ularning ijtimoiy, ma`naviy va madaniy ehtiyojlarini hisobga olmasliklari;
- ayrim yoshlarda bilim olish, mehnat qilish ko'nikmasining yetarli bo'lmasligi oqibatida yengil-yelpi hayot kechirishga o`rganib qolishi;
- ayrim yoshlarning o'zining farzandlik burchini unutib qo`yishi;
- ota-onalarda fiziologiya, pedagogika va psixologiya fanlaridan zarur bilim saviyasining yetarli darajada shakllanmaganligi.

Ba`zi ota-onalar o'z farzandlarida 3, 6, 13, 14 yoshlarda tabiiy ravishda yuz berishi mumkin bo'lgan inqirozli xolatlarni bilmaydilar, ushbu yosh bosqichlarida bola ruhiyatida, ijtimoiy maqomida o'zgarishlar va yangilanishlar yuzaga keladi.

Bu esa, kattalar, jumladan, ota-onalar bilan bo`lgan munosabatlarida ko`zga tashlanadi. Buni sezmagan ba`zi ota-onalar «bolam nihoyatda qaysar, quloqsiz bo`lib qoldi», deb o`ylaydilar va shikoyat qilishga tushadilar, unga qarshi o`zlaricha chora-tadbirlar belgilashlari natijasida, ota-ona va bola bir-birlarini tushunolmay qoladilar, bolaning ota-onadan bezish hollari kuzatiladi.



9.5. O'smirlik davrida faoliyatning asosiy turlari

Rus psixologi D.B.Elkoninning fikriga ko'ra, o'smirlik yoshida faoliyatning yetakchi tipi, tengdoshlari bilan kechadigan o'zaro muloqot sanaladi. O'smirning tengdoshlari bilan muloqotga undovchi motivlar dinamikasi mazkur yoshda ushbu ko'rinishda bo'ladi:

- Tengdoshlari davrasida bo'lish ishtiyoqining kuchayishi, ular bilan birgalikda nimadir qilish istagi (10-11 yosh);
- Tengdoshlari jamoasiga qo'shilish, o'zining o'rnini toppish va egallashga bo'lgan istakning ortishi (12-13 yosh);
- Avtonomiyaga bo'lgan intilish va o'zining shaxsiy qadr-qiymatini tan olinishi uchun zarur bo'gan amallarni qidirish istagi (14-15 yosh).

D.I.Feldshteynning ko'rsatishicha, o'smirlik yoshidagi bolalarning yetakchi faoliyat tipi, ijtimoiy-foydali, tan olingan, haq to'lanmaydigan faoliyatdir. Ijtimoiy yo'nalishga asoslangan faoliyat shakllari o'quv-bilish, mehnat-ishlab chiqarish, tashkiliy-ijtimoiy, badiiy yoki sport kabilarda aks etadi, eng muhimi bu – o'smirning ushbu faoliyatni ahamiyatini his qilishidan iborat bo'ladi. Faoliyatning mazmuni – odamlarga va jamiyatga naf keltirish hisoblanadi.

O’smir amalga oshiradigan ijtimoiy-foydali faoliyatning asosiy motivi – shaxsiy mas`ullik va mustaqillikni ko’rsatish:

- 9-10 yoshda bolalarda o’z-o’zini tasdiqlashga intilish va kattalar olamida tan olinishga erishish istagi paydo bo’ladi;
- 10-11 yoshda boshqa odamlarning bahosini qo’lga kiritishga bo’lgan intilish kuchayib boradi;
- 12-13 yoshda – huquqlrining tan olinishini, 14-15 yoshda ma`lum bir ijtimoiy o’rinni egallash, o’zligini belgilash istagi ortadi.

9.6. O’smirlik davrida shaxs sifatida ulg’ayish

O’smir asab tizimining funksiyalari ham sezilarli tarzda o`zgaradi, o’smirda qarama-qarshi hisiy kechinmalar: ta`sirchanlik ko`pincha jizzakilik, uyatchanlik va tortinchoqlik bilan uyg`unlashib ketadi, haddan ziyod tanqidiylik va ota-onasining qaramog`iga betoqatlik namoyon bo`ladi, ba`zan ishchanlikning pasayishi, asabiylik, serjahllik, serzardalik kabi xolatlar kuzatiladi.

Bu davrda o`smir shaxsi jadal shakllanadi, “kattalik hissi” yuzaga keladi, qarama-qarshi jins vakillariga munosabat o`zgaradi, ularga qiziquvchanligi ortadi.

Jinsiy balog`atga yetish davrida o`smir organizmining normal jismoniy rivojlanishi muhim rol o`ynaydi, bu davrda turli xil, darmondorilarga boy ovqatlarni yetarlicha iste`mol qilish, shuningdek, ochiq havoda sayr qilish, sport bilan shug`ullanish zarur, balog`atning e`tibor talab qiladigan jihatlari ham mavjud.

Olimlarning olib borgan tadqiqotlariga ko’ra, o’smirlik yoshida jinsiy yetilish bilan, tegishli instinktlar, shahvoniy bo’yoqlardagi hissiy kechinmalar va intilishlarning namoyon bo’lishi hamda psixik va ijtimoiy yetilish o’rtasida nomutanosiblik yuzaga keladi. Bu yoshning qiyinligi va xavfliligi ana shundadir: o’smir ko’pincha o’zi uchun yangi bo’lgan instinktiv mayllar va intilishlarga yetarlicha baho berishga qiynaladi, to’g’ri yondasha olmaydi.

O’qituvchilar, tarbiyachilar, sinf rahbarlari, psixologlar dastavval shuni chuqur anglashlari lozimki, jinsiy yetilish organizmning jismoniy taraqqiyotga ta’sir qilishdan tashqari, o’smir ruhiyatiga ham jiddiy ta’sir ko’rsatadi.



O'smirlarda jinsiy yetilish munosabati bilan, shu paytgacha ularga noma'lum bo'lgan va kutilmagan jinsiy moyillik va tegishli fikrlar, *hissiy kechinmalar, qarama-qarshi jinsga bolgan o'ziga xos qiziqishlar,* ma'lum mazmundagi kitoblar, filmlar, disklar, uyali aloqa vositalaridagi manbalarga, kattalarning gaplariga bo'lgan qiziqishlarning *paydo bo'lishi* tabiiy-fiziologik zarurat tufayli yuzaga keladigan normal holatdir. Ammo bunga loqaydlik bilan befarq munosabatda bo'lish ham mumkin emas, shunday xolatlar ham ma'lumki, ayrim vaziyatlarda jinsiy mayllar(axloqsiz ishlarga taqlid qilish, yoshga to'g'ri kelmaydigan jinsiy zo'ravonlikni targ'ib qiluvchi adabiyotlar va kinofilmlar bilan tanishish, "ommaviy madaniyat"ga ruju qo'yish kabilar illatlar) ma`naviy tubanlik, behayolik, iffatsizlik kabi salbiy kechinmalarga olib keladi.

O'smir qanday bo'lmasin «parda» ortida nima borligini bilishga urinib ko'radi, chunki "ta`qiqlangan meva" mazali boladi degan ibora bejiz aytilmagan.

"Bir kun, vaqti kelib, o'zlari hammasini bilib olishar", degan fikr mutloqo noto'g'ridir, o'smirlarni voqelikdan ajratib qo'yib bo'lmaydi, hayot qaynab turibdi, o'smirlar unga zo'r qiziqish bilan qaramoqdalar, ular o'zlari uchun mavhum sanalgan, kattalar orasidagi sirli(intim) munosabatlarni ham tushunishni istaydilar.

Bu yerda o’smir kundalik hayotining to’g’ri tashkil etilishi, ya’ni qat’iy kun tartibi, uyqu, dam olish va ovqatlanish me`yori, jismoniy tarbiya va sport bilan doim shug’ullanish yordam beradi. O’smirlar diqqat-e`tiborini, qiziqarli, jozibali va eng asosiysi, ijtimoiy foydali bo’lgan faoliyatga yo’naltirish muhimdir.

Jinsiy tarbiya tizimida o’smirlarga qarama-qarshi jins vakillari orasidagi o’zaro munosabatlarga doir murakkab masalalarni tushuntirish lozim.

Agar psixologlar, oqituvchi-murabbiylar o’z vaqtida yordam bermasalar, ayni paytda o’smirlar o’zlari uchun tushunarsiz bo’lgan va ularni hayajonli tarzda o’ziga jalb etgan hodisalarga o’zlari javob qidirishga majbur bo’ladilar.



Takrorlash va muhokama uchun savollar:

- O’smirlik davrining umumiy tavsifi?
- O’smirlik davri va kattalar olamini izohlab bering?
- O’smir organizmida ro’y beradigan anatomik-fiziologik o’zgarishlar haqida ma`lumot bering?
- O'smirlik yoshidagi inqirozli vaziyatlar haqida tushuncha bering?
- O'smirlik davrida faoliyatning asosiy turlari?
- O’smirlik yoshida yetakchi faoliyatning o’rni?
- O’smirlik davrida shaxs sifatida ulg’ayishning psixologik xususiyatlari?

X bob. O’sprinrlik davri

- 10.1. O‘spirinlikning inson hayot yo‘li tizimidagi o‘rni.
- 10.2. O‘spirinlik davrida ahloqiy va aqliy taraqqiyot.
- 10.3. O‘spirinlik davrida shaxsning rivojlanish xususiyatlari.
- 10.4. “Men-siymosi” va o‘zini-o‘zi anglashning shakllanishi.
- 10.5. O‘spirinlik davrida ijtimoiy faollik.

10.1. O‘spirinlikning inson hayot yo‘li tizimidagi o‘rni

O’spirinlik davri bolalikdan kattalikka o’tish, aniqrog’i o’smirlikdan mustaqil kattalar hayotiga qadam qo’yishdan iborat. O’spirinlik yoshiga(15-18 yosh) o’tishdagi inqirozli xolatlar, uning suby`ekt sifatida shakllanishi bilan bog’liq holda kechadi. O’spirinlik yoshida jismoniy kamolotga erishish jarayoni yakunlana boshlaydi. O’spirinning ijtimoiy rollari va qiziqishlar ko’lami kengayadi, mustaqillik va mas`uliyat hissi ortadi.

Ilk o’spirinlik yoshidagi yuqori sinf o’quvchilari uchun o’quv-kasbiy faoliyat yetakchi ahamiyatga ega bo’ladi. O’quv faoliyatiga undovchi motivlar bo’lajak kasbiy faoliyat va o’zining hayot yo’lini belgilashdan kelib chiqadi, I.V.Dubrovina ma`lumotlariga ko’ra, o’z-o’zini rivojlantirish motivi ham muhim o’rin tutadi. Ilk o’sprinlik yoshidagi yigitlar va qizlar o’zlarining ichki dunyolariga

yanada chuqurroq nazar solishga intiladilar, o'zlarini shaxs sifatida ulg'ayib qolganlarini his qiladilar, o'z o'rinlarini topishga harakat qiladilar.



10.2. O'spirinlik davrida ahloqiy va aqliy taraqqiyot

O'spirinlik yoshini o'rganishga oid ko'plab ilmiy kuzatishlar "Mensiymosi", "Haqiqiy - Men" va "Ideal - Men" orasidagi o'zaro muvozanatni tadqiq etishga qaratilgan, chunki ushbu xolat o'ta muhim sanaladi. Kattalar olamiga kirish, faoliyat va muloqot jarayonida yetarlicha tajriba to'plash orqali ularda ota-onalar va o'qituvchilar fikridan ko'ra, o'ziga nisbatan shaxsiy baho yuzaga keladi.

Ijobiy "Haqiqiy - Men" hissining paydo bo'ishi, o'z-o'ziga xurmat tuyg'usining shakllanishi kelgusi hayotiy rejalarni tuzishga va ularni muvaffaqiyayli amalga oshirishga yaqindan ko'mak beradi. O'zining shaxsiy imkoniyatlarini ortiqcha baholash, o'ziga bino qo'yish esa, zarur bo'lmagan tavakkalchilikka undaydi. O'zini shaxs sifatida har tomonlama bilish, o'z-o'ziga "Men qanday odamman?" deya savol berish, refleksiyaning ortishiga, o'zini chuqur tahlil qilishga zamin tayyorlaydi: "Nima uchun o'zimni bunday tutdim?", "Nima uchun o'zimni tutib tura olmadim?", "Mana bu vaziyatda aql bilan ish ko'rdam-ku? " degan savollar va fikr-mulohazalar paydo bo'ladi.

Yuqori sinf o’quvchisi shaxsining axloqiy jihatdan shakllanishi:

- O’spririnlik davri, odamning axloqiy shakllanishidagi hal qiluvchi davr hisoblanadi;
- O’spirin shaxsining axloqiy shakllanishi, o’zgalar fikriga asoslangan bolalik davridan, mustqil fikr yurita oladigan kattalar olamiga o’tish davrida sayqal topa boshlaydi;
- O’z-o’zini axloqiy jihatdan nazorat qilish rivojlanadi;
- Kattalarning vazifasi – o’spirinning axloqiy me`yorlarni tushunib yetishi, o’zlashtirishi va amal qilishiga ko’maklashish.

Aqliy rivojlanish

Maktabning yuqori sinflarida o’qitishda o’quv materiali hajmining kengayishi, mazmuni va tuzilishining murakkablashishi bilan o’quvchilarga nisbatan talab darajasining ortishi kuzatiladi.

Kelajakka nazar solish, o’zining kasbiy va shaxsiy yo’nalishini belgilash, ruhiy taraqqiyotning barcha sohalarini qamrab olishi barobarida, bilish jarayonlarining rivojlanishiga ham turtki beradi.

10.3. O‘spirinlik davrida shaxsning rivojlanish xususiyatlari

Balog’atga yetib kelayotgan shaxsning o’zi yashab turgan dunyoni bilishi, o’z-o’zini va atrofidagi insoniy munosabatlarni tushunishi, anglab yetishi va shaxslararo munosabatlar tizimidagi o’z o’rni topishining ijtimoiy-psixologik manbalarini o’rganish, yoshga va jinsga bog’liq jihatlarini tahlil qilish, shaxs - jamiyatning ajralmas bir qismidir deb xulosa chiqarishga imkon beradi.

Individ, ya’ni tabiiy zot sifatida dunyoga kelgan odam bolasi tug’ilgan kunidan boshlab o’ziga o’xshash insonlar qurshovida bo’ladi va uning butun ruhiy olami, qiziqishlari, intilishlari, qobiliyatlari ijtimoiy muhitda aks etadi.

Ijtimoiylashuv tushunchasi, shaxsnining uni o’rab turgan tashqi ijtimoiy muhit ta’sirlariga berilishi, uning ijtimoiy me`yorlarini o’zlashtirishga moyilligini ifodalaydi, bola shaxs sifatida ijtimoiy muhit ta’siri ostida ulg’ayadi.

Oila ijtimoiy muhiti har bir shaxs uchun ana shunday birlamchi, dastlabki ijtimoiylashuv o’chog’i va ulg’ayish maskani hisoblanadi.

Ijtimoiylashuvning ikkilamchi maskanlariga barcha bosqichdagi ta’lim muassasalari, Mehribonlik uylari, ixtisoslashgan maxsus maktab-internatlar hamda harbiy bilim yurtlari kiradi, chunki u yerda nisbatan uzoq vaqt mobaynida bola ta`lim oladi va tarbiyalandi, ijtimoiy me`yorlarni o’zlashtiradi, ma`naviy-axloqiy, qadriyatli yo’nalishlar ta’sirida dunyoqarashi shakllanadi, ulg’ayadi.

Ijtimoiy-psixologik moslashuv ya’ni, shaxsning ijtimoiy munosabatlarga qadam qo’yishi, ijtimoiy normalarni egallashi, ko’nikishi va moslashishi orqali orttirgan tajribasi ijtimoiylashuvning bir ko’rinishi sanaladi.

Ijtimoiylashuv jarayonida shaxs jamiyatdagi ijtimoiy normalarni o’zlashtiradi, turli rollarni bajarishga o’rganadi, jamoatchilik sharoitida o’zini tutish ko’nikmalarini hosil qiladi. Shaxsning ijtimoiylashuvi uning ijtimoiy ta`sirlarni qabul qilishi, ijtimoiy borliqni bilishi va anglashiga asoslanadi.

Ijtimoiylashuv manbalari:

- bolalik davrida orttirilgan tajriba – bu jarayon psixik funksiyalar(bilish jarayonlari)ning shakllanishi va dastlabki ijtimoiy xulq normalarining namoyon bo’lishi bilan bir hil tarzda kechadi;
- ijtimoiy institutlar – ta’lim va tarbiya tizimi; oiladan boshlab, to oliy o’quv yurtlari va undan yuqori pog’onalardagi ta’lim olishga imkon beruvchi maskanlar, mehnat jamoalari shular jumlasidandir;
- muloqot va hamkorlikdagi faoliyat jarayonidagi odamlarning ta’siri – rasmiy yoki norasmiy shart-sharoitlarda odamlarning bir-birlari bilan kechadigan o’zaro muloqoti va muomalasi nazarda tutiladi.

Attraksiya va yuksak his-tuyg'ular

Ilk o'spirinlik o'z qadr-qimmatini bilish, o'zligini anglash, va boshqalarga nisbatan munosabat bildirish tajribasini egallash davri. O'smirlik davri bola qalbida kim bilandir sirlashish, kimnidir o'ziga eng yaqin kishi sifatida tan olish, uni ruhiyatida kechayotgan barcha o'zgarishlardan vofiq etish istagini uyg'otadi.

Birinchi marta «do'stlik», «muhabbat», «sevgi » tushunchalari ham aynan shu davrda paydo bo'ladi, yetuklik va keksalik davridagi kishilar ham o'smirlik va ilk o'spirinlik yillarini eng beg'ubor, jozibali va yoqimli davr sifatida xotirlaydilar.

Ilk o'spirinlik yoshidagi jismoniy va ruhiy taraqqiyot davrida **attraksiya** deb atalgan xissiyotning paydo bo'lishi uchun eng maqbul davr xisoblanadi.

Attraksiya(lotincha attrahere – yoqimli bo'lish, o'ziga jalb etish, mahliyo qilish) - bu bir insonda boshqa bir insonga nisbatan ijobiy munosabatning yuzaga kelishi asosidagi yoqtirish hissi, yoqish yoki yoqtirish(simpatiya), o'ziga rom etish, bir-biriga o'zaro moyilligini tushuntirib beruvchi hissiy kechinma sanaladi.

Tadqiqotlarda bu kabi emotsional munosabatlar aynan balog'at yoshida yuzaga kelishi isbotlangan, attraksiyaning namoyon bo'lishi, uning kuchi va mazmuni, ilk o'spirinlik yoshidagi yigit yoki qizning shaxs sifatida o'zini idrok etishi, o'z-o'zini va boshqalarni hurmat qilishiga bevosita ta'sir ko'rsatar ekan.

Do'stlik. Ilk o'spirinlik yoshida paydo bo'ladigan muammoli vaziyatlarni muhokama qilish va hayotiy to'siqlarni yengib o'tish uchun uni tushuna oladigan, maqbul yo'lni ko'rsatadigan do'st zarur bo'ladi. kerak. Ruhiyat ilmi nuqtai-nazari bo'yicha, do'st bu - «alter - Ego», ya'ni uning ikkinchi «Men»i sifatida idrok etiladi va o'sha paytdagi «Men»ning bir qismi sifatida baholanadi.

Do'stlik tuyg'isining boshqa intim, emotsional munosabatlardan asosiy farqli tomoni, odatda bir jins vakillari orasida, ma`lum bir talab va istaklar asosida paydo bo'ladi, ushbi hissiyot bir-biriga o'zaro yaqinlik tarzida boshlanadi.

Do'stlikning eng muhim shartlaridan biri - o'zaro bir-birini tushunishdir.

Qarama-qarshi jins vakillari o'rtasida ham do'stlik bo'lishi mumkin, faqat u ko'pincha hissiy yaqinlik, muhabbat o'rnini to'ldirishga xizmat qiladi.

Do’stlarga xos bo’lgan sifatlarga o’zaro hurmat, g’amho’rlik qilish, o’zaro ishonch, muammolarga befarq bo’lmaslik, qo’llab-quvvatlash, mehr kabilar kiradi.

Ayniqsa ilk o’spirinlik yoshida do’stga bo’lgan ehtiyoj kuchayadi, yaqin do’sti bo’lmagan odam o’zini juda baxtsiz, nochor hisoblaydi. Agar, kimningdir do’sti unga nisbatan sadoqat ko’rsatmasa, sotqinlik qilsa, uning kutishlariga zid harakat qilsa, ushbu xolat juda kuchli ruhiy iztiroblarni keltirib chiqaradi.

Agar ilk o’spirinlikda do’stlik mazmunan ancha yuzaki, bevosita muloqot maqsadlari asosida yuzaga kelgan bo’lsa, yosh ulg’ayishi, turli hayot sinovlaridan o’tishi tufayli mustahkamlanadi va hayotdagi yuksak qadriyatga aylanib boradi.

Sevgi-muhabbat. Agar do’stlikda attraksiya, ya`ni tashqi yoqimtoylik orqali o’ziga rom eish ustunlik qilsa, sevgi qalblar yaqinlashuvining muhim alomatidir.

Aynan o’smirlik va ilk o’spirinlikdagi sevgi beg’ubor, tiniq, samimiy bo’lib, yosh ulg’aygan sari uning mazmuni o’zgarib, boshqa qadriyatlar ham o’rin egallay boshlaydi, haqiqiy sevgida yuksak insoniy fazilatlar hukm suradi.

Ma’lum bo’lishicha, sevgining dastlabki bosqichi, o’zaro yoqtirib qolish - simpatiya bo’lib, bunda asosan sevgi ob’yektining tashqi jozibasi rol o’ynaydi.

O’spirinlik yillaridagi muhabbat tuyg’usi nafaqat qarama-qarshi jinsga, balki ota-onaning qadrlanishi va ularga nisbatan mehr-muhabbat, o’z yaqinlari - aka-uka, opa-singil, hayotda ibrat bo’ladigan kishilarni yaxshi ko’rish, o’zi tug’ilib, voyaga yetgan Vatanini sevish kabi oliy hislar ham tarbiyalanadi.

Ta’lim tizimining barcha bosqichida, ma’naviy tarbiyaning ajralmas bo’lagi sifatida ana shunday samimiy munosabatlarni shakllantirish, mehr-oqibat, o’zaro hurmat, sadoqat kabi milliy qadriyatlarimizni singdirishimiz zarur.

Yuksak his-tuyg’ularning eng oliy darajasi **Vatan tuyg’usi** bo’lib, bu tuyg’u beg’ubor bolalikning ilk davrlaridan uning ongi va qalbiga singib boradi.

Vatan hissi - bu o’zbek xalqini sevish, ardoqlash, milliy o’zlikni anglash, qadriyatlarimizni e`tirof etishdan iborat ulkan mas’uliyat hissidir.

Shaxs–ijtimoiy munosabatlar sub`yekti va ob`yekti.

Shaxsga taalluqli bo’lgan eng muhim fazilatlardan biri, u shu tashqi ijtimoiy ta’sirlar, ya`ni ob`yektlarni o’z aqli-idroki bilan qabul qiladi, so’ngra shu ta’sirlarning sub’ekti sifatida faoliyat ko’rsatadi.

Ijtimoiy muhit — kelishuvlar, tortishuvlar, hamkorliklar, an’analar, rasm-rusum va udumlar, turli xil dunyoqarashlar olami bo’lib, undagi ko’plab ijtimoiy me`yorlarni ko’pchilik to’la, ba’zilar qisman qabul qiladi va amal qiladi.

Kishilik jamiyatidagi ushbu ijtimoiy qoidalar va normalarni qabul qilish ijobiy kechinmalarni yuzaga keltiradi, ularga bo’ysunmaslik va amal qilmaslik jamiyat tuzhilmalari va kishilar tomonidan salbiy baholanadi.

Xulosa shuki, voyaga yetib kelayotgan shaxs - jamiyatga nisbatan barcha tartib-qoidalarni qabul qiluvchi sub’ekt bo’lsa, jamiyat-ijtimoiy intizom va tartib, ma`naviyat-ma`rifat va madaniyatning mufassal ko’rinishidir.

Ijtimoiy normalar. Ijtimoiy norma - shaxs hayotidagi shunday kategoriyaki, u jamiyatning o’z a’zolari xulq-atvoriga nisbatan ishlab chiqqan va ko’pchilik tomonidan e`tirof etilgan xarakatga nisbatan talablaridir.

Ijtimoiy normalarning u yoki bu davrda, u yoki bu toifa vakili bo’lmish shaxs tomonidan qay darajada bajarilishi yoki unga amal qilinayotganligi ijtimoiy sanksiyalar orqali nazorat qilinadi.

Ijtimoiy sanksiyalar – ijtimoiy normalarning shaxs xulq-atvorida namoyon bo'lishini nazorat qiluvchi jazo va rag'batlantirish mexanizmlari bo'lib, ularning borligi tufayli biz, har bir alohida olingan vaziyatlarda ijtimoiy xulq-atvot normalarini buzmaslikka, jamoatchilikning salbiy fikri ob'ektiga aylanib qolmaslikka harakat qilamiz.

Ijtimoiy rollar. Har bir alohida olingan shaxs jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan va qabul qilingan ijtimoiy normalar va sanktsiyalarni u yoki bu ijtimoiy rollarni bajarishi mobaynida o'z xulqi va hatti-harakatlarida namoyon etadi.

Rol - shaxsga nisbatan shunday tushunchaki, bu shaxsning konkret hayotiy vaziyatlardagi xuquq va burchlaridan iborat xarakatlari majmuini bildiradi.

Ijtimoiy normalar, sanksiyalar, rollar ijtimoiy mexanizmlar sifatida shaxs xulq-atvorini ma`lum ma`noda idora etib, muvofiqlashtirib turishga yordam beradi.

10.4. "Men-siymosi" va o'zini-o'zi anglashning shakllanishi

Shaxsning o'zi, o'z xulq-atvorining xususiyatlari, jamiyatdagi mavqeyini tasavvur qilishidan hosil bo'lgan obraz «Men»-obrazi deb atalib, uning qanchalik adekvatligi va reallikka yaqinligi shaxsning barkamollik mezonlaridan hisoblanadi. «Men»-obrazining ijtimoiy-psixologik ahamiyati shundaki, u shaxs tarbiyasining va tarbiyalanganlik darajasining muhim omillaridan hisoblanadi.

O'z-o'zini anglash, o'zidagi mavjud sifatlarni baholash jarayoni ko'pincha konkret shaxs tomonidan og'ir kechadi, ya'ni, inson tabiati shundayki, u o'zidagi o'sha jamiyat normalariga to'g'ri kelmaydigan, no'maqul sifatlarni anglamaslikka, ularni «yashirishga» harakat qiladi, xattoki, bunday tasavvur va bilimlar ongsizlik sohasiga siqib chiqariladi (avstriyalik olim Z.Freyd nazariyasiga ko'ra).

Men»-obrazi asosida har bir shaxsda, o'z-o'ziga nisbatan baholar tizimi shakllanadi. O'z-o'ziga nisbatan baho, haqiqatga yaqin(adekvat), o'ta yuqori yoki quyi darajada bo'lishi ham mumkin. O'z-o'ziga baho sof ijtimoiy xodisa bo'lib, uning mazmuni va mohiyati shaxsni o'rab turgan jamiyat normalariga, shu jamiyatda qabul qilingan va e'zozlanadigan qadriyatlarga bog'liq bo'ladi.

Mustaqillik sharoitida mamlakatimiz yoshlari ongiga milliy qadriyatlarimiz, vatanparvarlik, adolat va mustaqillik mafkurasiga sadoqat xislarining tarbiyalanishi,

tabiiyki, har bir yosh avlodda o’zligini anglash, o’zi mansub bo’lgan xalq va millat ma’naviyatini qadrlash xislarini tarbiyalamoqda.

Bu esa, o’z-o’zini anglashning poydevori va muhim shakllantiruvchi kuchi sanaladi, o’z-o’zini baholash - o’z-o’zini tarbiyalashning muhim mezonidir.

Ilk o’spirinlik yoshida o’zining ichki dunyosiga nisbatan qiziqishning ortishi, uni qadriyat sifatida e`tirof etish kechinmasini yuzaga keltiradi. O’zini betakror, boshqalarga o’xshamaydigan shaxs sifatida his qilish, tevarak atrofdagi ijtimoiy voqelikning uning ko’z o’ngida gavdalanishi bilan uzviy bog’liqdir.

O’smirlik yoshida atrofdagi olamni aks ettirish quyidagicha kechadi:

- O’zining shaxsiy “Men”ini anglash(“Men kimman?”, “Men qanday odamman?”, “Mening nimaga qobiliyatim bor? ”, “Men xurmatga loyiqmanmi?”);
- O’zining xolatini anglash(“Mening hayotdan maqsadim nima?”, “Mening do’stlarim va dushmanlarim kimlar?”, “Men kim bo’lmoqchiman?”, “O’zimni va hayotimni yanada yaxshilash uchun nima qilishim lozim”).

10.5. O‘spirinlik davrida ijtimoiy faollik

Ilk o’spirinlik davriga qadam qo’ygan yuqori sinf o’quvchilarining shaxs sifatida kamol topishida yoshlar ittifoqi tizimidagi jamoat tashkilotlari alohida o’rin egallaydi. Mazkur yo’nalishda o’quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish maqsadida ularni keng jamoatchilik ishiga jalb etish, turli tanlovlar va forumlar orqali o’spirinlarda shaxsiy faollik, tashabbuskorlik, mustaqillik, qat`iyatlilik, mas`uliyatlilik va tanqidiylik singari insoniy fazilatlar tarkib topadi.

Ilk o’spirinlik yoshidagi o’quvchining, o’smirlik yoshi davridagi boladan farq qiluvchi yana bir xususiyati – murakkab shaxslararo munosabatlarda aks etuvchi burch, vijdon hissi, o’z qadr-qimmatini bilish, xis qilish va fahmlashga moyillikdir. Masalan, o’spirin yigit va qiz sezgirlik deganda nozik va nafis holatlarning farqiga borish, tez anglash, xolisona yordam uyushtirishishni, shaxsning nafsoniyatiga tegmasdan amalga oshirishni tushunadi. O’spirin o’zining kelgusidagi ezgu niyatini baholashga jamoada o’z o’rnini belgilash nuqtai

nazaridan yondashadi, ya`ni «o’zim tanlagan kasbga mos tushamanmi, uni eplay olamanmi?», «o’z vatanimga, ota-onamga munosib farzand bo’la olamanmi?», «hayotda o’z o’rnimni topa olamanmi?» kabi savollarga javob izlaydi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, ilk o’spirinlik yoshidagi o’quvchida o’zining shaxsiy fazilati to’g’risida yaqqol tasavvur hosil qilish uchun o’qituvchi unga juda moxirlik, bilimdonlik hamda ziyraklik bilan yordam berishi lozim.

Pedagog o’zining do’stona, samimiy, o’zaro hamkorlikka asoslangan iliq munosabati bilan, yuqori sinf o’quvchilari e’tiboridagi har bir fikr-mulohazasida psixologik kompetentlikka rioya qilishi, ilk o’spirinlik yoshidagi o’quvchilarda o’z kuchiga, imkoniyatiga, qobiliyatlariga ishonch hissini paydo qiladi. Ularda ustozga nisbatan chuqur hurmat, minnatdorchilik tuyg’ulari uyg’onadi.

O’spirinlik yoshidagi o’quvchida o’zini-o’zi anglash negizida o’zini-o’zi tarbiyalash istagi tug’iladi va bu ishni amalga oshirish usullari hamda vositalarini topish, ularni kundalik turmushga tatbiq qilish ehtiyoji vujudga keladi.

O’spirinlik davrida o’quvchilar o’zlarida eng qimmatli fazilatlarni, o’quv va malakalarni ongli, rejali, tartibli, izchil va muntazam tarkib toptirishga ehtiyoj sezadilar. Ma’lumki, ilk o’spirinlik yoshidagi o’quvchilar ma’naviy-psixologik qiyofaga ega bo’lish uchun oqilona o’lcham, mezon, vazifalarini bajaruvchi barkamol, mukammal timsol, namuna, yuksak orzu tasvirini qidiradilar.

O’spirinlarda ideallar bir necha ko’rinishda namoyon bo’lishi va aks etishi mumkin. Ular taniqli kishilarning qiyofalari, badiiy asar qahramonlari timsolida o’zlarida yuksak fazilatlarni (sifatlarni) gavdalantirishni orzu qiladilar.

Masalan, qizlar ko’pincha taniqli go’zal ayolning, jozibali, nazokatli, iboli, iffatli jamoat arbobining, badiiy asar yoki film qahramonining xususiyatlari mujassamlashgan qiyofalarni ideal darajasiga ko’taradilar. Ayrim o’g’il bolalar esa, taniqli qahramonlar(josus, tan soqchi, biznesmen, amaldor)ning tashqi qiyofasi, jismoniy yetukligi kabi sifatlariga taqlid qilishga ham moyil bo’ladilar.

O’spirin o’quvchilarning o’zini-o’zi tarbiyalashi bevosita sinf jamoasida jamoatchilik tashkilotlarining, pedagoglarning tarbiyaviy ta`siri va amaliyotchi psixologning faoliyat yo’nalishlari doirasida amalga oshitilishi talab etiladi, chunki

o’zini-o’zi takomillashtirish - jamoada munosib o’rin egallash, jamiyatdagi ijtimoiy burchini anglash va foydali mehnatga qiziqishga xizmat qilishi kerak.

Kuzatishlar va hayot tajribalarining ko’rsatishicha, ba’zi hollarda o’spirinlar o’zlarini qo’rqmas, jasur qilib ko’rsatishga, noo’rin xatti-harakatlarga moyil bo’ladilar, qaltis yo’llar bilan o’z irodalarini tarbiyalashga intiladilar, ba`zan o’zlarining hayotlarini xavf ostida qoldirishgacha borib yetadilar.

O’spirinlik yoshidagi o’quvchlarning yoshlar harakatiga doir jamoatchilik tashkilotlari bilan o’zaro hamkorligi, ularda jamiyat hayoti bilan hamnafaslikka intilishni kuchaytiradi, insoniylik, vatanparvarlik va o’zaro yaqinlikni oshiradi.

Ushbu xolatlarni tadqiq etgan psixolog L.I.Umanskiy ilk o’spirinlik yoshidagi o’quvchilarda tashkilotchilik qobiliyati o’zaro uzviy aloqadorlikka ega bo’lgan quyidagi tarkibiy qismlardan iborat ekanligini ta’kidlaydi:

- tashkilotchilik tuyg’usi (psixologik topqirlik, kashfiyotchilik, odob, nazokat, amaliy aql-idrokda o’z ifodasini topadi);
- tengdoshlariga nisbatan emotsional-irodaviy ta’sir ko’rsatish imkoniyati (muammolarning yechimini topishga jalb qilish, ularning kuch-g’ayratlarini birlashtitish);
- tashkilotchilik faoliyatiga moyillik (emotsional his-tuyg’u, ijobiy munosabat, faollik ko’rsatish, qat’iy qiziqish bildirish).

Takrorlash va muhokama uchun savollar:

- O‘spirinlik davrini tavsiflab bering?
- Ilk o’spirinlik davridagi ruhiy va ijtimoiy o’zgarishlar?
- O’spirinlik yoshining hayot yo‘li tizimidagi o‘rni?
- O‘spirinlik davrida ahloqiy qarashlarning shakllanishi?
- O’spirinlik yoshida aqliy taraqqiyotning kechishi?
- O‘spirinlik davrida shaxsning rivojlanish xususiyatlari to’g’risida ma`lumot bering?
- Mazkur davrda “Men-siymosi” va o‘zini-o‘zi anglashning shakllanishi?
- O‘spirinlik davrida ijtimoiy faollik namunalari?

XI bob. Yoshlik davri

- 11.1. Yoshlik ijtimoiy-tarixiy kategoriya sifatida.
- 11.2. Yosh chegaralari. Yoshlik davrida shaxsning rivojlanishi.
- 11.3. Hayot mazmuni va qadriyatlar tizimining namoyon bo‘lishi.
- 11.4. Yoshlik davrida ijtimoiy faollik.
- 11.5. Yoshlik davri inqirozi.

11.1. Yoshlik ijtimoiy-tarixiy kategoriya sifatida

Rivojlanishni(jismoniy, psixik, ijtimoiy taraqqiyot) yosh davrlariga ajratgan xolda o’rgangan ko’plab tadqiqotchilar(L.S.Vigotskiy, D.B.Elkonin, J.Piaje va boshqalar) o’spirinlik yoshi, ya`ni balog’atga yetish davrida yakunlaganlar. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, kattalar olamini aks ettiradigan yosh davrlari ham tahlil etila boshlandi, bunga bir qator omillar zamin yaratib berdi:

- Hayot davomiyligining ortishi, o’rtacha umr ko’rishning uzayishi;
- Kasbiy yetuklikka erishish davrining uzayganligi;
- Moddiy va maishiy ta`minotning yaxshilanishi tufayli ijtimiy faol hayot tarzining yuzaga kelishi, qulay yashash sharoiti;
- Ijtimoiy sohaning izchil kengayib borishi;
- Kattalar hayot tarzi va ularning oilasi bilan ish olib borish zarurati;

❖ Keksalik yoshidagi odamlarning ruhiy va ijtimoiy faolligi.

Ijtimoiy va ruhiy kamolot nuqtai-nazaridan yoshlik, asosiy va eng qadrlanadigan davr hisoblanadi. Yoshlarning hayot tarzi, faolligi, xulqi va madaniyati, butun bir jamiyatning ko'zgusi sanaladi, butun diqqat-e`tabor mazkur avlod vakillariga qaratiladi, siyosiy partiyalar, tadbirkorlar va san`at arboblari o'z yonalishlarini aynan ushbu qatlamning fikriga ko'ra belgilaydilar.

Yoshlik davri haddan ziyod quvvatga to'la yosh bo'lib, bir qator sohalarda mahorat ko'rsatish imkonini beradi, charchoq xolatlari ko'zga tashlanmaydi. Odam yoshlik davrida ijodkorlikka moyil bo'ladi, tevarak atrofni va albatta o'z-o'zini o'zgartirishga, hayotga yangicha ruhiyat bag'ishlashga qodir bo'ladi. Yosh yigit-qizlar sog'lom, kuch-g'ayratga to'la bo'ladi, har qanday ishni bajarishga o'zida kuch topa oladi, har qanday to'siq va qiyinchilikni yengib o'ta oladi, o'zlarining g'oyalarini ro'yobga chiqarish tinim bilmay mehnat qiladilar, faqat dastlabki ayrim muvaffaqiyatsizliklarni boshdan kechirish birmuncha qiyinroq kechadi.

11.2. Yosh chegaralari. Yoshlik davrida shaxsning rivojlanishi

Yoshlik davri 23-28,30 yoshlardan iborat bo'lib, bu davrning o'ziga xos xususiyatlaridan biri jamiyat hayotining barcha jabhalarida jismoniy, ruhiy va ijtimoiy kamolotga erishgan shaxs sifatida faol ishtirok etish va ishlab chiqarish sohasida mehnat faoliyatini amalga oshirishdan iboratdir.

Yoshlik davridagi mehnat faoliyatini boshqa yosh davrlaridan quyidagi uchta muhim belgisi tufayli farqlash mumkin:

- sohaning mohiyatini tushunib yetish, ishlab chiqarish shart-sharoitiga va mehnat jamoasi a`zolarining xarakter xususiyatlariga moslashish (ko'nikish) - mehnat faoliyatining dastlabki yillari(taxminan 1 yildan 3 yilgacha)da mehnat jamoasida o'z o'rnini topish va qadr-qimmatga erishish;
- mutaxassis sifatida o'zini takomillashtirish uchun ijodiy izlanishlarni amalga oshirish (mehnat faoliyatining ikkinchi pallasi 3 yildan 8 yilgacha — ish staji nazarda tutiladi) va kasbiy mahoratni egallash;
- kasbiy mahorat sirlaridan foydalanish, tashabbus ko'rsatish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda ijtimoiy yetuklikni namoyish qilish yoki mehnat

faoliyatidagi barqarorlikni ko’rsatish, bir maromda bir necha yil(10 yildan ortiq) mehnat qilish, kasbiga doir ijtimoiy faollikni amalga oshirish.

Hozirgi mutaxassislarning ko’pchiligi o’quv yurtlaridagi nazariy bilimlar bilan amaliy ko’nikmalar o’rtasida ma`lum bir uzilish mavjudligi sababli mustaqil faoliyatning dastlabki kunlaridan boshlab bir qator qiyinchiliklarga duch keladilar:

- **ijtimoiy qiyinchiliklar:** yangi va notanish muhit shart-sharoitlari, yangicha shaxslararo munosabatlar tizimi, mehnat jamoasining saviyasi, jamoadagi kishilarning xarakter hislatlari, mehnat jamoasining erishgan natijalari, qadriyatli yo’nalishlari, an`analari, ma`naviy-ahloqiy qiyofasi;
- **bilim olish va bilishga oid qiyinchiliklar:** o’quv yurtida olingan bilimlardagi uzilishlar, bilim darajasining sayozligi, ma`naviy-ahloqiy saviyaning cheklanganligi, amaliy ko’nikmalarning yetishmasligi, ijodiy izlanish faoliyatining zaifligi, tashabbuskorlikning yetishmasligi;
- **mutaxassislik bilan bog’liq o’ziga xos qiyinchiliklar:** ishlab chiqarish sohasi, yangi texnologiya, qurilmalar to’g’risidagi bilim, ko’nikma va malakalarning yetarli emasligi, kasbning iqtisodiy negizini to’la anglab yetmaslik, sohaga doir turli muammolar oldida ojizlik qilish.

Mutaxassislik bo’yicha yuzaga keladigan qiyinchiliklarni yengib o’tish davrida shaxsning bilish jarayonlarida miqdor hamda sifat o’zgarishlari ro’y beradi.

Ziyolilarda ilmiy faoliyatning o’aish dinamikasini tadqiq etgan Z.F.Esareva, uning boshlanishi matematiklarda 18-23, fiziklarda 24-27, biologlarda 25-31, psixologlarda 27-30, tarixchilarda 27-32, filologlarda 28-33 yoshlarni tashkil etishini ko’rsatib o’tadi. Yoshlarning ijtimoiy hayotdagi faol ishtirokini o’rgangan V.Shevchuk ijtimoiy faoliyatga kirishishning eng yuqori cho’qqisi 25 yosh ekanini aniqlab, ushbu holat odamlarning 45,4 foizida bo’lishini ma`lum qiladi. Uning fikricha, qolgan yosh davrlarida insonning jamoatchilik faoliyati nisbatan juda kichik birlikni tashkil qilar ekan, hatto, u 45 yoshda 3 foizga teng bo’ladi.

23-28 yoshgacha bo’lgan davrda bir qator psixik funksiyalar darajasining o’zgarishi, takomillashuvi yuz beradi, fazoviy tasavvur, bilish darajalari: diqqat va idrokning yaxlitligi ortadi, xotira, anglash va ijodiy hayol o’sib boradi.

Yoshlik davrining ilk pallasida shaxs kamolotida yuzaga keladigan ijtimoiy-ruhiy yangilanishlar

11.3. Hayot mazmuni va qadriyatlar tizimining namoyon bo‘lishi

Yoshlik davrida yigit-qizlarning shaxs sifatida ulg’ayishida quyidagi muhim psixologik mexanizmlar jiddiy ta`sir ko’rsatadi:

- **mehnat jamoasi** - mehnat jamoasidagi psixologik iqlim, ma`naviyat olami, ijtimoiy ong, ijtimoiy-ahloqiy qadriyatlar, muayyan an`analar va odatlar yangi a`zoning xarakterida ijobiy yoki salbiy o’zgarishni vujudga keltirishi mumkin. Mehnat jamoasiga yangi qo’shilgan a`zo, jamoada o’z o’rni va qadr-qimmatini qaror topishi uchun tinmsiz harakatda bo’ladi. Mehnat jamoasidagi ijti,oiy-psixologik iqlimga moslashish maqsadida ichki ruhiy ziddiyatlarga, murakkab hissiy kechinmalarga dosh berishi talab etiladi. Shaxsning xarakterini shakllantiruvchi asosiy omil mehnat jamoasidagi ijtimoiy fikr sanaladi, jamoa tartib-qoidalariga bo’ysunish har bir a`zoning burchi hisoblanadi. Ayrim hollarda ko’pchilikning tazyiqiga uchragan shaxsda mustaqil fikrlash susayib, ikkilanish. tuyg’usi paydo bo’ladi.
- **oila mikromuhiti** – yoshlik gashtini surayotgan yigit va qizlar oilaning barcha a`zolari: ota-onasi, opa-singillari, aka-ukalari, turmush o’rtog’i va

farzandlariga oqilona munosabatda bo'lishi talab etiladi. Oiladagi shaxslararo munosabatlar ko'lamining kengligi sababli, muloqot doirasi o'ziga xos tarzda kechishi zarur bo'ladi. Oilaning tinch-totuvligi va ahilligiga xalal bermaslik uchun yoshlar (kelin-kuyovlar) ba`zan o'zlarining zamonaviy qarashlaridan voz kechishlari, shaxsiy fikrlarni oilaviy qadriyatlarga uyg'unlashtirishlari lozim bo'ladi. Oiladagi dilkashlik har bir oila a`zosi uchun umumiy «til» topishga zamin yaratadi, oiladagi qulay ijtimoiy-psixologik iqlim asosiy ma`naviy omil vazifasini o'taydi.

- **norasmiy ulfatlar** – yoshlik davrida, shaxs ruhiyatiga ta`sir ko'rsatadigan omillardan biri ulfatlar davrasi hisoblanadi. Ulfatlar odatda shaxsiy mayli, qiziqishi, intilishi, orzu-istagi, maqsadi, qarashlari, yoshi va xulqi bir-biriga mos keladigan guruhdan iborat bo'ladi. Ko'ngilchanlik, do'stlar ra`yiga qarshi bormaslik tufayli yoshlar xarakterida ma`lum bir salbiy o'zgarishlar yuzaga keladi. Ayrim yoshlar mazkur yangilanishlar tufayli o'zidagi yuksak hislar, mustahkam e`tiqod, dunyoqarash, mustaqil fikrlash tuyg'ularidan voz kechadi, ya`ni «do'sting uchun zahar yut» qabilida ish tutiladi. Natijada mas`uliyatsizlik, yuzakilik, loqaydlik, ikkiyuzlamachilik singari illatlar tarkib topa boshlaydi. Shuni alohida t`akidlash kerakki, ba`zan ulfatlar davrasida tadbirkorlik va ishbilarmonlikka doir amaliy ko'nikmalarni egallash imkoniyati ham bo'ladi. Shu boisdan, o'zaro yig'inlarga faqat mehmondorchilik, kimnidir ko'nglini olish nazaridan yondashmay, uning imkoniyatlaridan foydalanishga harakat qilish ayni muddaodir.

Yoshlik davri insonning eng gullab-yashnagan, kuch-quvvatga, orzu-havasga, ijodiy rejalarga va izlanishlarga, aqliy imkoniyatlarga boy davridir. Kelajak taqdiri, mo'l-ko'lchiligi, farovonligi, qudrati, madaniyati — yoshlarga bog'liq, shuning uchun ularning istiqbol rejalari, yaratgan loyihalari, shakllanayotgan ma`naviy va ruhiy olami hech kimni befarq qoldirmasligi kerak.

Yoshlik davrining yakunlanish qismiga kelganda shaxsning o'z-o'ziga, oilasiga, kasbiga va ijtimoiy majburiyatlariga nisbatan barqaror munosabat shakllanadi, odam o'zining jismoniy, ruhiy va iqtisodiy imkoniyatlarini chamalay oladi.

11.4. Yoshlik davrida ijtimoiy faollik

Yoshlik davrida shaxs sifatida ulg'ayishning quyidagi ishtimoiy vaziyatlarini ko'rsatib o'tish mumkin:

- Yoshlik davri ishga joylashish bilan boshlanadi. Mehnat faoliyati orqali shaxs o'zining ijtimoiy-kasbiy va psixologik imkoniyatlarini ro'yobga chiqara oladi, hayotiy rejalarini amalga oshira boshlaydi;
- Ijtimoiy-kasbiy ekspektatsiya yuz beradi – mustaqil hayotga qadam qo'ygan yoshdan kutilayotgan natijalar hamda real xolat o'rtasidagi farqlar tufayli yuzaga keladigan inqirozli vaziyatlar;
- Yetakchi faoliyat – jamiyat e`tirof etgan mehnat faoliyati;
- Mehnat faoliyatini egallash va unga bogliq ravishda shakllanadigan ijtimoiy-kasbiy xulq-atvor namunalari quyidagi yangilanishlarga olib keladi:
    - Kasbiy ijtimoiylashuv;
    - Kasbiy tajriba;
    - Kasbiy muhim sifatlar;
    - Kasbiy faoliyatga nisbatan uyg'unlik.

11.5. Yoshlik davri inqirozi

30 yoshdagi inqiroz

Ushbu inqiroz dastlabki «Hayotiy rejalar yakuni» (D.Levinson). Kuchli yoki bir maromdagi stress orqali kechadi, hayot mazmunini yo'qotish va hayot zarbalariga dosh bermaslik orqali yuzaga keladi. Kasbni o'zgartirish, oilaviy ajrim, dunyoqarash va hayot falasafasini o'zgartirish orqali hal etiladi..

30 yoshdagi inqiroz belgilari:

Motivatsiyaning pasayishi va o'zgarishi;
O'zligini topa olmaslik;
Shaxsiy muammolar;
O'z-o'ziga bahoning noadekvatligi va beqarorligi;
Shaxsiy kasbiy tasavvurlarning noaniqligi;
Noadekvat hissiy reksiyalar;
Noodatiy xulq ko'rinishlari.

Takrorlash va muhokama uchun savollar:

- Yoshlik dvrining umumiy tavsifi?
- Yoshlik davridagi ijtimoiy-ruhiy yangilanishlar?
- Yosh chegaralarini izohlab bering?
- Yoshlik davrida shaxs sifatida ulg'ayish?
- Yoshlik davrida hayot tarzining kechishi?
- Yoshlik pallasida qadriyatlar tizimining namoyon bo'lishi?
- Yoshlik davrida ijtimoiy faollikning ortishi?
- .Yoshlik davri inqirozlari haqida tushuncha bering?
- . 30 yoshdagi inqirozli xolatlarni tavsiflab bering?

XII bob. Yetuklik davri

- 12.1. Yetuklikning umumpsixologik tavsifnomasi. Yosh chegarasi.
- 12.2. Yoshdan yoshga o'tishdagi muammolar.
- 12.3. Yetuklik davridagi inqirozli xolatlar.

- 12.4. Yetuk shaxs tavsifnomasi.
- 12.5. Yetuklik davrida mas’uliyat va ijtimoiy faollik sohasini kengayishi.

12.1. Yetuklikning umumpsixologik tavsifnomasi. Yosh chegarasi.

Yetuklik davrining birinchi bosqichi. Ushbu davrning dastlabki bosqichini shartli ravishda 30 yoshdan 40-45 yoshgacha olish mumkin.

Yetuklik davrida odam o’zining barcha kuch-quvvati, qobiliyati, aql-zakovati, ichki imkoniyatlarini o’z kasbiga, ijtimoiy faoliyatiga, jamoat ishlariga to’la safarbar qila oladi. Ushbu yoshda erkak va ayollarning mehnat va ijtimoiy faoliyatda muayyan tajribaga ega ekanligi, kasbiy mahorat sirlarini egallashdagi muvaffaqiyatlar sari yetaklaydi. Yetuklik yoshiga qadam qo’ygan shaxsning boshqalarga munosabati, ularni baholashida sezilarli o’zgarishlar yuz beradi. Ushbu yoshdagi kishilar faqat o’zining emas, balki boshqa odamlarning xatti-harakatlari uchun ham mas`ulligi va javobgarligini anglab yeta boshlaydi, ayniqsa, hali hayot tajribasiga ega bo’lmagan yoshlarning, o’z farzandlarining xulq-atvori, yurish-turishi, qadriyatlari uchun ham jon koyitadi, ularga imkoniyati boricha yordam berishga intiladi.

Boshqa yosh davrlaridagi kabi mazkur davrda ham muayyan darajada inqirozli xolatlar bo’ladi, bu davrda inson qanday ishlarni amalga oshirganligi, qaysi imkoniyatlardan foydalana olmaganligi, ayrim xatoliklar, tushunmovchiliklar sababli ko’ngilsizliklar vujudga kelganligini yanada teranroq anglay boshlaydi.

Shaxsning o’ziga-o’zi hisob berishi, mazkur yoshning muhim psixologik xususiyatlaridan biridir. Organizmdagi ayrim o’zgarishlar, umrning tez o’tishi kishini qattiq tashvishga va iztirobga soladi, shuning uchun bundan keyingi hayotining har bir daqiqasidan unumli foydalanishga qaror qiladi, ba`zi xollarda, ayrim orzu-istaklarini amalga oshirish uchun ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlarning yetarli emasligi uning ruhiyatida «turg’unlik» hissini yuzaga keltiradi.

Yetuklik bosqichida jismoniy, ijtimoiy va aqliy imkoniyatlardan to’laroq foydalanish ko’nikmasi paydo bo’ladi, ushbu xolat jismoniy va aqliy zo’riqish,

affektiv kechinmalar, asab tizimida ro’y beradigan salbiy o’zgarishlar hisobiga emas, balki olinga bilim, egallangan malaka va mahorat asosida ro’y beradi.

Mazkur yoshda shaxsiy hayotdagi yutuqlar yoki muvaffaqiyatsizliklar kishining ruhiy olamiga kuchli ta`sir etadi. Hayot davomida erishilgan yutuqlar girdobida ayrim kishilarda takabburlik, mag’rurlik hislari paydo bo’ladi, o’zini boshqalardan ustun qo’yish uchraydi yoki aksincha, hayot tashvivshlari ularda atrofdagi odamlar taqdiriga nisbatan loqaydlik tuyg’usini vujudga keltiradi.

Hayotiy tajribaning ortishi, oila a`zolari, tengdoshlari, mehnat jamoasi a`zolarining ijobiy ta`siri, ayrim yo’qotishlar yoki aksincha muvaffaqiyatlar orqali har ikki ko’rinishdagi ruhiy xolat asta-sekin muayyan yo’nalishga tushib oladi.

Umuman olganda, bu yoshdagi odamlar istiqbol rejasi bilan yashashga harakat qiladilar, voqelikka, turmush ikir-chikirlariga, tabiat va jamiyatdagi o’zgarishlarga befarq qaramaydilar, imkoni boricha xotirjamlik, totuvlik, tinchlik, do’stlik, dunyo ne`matlaridan oqilona foydalanish tuyg’usi bilan yashaydilar.

12.2. Yoshdan yoshga o'tishdagi muammolar

Yetuklik davrining ikkinchi bosqichi. Yetuklik davrining ikkinchi bosqichi, shartli tarzda 40-45 yoshdan 55-60 yoshgacha bo’lgan davrni o’z ichiga

oladi, mazkur davrda kishi o’zining bosib o’tgan yo’lini, hozirgi kunga qadar amalga oshirib kelgan faoliyatini qaytadan tahlil qiladi va baholaydi.

Odatda, yetuklik yoshigacha bo’lgan davrda ko’pchilik mehnat faoliyatida miqdor ko’rsatkichlariga e`tibor qaratgan bo’lsa, endilikda har bir mehnat mahsulining sifati ustida fikr-mulohaza yurita boshlaydilar. Oilaviy hayot masalalari, turmush tajribasi, insonning qadr-qimmati, jamiyatdagi o’zgarishlar, boshqa odamlar hamda o’z-o’ziga nisbatan yangi mezon orqali qaray boshlaydilar, turmushning ikir-chikirlari, ijtimoiy-psixologik hodisalarga vazmin, sabr-toqat bilan hayotiy tajribalarga suyangan holda munosabatda bo’ladilar.

Har bir voqea-xodisa yoki vaziyatning nozik jihatlarini ko’rish, taqqoslash, baholash orqali, uning salbiy oqibatlari haqida o’z fikrlarini bildiradilar. Hayotda qo’ldan boy berilgan imkoniyatlar, xato va kamchiliklar. ularda “Yetti o’lchab, bir kes” qabilida ish tutish tuyg’usini vujudga keltiradi, shuning uchun ham ular umrning biror daqiqasini behuda o’tkazilishiga achinish bilan qaraydilar, yoshlik yillarida yo’qotganlarini aql-zakovat, donishmandlik bilan to’ldirishga intiladilar.

Yetuklik davrining ikkinchi bosqichida keksayish alomatlari yanada ko’proq o’rin egallay boshlaydi, uning boshlanish nuqtasi 45-50 yoshlardir, lekin odamlarning yashash tarzi, ijtimoiy-psixologik muxit va ularning individual-psixologik xususiyatlariga ko’ra bu chegara turlicha bo’lishi mumkin. Shu sababli yosh davrining chegaralari faqat shartli ravishda belgilanadi. Mazkur omil odamlar yashayotgan oila muhitiga, tarixiy-ijtimoiy shart-sharoitga, geografik iqlim va boshqalarga ham bog’liqdir. Mazkur yosh davrining o’zgaruvchanlik xususiyatini biologik, psixologik va ijtimoiy omillarning ta`siri belgilab beradi.

Y.N.Kulyutkin o’zining kuzatishlarida, bir xil yosh davridagi odamlarda har xil fiziologik jarayonlar, ruhiy holatlar, alohida xususiyatlarning o’zgarishi baravar emas, balki ularning ayrimlarida xotiraning pasayishi, psixik jarayonlarning zaiflashuvi aniqlansa, boshqa kishilarda, aksincha, hissiy-irodaviy sohaning taraqqiy etishi, fikrlashning jadal sur`atda o’sishi mumkinligini uqtirib o’tadi.



12.3. Yetuklik davridagi inqirozli xolatlar

Yetuklik davrida ham boshqa yoshdagi singari inqirozli xolatlar uchrab turadi, nisbatan barqaror kechadigan davrlar oralig'ida yoshning ulg'ayishi, hayot mazmunining o'zgarishi tufayli yangilanishlarga ehttiyoj ko'zga tashlanadi. Yoshlik davrining yakuniy qismida yuz beradigan inqirozli xolatlar, 40 yoshda yana yuzaga chiqa boshlaydi. 40 yoshdagi inqirozli xolatlar – hayotning asl mohiyatini topishga intilish va o'z-o'ziga tanqidiy baho berishda aks etadi:

- hayot tarzi tahlil qilinadi, ahloqiy muammolar hal etiladi;
- oilaviy munosabatlardan qoniqmaslik hissi paydo bo'ladi;
- xizmat vazifasidan norozilik tuyg'usi yuzaga keladi;
- o'z hayotidan qoniqish olmaslik hissi;
- hayotiy rejalar va ularning ro'yobga chiqishi o'rtasidagi uzilishlar.

Qirq yoshda ro'y beradigan inqirozli vaziyatlar keksalikka qadam qo'yishdan havotirlanish, erishilgan mufaqqiyatlar kutilganidan ko'ra anchagina kam miqdorda ekanligi bilan izohlanadi. Ushbu yoshdan o'tgandan so'ng, jismoniy quvvatning kamayishi va aqliy faoliyatdagi topqirlikning pasayishi kuzatiladi, odam tabiatiga ko'ra, boshqalardan tez ranjiydigan, izzattalab bo'lib qoladi, yoshi ancha ulg'ayganligini chuqur iztirobga tushib his qiladi.

Keksayishning jismoniy belgilari yaqqol ko'zga tashlana boshlaydi, bu esa tashqi jozibaning yo'qolishi sifatida baholanib salbiy kechinmalarni uyg'otadi.

12.4. Yetuk shaxs tavsifnomasi

Yetuklik yoshidagi shaxsning o'z ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga intilishi, faoliyatning barcha sohalarida ma`naviy va ruhiy jihatdan o'z-o'zini anglashini yanada yuqori bosqichga olib chiqadi. Yetuklik davridagi erkak va ayollarning o'zligini anglashdagi «Men» uch xil ko'risinishda ifodalanadi: «Men» ko'pincha «Men — obraz» shaklida shaxsning o'zi tomonidan talqin qilinadi:

- Shaxsning dastlabki «Men — obrazi» retrospektiv «Men»dan iborat bo'lib, uning o'tmishdagi o'zligini aks ettiradi;
- Keyingi «Men — obrazi» hozirgi «Men» sifatida namoyon bo'ladi, shaxsning hozirgi kundagi xolatini ifodalaydi;
- So'nggi «Men — obrazi» tasavvurdagi «Men» yaqin kelajakda o'zini qanday tasavvur qilish tuyg'usi bilan bog'liq holda yaratiladi.

Shuning uchun o'z imkoniyatlarini hayotda to'la safarbar qyalish istagi ijtimoiy turmushning barcha jabhalarida o'zining "o'tmish"dagi obrazini xozirgi kundagi bilan taqqoslash, shaxsiy tasavvurdagi modelni vujudga keltiradi, shaxs mazkur modelga asoslanib, turmush rejalarini, xatti-harakatning maqsadini, usul va vositalarini tanlay boshlaydi. Insonning o'tmishidan hozirgi kunga, hozirgi kundan kelajakka intilishi, o'zini anglashning bosh mezoni hisoblanadi.

O'zligini anglashning boshqa mezonlari ham mavjud bo'lib, ular o'zini-o'zi baholash, nazorat qilish, tekshirish, qo'lga olish kabilarda aks etadi. Shaxsning o'zligini anglashi ko'pincha, o'ziga boshqa kishilarning ya`ni:

- yoshi ulug', keksalik yoshiga o'tgan odamlar,
- o'zining tengdoshlari;
- o'zidan yoshi kichik odamlar nazari orqali qarashda ko'rinadi.

Yetuklik davrining ikkinchi bosqichiga mansub kishilar bir tomondan, mavjud bilim va tajribalarini mehnat faolyati va ijtimoiy hayotning turli-tuman yo'nalishlariga safarbar etsalar, ikkinchi tomondan, olib borayotgan ijtimoiy faolliklari nisbatan susayib borishi ham kuzatiladi. Odamning keksayishi, ham

quvonchli, ham o'kinchli damlarga, iztirobli kechinmalarga, qarama-qarshi his-tuyg'ularga boyligi orqali ham boshqa yosh davrlaridan ajralib turadi.

Ko'ngil xotirjamligi, dam olish istagi va shu bilan birga ijtimoiy faoliyatdan uzoqlashish tuyg'usi o'rtasida ruhiy inqirozli vaziyatlar paydo bo'ladi, qanday qarorga kelish, ya`ni mehnat jamoasi bilan aloqani uzmaslik yoki mutlaqo ijtimoiy faoliyatdan chetlashish muayyan holatlardagi motivlar kurashiga bog'liqdir.

Hozirgi zamon kishilarining o'rtacha umr ko'rishi XX asr boshlaridagiga nisbatan qariyb bir yarim — ikki marta uzayganligi, yetuklik davridagi kishilarning jismoniy quvvati, yuksak ma`naviy-axloqiy qarashlari, ruhiyatining tetikligi ijtimoiy faollikni susaytirish haqida o'ylashga izn bermasligini ko'rsatmoqda. Ushbu yoshdagilarning ishchanligi, kasbiy mahorati, turmush tajribasi, ongining yuksakligi, ma`naviyatining boyligi, ruhiyatining sofligi yangi zafarlar, mehnat quvonchlari sari dadil qadam tashlashga to'la kafolat beradi.

12.5. Yetuklik davrida mas'uliyat va ijtimoiy faollik sohasini kengayishi

Psixofizologiyada xronologik va biologik yosh farqlanadi.

Xronologik yosh - odam yoki boshqa jonzotning dunyoga kelishi, tug'ilishidan boshlanadigan vaqtning xisobini ko'zda tutadi.

Biologik yosh - odamning jismoniy o'sishi va rivojlanish pallasi, deb e'tirof etiladi.

Taniqli sotsiolog I.S.Konnning fikricha, yosh davrlari quyidagi uch tizim asosida belgilanadi:

- individual rivojlanish qonuniyatlari (psixologik-biologik o'lchamlar asnosida yuzaga kelgan imkoniyatlar);
- jamiyatning yoshga doir talab va me'yorlari (har bir avlod vakillari uchun ijtimoiy – madaniy normalar);
- ijtimoiy, madaniy-ma'rifiy qadriyatlar sifatida e'tirof etilgan ramziy yosh (o'zaro munosabatlar, hulq-atvor, tashqi qiyofa sohasidagi ijtimoiy xolatlar yig'indisi);

“Katta odam” tushunchasini turli – tuman qirralarida talqin etish mumkin. Shaxs tushunchasi, fanda ko’pchilik tamonidan qabul qilingan ”individ” , “shaxs” , “sub’ekt”,” individuallik” kabi atamalar bilan izoxlanadi.

Individ - (lotincha, individuum-bo’linmas) – odam zotining vakili, tabiiy zotga mansublik.

Shaxs - hamkorlikdagi faoliyat va muloqot jarayonidagi ijtimoiy munosabatlar tizimida egallanadigan ijtimoiy rol egasi.

Sub’yekt - (lotincha, subectum - asosda turuvchi) – bilish va predmetli-amaliy faoliyat egasi, ongli, maqsadga yo’naltirilgan faollik manbai.

Individuallik - konkret odamning individ, shaxs, sub’yektga oid birlashuvi, o’ziga xosligi, qaytarilmasligi va betakrorligi.

Ko’p qirrali zot misolida, katta odam fizologik, ijtimoiy –psixologik va mazmundorlik jihatiga ko’ra jamiyat taraqqiyotiga o’z hissasini qo’shish qobiliyatiga ega:

- tabiiy(avlodlarni davom etirish);
- tarixiy – ijtimoiy (ishlab chiqarish va jamoatchilik faoliyatida qatnashish);
- madaniy (madaniy tajribalarni saqlash, yetkazib berish va yanada boyitish.);
- ma’naviy (insoniyat to’plagan ma’naviy merosni o’zlashtirish, uni yuksaltirish).

Kattalik dunyosini xis qilish, tabiiy va ijtimoiy olamda o’z o’rnini anglash orqali ifodalanadi, kattalikni hayot faoliyatining muhim sifati deb belgilash mumkin. Kattalik hayotning ma’lum bir davrigina emas, balki amalga oshirilgan ishlar uchun ma’suliyat va javobgarlik xissi hamdir, bunda ta’lim yoki o’qitishning o’rni beqiyos sanaladi.

Zamonaviy dunyoda axborot oqimining kuchayganligi, kishilarning o’zaro hamkorlikdagi faoliyati o’qitishni davomiy va izchil tarzda tashkil etish hayotiy zaruriyat ekanligidan darak beradi. Hayot faoliyatining turli bosqichlarida kishilarga bir – biriga o’hshash talay vazifalar yuklatiladi:

- tabiiy zot sifatida o’zini saqlashi va rivojlantirishi(hayotning davomiyligi, salomatlik, nasl qoldirish);

- ijtimoiy, madaniy, ma’naviy va faol shaxs sifatida o’zini ruyobga chiqarish(mexnat bozoriga moslashish va o’z o’rnini topa olish, madaniyatni o’zlashtirish, ma’naviy yuksalish);
- inson o’z hayoti va faoliyati davomida shunday o’zgarishlarga duch keladi-ki, mazkur holatlar barcha uchun umumiydir;
- yoshga doir muammolar (yosh inqirozlari, gormonal o’zgarishlar davri);
- ta’lim olishning almashinib borishi (bog’cha tarbiyalanuvchisi, o’quvchi, talaba va xokazo);
- oiladagi rollarning almashinuvi(bolalar, nabiralar, er –xotin, ota – ona , xola- amaki, qaynota – qaynona, bobo – buvi va boshqalar);
- ekzisentsial inqirozlar(hayot mazmunini qidirish);
- ijtimoiy, psixologik va stressli vaziyatlar(ishning o’zgarishi, boshqa joyga ko’chish, xorijga chiqish, yaqin kishilarning vafot etishi, nafaqaga chiqish va xokazo);
- ijtimoiy funktsiyalarni bajarish(armiyada xizmat qilish, xukumat idoralarida xizmat qilish);
- ahloqiy muammolarni hal etish(yaxshilik va yomonlik, mehr va muruvvat, burch xissi va boshqalar).

Yetuklik davri. ”Yetuklik” tushunchasida ma’lum bir yoshga yetish, yetuklik, turmush tajribasi, tarixiy davr mujasamlashadi, ushbu yosh yoshlik va keksalik oralig’ida, 30 yoshdan 55-60 yoshgacha bo’lgan davrni o’z ichiga oladi.

Yetuklik davrida odam o’zining barcha kuch-quvvati, qobiliyati, aql-zakovati va ichki imkoniyatlarini o’z kasbiga, ijtimoiy faoliyatiga, jamoat ishlariga safarbar eta oladi. Organizmdagi ayrim o’zgarishlar, umrning tez o’tishi kishini tashvish va iztirobga soladi. U keyingi hayotining har bir daqiqasidan unumli foydalanishga qaror qiladi. Orzu-istaklarni amalga oshirish uchun jismoniy va ruhiy imkoniyatlar yetishmasligi anglash, “turg’unlik” tuyg’usini vujudga keltiradi, bu yoshda jismoniy–aqliy imkoniyatlardan to’laroq foydalanish ko’nikmasi paydo bo’ladi, bu zo’riqish, iroda kuchi, asab taranglashuvi xisobiga emas, balki muayyan ko’nikma, malaka va mahorat asosida ro’y beradi

Takrorlash va muhokama uchun savollar:

- Yetuklik davriga umumiy tavsif bering?
- Yetuklik davridagi yosh chegaralarini ko’rsatib bering?
- Yetuklik davrining birinchi bosqichi haqida tushuncha?
- Yetuklik davrining ikkinchi bosqichidagi o’zgarishlar?
- Yetuklik yoshidagi shaxsning taraqqiy etishi haqida tushuncha?
- Yetuklik davrida faoliyatning asosiy ko’rinishlari?
- Yoshdan yoshga o'tishdagi ayrim muammolarni ko’rsating?
- Yetuklik davrida yuz beradigan inqirozli xolatlarni tasvirlab bering?
- Yetuklik yoshida “Men - obrazi”ning tavsifi?
- Yetuklik davrida biologik va xronologik yoshni izohlang?

XIII bob. Keksayish va keksalik davri



- 13.1. Keksayish va keksalik davriga umumpsixologik tavsifnoma.
- 13.2. Yosh bosqichlari va chegaralari.
- 13.3. Gerontogenezning biologik jihatlari.
- 13.4. Keksalik davrida ijtimoiy faollik tizimini o‘zgarishi.

13.1. Keksayish va keksalik davriga umumpsixologik tavsifnoma

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda tinchlik-osoyishtalik, hamjihatlik va bag'rikenglik mustahkam qaror topdi. Jamiyatimizda kattalarga nisbatan hurmat, mehr-oqibat tuyg'ulari insonlar qalbidan chuqur joy egalladi, o'tganlar xotirasini yod etish, bugun safimizda bo'lgan, el-yurt farovonligi va ravnaqi yo'lida xizmat qilib, yoshlarga saboq bergan ustozlar va piru-badavlat keksalarimizni e'zozlash insoniy qadriyatlarimizdan biriga aylandi.

Mamlakatimizning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov tashabbuslari bilan 2015 yilni mamlakatimizda "Keksalarni e'zozlash yili" deb nomlandi, shu munosabat bilan qabul qilingan Davlat dasturi doirasida urush va mehnat fayriylari, yoshi ulug' insonlarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash ko'lamini kengaytirish, tizimli asosda sog'lomlashtirish kabi hayrli ishlar amalga oshirildi.

Birinchi Prezidentimizning 2015 yil 14 aprelda qabul qilingan "Keksalarni ijtimoiy ximoya qilish va moddiy qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish

bo’yicha chora-tadbirlar to’g’risida”gi farmoni keksalik yoshidagi faxriylarimizga qo’shimcha rag’bat va juda katta ruhiy madad bo’ldi. Bugungi kunda mamlakatimizda 60 yoshdan oshganlar soni 2 million 873 mingdan ko’proq kishini tashkil etadi. Mustaqillik yillarida xalqimizning o’rtacha yoshi 1990 yildagi 67 yoshdan 73,5 yoshga, ayollar o’rtasida 75,8 yoshga yetdi. Ayni paytda yurtimizda 225 ming nafar 80 yoshdan, 44 ming nafar 90 yoshdan, 8 ming 700 nafar 100 yoshdan oshgan tabarruk otaxon va onaxonlar istiqomat qilishadi.

Keksayish davrini shartli ravishda 55(60) yoshdan 70(75) yoshgacha deb olishimiz mumkin, ya`ni aynan shu yoshdan boshlab nafaqaga chiqish, mehnat faolyatini davom ettirish yoki yakunlash masalasi hal etiladi. Bu davrdagi kishilar o’zining ijtimoiy faolligi, ruhiyati va shaxslararo munosabatlar tizimidagi maqomi tufayli boshqa yosh davrdagilardan ajralib turadi. Mazkur yoshdagilarni nisbiy ravishda ikkita katta guruhga ajratish mumkin:

- mutlaqo iste`foga chiqqan, ijtimoiy faol bo’lmagan erkaklar va ayollar;
- nafaqaga chiqqan, lekin ijtimoiy hayotning u yoki bu sohalarida faoliyat ko’rsatayotgan erkaklar va ayollar.

Ushbu yoshdagi kishilarning boshdan kechiradigan hissiy kechinmalari ularning yashash tarziga muvofiq holda namoyon bo’ladi:

- ✓ barqaror kayfiyat, xotirjamlik tuyg’usiga ega bo’lgan, o’zining qadr-qimmatini saqlay oladigan, izzattalab erkaklar va ayollar;
- ✓ osoyishta xulq-atvorli, oila muhitining sardoriga aylangan, tabiat va jamiyat go’zalliklaridan bahramand bo’layotgan, ijtimoiy faoliyatdan qariyb uzoqlashgan, qarilik gashtini surayotgan kishilar.

Mazkur yoshdagilarning ayrimlari moddiy boylik yig’ish va uni ma`naviy dunyoga uyg’unlashtirishga intilsalar, boshqalari to’plangan moddiy boylikdan qanoat hosil qiladilar, shukronalik tuyg’usini his qiladilar, qolgan umrini xotirjam, zahmat chekmay o’tkazishga qaror qiladilar. Ba`zan yuzaga keladigan inqirozli vaziyatlar mana shu omillarning ko’rsatgan ta`siri tufayli sodir bo’ladi.

Keksayish davrida organizmning zaiflashuvi, psixik jarayonlarda aks etadigan o’zgarishlarga olib keladi. Ruhiy keksayish alomatlari ayollarda ertaroq

paydo bo'ladi. Erkak va ayollar o'rtasidagi farqlar borgan sari yaqqol ko'zga tashlana boshlaydi. Bu farqlar bilish jarayonlarida (sezgi, idrok, xotira, tafakkur), ma`naviy-axloqiy sohada (fahm-farosat, hushyorlik, hozirjavoblik, topqirlik) va aql-zakovatda (bilim, tajriba, mahorat) o'z aksini topadi.

Ayollarning zaifa deb nomlanishi ham bejiz emas, chunki jismoniy zaiflikdan tashqari boshqa ruhiy kechinmalarda ham beqarorlik sezilib turadi (ko'z yoshi to'kish, qayg'uga berilish, g'am chekish, o'kinch, iztirobga tushish v.b.). Ayollarning tabiiy azoblanish xolatlari (tug'ish, bola tarbiyasi), ijtimoiy vazifalari (oila tashvishi va yumushlari, farzand tarbiyasi), mehr-muhabbatga mutojligi, nozik qalbining tashqi qo'zg'atuvchilarga tez javob berish xususiyati, qarish alomatlarining ertaroq ko'zga tashlanishiga olib kelishi mumkin (asab tizimidagi o'zgarishlar, hissiy-irodaviy zo'riqishlar, ruhiy tanglik holatlari).

13.2. Yosh bosqichlari va chegaralari

Nafaqa oldi yoshi (55 yoshdan nafaqaga chiqqunga qadar bo'lgan davr)

Rivojlanishning ijtimoiy vaziyatlari:

- Nafaqa yoshini kutish.
- Ayrim hamkasblar bir tomondan uning tezroq nafaqaga chiqishini kutadilar, boshqa tomondan esa uni qo'yib yuborishni istamaydilar.
- Ba`zan o'zini "keraksiz" buyumdek his etish, faqat "arzimagan nafaqa puli"ga yashashni ko'z oldiga keltirish yoki hali o'zining kuch-g'ayrati yetarli ekanligini, oilasini to'la ta`minlashga imkoniyati yetarli ekanligini his qilish.
- O'ziga "munosib o'rinbosar" topish va tarbiyalash.

Nafaqaga chiqish davri – bu yangi ijtimoiy rolni egallash sifatida

- **Rivojlanishning ijtimoiy vaziyatlari:**
- Dastlabki davrda eski qadrdonlar(ishdagi hamkasblar) saqlanib qoladi, lekin keyinchalik aloqalar unchalik ham ko'zga tashlanmaydi.
- Asosiy munosabatlar yaqin kishilar va qarindoshlar o'rtasida kechadi(shunga mos ravishda qarindoshlardan alohida mehr va e`tibor talab etiladi).
- Sekin-asta nafaqaga chiqqan do'stlar davrasi paydo bo'ladi, ularga ba`zan hatto yoshlar ham qo'shiladi.
- Bolalar va nabiralar bilan kechadigan muloqot.

Gerontologiya fanida XX asrning 60-yillarida taniqli gerontolog B.Strexler tomonidan ko'rsatib o'tilgan, keksayishning to'rtta asosiy mezoni ommaviylik kasb etgan:

- keksayish, kasallikdan farq qilib, universal jarayon hisoblanadi, har qanday tirik jonzot uning hukmiga bo'ysunishga majbir;
- keksayish, o'sib boruvchi uzluksiz jarayon hisoblanadi;
- keksayish har qanday tirik organizmning hossasi;
- keksayish degenerativ o'zgarishlar bilan kechadi.

XX asr boshida nemis fiziologi M.Rubner quyidagi yosh tasnifini yoqlaydi, unda keksalikning boshlanishi 50 yosh, xurmatga loyiq keksalik esa 70 yoshdan boshlanadi. 1963 yilda gerontologiya muammolariga bag'ishlangan xalqaro seminarda, odam ontogenezining kechki pallasida uchta xronologik davrni aks ettiradigan tasnif qabul qilinadi:

- o'rta yosh (45 yoshdan 59 yoshgacha);
- keksalik yoshi (60yoshdan 74 yoshgacha);
- qarilik yoshi (75 yosh va undan katta yosh). Uzoq umr ko'radiganlar alohida toifaga ajratiladi (90 yosh va undan katta yosh).

13.3. Gerontogenezning biologik jihatlari

Gerontopsixologiya(grekcha. geron(gerontos) — keksa, keksa odam) – yosh psixologiyasining tarmog'i bo'lib, keksa va qarilik yoshidagi kishilardagi psixik jarayonlarga xos bo'lgan xususiyatlarni, xulqini va shaxs sifatida ro'y beradigan o'zgarishlarni tadqiq etadi. So'nggi yillarda sinonim sifatida "psixogerontologiya" va "hayotning kechki davri psixologiyasi" atamalari ham qo'llanilmoqda.

Gerontopsixologiya umumiy va ijtimoiy psixologiya, shu bilan birga keksalik yoshidagi odamning tibbiy-biologik va ijtimoiy aspektlarini o'rganuvchi gerontologiya bilan uzviy bog'liqdir. Gerontopsixologiyaning asoschisi amerikalik olim Stenli Xoll(1846-1924) hisoblanadi, Xoll 1922 yilda keksayish jarayonini psixologik tahlil qilishga bag'ishlangan "Keksalik" asarini chop etadi.

Yosh psixologiyasining alohida tarmog'i sifatida gerontopsixologiya 20 asrning o'rtalaridan boshlab rivojlana boshladi. Gerontopsixologiyaning asosiy vazifasi, keksalarga ruhiy ko'mak berish usullari hamda vositalarini ishlab chiqish hisoblanadi, chunki keksayish yoshida ularning hayotida katta o'zgarishlar sodir bo'ladi: nafaqaga chiqish, bo'sh vaqtning ko'pligi, o'zining oldingi qiziqishlaridan voz kechish, turmush o'rtog'ining vafoti, do'stlari va yaqinlarini yo'qotish, jismoniy quvvatning kamayishi tufayli qaramlikning yuzaga kelishi, yolg'izlik hissining paydo bo'ishi va boshqalar. Keksayish tabiiy jarayon sanaladi, lekin ayrimlar undan qorquvga tushadi, qanday yo'l tutishni bilmaydi.

Gerontopsixologiya ana shunday ruhiy to'siqlarga barham berishga yordam ko'rsatadi. Aynan keksalik yoshida odamlar dunyo bo'ylab sayohatga chiqadilar, o'zlari uchun yangi taasurotlarni kashf etadilar, chunki endi ularning vaqti yetarli darajada bo'ladi. Ayrim keksalarning fikriga ko'ra, ular haqiqiy hayotni endi boshlashadi. Shunday qilib, gerontopsixologiya keksalik yoshidagi odamlarni quvonchli lahzalarga boy, to'laqonli va faol hayotga qaytaradi.

Gerontopsixologiya fanida gerontogenezning evolyutsion omillari qatoriga I.V.Davidovskiy nasliy, ekologik, biologik, ijtimoiy alomatlarni kiritadi.

D.Bromley insonning keksayish davomiyligi uchta bosqichdan iborat bo'lishini ta`kidlaydi:

- «ishdan, hizmatdan uzoqlashish» (iste`fo) 66-70 yosh;
- keksalik (70 va undan katta yosh);
- munkillagan keksalik (hasta keksalik va o'lim) -110 yosh.

I.V.Davidovskiy «Keksayish nima?" nomli asarida ta`kidlaganidek, inson 50-60 yoshga to'lgan yoki undan oshgan chog'ida yetuklikning kechikkan davriga kirib keladi. Ushbu yoshdagi odamlarni, XVIII asrdagi tengdoshlari bilan solishtirib ko'rilsa, ularning yashash va mehnat qilish imkoniyati 75 yoshgacha uzayganligini kuzatish mumkin bo'ladi.

Jamiyat taraqqiyotida inson omilining yuksalishi, hamma narsa inson manfaatlari uchun xizmat qilayotgan hozirgi davrda odam 60 yoshga to'lib, undan oshgan chog'ida keksalik davriga kirib keladi. Shu yoshdagi odamlarning yashash va mehnat qilish imkoniyati 75-80 yoshgacha uzayishi mumkin, chunki hozirgi kunda, biologik keksayish yoshi, ruhiy ulg'ayishdan ilgarilab ketgan. Bu hol aqliy mehnat bilan shug'ullangan ziyoli odamlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. I.V.Davidovskiyning fikricha, uzoq umr ko'ruvchilar asosan faol, harakatchan odamlar bo'lib, ochiq havodan erkin nafas olishni juda yoqtiradilar, organizm faoliyatiga daxldor kasalliklardan holi bo'ladilar.

G.Leman o'z tadqiqotlarida turli sohalardagi mutaxassislar faoliyatini tahlil qilib, ularning o'ziga xos xususiyatlarini atroflicha ifodalagan. Masalan, frantsuz rassomi Klod Mone 50 yoshda 86 yoshigacha ijodiy quvvatini sira bo'shashtirmay, sermahsul mehnat qilgan. Uning ijodida hech qanday tushkunlik ro'y bermagan.

Muallif hind yozuvchisi R.Tagorning ijodiyotini tahlil qilib, uning ijod cho'qqisi 69 yoshda bo'lganini aniqlagan (yozuvchilar ijodiyot cho'qqisi 34 yoshda, 43 yoshda ham uchraydi). R. Tagorning 25 yoshida yozgan «Kelin» she'ri bilan 78 yoshda yozgan «Sarob» asari o'rtasidagi o'xshashlik va ustunlik chuqur ifodalangan. G. Leman bastakor I. S. Bax (1685–1750) ijodiyotini tekshirib, uning durdona asarlari keksalikda yaratilganini aniqlagan.

Keksalik davrining yana bir xususiyati boshqa kishilarga, umuman begonalarga ham xayrixohlik bildirishdir. Ana shu yuksak insonparvarlik hissi tufayli ular yer yuzidagi jamiki inson zotiga yaxshilik tilaydilar.

Keksalarimizdagi rahmdillik, poklik, orastalik, muloyimlik, samimiylik singari tuyg'ularning ifodalanishi boshqa yosh davridagiga aslo o'xshamaydi. shuning uchun dono xalqimizda «qari bilganni – pari bilmas», – degan naql bor.

13.4. Keksalik davrida ijtimoiy faollik tizimini o'zgarishi

Keksalik davri(70-75 yosh)da muayyan biologik, psixologik va ijtimoiy o'zgarishlar yuz beradi, boshqa yosh davrlaridagi odamlardan keskin farqlanadigan xususiyatlari yaqqol ko'zga tashlanadi. Mazkur yoshdagi kishilarni jismoniy, aqliy va ijtimoiy faollikka moyil hamda faqat o'zi uchun qayg'uradigan, turmush tashvishlariga ko'nikib qolgan qariyalar guruhlariga ajratish mumkin. Shaxsning ijtimoiy faolligi, uning fahriyalar jamoasining turli-timan tadbirlarida ishtirok etishida, yoshlar bilan o'zaro ushrashuvlarda o'z ifodasini topadi.

Qarilik yoshiga o'tish bilan ayrim kishilarda foniy dunyodan umidsizlik tuyg'usi paydo bo'ladi va bu hol faollikni, istiqbol rejalarini tuzishga intilishni susaytiradi, lekin hayotdan zavq olish, «nabirani to'yini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish, ziyorat amallarini bajarish, yoshlarga hayot maktabidan saboq berish» kabi faoliyat namunalari insonni yanada tetiklashtiradi, jismoniy quvvatga ega bo'lgan qariyalar foydali mehnat bilan shug'ullanishga harakat qiladilar.

Keksalik yoshidagi yetakchi faoliyat

- O'zining kuchini turli ko'rinishlarda sinab ko'rish, "o'zligini qidirish"(nabiralar tarbiyasi, uy ishlari, yangi munosabatlar, xobbi va boshqalar).
- Ayrim nafaqaga chiqqanlar uchun – bu o'zining ish faoliyatini davom ettirish, ishlaydigan nafaqaho'rda o'zining kerakligini his qilish tuyg;usi ortadi.
- Ayrim keksalarda yoshlarga "aql o'rgatish","ularga ko'rsatib qo'yish" istagi kuchayib borishi ham mumkin.
- Ayrim nafaqaga chiqqanlar esa, o'zlari kechirgan hayot yo'lini osoyishta tahlil qilishga intiladilar (esdaliklar yozish, tajribalar bilan o'rtoqlashish, o'zaro muloqot).

Nafaqaga chiqish inqirozi

Nafaqaga chiqish – keksalik yoshida ijtimoiy maqomning o'zgarishiga sabab bo'ladigan eng muhim o'zgarish

Yangi maqomni idrok erish – atrofdagi kishilarning munosabati, iqtisodiy ta`minlanganlik, jismoniy salomatlik, ijtimoiy ehtiyojlarning qodirilishiga bog'liq bo'ladi.

Inqiroz belgilari:
odatdagi kun tartibi va hayot tarzining buzilishi;
mehnat qilish imkoniyatining cheklanishi;
moddiy ta`minotning pasayishi;
qisman yakka holdagi hayot tarzi;
biologik qarishning tezlshishi;
sog'liqning yomonlashuvi.

Takrorlash va muhokama uchun savollar:

- Keksayish yoshida kechdigan jismoniy, ruhiy va ijtimoiy o'zgarishlar haqida tushuncha bering?
- Keksalik davrining tavsifnomasi?
- Nafaqa oldi yoshidagi o'zgarishlar?
- Nafaqaga chiqqandan so'ng yuzaga keladigan o'zgarishlar?
- Yosh bosqichlarini izohlab bering?
- Gerontopsixologiyaning shakllanish tarixi?
- Gerontogenezning kechish davrlarini ko'rsatib bering?
- Keksalik davridagi ijtimoiy faollik haqida tushuncha bering?
- Nafaqaga chiqqandan so'ng yuz beradigan inqirozli vaziyatlarni tavsiflab bering?

Fan yuzasidan test savollari

1– variant

1. Davrlashtirishda yosh inqirozlarini asos qilib olgan tadqiqotchi olim?

a)D.B.Elkonin; b) L.S.Vigotskiy; s) A.N.Leontyev; d) S.L.Rubinshteyn.

2. Yoshni davrlashtirishda yetakchi faoliyatga urg'u bergan rus psixologi?

a) D.B.Elkonin; b) L.S.Vigotskiy; s) A.N.Leontyev; d) S.L.Rubinshteyn.

3. Chaqaloqlikdan go'daklik davriga o'tishda yuzaga keladigan, kattalarga qaratilgan, o'ziga xos emotsional-harakatli reaksiya bu ...?

a) shartsiz reflekslar; b) shartli reflekslar; s) jonlanish kompleksi; d) aqliy harakatlar;

4.”Jonlanish kompleksi”da nechta komponent aks etadi?

a) 2 ta; b) 3 ta; s) 4 ta; d) 5 ta;

5. Ilk bolalik davridagi yetakchi faoliyat turi(D.B.Elkonin bo'yicha)?

a) Rolli o'yinlar; b) Bevosita emotsional muloqot; s) Predmetli-harakatli faoliyat; d) Instinktiv harakatlar;

6. Go'daklik davridagi yetakchi faoliyat turi(D.B.Elkonin bo'yicha)?

a) Rolli o'yinlar; b) Bevosita emotsional muloqot; s) Predmetli-harakatli faoliyat; d) Instinktiv harakatlar;

7. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar kimga ishonadilar va kimning fikr-mulohazalariga ko'proq quloq soladilar?

a) O'z tengdoshlariga; b) Ota-onasiga; s) O'qituvchiga; d)Begona kishilarga;

8. Bolalik davrining cho'qqisi bu ...?

a) Ilk bolalik davri; b) Boqcha yoshi davri; s) Kichik maktab yoshi davri;

d) O'smirlik davri;

9. Bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga qaratilgan faoliyat turi bu...?

a)predmetli faoliyat; b) o'quv faoliyati; s) bilish faoliyati; d) o'yin faoliyati;

10. O'quvchini faoliyatga undovchi kuch bu...?

a)o'quv vazifasi; b)o'quv motivatsiyasi; s)o'quv harakatlari; d)o'quv maqsadlari;

11. O'smirlik yoshida yaqqol ko'zga tashlanadigan xulq-atvor ko'rinishlari?

a) dilkashlik, vazminlik, jamoaviylik; b) jizzakilik, xudbinlik, tanqidiylik;

s) o’quv faoliyatiga, qiziqish, ota-onani xurmat qilish; d) qiziquvchanlik, rahm-shafqat, mehribonlik;

12. Tez toliqish va charchash qaysi yosh davrida kuzatiladi?

a) Ilk bolalik davri; b) Boqcha yoshi davri; s) Kichik maktab yoshi davri;

d) O’smirlik davri;

13. O’quvchining ichki olamiga kira olish, xolatini tushunish, idrok etish bu...?

a) didaktik qobiliyat; b) perseptiv qobiliyat; s) akademik qobiliyat; d) pedagogik hayol;

14.Qushlarning issiq o`lkalarga uchib ketishi, xayvonlarning tashqi muxitga moslashishi kabi xatti – xarakatlarni qaysi tamoyil orqali izohlash mumkin?

a)dominanta tamoyili; b)ong va faoliyat birligi tamoyili; s)determinizm tamoyili; d)psixikaning faoliyatda rivojlanish tamoyili;

15.Shaxsga taaluqli bo’lgan eng muhim tasnif?

a)Shaxs-faqat tabiiy ehtiyojlariga ega bo`lgan zot; b)Shaxs-ijtimoiy munosabatlar mahsuli, ijtimoiy faoliyatga nisbatan ham ob`yekt, ham sub`ektdir; s)Shaxs-biologik zotdir; d) Shaxs-o`z faolligini jinsiy mayllar orqali belgilaydigan jamiyat a`zosi.

16. Shaxs fazilatlarining qaytarilmas birikmasi?

a) instinktlar; b) individuallik; s) ishtiyoq va qiziqishlar; d) anglanilmagan motivlar.

17. Xalq ertaklaridagi suv parisi, bulbuligo`yo, kentavr (odam boshli ot), sfinks (odam boshli sher) kabi obrazlarning yaratilishi qaysi xayol jarayoni orqali amalga oshiriladi?

a) kattalashtirish (giperbolizatsiya); b) aktsentirovka (bo`rttirish); s) agglyutinatsiya (yelimlash); d) tipiklashtirish.

18. Psixikaning reflektor tabiatini ko`rsatib bergan olimni aniqlang?

a) Rubinshteyn S.L. b) Leonty’ev A.N. s) Uxtomskiy A.V. d) Sechenov I.M.

19. Maqsad nima?

a) faoliyatning tarkibiy qismi; b) ehtiyojlarning ruyobga chiqishi; s) faoliyatning so`nggi natijasi obrazi; d)faoliyat rejasi.

20. Ixtiyorsiz diqqatning nerv - fiziologik asosini nima tashkil qiladi?

a)shartli reflekslar b) dinamik stereotip s)Tekshirish refleksi d)”Bu nima” refleksi

21.Tashqi predmetli harakatlardan ichki ruhiy(aqliy) harakatlarga o`tish jarayoni?

a) Eksteriorizatsiya; b) Ehtiyojlar; s) anglanilmagan mayllar; d) Interiorizatsiya;

22. Sezgi qanday bilish jarayoni xisoblanadi?

a) sezgi mantiqiy aks ettirish; b) sezgi narsa va hodisalarning ayrim xossalarini aks ettirish; s) sezgi miyaning alohida xossasi; d) sezgi tashqi ta`sir va belgilar timsolidir.

23. Birinchi signallar tizimi?

a) ko`rish, eshitish, hid bilish, ta`m bilish, teri-tuyish va nutq faoliyati; b) ko`rish, eshitish, hid bilish, ta`m bilish, teri-tuyish analizatorlari; s)bilish jarayonlari; d) til va nutq faoliyati,

24. Muloqot qaysi ehtiyoj turiga kiradi?

a)Tabiiy; b) Ijtimoiy; s) Madaniy; d) Ma`naviy.

25. Ehtiyojlarni qondirish bilan bog`liq, faoliyatga undovchi ichki kuch?

a) Induktsiya; b) Motiv; s) refleksiya; d) Identifikatsiya.

2– variant

1.Eng ishonuvchan va ta`sirchan yosh davri bu ...?

a) Ilk bolalik davri; b) Boqcha yoshi davri; s) Kichik maktab yoshi davri;

d) O’smirlik davri;

2. XX asr psixologiya oqimlarining yirik vakili Z.Freyd qaysi nazariya asoschisi?

a)Bixeviorizm; b)Psixoanaliz; s)Kognitivizm; d)Sotsiogenetik;

3. «Birinchi chaqoloqlik davri inqirozi» - deb boshlanadigan davrlashtirish qaysi rus psixologiga tegishli?

a) D.Elkonin; b) B.Ananyev; s)A.Petrovskiy; d)L.Vigotskiy;

4. Diqqatning qaysi turi kichik maktab yoshidagi bolalarda ustuniik qiladi?

a)ihtiyorsiz; b)ihtiyoriy; s)ihtiyoriydan so’nggi; d)tashqi;

5. “Id”-“U” ong tuzilmasida nimani anglatadi (Freyd nazariyasiga ko`ra)?

a) Jamiyat me`yorlari; b) Instinktiv(anglanilmagan) mayllar; s) Mavjud imkoniyatlar; d) Ijtimoiy tasavvurlar;

6. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning qiziqishlari qanday bo'ladi...?

a) sodda; b) beqaror; s) murakkab; d) barqaror;

7. O'smirlik davridagi yetakchi faoliyat turi(D.B.Elkonin bo'yicha)?

a) Rolli o'yinlar; b) O'quv faoliyati; s) Predmetli faoliyat; d) Tengdoshlari bilan intim-shaxsiy muloqot;

8. Kichik maktab yoshidagi yetakchi faoliyat turi(D.B.Elkonin bo'yicha)?

a) Rolli o'yinlar; b) O'quv faoliyati; s) Predmetli faoliyat; d) Tengdoshlari bilan intim-shaxsiy muloqot;

9. Ilk o'spirinlik yoshidagi yetakchi faoliyat turi(D.B.Elkonin bo'yicha)?

a) O'quv-kasbiy faoliyat; b) O'quv faoliyati; s) Predmetli faoliyat; d) Tengdoshlari bilan intim-shaxsiy muloqot;

10. "Kattalik hissi" qaysi yosh davrida yaqqol ifodalanadi?

a) kichik maktab yoshi; b) o'smirlik; s) o'spirinlik; d) yoshlik;

11. O'quvchilarga bevosita emotsional ta`sir ko'rsata olish, obro' qozona olish qobiliyati bu ...?

a) didaktik qobiliyat; b) perseptiv qobiliyat; s) akademik qobiliyat; d) avtoritar qobiliyat;

12. Fanning tegishli sohalariga oid(matematika, fizika, geografiya va boshqalar) qobiliyatlar bu ...?

a) didaktik qobiliyatlar; b) perseptiv qobiliyatlar; s) akademik qobiliyatlar; d) avtoritar qobiliyatlar;

13. Amerikalik tadqiqotchi E.Erikson inson umrini betakror nechta davrga ajratadi...?

a) 5 ta; b) 6 ta; s) 7 ta; d) 8 ta;

14.Narsa va unga xos bo`lgan ayrim xususiyatni alohida ajratib olish bu ...?

a) Analiz; b) Sintez; s)Taqqoslash; d)Abstraktsiyalash.

15. Shaxs qobiliyatning eng yuksak darajasi?

a) iqtidor; b) daholik; s)iste`dod; d)talant.

16. His-tuyg'ular eng yaqqol ifodalanadigan hatti-harakat bu ...?

a)pantomimika; b)imo-ishora; s) ohang; d)mimika;

17.Odamning asab tizimini tiplarga ajratgan olim?

a);V.Vundt; b) I.M.Sechenov; s) I.P.Pavlov; d) Rene Dekart.

18. Odamning muloqot jarayonida o'zini boshqa odamning o'rniga qo'yishi, o'zini unga tenglashtirishi nima deb ataladi?

a) Induktsiya; b)stereotipizatsiya; s) refleksiya; d) Identifikatsiya;

19. Hozirgi zamon psixologiya fani nechta tamoyil asosida o'rganiladi?

a) 3 ta; b) 4 ta; s) 5 ta; d) 6 ta;

20.Bir tirik organizmning tug'ilganidan to umrining oxiriga qadar bosib o'tgan taraqqiyot davri?

a)filogenez; b) ontogenez; s)tabiiy tanlanish; d)yashash uchun kurash;

21. Psixika yashash sharoiti bilan belgilanadi, sharoit o'zgarsa psixika ham o'zgaradi: bu psixologiyaning qaysi tamoyili xisoblanadi?

a)dominanta tamoyili; b)ong va faoliyat birligi tamoyili; s)determinizm tamoyili; d)psixikaning faoliyatda rivojlanish tamoyili;

22.Individning eng muhim belgisi?

a)sub`yekt ekanligi; b)ob`yekt ekanligi; s)ijtimoiy zotga mansubligi; d)tabiiy zotga mansubligi.

23. Birinchi bo'lib "jon va tana yaxlit bir butunlikni tashkil etadi" degan fikrni bildirgan qadimgi yunoh allomasi, "Jon haqida" traktati muallifi?

a) Platon; b)Geraklit; s)Demokrit; d)Aristotel;

24. Psixikaning eng yuksak darajasi?

a) tafakkur; b) fantaziya; s) ong; d) talant.

25. Temperament tiplarini odam tanasidagi suyuqlik(xilt)lar nisbatiga ko'ra tasnifini yaratgan alloma?

a) I.P.Pavlov; b)Gippokrat; s) Platon; d)Aristotel;

ILOVALAR

Yosh psixologiyasi predmeti

Yosh psixologiyasining o`rganish ob`ekti – ontogenezda taraqqiy etib, o'zgarib boruvchi normal, sog'lom odam xisoblanadi.
.

Yosh psixologiyasi – odam psixikasining rivojlanish qonuniyatlarini, yoshga oid dinamikasi(o'sishi)ni o'rganuvchi psixologiyaning alohida sohasidir.

Yosh psixologiyasi tarmoqlari:
- prenetal psixologiya;
- go'daklik davri psixologiyaasi;
- ilk bolalik davri psixologiyasi;
- boqcha yoshi davri psixologiyasi;
- kichik maktab yoshi psixologiyasi;
- o'smir psixologiyasi;
- o'spirinlik yoshi psixologiyasi;
- yetuklik davri psixologiyasi;
- gerontopsixologiya – keksalik psixologiyasi;

Ontogenez (grekcha. ontos – tegishli, genesis – tug'ilish, kelib chiqish) – organizmning individual rivojlanish jarayoni, hayot yo'li.

Yosh psixologiyasi fanining tamoyillari

- **Deteminizm tamoyiliga ko'ra, barcha psixik xodisalar sabab-oqibatli bog'lanish qonuniga binoan o'zaro aloqadordirlar**.
- **Tizimlilik tamoyili – psixikaning turli tomonlari, psixik sohalar orasidagi o'zaro bog'lanishlarning asosiy ko'rinishlarini tushuntirib beradi.**
- **Taraqqiyot tamoyilining ta`kidlashicha, psixika doimo o'zgarib turadi, rivojlanadi, shuning uchun psixikaning kelib chiqishi, bosqichlari va uning turlariga xos qonuniyatlarni tadqiq etish orqali o'rganish talab etiladi. Psixik taraqqiyotning ikkita yo'li mavjud: filogenetik va ontogenetik.**
- **Ong va faoliyat birligi tamoyili belgilaydi**:
- - psixik taraqqiyot va yetakchi faoliyatning o'zaro bog'liqligi;
- - bolalarni ularga ta`lim va tarbiya berish jarayonida o'rganish zarurligi;
- - bolaning psixik taraqqiyot darajasini to'la va adekvat baholash uchun, uning xulq-atvori va hatti-harakatlarini qayd etish va tahlil qilish zarurligi.
- **Ob`ektivlik tamoyili ro'ybga chiqadi**:
- - bolalarning psixik taraqqiyot darajasini taqqoslashda ijtimoiy-psixologik, tarixiy, etnopsixologik farqlar e`tiborga olinsa;
- - psixik taraqqiyot zahiralarini, ta`lim va tarbiyaning yangi usullarini tadqiq etishda tajriba va nazorat guruhlarining yuqori darajadagi ekvivalentligiga erisha olinsa.

Yosh psixologiyasida tadqiqot o'tkazish strategiyasi va usullari

Yosh psixologiyasida tadqiqot o'tkazish strategiyasi(yo'llari)	Ta'kidlovchi	Shakllanganlik darajasini aniqlash strategiyasi
	Shakllantiruvchi (genetik)	Psixik jarayonlarni shakllantirish strategiyasi
Tadqiqot usullari	Kuzatish	Amalga oshirish shartiga ko'ra /kundalik va laboratoriya/; ob`yekt bilan o'zaro birgalikdagi harakatiga ko'ra /bevosita va bilvosita/; maqsadga ko'ra /maqsadga muvofiq va tasodifiy
	Tajriba	Laboratoriya tajribasi oldindan tayyorlab qo'yilgan sharoitda, maxsus uskunalardan foydalangan holda o'tkaziladi, sinaluvchining harakatlari yo'riqnoma orqali belgilanadi; Tabiiy tajriba odatdagi shrt-sharoitlarda o'tkaziladi. U A.F.Lazurskiy tomonidan taklif etilgan.
	Testlar	To'gri, aniq javobni ko'zda tutuvchi testlar (aqliy taraqqiyot darajasini, qobiliyatlarni o'lchovchi intellekt testlari...); aniq javobi ifodalanmagan testlar (shaxsga, uning alohida xususiyatlariga oid testlar, proyektiv testlar...); verbal va noverbal, ochiq va yopiq testlar, test-so'rovnomalar.
	Faoliyat samaralarini tahlil qilish	Rasmlar, aplikatsiyalar, qurish-yasash, musiqiy, adabiy-badiiy ijodkorlikni tahlil qilish.
	Taqqoslash	Egizaklar metodi shaxs psixik

		taraqqiyotida irsiyat, muxit va ta`lim-tarbiyaning rolini tadqiq etadi; madaniyatni tadqiq etish metodi turli etnik madaniyat vakillari bo'lgan yosh avlodning psixik taraqqiy etish xususiyatlarini aniqlash va taqqoslashni ko'zda tutadi.
Tadqiqotni tashkil etish chizmasi	Uzunasiga kesmalar metodi (longityud tadqqiqotlar)	Muayyan bir kishilardagi psixologik o'zgarishlarni uzoq muddat mobaynida tadqiq etishni nazarda tutadi.

Bolalik – beg'uborlik davri!

Ota-onaning bolaga yondashuv usullari

- Antik davrlarda erkak va ayol o’rtasida farzand tug’ilsa, unga deyarli befarq qarash, ya’ni, infantitsid munosabat kuzatilgan, bunday munosabat mohiyatan shafqatsizlikka asoslangan bo’lib, bolani dunyoga keltirganlar uchun uning nasl-nasabi, taqdiri unchalik ahamiyatli bo’lmagan.

Bolalik …?

- Bolalik – individning ontogenetik taraqqiyot bosqichi xisoblanib, uning tug’ilganidan to kattalar hayotiga qadam qo’yishgacha bo’lgan davrini o’z ichiga oladi.
- Bolalikda go’daklik, ilk bolalik, boqcha yoshi va kichik maktab yosh davrlari farqlanadi.
- Bolalik - biologik, ruhiy va ijtimoiy yetuklik sari yetaklovchi o’smirlik va o’spirinlik davrlariga o’z o’rnini bo’shatib beradi.

Psixologik lug’at

Tadqiqotlar

- Antik davrning yirik mutafakkiri Aristotelda ham, bolalarga bag’ishlangan fikrlar uchraydi.
- Bolalik davrining tarixan kelib chiqishi haqidagi nazariy masalalar P.P.Blonskiy, L.S.Vigotskiy, D.B.Elkonin, A.N.Leontyev kabi olimlarning ishlarida yoritib berilgan.
- Bolalarning ruhiy taraqqiy etish qonuniyatlari haqida V.Shtern, J.Piaje, N.Muxina, M.Lisina va boshqa bir qator tadqiqotchilar ham yozib qoldirishgan.

XIX asr

XIX asr adabiyoti ishchilarsinfi vakillarining farzandlari “bolalik davri”ni boshdan kechirmaganligi haqida guvohlik beradi.

Masalan Angliyadagi ishchilar sinfini o’rgangan F.Engels, 1833 yilda Angliya parlamenti tomonidan fabrikalardagi mehnat sharoitini tadqiq etgan komissiya xulosalaridan misol keltiradi: bolalar 5-6 yoshdan mehnat qilishni boshlardilar, yana ham ko’proq 7 yoshdan, lekin kambag’al ota-onalarning deyarli barcha bolalari 8 yoshdan mehnat qilishgan; ularning ish vaqti 14-16 soatgacha davom etgan.

Filipp Ariyes

- Filipp Ariyesning ishlari tufayli chet el psixologiya maktablarida “bolalik davri”ga qiziqish ancha ortdi.
- Filipp Ariyesni turli tarixiy davrlarda rassomlar, yozuvchilar va olimlar ongida “bolalik” tushunchasi qanday o’rin egallaganligi qiziqtirar edi.
- Uning tasviriy san`at sohasidagi tadqiqotlari shunday xulosaga olib keldi: XIII asrgacha san`at umuman bolalar obraziga murojaat etmagan, rassomlar ularni tasvirlashga ham urinishmagan ekan.

Musavvirlik san`atida bolalar obrazi

XIII asrdagi musavvirlar ijodida bolalar obrazi faqatgina diniy-allegorik lavhalarda uchraydi.

O’sha davrlarda bola shaxsi tan olinmagan, chunki bolalar tabiati va o’ziga hos xususiyatlari haqidagi bilimlar yetarli emasdi.

“Bolakay, kichkintoy” so’zi hozirgi kundagi darajada ahamiyat kasb etmasdi. Shunisi ajablanarli-ki, masalan, Germaniyada “bolakay” so’zi “ahmoq” so’zining sinonimi xisoblanar ekan.

Bolalik davriga befarqlik

- Bolalik tez o’tib ketuvchi va uncha qadrli bolmagan davr sifatida e`tirof etilardi.
- Bolalik davriga nisbatan befarq munosabat, F.Ariyesning fikricha, o’sha davrdagi demografik vaziyat oqibatida yuzaga kelgan.
- O’sha davrlarda tug’ilish ko’rsatkichlari juda yuqori va bolalar o’limi ko’p edi.



«Uchlik»

Bolalikka nisbatan befarq munosabatning o’zgarishi

Agar bolalarga nisbatan befarq munosabatning o’zgarishini musavvirlarning ijod namunalari orqali ko’rib chiqsak, XVI asrga kelib ayrim rassomlarning asarlarida bolalar portreti paydo bo’la boshladi.

Albatta ular, shoxning oila a`zolari, yaqinlari va zodogan bolalarining portretlari edi.

Bolalik davrining ochilishi XIII asrga to’g’ri kelsa, san`at asarlarida aks etishi XIV-XVI asrlarga, lekin yorqin va to’laqonli ifodalanishi XVI asr oxiri va XVII asrni qamrab oladi.

BOLALIK - PSIXOLOGIK TADQIQOTLAR PREDMETI SIFATDA

Bolalik – anatomik-fiziologik, ijtimoiy-psixologik jihatdan balog'atga yetishgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi; Ushbu davr bolaning shaxs sifatida ulg'ayish, uning kishilik jamiyatining haqiqiy a'zosiga aylanish davri xisoblanadi.

F.Ariyes, insoniyat tarixi davomida olimlar,yozuvchilar va rassomlar tasavvurida bolalik tushunchasi qanday shakllanganligi hamda u turli tarixiy davrlarda bir-biridan farq qilganligini o'rgangan.

D.B.Elkoninning etnografik ma`lumotlariga asoslanib ko'rsatishicha, bolalik davri ularni ijtimoiy ishlab chiqarish tizimiga bevosita qo'sha olmaslik davrida yuzaga keladi.

L.S.Vigotskiy.
Madaniy-tarixiy psixologiya negizida bolaning rivojlanishini o'rganish – bolaning bir yosh pog'onasidan ikkinchisiga o'tishini, har bir yosh davrida shaxsdagi o'zgarishlarni o'rganish demakdir.

Bolalar psixologiyasi – solishtirma psixologiya tarmog'i sifatida 19 asr oxirlarida dunyoga keldi.
Bolaning ruhiy taraqqiyotini o'rganishga doir tadqiqotlarga V.Preyerning "Bola qalbi" kitobi keng yo'l ochib berdi.
Unda Preyer o'z qizining psixik rivojlanishini kundalik kuzatuv natijalari asosida yozib boradi va asosiy e`tiborni sezgi organlari, xarakatlar tezligi, iroda, fikrlash hamda tilning rivojlanishiga qaratadi.
V.Preyer bola hayotining ilk davrlarini o'rganadi va bolalar psixologiyasida ob`yektiv kuzatishni amalga oshiradi.

Rus fiziologi I.M.Sechenovning yozishicha, psixologiyani psixik jarayonlarning kelib chiqishi va rivojlanishini o'rganuvchi fan sifatida
e`tirof etish mumkin.
Psixologiyaga genetik(naslga oid) tadqiqotlar o'tkazish g'oyasi ancha oldin kirib kelgan.
Umumiy psixologiya muammolari bilan shug'ullangan taniqli psixologlar, bir vaqtning o'zida bolalar va genetik psixologiya bilan shug'ullanishgan.

Yosh psixologiyasining nazariy asoslari

Rekapitulyatsiya (lotincha.Rekapitulatio–takrorlash) biologiyada–ontogenetik taraqqiyotda filogenetik taraqqiyotning ayrim shakl va belgilarini qayta takrorlanish xodisasi. Rekapitulyatsiya xodisasining kashf etilishi Ch.Darvin nazariyasini asoslab berishda katta ahamiyatga ega bo'lgan.

REKAPITULUATSIYA NAZARIYASI
Stenli Xoll (1846-1924)
Amerikalik psixolog, pedologiya va eksperimrntal psixologiyaning amerika maktabi asoschisi, bolalar va pedagogik psixologiya sohasiga doir bir qator ishlar muallifi, mazkur tadqiqotlarda u turli yoshdagi bolalar uchun yaratilgan so'rovnoma natijalaridan foydalangan.

Manbalar:
Ch.Darvin ta`limoti.
Ushbu ta`limotda taraqqiyot, muayan bir qonuniyatga asoslanadi degan g'oya ilgari surilgan. Keyingi barcha psixologik nazariyalar bolaning rivojlanish qonuniyatlarini topishga bag'ishlangan.
G.Gekkel, rekapitulyatsiya xodisasiga ko'ra, biogenetik qonunni ishlab chiqqan.
«Ontogenez – filogenezning qisqacha takrorlanishidir».

S.Xoll
Biogenetik qonunni bolaning ontogenetik taraqqiyotiga to'g'ridan-to'g;ri ko'chirgan.
Bola o'z rivojlanishida insoniyatning taraqqiyot bosqichlarini qisqacha takrorlaydi.
• bolalar rasmi insoniyat tarixidagi tasviriy ijod bosqichini aks ettiradi.
• o'yin – rudimentar funksiyalarni tugatishga qaratilgan mashqlar xisoblanadi.

S.Xollning rekapitulyatsiya nazariyasi.

Tadqiqotning asosiy predmeti	Bola psixik rivojlanishining qonuniyatlarini topish
Tadqiqot metodlari	Anketa, bolalarning rasmlari va ibtidoiy odamlarni solishtirish, bolalar o'yini va ulardagi qo'rquv xissini tahlil qilish
Asosiy tushunchalar	Rekapitulyatsiya, oyin, ontogenez, filogenez, pedologiya
Asosiy g'oyalar	Bolaning psixik taraqqiyoti insoniyatning ijtimoiy kelib chiqishi(sotsiogenez)ni qisqacha takrorlaydi; bolaning xulq-atvor shakllari, irsiyatga asosan almashinib boradi
Rivojlanish omillari	Biologik omil, instinktlarning yetilishi
Tanqidiy fikrlar	Tadqiqot metodlarining introspeksiyaga yaqinligi, o'xshatishlarning yuzakiligi, afsonaviy ruh, o'ta keng umumlashtirish
Qimmatli jihati	Odamning individual va tarixiy taraqqiyotining o'zaro bog'liqlik muammosining qo'yilishi; bolaning psixik taraqqiyotiga oid, taniqli bo'lgan birinchi nazriya

ME`YORIY YONDASHUV
A.Bine bolalar psixologiyasida testologik va me`yoriy yondashuv asoschisi

A.Bine bolalarga tushunchalarni aniqlash vazifasini qo'ydi va shu orqali tafakkurning rivojlanish bosqichlarini eksperimental tadqiq etdi. Tirli yoshdagi(3 yoshdan 7 yoshgacha) bolalarning javoblarini umumlashtirib, bolalarda tushunchalar o'sishining uchta bosqichini ajratdi.
Har bir bosqich muayyan bir yoshga yo'g'ri keladi. A.Bine aqliy taraqqiyotning ma`lim bir me`yorlari mavjud degan xulosaga keldi, rivojlanishdan ortda qolayotgan bolalarni aniqlash metodini ishlab chiqdi, 3 yoshdan 18 yoshgacha bolalarning intellektual rivojlanishini tashxis qilish uchun testlar yaratdi.

A.Binening ko'rsatishicha, intellekt darajasi tug'ma qobiliyat bo'lib, insonning butun hayoti mobaynida doimiylikni saqlab qoladi. Intellektual norma koeffitsiyenti 70% dan 130% gachani tashkil etadi.
Aqliy taraqqiyotdan orqada qolgan bolalarda bu ko'rsatkich 70% dan past, iqtidorli bolalarda esa, 130%dan yuqori boladi.

MEYORIY YONDASHUV (A.Gezzel)

Bolaning tug'ilgan davridan to o'spirinlikkacha bo'lgan psixik taraqqiyotini tashxis qilishning amaliy tizimini ishlab chiqqan, u ruhiy taraqqiyotning meyoriy va patologik shakllarini taqqoslashga oid tekshiirishlarga asoslanadi

A.Gezzel (1880-1961) – tibbiy va pedagogik ma`lumot olgandan so'ng 30 yil Yel psixoklinikasida ishlagan, uning asosida "Bolalar rivojlanishi bo'yicha Gezzel" instituti tashkil etilgan

Bolaning moslashuvchi reaksiyalari, ijtimoiy aloqalari, nutq motorikasining o'sishi, yoshga doir o'zgarishlar haqida foto lavhalar

Kuzatishlar ob`ektiv bo'lishi uchun Gezzel tomonidan birinchi marta "GEZZEL OYNASI" (yorug'likni yarim o'tkazuvchi oyna) qo'llanilgan.

- Bolaning tug’ilganidan ikki yoshgacha bo’lgan davridagi harakat faolligi va ijtimoiy xulq-atvorini qayd etuvchi 3200 ta rasmlar to’plami ishlab chiqilgan.(klinik amaliyotda keng qo’llaniladi).
- Gezzel bolalarning rivojlanishiga oid umumiy qonuniyatlarni topishga harakat qilgan.

Yosh o’tishi bilan taraqqiyot sur`atlari pasayadi!

metodlar

Psixologiyaga bolaning tug’ilganidan to o’smirlik yoshigacha bo’lgan davridagi ruhiy taraqqiyotini longityd o’rganish metodini kiritgan. Ruhiy taraqqiyotni o’rganishning ko’ndalang va uzunasiga kesma metodlaridan foydalangan, asosiy e`tiborni organizmda ro’y berayotgan miqdor o’zgarishlariga qaratgan.

Monozigotali egizaklarni o’rgangan va birinchilardan bo’lib, balog’atga yetish davrini tahlil etishda xizmat qiluvchi egizaklar metodini qo’llagan.
Normal taraqqiyotning xususiyatlarini chuqurroq tushunish uchun, ko’zi ojiz bolaning psixik taraqqiyotini tadqiq etgan.

L.Termenning me`yoriy yondashuvi (1887-1956)

1916 yilda A.Binening testlarini amerikalik bolalarda sinash orqali standartlashtirdi, undagi shkalalarni kengaytirdi va aqliy qobiliyatlarni o'lchash uchun testlarning yangi variantini ishlab chiqdi.

•L.Termen INTELLEKT KOEFFITSIYENTI (IQ) tushunchasini kiritdi va faktlar asosida uning butun umr mobaynida doimiy xolatini saqlab qolishini asoslashga harakat qildi.
•Testlar yordamida u, qobiliyatlarning normal taqsimlanish egri chizig'ini qo'lga kiritdi.
•Intellektning yoshga, jinsga, nechanchi farzandligiga, irqiy belgilarga, oilaning ijtimoiy-iqtisodiyo'rniga, ota-onalarning ma`lumotiga bog'liqlik darajasini aniqlashga oid bir qator tekshirishlar o'tkazdi.
•Psixologiyada eng uzoq davom etgan longityd tadqiqotlardan birini o'tkazdi, ushbu tadqiqot qariyb 50 yil davom etdi.

- IQ=140 va undan yuqori bo'lgan 1500 ta iqtidorli bola tanlab olindi va ularning rivojlanishi kuzatib borildi.
- Tadqiqotlar 70-yillarning o'rtalarida L.Termenning vafotidan so'ng nihoyasiga yetkazildi.
- «Daho» - atamasi, sog'lom, aqliy darajasi yuqori, ishchan qobiliyatga ega bo'lgan va ta`lim sohasida boshqalarga qaraganda yuksak natijalarga erishgan kishilarga nisbatan qo'llanilgan!



- A.Gezzel va L.Termen bolalar psixologiyasining fan sifatida shakllanishiga katta xissa qo'shishdi.

- Ular yoshga oid o'zgarishlarni izohlashda, asosiy diqqat-e`tiborni irsiy omilga qaratishadi.

A.Gezzelning balog'atga yetish nazariyasi

Tadqiqotning asosiy predmeti	Bolaning tug'ilganidan to jinsiy balog'atga yetguniga qadar kechadigan, ruhiy taraqqiyotining mazmuni va sur`ati
Tadqiqot metodlari	Kuzatish (maxsus jixozlangan binoda foto va kino kameralar orqali), testlar, ota-onalar uchun so'rvnmalar, longityud, sog'lom va bemor bolalarning, egizaklarning rivojlanishini o'zaro taqqoslash.
Asosiy tushunchalar	Balog'atga yetish, rivojlanish, xulq-atvorning o'sishi, taraqqiyotning bir maromda kechishi, o'sish (rivojlanish) tezligi.
Asosiy g'oyalar	Psixik taraqqiyotning asab tizimiga bog'liqligi, psixik taraqqiyot sur'atining notekisligi, psixik taraqqiyotni nazorat qilish zarurati.
Taraqqiyot omillari	Biologik omil, organizm balog'atining genetik jihatdan belgilanishi (preformizm)
Tanqidiy yondashuv	Rivojlanishning biologik asoslariga nisbatan urg'u berilishi - «empirik evolyutsionizm» (L.S.Vigotskiy), me`yorlarni mutloqlashtirish, bir yosh davrida olingan ma`lumotlarni, qolganlariga ham birdek tatbiq etish.
Qiymati	Psixologik tadqiqotlarga yangi metod va metodikalarning joriy etilganligi. Kuchli empirik manba. Bolalik davrini chuqur tahlil etilishi. Balog'atga yetish jarayoniga katta e'tibor qaratilishi.

BOLALAR RIVOJLANISHINING 3(UCH) BOSQICHI

Karl Byuler (1879-1963)

Nemis-avstriya psixologi. Vyurtsburg maktai vakilii. Birinchi jahon urushidan so'ng, psixik rivojlanish muammolarini ishlab chiqdi va bolalar rivojlanishining uch bosqichli konsepsiyasini ilgari surdi

Taraqqiyot zinapoyalarining paydo bo'lishi quyidagi xolatlar bilan bog'liq:

- **Miyaning yetilishi va tashqi olam bilan o'zaro aloqadorlikning murakkablashishi;**
- **Harakatlar orqali QONIQISH HISSIni boshdan kechirish, affektiv jarayonlarning rivojlanishi;**

K.Byuler bola psixikasini zoopsixologik tajribalar orqali o'rgangan

YOSH

Psixologik yosh, L.S.Vigotskiyning ko'rsatishicha, - bolaning psixik rivojlanishi o'z tuzilishi va kechishi orqali belgilanadigan nisbatan yopiq bosqich sanaladi.

Xronologik yosh yoki pasport yoshi – bu bolaning psixik rivojlanishi, uning shaxs sifatida ulg'ayib borishini tashqi omillar asnosida xisoblashni nazarda tutadi.

K.Byulerning uch zinapoya nazariyasi

Tadqiqotnong asosiy predmeti	Psixik taraqqiyot qonuniyatlari, bola psixikasining rivojlanish bosqichlarini ajratish(instinkt, dressura, intellekt)
Tadqiqot metodlari	Zoopsixologik tajriba
Asosiy tushunchalar	Instinkt, dressura, malaka, intellekt, funksional qoniqish, dastlabki taasurotli qoniqish.
Asosiy g'oyalari	Xayvonlar psixikasining evolyutsion qonuniyatlarini bola psixik taraqqiyotiga ko'chirish. Bola psixikasini, xayvon va madaniylashgan katta odam psixikasini bog'lab turuvchi qism sifatida e`tirof etish. Rivojlanishda emotsiyalarning o'rni.
Taraqqiyot omillari	Preformizm, irsiyat.
Tanqidiy yo'nalishlari	Biologik yondashuv – odamning o'ziga xos rivojlanish yo'lini inkor etish, bolaning imkoniyatlarini cheklash.
Qimmatli tomoni	Rivojlanish g'oyasining mavjudligi, bola rivojlanishini o'rganishda tajriba usulining qo'llanilishi.

V.Shtern(1874-1938)ning KONVERGENSIYA NAZARIYASI

Psixik taraqqiyot – tug'ma xislatlarning oddiy aks etishi va tashqi ta`sirlarni oddiy idrok etish emas. Bu hayotning tashqi shart-sharoitlari bilan, organizmning ichki imkoniyatlari konvergensiyasi natijasidir, bunda irsiy omil yetakchi o'rinda turadi. Muxit, irsiyat orqali belgilangan psixik xususiyatlar va xislatlarning ro'yobga chiqishini tezlashtiruvchi yoki tormozlovchi omil sifatida qayd etiladi.

• Konvergensiya nazariyasi psixik taraqqiyotni, irsiyat va muxit ta`siri ostida yuzaga keladigan jarayon sifatidae`tirof etadi.
• Zamonaviy psixologiyada keng tarqalgan nazariyalardan biri.
• Barcha zamonaviy nazariyalar psixik taraqqiyot masalasiga, Irsiyat va tashqi muxitning o'zaro aloqadorligi nuqtai-nazaridan yondashadilar.

Tajribaning xulqqa ta`sir ko'rsatish modellari Dj.Vudvill qarashlari bo'yicha)
«Bemor koykasi» – sub`yekt muxit ta`siri ostida yordamga muhtoj patsiyent bo'ladi.
«Luna(Oymoma) park» - sub`yekt ko'ngil ochar mashg'ulotni tanlaydi, lekin ularni o'zi istagandek o'zgartira olmaydi.
«Suzuvchilar musobaqasi» – sub`yekt deyarli tashqi qo'zg'atuvchilarga qaramasdan o'z yo'lida davom etadi.
«Tennis koptogi» - sub`yekt va tashqi muxit o'rtasida doimo o'zaro birgalikdagi harakat amalga oshiriladi.

Yosh davrlari psixologiyasida hal qilinishi muhim ahamiyat kasb etadigan masalalardan biri – sub`yektning rivojlanish jarayonidagi faolligi muammosi xisoblanadi.
Rivojlanish jarayoniga turli omillarning ta`sir ko'rsatishi, bola rivojlanishining senzitiv davrlarini o'rganishga bo'lgan qiziqishni yuzaga keltirdi.

V.Shternning ikkita omil konvergensiyasi nazariyasi

Tadqiqotnong asosiy predmeti	Psixikaning rivojlanishi.
Tadqiqot metodlari	Kuzatish.
Asosiy tushunchalar	Zehn, irsiyat, iqtidor.
Asosiy g'oyalari	Bola rivojlanishining bosqichlari, tafakkur, nutqning rivojlanishi va bola psixik taraqqiyotining boshqa tomonlari.
Taraqqiyot omillari	Irsiy va tashqi omillar konvergensiyasi.
Tanqidiy yo'nalishlari	Irsiyatning rolini oshirish, muxit tashqi omil sifatida oldindan berilgan tuzilmaga o'z ta`sirini ko'rsatishi mumkin.
Qimmatli tomoni	Shaxsning yaxlitlik tamoyili. Rivojlanishning tashqi va ichki omillarining o'zaro bir-biriga ta`siri, o'zaro birgalikdagi harakati.

Bola rivojlanishining psixoanalitik nazariyasi

Psixoanaliz davolash metodi sifatida yuzaga kelgan, lekin keyinchalik psixologik faktlarni to'plash vositasi deb qabul qilingan, bu esa butun bir oqim , yo'nalish va tizim uchun asos bo'lib xizmat qilgan.

Asosiy xolatlar:

- Katta yoshdagi shaxsning kasalliklari, bolalikda bochdan kechirilgan hissiy kechinmalar bilan bog'lanadi;
